O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI KAFEDRASI

“Jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim samaradorligini oshirishning ilmiy-uslibiy asoslari: muammo va yechimlar”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2025-yil 26-27-aprel

«Научно-методические основы повышение эффективности образования в сфере физической культуры и спорта»

Республиканская научно практическая конференция 26-27 апрель 2025

“Ziyo nashr-matbaa” XK

Guliston-2025

UO‘K: 37.013:796.011.3(06)
KBK: 74.00+75.1
J 67

“Jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim samaradorligini oshirishning ilmiy-uslibiy asoslari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya[Matn] / O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat pedagogika instituti. –Sirdaryo: Ziyo nashr-matbaa, 2025. – 664 b.

Ushbu konferensiya to‘plamida 2025-yil 26-27-aprel kunlari Guliston davlat pedagogika instituti tomonidan tashkil etilgan “Jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim samaradorligini oshirishning ilmiy-uslibiy asoslari: muammo va yechimlar” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim – izlanuvchilar, magistrlar, bakalavr va umumta’lim maktab o‘qituvchilari, shuningdek barcha tadqiqotchilar foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

Tahrir hay’ati:

Rais: J.X.Karshibayev, rektor, b.f.d., professor.

A’zolar:

N.A.Ayaqulov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor.

A.A.Qalandarov **–** O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor.

J.K.Komilov – Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor.

D.Yu.Samadova – Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.

Sh.T.Norqulov – Pedagogika fakulteti dekani.

Sh.T.Saribayev – “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi mudiri.

B.Ergashev – “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti

F.J.Karimov–“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

E.A.Bolbekov–“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

p.f.n., dotsent J.K.Komilov.

p.f.b.f.d.(PhD), dotsent A.A.Taniberdiyev.

Konferensiya to‘plamiga kiritilgan maqolalarning mazmuniga mualliflar javobgardir.

ISBN 978-9910-641-34-3

© Guliston davlat pedagogika instituti, 2025.
© «Ziyo nashr-matbaa» 2025

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sport sohasini zamon talablari asosida jahon andozalariga to‘laqonli javob beradigan tarzda rivojlantirish masalasi hukumatning ustivor vazifalaridan hisoblanadi. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohani rivojlantirish, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilash maqsadida, uni manzilli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirda, nafaqat an’anaviy jismoniy tarbiya vositalari va usullari bilan yosh avlodni harakat faolligini an’naviy ko‘rsatkichlarini aniqlash, balki, ular tanasini kasbiy jihatdan muxim bo‘lgan adaptatsion xususiyatlarini, rivojlanish darajasi va sifatlarini salomatlik darajasi bilan aniqlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda yurtimiz sportchilarning jahon va osiyo chempionatlarida, yirik xalqaro turnirlarda faxrli shoxsupa pog‘onalaridan joy olib, Vatanimiz shuxratini jahon hamja’miyati oldida tarannum etib kelishi ushbu farmon va qarorlarning maxsulidir.

Institutimizda o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjuman “Jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim samaradorligini oshirishning ilmiy-uslibiy asoslari: muammo va yechimlar”ga bag‘ishlangan bo‘lib, yurtboshimizning yuqorida aytilgan bir qator hujjatlar doirasida olib borilayotgan amaliy tadbirlardan biridir.

Tashkil etilgan anjuman jismoniy tarbiya va sport sohalariga qo‘llanilishi, o‘qitish jarayonlarida erishilgan natijalarni umumlashtirish hamda ommalashtirishni shuningdek, mavjud muammolar yechimiga qaratilgan tadqiqotlarni tahlil qilishni maqsad qilib olgan.

Anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman!

Guliston davlat pedagogika instituti rektori

J.H.Karshibayev

1-SHO‘BA. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI TA’LIM JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

O‘QUVCHLAR JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

F.K Axmedov JDPU professori , A.T. Quvondikov - JDPU o‘qituvchisi,
S.F.Kuldashev - JDPU mustaqil tadqiqotchisi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida xam jamiyat a’zolarining jismoniy yetukligi va salomatligi masalasi eng dolzarb masala bo‘lgan va bugungi kunda ham bu masala asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki jamiyat a’zolarining jismoniy jihatdan salomatligi jamiyatni har tomonlama taraqqiyotini, turmush farovonligini oshirishga, ma’rifat va ma’naviyatni rivojlantirishga, davlat kuch qudratini oshirishga xizmat kiladi. Ta’lim va tarbiya tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan jismoniy madaniyat ta’limi jamiyat a’zolarining har tomonlama barkamolligini va faolligini ta’minlashda o‘ziga ahamiyatga ega. Buni inobatga olgan holda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport ta’limi asosida aholi jismoniy madaniyatini oshirishga alohida etibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston prezidenti Sh.M. Mirziyoevning qator farmon va qarolarini misol keltirish mumkin. Jumladan, Prezidentining 2024- yil 15 -noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” №-392 qarori bu borada muhim ahamiyatga ega. Ushbu qarorda maktabda jismoniy tarbiya darslarini o‘qitishni yanada rivojlantirish, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy mahorati va malakasini oshirish bo ‘yicha o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida maktab sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, 2025/2026- o‘quv yilidan boshlab DTS asosida 5-11–sinflar uchun o‘qituvchilarga mo‘ljallangan o‘quv metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kabi qator ustivor vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, joriy yilning 13-fevralida Prezidenimizning Olimpiya va parolimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish ,ommaviy sportni yangi boskichga olib chiqish yuzasidan o‘tkazgan vedioselektor yig‘ilishida ham soha vakillari va mutasaddilarga topshiriqlar asosida katta vazifalar belgilab berildi.

Ushbu farmon va qarorlarning va Davlat rahbari tomonidan berilayotgan topshiriqlarning mazmunidan kurinib turibdiki mamlakatimizda barcha sohalardagi kabi jismoniy tarbiya va sportda ham demokratik yondashuv va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g‘oyalarga holda ish tutilmoqda.Vaholangki dunyo jismoniy tarbiya va sporti tarixiga oid ma’lumotlarga murojaat qilinganda ba’zi

davrlarda undan noto‘gri maqsadlar yo‘lida ham foydalanganlar. Masalan, quldorlik davrida quldorlar qo‘llarning ustidan hukmronlikni kuchaytirish va ularni doimiy ravishda o‘zlariga bo‘ysundirish maqsadida, quldorlargina maxsus jismoniy mashqlar bilan mukammal shug‘ullanganlar. Shuningdek, ba’zi agressiv xususiyatga ega davlatlar,yoki ayrim jamiyatlar boshqalar ustidan hukmron bo‘lish, bosqinchilik qilish maqsadida harbiylashtirilgan jismoniy tarbiya tizimini joriy etganlar. Aslida jismoniy madaniyatning jamiyatdagi maqsadi faqat insonparvarlikka va umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qilishga qaratilgan. Muammoga qaratilgan masalalarga murojaat qilish asnosida, avvalombor, bor sohaga oid asosiy tushunchaga ta’rif berishni lozim topdik. Mutaxassislar (L. P. Matveev, B.A.Ashmarin, O.Yu. Masalova, S.D.Neverchuk, R.Abdumalikov, X,Rafiyev, I.S.Barchukov, A.Abdullaev, F.K.Axmedov v.b) tomonidan berilgan tariflar, sohaga oid mavjud lug‘atlar va ensiklopediyalardagi ma’lumotlarga tayandik va jismoniy madaniyat tushunchasiga nisbatan quyidagi xulosaga keldik. Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib u jismoniy tarbiya,sport, sport faoliyati, sport musoboqalari, jismoniy tayyorgarlik , jismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiya va sport ta’limi uning vositalari, metodlari,sport inshootlari,sport jihozlari jismoniy tarbiya va sport tizimi kabi sohaga oid barcha tushunchalar va faoliyat turlarini qamrab oladi. Shuning uchun ham biz mazkur masala yuzasidan olib boradigan fikr mulohazalarimizni o‘quvchilar jismoniy madaniyatini rivojlantirish muamolariga qaratdik. Shu o‘rinda dunyoda aholi, yoki ma’lum bir kontingentning jismoniy miadaniyatini rivojlanganlik darajasi quyidagi ko‘rsatgichlar asosida belgilanadi:

1. Sport inshootlarining mavjudligi va ularning holati.

2. Aholining turmush tarziga jismoniy tarbiya va sportning singdirilganlik darajasi.

3. Sport musoboqalaridagi erishilgan natijalar.

4.Aholining salomatlik darajasi kabi ko‘rsatgichlar belgilangan hudud va butun bir mamalakatda jismoniy madaniyatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi.

Mamlakatni har tomonlama rivojlanishi sifatli ta’lim asosida amalga oshiriladi. Aholi jismoniy madaniyatini rivojlantirish ham bevosita jismoniy madaniyat ta’limni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan o‘z yechimini topadi. Vaholangki hozirgi vaqtda deyarli butun dunyoda bolalar va yoshlar amaldagi ta’lim tizimida o‘qiydi tarbiyalanadi belgilangan bosqichlarni bosib o‘tadi va voyaga yetadi. Bizning mamlakatimizda xam zamonaviy talablar asosidagi ta’lim tizimi yo‘lga

qo‘yilgan va u bolalar va yoshlarni to‘liq kamrab olgan. Bu tizim o‘z ichiga maktabgacha,umumiy o‘rta ,kasb- hunar va oliy ta’lim,oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlarini qamrab oladi. Har bir ta’lim tizimi bosqichi jismoniy madaniyati o‘ziga xos vazifalarni amalga oshiradi. Tadqiqot jarayonida qator ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlil etildi. Shu bilan birgalikda, ba’zi rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimida jismoniy madaniyatning maqsad vazifalari amaldagi maktabgacha va boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiyasi tajribalari uchun ham aynan maktabgacha va boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiyasi tahlil etildi. jumladan:

Rossiya federatsiyasida maktabgacha va boshlang‘ich sinflar jismoniy madaniyati o‘quv dasturiga asosan kuyidagi maqsad vazifalarni amalga oshiradi. - bolalarni jismoniy mashqlarga va sog‘lom turmush tarziga ijobiy va faol yondashuvini shakllantirish -bolalarda jismoniy madaniyatga ongli ravishda qiziqishi va sog‘lom turmush tarziga ijobiy yondoshuvini shakllantirish; -bolalarni dastlabki harakat ko‘nikmalarini, harakatlar koordinatsiyasini, qadd-u- qomatni to‘g‘ri tutishni, turli sport o‘yinlari va musoboqalarida ishtirok etishga intilish, ularni tashkilotchisi bo‘lish va belgilangan tartib-qoidalarga amal qilish odatlarini shakllantirish. -jismoniy mashqlar va turli o‘yinlar jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilishga doir dastlabki tushunchalarni shakllantirish.

Xitoy xalq Respublikasida jismoniy tarbiya tizimida maktabgacha yosh dagi bolalarni maktabga tayyorlashda quyidagilarga asosiy e’tibor qaratilgan: - Yosh xususiyatiga ko‘ra jismoniy rivojlanishning asosiy bosqichi bo‘lgan davrga tayyorlash; - bolaning ijtimoiy sifatlarini shakllantirish (qat’iyatlilik,to‘g‘ ri so‘zlik, javobgarlik hissi, haqiqatguylik, o‘zaro hamkorlik qilish v.b) - jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga qiziqishini va faol turmush tarzini kechirishni shakllantirish; - zaruriy harakat malakalarini rivojlantirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha dastlabki tushunchalarni berish.

Yaponiya jismoniy tarbiya tizimida kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi quyidagi vazifalarni bajarishini zarur deb hisoblaydi; - hayotiy zarur harakatlarni rivojlantirish ; - aqliy rivojlantirish; - atrof- muhitga va odamlarga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish; - umumiy tartib- qoidalarga katiy amal qilishga o‘rgatish;

Finlandiyada maktabgacha yoshdagilar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifasi: -bolalarni asosiy va zaruriy harakat malaka ,ko‘nikmalariga moslashtirish, takomillashtirish, bolalarni jismoniy mashqlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, - bolalarda jismoniy tarbiya va sportga ongli yondoshuvini shakllantirishdan iborat. Ko‘rinib turibdiki yuqoridagi mamlakatlarda maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich

sinf o‘q‘uvchilariga jismoniy madaniyatning asosiy fundamental bilim ko‘nikma va amallari berilishi nazarda tutilgan.

O‘rganilgan ma’lumotlarga ko‘ra dunyoda aholi jismoniy faolligi darajasi, Germaniya, Yaponiya,Xitoy,Finlandiya kabi davlatlarda yuqori. Aynan mana shu davlatlarda aholining shifokorlarga va formakologik mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoji ham bizga nisbatan o‘ta past darajada. (JSST ning bergan ma’lumotlaridan olingan ma’lumot).

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ushbu mamlakatlarda ukuvchilarga yetarli darajada jismoniy talim berilgan. Jismoniy talim olgan shaxs albatta sogligini jismoniy mashklar bilan mustahkamlab borish yo‘llarini biladi va ongli, maqsadli ravishda umri davomida muntazam jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanadi. Har bir shaxsning salomatligi butun mamlakat salomatligini tashkil etadi. Prezidentimiz aytganidek “Sog‘lom inson – sog‘lom millat“ umummilliy harakatini ta’lim tizimining boshlangich bugunlaridan yangilangan ukuv dasturlari asosida boshlash kelgusida uzining yukori darajadagi ijobiy natijalarini beradi. Buni kuyidagi formula asosida ko‘rsatish mumkin: Jismony ta’lim +jismoniy tarbiya = Sog‘lom turmush tarzi. Sport ta’limi +Sport tarbiyasi= Natija (Yuqoridagi formulaning ilmiy asoslangan ma’lumotlari alohida taqdim qilishi rejalashtirilgan) O‘zbekistonda ham maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy madaniyatining o‘ziga xos maqsad vazifalari mavjud, ammo bu tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy aniq maqsad vazifalarini belgilab olish zaruratdan holi emas. Chunki mamlakatimizda ta’lim tizimi tubdan isloh etilishi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim tarbiyasiga qo‘yilayotgan talablar ham yangicha bo‘lishini taqozo etmoqda. Albatta, takomillashtirilgan zamonaviy jismoniy madaniyatni joriy etishda shu davrgacha orttirilgan tajribalar asosida shakllantirilishi va rivojlantirilishi maqsadga muvofiq . Ta’lim tizimi jismoniy madaniyatining keyingi bosqichlarida ham o‘ziga xos maqsad vazifalari belgilab berilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya uzluksiz ravishda amalga oshiriladi.(tizimning keyingi bosqichlarining maqsad vazifalari muammolari yuzasidan aloxida malumotlar beriladi). Jismoniy madaniyatning talim tizimidagi o‘rni va vazifalari va uning ahamiyatini naqadar muhimligini anglagan holda ish yuritish o‘zining samarali natijalarini beradi. Mavjud ta’lim tizimi davomida jamiyatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olingan. Shunday ekan jismoniy madaniyatni ushbu tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15 -noyabrdagi №-392 qarori .

2.Axmedov F.K. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi .T.: 2020 -yil 317 bet. Darslik .

3.Ashmarin B.A. Teoriya i metodika pedogogicheskix issledovaniy v fizicheskom vospitanii.Moskva 2003 yil.224 str. Monografiya.

4.Барчуков И.С. Теория методика физического воспитания и спорта. Учебник. М.: 2021. 365 с

5. Guriev S.V.Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya s praktikumom (detey doshkolnogo i mladshegro shkolnogo vozrosta) Moskva 211 str. Uchebnik.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li - Guliston davlat universiteti
v.b.dotsenti, p.f.f.d (PhD)
e-mail: hudojberdievgijosiddin@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qitish prinsiplari haqida batafsil so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: valeologiya, kompetentlik, valeologik kompetensiya, sog‘lom turmush tarzi, gigiyenik tarbiya, sog‘liqni saqlash.

Развитие валеологических компетенций у будущих учителей на основе философских взглядов восточных мыслителей

Аннотация: В статье подробно рассматриваются педагогические условия формирования валеологических компетенций у будущих учителей и принципы преподавания в образовательном процессе, направленные на формирование валеологических компетенций.

Ключевые слова: валеология, компетентность, валеологическая компетентность, здоровый образ жизни, гигиеническое воспитание, сохранение здоровья.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish va zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimini yaratish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ta’limning ustuvor vazifalari esa yangi avlod kadrlarini o‘z sohasining mutaxassisi qilib yetishtirish va jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini faol tatbiq etish jarayonida shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Shunga ko‘ra, “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarorida aynan mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasiga urg‘u berilgan (VMQ, 2021). Ushbu qonunda davlatimizda kasbiy kompetensiyalarini baholashni talabgorlar va ish beruvchilar o‘rtasida ommalashtirish, kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalar milliy tizimining rivojlantirilishida hamda kasbiy standartlarning ishlab chiqilishida eng ilg‘or xorijiy tajriba va ilmiy hamjamiyat takliflari qo‘llanilishining ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

Zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar munosabati bilan “kompetensiya” va “kompetentlik” so‘zlari yangi tusga kirdi. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq ifodalashda N.A.Muslimov, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya,John Raven, Robert White, Richard Boyatzis, Lothar Reetz va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar.Turli xil izohli lug‘at va ilmiy adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari turlicha izohlanadi. Ularning ma’nosini to‘g‘ri anglash va tushunish maqsadida quyidagi lug‘atlarga e’tiborimizni qaratdik:

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da keltirilishicha: “kompetensiya” (lot. Competo–erishyapman, munosibman, loyiqman) demakdir [2; 226-b].

Rus tili lug‘atida “kompetensiya”ga shunday izoh berilgan, [lot. competo – erishyapman; munosibman, loyiqman], 1. qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan muayyan organ yoki mansabdor shaxsga berilgan topshiriq; 2. muayyan sohadagi bilim, tajriba bilimli, qobiliyatli, malakali bo‘lish negizidagi “kompetensiya” so‘zining kelib chiqishi chuqur o‘tmishimiz tarixiga borib taqaladi [3: 512-b].

O‘zbek xalqining asriy an’analari, jumladan, ta’lim-tarbiya sohasidagi yutuqlari ajdodlarimizning tabarruk o‘gitlari bilan bog‘liq. Temuriylar renessansi davrlarida jahon sivilizatsiyasiga bebaho ilmiy-madaniy va ma’rifiy hissa qo‘shgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom Termiziy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlariga ega o‘zbek xalqining kundalik turmush jarayonlari, jumladan,ta’lim masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ijod, ilm-fan, insoniylik, halol mehnat, oliyjanoblik va bag‘rikenglikka undovchi ulamolar hozirgi kunga qadar O‘rta Osiyoda ta’lim-tarbiya va taraqqiyotning ma’naviy asosi bo‘lib kelgan.

“Kompetensiya –bu ta’lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Kompetensiyaviy bilim yoki ko‘nikmaga tushmaydi; kompetentlik –bu olim yoki o‘qimishli odam bo‘lishni anglatmaydi”. Kompetensiya va ko‘nikma o‘rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko‘nikma –bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya –xatti-harakatlar, ko‘nikmalarning kuzatuvlaridan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko‘nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Kompetensiya mahorat, harakatni kuchaytiradi. Kompetensiya ongli faoliyat natijasida shakllanadi. Davlat ta’lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya’ni, bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar belgilab qo‘yilgan. Ularga asosiy kasbiy ta‟lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali erishish mumkin. Dasturning variativ qismi ta’lim muassasasining, mintaqaning o‘ziga xosligini, hududdagi ish beruvchilarning aniq kasbiy kompetensiyalarni egallagan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini aks ettirish imkonini beradi [4: 120-b].

Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati, Sharq mutafakkirlarining valeologik kompetentlikni shakllantirishning mavjud holati yoritilgan.

Jamiyatning ijtimoiylashuv jarayonlarida yosh avlod ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Zero, yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Jamiyatning sog‘lomligi esa o‘sib kelayotgan yosh avlodning yuqori darajada sog‘lom turmush madaniyatiga ega bo‘lishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, agar jamiyatda mavjud barcha institutlar tomonidan bolalar ma’naviy va jismoniy salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan shart-sharoit yaratilsa, o‘sha jamiyatda yashab, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yuqori darajaga ko‘tariladi.

Yurtimizda azal-azaldan odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilgan. Sharq allomalari, olimu mutafakkirlar qadimdan adab ilmini chuqur o‘rganib, rivojlantirib kelishgan. Ayniqsa, har taraflama go‘zal odobli, yaxshi xulqli va hayoli bo‘lishga, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz bu sohada ulkan o‘zgarishlar sababchisidir. Hadislarda, allomalarning o‘gitlarida inson ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan odob-axloq va tarbiyaning barcha jihatlari o‘z ifodasini topgan.

Har bir insonning o‘zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e’tibor berish zarurligi haqida buyuk sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulubek, Yusuf Xos Hojib ham o‘z zamonlarida qimmatli fikrlarini alohida qayd etib o‘tganlar.

Har bir yosh uchun jismoniy koʻrsatkichlar mutlaq emas, ular nisbiy xarakterda boʻlib, ijobiy rivojlanish tendentsiyasini saqlab, turli xil tarixiy rivojlanish davrlarida oʻzgarib turadi. Ushbu koʻrsatkichlarga quyidagilar kiradi: bolaning oʻsishi, vazni, koʻkrak hajmi, mushaklarning kuchi, qobiliyatlari va boshqalarni aytish mumkin. Oʻsmir yoshni rivojlantirishning pedagogik mezonlari tarbiya, ta'lim va tarbiya imkoniyatlarini tavsiflaydi, inson hayotining turli davrlarida aqliy, mafkuraviy, siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya imkoniyatlarini belgilaydi. Inson rivojlanishining yosh davrlarini ajratish uchun anatomik, fiziologik, jismoniy, psixologik va pedagogik koʻrsatkichlar majmui qoʻllaniladi. Ba'zi koʻrsatkichlar ushbu yosh davrida yetakchi hisoblanadi, boshqalari esa zanjir singari bogʻliq boʻlib turadi. Oʻquv faoliyati insonning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy fazilatlarini shakllantirish mazmuni hamda xususiyatlarini belgilaydi. Sharq mutafakkirlari asarlari va tarixiy-ilmiy manbalarda olgʻa surilgan yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun talab etiladigan insoniy fazilatlarni quyidagicha izohlash mumkin: ota-onalarga sogʻlom fapzand dunyoga keltirish boʻyicha maslahatlar; komil inson tarbiyasida yosh xususiyatlarini hisobga olish; diniy va dunyoviy bilimlarni egallash; oliyjanob boʻlish, pokiza yurish, oila va vatan oldidagi burch va vazifalarning ustunligiga erishish, ezgulikka xizmat qilish.

Ar-Roziy odamlami falsafiy turmush tarzi talablarida yashashga undaydi, ayrim kishilarga xos salbiy axloqiy sifatlar: ortiqcha ehtiros, injiqlik, jahldorlik, yolgʻon soʻzlash, hasad, ochkoʻzlik, qaygʻu, mechkaylik, ichuvchanlik kabilarni qattiq qoralaydi. Falsafiy yashash tarzi tushunchasini ilmiy asoslab beradi.

Ar-Roziy fikricha, faylasuf olim hayotda adolatparvar, insonparvar, ishi bilan soʻzi bir kishilar boʻlishlari lozim. Ular odamlarga muomala madaniyatini oʻrgatishda oliyjanoblikning ustunligini, badxulqlikning boshga lalokat keltirishini lushuntirishlari, yaxshilikka undash, halol mehnat qilish farovon va sogʻlom turmush kechirishning asosi ekanligini anglatishlari lozim deb ta'lim berdi.

Ahmad Yassaviy fikricha, oʻz nafsining boshini yanchgan kishining gʻururi va qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi. Shu bois, "Hikmatlar' bizga yashash tarzimizni adashmasdan toʻgʻri belgilab olishimizda, koʻproq ezgu savob ishlar qilishimizda, oʻz mohiyatimizni anglab yetishimizda koʻmak beradi. Nafsni jilovlay bilish inson qalbini tozalaydi va tiniqlashtiradi, odamlami toʻgʻri yoʻlga boshlaydi. Sogʻlom nafs insonni hayvoniy ehtiroslarga berilib ketishdan saqlaydi, jismonan mustahkamlaydi, uning quvvatini oshiradi, ogʻir kasalliklardan asrab, insonning ma'naviy yuksalishiga olib keladi. Sogʻlom nafs - sogʻlom turmush tarzining muhim belgisidir. Nafsni tiya bilmaslik inson qalbini xiralashtiradi, toʻgʻri yoʻldan ozdiradi. Nafsga berilish insonni tubanlashtiradi, oqibatda uni halok etadi.

Abu Ali ibn Sinoning inson salomatligiga qo‘ygan gigiyenik talablari “Sog‘liqni saqlashga doir risola” deb nomlangan asarida bayon qilingan. Kitobning maqsadi inson tanasiga zararli ta’sir etuvchi holatlarni, uning turmush tarzidagi xatolarni to‘g‘rilash orqali bartaraf etilish usullarini bayon qilishdir, deb yozadi muallif. Kitobning birinchi maqolasida ushbu xatolar va ularni muvozanatlashtirish choralari haqida o‘z fikrlarini bildiradi. Kitobning alohida maqolalarida havo, uning turli holatlari-musaffoligi, namligi, quruqligining inson organizmiga ta'sirini bayon qilib, ulardan himoyalanish usullarini ko‘rsatadi. U uzoq turib qolgan havo ham, harakatdagi havo ham organizm uchun zararlidir, deb ko‘rsatadi. Hammomlar to‘g‘risidagi maqolasida hammomga qo‘yiladigan gigiyenik talablarga to‘xtaladi. Hammomga to‘yib ovqatlangan holda kirish organizmga katta xavf tug‘dirishi, shuningdek, uzoq muddat davomida cho‘milish, ortiqcha va kuchli uqalashning zarari. ayni paytda hammomdan so‘ng biroz vaqt sot' havoda sayr etishning foydali ekanligini bayon qilgan. [5:16-20-b].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hozirgi kunda yurtimizda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda, kasbiy kompetensiya masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning “kasbiy kompetensiya”si deganda, o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini tinmay boyitib borishi va yangi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yishi, ya’ni davr talablarini his etishi hamda o‘z amaliy faoliyatida to‘g‘ri qo‘llay olishi tushuniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentyabrdagi VMQ-616-son “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Elektron resurs: https://lex.uz/docs/5664463.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, –T.: 2008. 8 tom. B-26.
3. Новая иллюстрированная энциклопедия. Кн. 5. Кл –Ма. –М.: Большая Российская энциклопедия, ООО “ТД Издательство Мир книги”, 2007. –512 с.

O‘ZBEK TILINING UMUMIY LUG‘ATLARIDA SPORT TERMINLARINING IFODALANISHI

Aslonova Sabina Akmal qizi - Navoiy Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti, Sport faoliyati(Kurash)yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Sport tilida xalqaro termin elementlariga aylangan grek-lotin morfemalari kelib chiqishiga ko‘ra standart termin elementlari rolida ishtirok etishi tahlillangan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida sport terminlarining qo‘llanishi borasidagi tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Zamonaviy o‘zbek tilida qo‘shimchalar lug‘atni to‘ldirishning juda samarali vositasi ekanligi asoslangan. Ayniqsa, sport terminologiyasi sohasiga ko‘proq e’tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: Izohli lug‘at, atama, termin, kurash, elementlar, yiqitish, kurashish, qo‘shma so‘zlar, affeks, leksik, semantik.

Аннотация: В данной статье анлизируется участие греко-латинских морфем, ставших международными терминологическими элэментами в языке спорта, в качестве стандартных терминологических элэментов. Проведен анализ исследований, посвященных употреблению спортивных терминов в толковом словаре узбекскогоязыка.Обосновано, что современные узбекские аффиксы являются весьма эффективным средством пополнения словаря. Особое внимание уделено области спортивной терминологии.

Ключевые слова:Толковый словарь, термин, борьба, элементы, бросок, поединок, сложные слова, аффиксы, лексика, семантика.

Sport tilida xalqaro termin elementlariga aylangan grek-lotin morfemalari kelib chiqishiga ko‘ra standart termin elemenlari rolida ishtirok etadi. Ushbu atamalar Yevropaning aksariyat qismida, shu jumladan o‘zbek tilida qabul qilinadi. Shuni ta’kidlashimiz mumkinki, sport terminologiyasida ham inglizcha so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Lug‘ati, ayniqsa, qo‘shma so‘zlar tarkibida, o‘zbek tilida tobora ko‘proq uchraydi: “darvozabon”-“gandbol”. Ushbu o‘zlashmalar bilan bir qatorda o‘zbek tilida ularning ekvivalentlari mavjud- sintagma atamasi “ qo‘l to‘pi” yoki bitta leksema “darvozabon”. Terminlarning vazifasi faqat semantik tahlil bilan chegaralanmaydi. Atamalarning muammosi-shu jumladan, sport terminologiyasi turli tomonlardan ko‘rib chiqilishi kerak. Genetik (terminologiyada nutqning bir qismi) dan boshlab leksiko-semantik va so‘zlash jihatdan ko‘rib chiqilishi kerak. Maxsus nomlarni shakllantirish jarayonida atamalarni shakllantirish haqida gap ketganda, atamalarni shakllantirish hodisasini tayyor standart elementlar yordamida ajratish kerak, ular allaqachon mavjud modellar asosida shakllanishning morfologik usuli (affiksatsiya) yordamida hosil bo‘lganda ma’lum bo‘ladi.

Kurash.Yiqitish, g‘olib chiqish uchun ikki kishi o‘rtasidagi, ma’lum kelishuvga asoslangan olishuv, o‘zaro bellashuv. “U kurashda raqibini yonboshga olib otgan, lekin raqibi tikka tushib, o‘zi yonboshga olingan kishining ahvoliga tushib qoldi.”

Maxsus sport lug‘atining umumiy tizimida juda ko‘p kichik tizimlar mavjud. Deyarli har bir sport professional yo‘naltirilgan leksik birliklarning o‘zi quyi tizimiga ega. Ko‘pgina sport turlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilganligi sababli, turli xil sport turlarining tegishli leksik quyi tizimlari ham bir-biri bilan juda kam o‘xshashliklarga ega va biz nafaqat leksik birliklarning tarkibi, balki ularni yaratish tamoyillari, manbalari, rivojlanishi va boshqalar haqida ham gaplashamiz.Boshqa tomondan, ko‘plab sport turlarining leksik quyi tizimlarining kesishishi, qoida tariqasida, umumiy o‘ziga xoslik va kelib chiqishga ega.

Sport terminologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, tegishli ilmiy, texnik va o‘quv fanlari (biomexanika, psixologiya, pedagogika, gigeyena , fiziologiya, avtomobilsozlik, geodeziya, tibbiyot, biokimyo) bo‘yicha ko‘plab tushunchalarni o‘z ichiga oladi, ixtisoslashgan adabiyotlarda va kasbiy aloqada keng qo‘llaniladi.

Sport terminologiyasi kasbiy faoliyatning tor sohasini tavsiflovchi sifatida leksik, so‘z shakllanishi va sintaktik darajadagi bir qator differensial xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Sport terminosistemasining belgilarini sanab o‘tamiz:

1)Sport terminologiyasi eng faol va tez –tez ishlatiladigan terminologiyalardan biridir. Sport terminologiyasi maxsus sport adabiyotlarida ham ixtisoslashtirilgan eshittirishlarda ham, boshqa ommaviy axborot vositalarida ham, asosan, metaforik ma’noda keng qo‘llaniladi.

2)Sport terminologiyasi turli xil bilim sohalaridagi ko‘plab tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Bu bizga sport terminologiyasiga tarmoqlararo aralashuvning chuqur jarayonlari haqida gapirishga imkon beradi. Diaxronik aspektda sport atamalari bo‘lgan so‘z va iboralarning tarqalishi bir xil darajada katta. Ulardan ba’zilari bugungi kunda paydo bo‘ladi (fitness, cheerleading), boshqalari o‘rta asrlardan (qilichbozlik) yoki antik davrdan (shaxmat) kelib chiqqan.

3) Umumiy adabiyotlar lug‘atdan ozgina farq sport terminologik birliklarining umumiy adabiy lug‘at bilan yaqin aloqalaridan kelib chiqadi, unda jamoa, mudofaa, mag‘lubiyat, o‘yin , jihozlar, tezlik, tepish, jerk, surish, yugurish va boshqalar kabi so‘zlar mavjud, ya’ni sport terminologiyasining rivojlanishi boshqa faoliyat sohalarida terminologiyaning rivojlanish yo‘lini takrorlaydi.

So‘zning ma’nosini aniqlashtirish. Biror so‘zning ma’nosini aniqlashtirish orqali biror leksik birlikka tugatilganda beriladigan ilmiy aniqlik, konkretlikni nazarda tutamiz. Shu bilan birga, atamaning ma’nosi umumiy adabiy so‘zga

nisbatan hech qanday maxsus o‘zgarishlarga duch kelmaydi, chunki ular tomonidan belgilangan tushunchalarning tengligi saqlanib qoladi.

So‘zning ma’nosini toraytirish. So‘znin ma’nosini toraytirish orqali biz anglatilayotgan tushuncha doirasining torayishi tufayli uning ma’nosi konkretlashgan leksik birlikning atamashunoslik jarayonini nnazarda tutamiz.

Metaforik ko‘chirish orqali so‘z ma’nosini o‘zgartirish. Ushbu turdagi munosabatlar ko‘plab terminologiyalarda keng tarqalgan. Bu yerda so‘z semantikasining o‘ zarishi ushbu tushuncha va ilgari ishlatilgan tushuncha o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik tufayli so‘zni yangi tushunchani namoyon qilish uchun ishlatish natijasida yuzaga keladi. Metaforik ko‘chirishga asos sifatida so‘z ma’nosidagi ma’lum bir sema aktuallashib, dominantlashib boradi.

Ko‘rib turganimizdek, determinologizatsiya sport lug‘atini o‘zlashtirish jarayoni sifatida tavsiflanishi mumkin-umumiy nutq sohasiga professional nom qo‘yilgandagina. Shunday qilib, biz sport atamalarining umumiy nutq kontekstiga kiritilishi baholovchi, ekspressiv ma’nolarining paydo bo‘lishiga olib kelishini va shuning uchun ular bilan aloqada bo‘lgan matn va leksik birliklarning uslubiy ranglanishiga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.I.A.Karimov. O‘zbek tilida sport terminologiya va uning shakllanishi. Tashkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti. 2003yil.

2.Sh. M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati. Tahkent:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari. 2017yil.

3.Sh.M.Mirziyoyev.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sportni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.Tashkent:2018yil 2mart.

4.A.Aliyev.Sport terminlarining leksik va semantic xususiyatlari. Tashkent: O‘zbekiston til va adabiyot instituti. 2019yil.

5.F.Kholmurodov. Sport sohasidagi yangi terminlar va ularning o‘zbek tilidagi ifodalanishi. Tashkent: Ilm-fan. 2022yil.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING JISMONIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Spataev Bahtiyar - Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchi
bahtiyarspataev333999@gmail.com

Abstrakt: Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning umumiy rivojlanishini, harakat koordinatsiyasini va chidamliligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy jihatlari, muammolari va samarali metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda ilg‘or pedagogik yondashuvlar hamda takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: *Jismoniy qobiliyat, boshlang‘ich sinf, jismoniy tarbiya, harakat faolligi, sog‘lom turmush tarzi.*

Kirish: Jismoniy tarbiya bolalarning umumiy rivojlanishida, sog‘lom turmush tarzi shakllanishida va ularning ijtimoiy moslashishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun harakat faoliyati hayotiy zarurat bo‘lib, ular orqali bola organizmi to‘g‘ri shakllanadi.

Jismoniy qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni nafaqat jismoniy tarbiya darslari, balki o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ushbu mavzuni chuqur o‘rganish va samarali metodlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda jamiyatda jismoniy faollik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Bolalarning bo‘sh vaqtlarini asosan mobil qurilmalar oldida o‘tkazishi ularning jismoniy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada harakat koordinatsiyasi buzilishi, suyak va mushak tizimining yetarlicha rivojlanmasligi, ortiqcha vazn kabi muammolar kelib chiqmoqda. Shu bois maktab dasturida jismoniy tarbiyaga e’tiborni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Ilmiy ahamiyati: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishga oid ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, harakat faolligi bolaning intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Jismoniy tarbiya orqali bolalarning diqqat, xotira va ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Bundan tashqari, sog‘lom turmush tarziga asos solinishi kelajakda yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa muammolarning oldini oladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydi: yosh davriga mos keladigan jismoniy mashqlar va o‘yinli metodlar bolalar harakat qobiliyatini rivojlantirishda eng

samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sohadagi ilmiy yondashuvlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism

Jismoniy qobiliyatlarni shakllantirish usullari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi ularning harakat qobiliyatlarini yaxshilash va umumiy jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat. Bunga quyidagi asosiy usullar orqali erishish mumkin:

1. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish – bolalar tabiatan o‘yin orqali o‘rganishga moyil bo‘lganligi sababli, turli harakatli o‘yinlar ularning jismoniy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini muntazam o‘tkazish – dars vaqti hamda tanaffuslar davomida faol jismoniy harakatlar bilan shug‘ullanish bolaning salomatligini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Harakat koordinatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar – yugurish, sakrash, to‘p bilan mashqlar bajarish bolalarning umumiy jismoniy holatini yaxshilaydi.

4. Individual yondashuv – har bir bolaning jismoniy tayyorgarligi har xil bo‘lgani uchun, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini shaxsiy xususiyatlarga mos ravishda tashkil etish muhimdir.

Jismoniy qobiliyatlar – bu bolalarning harakat faoliyatida namoyon bo‘ladigan asosiy jismoniy xususiyatlar bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Chidamlilik – uzoq muddatli jismoniy yuklamalarga moslasha olish qobiliyati.

Kuch va tezlik – harakatlarni tez va kuchli bajarish imkoniyati.

Muvozanat va koordinatsiya – tanani muvozanatda ushlash va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyati.

Egiluvchanlik – tana harakatlarining elastikligi va bo‘g‘imlarning harakatlanish diapazoni.

Bu qobiliyatlarning har biri bolalarning umumiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi va ularni shakllantirish uchun maxsus metodlardan foydalanish zarur.

Jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish usullari

Harakatli o‘yinlar

"Qoplon va quyon", "Qushlar va ovchi" kabi tezkorlik va chaqqonlikni oshiruvchi o‘yinlar bolalarning reflekslarini va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

To‘p bilan o‘ynaladigan o‘yinlar (basketbol, futbol elementlari) koordinatsiyani yaxshilaydi.

Jismoniy mashqlar

Sakrash va yugurish – oyoq mushaklarini mustahkamlash va chidamlilikni oshirish uchun samarali.
Tana harakatlari va cho‘zilish mashqlari – moslashuvchanlik va egiluvchanlikni oshirishga yordam beradi.

Sport elementlarini qo‘llash

Mini-gimnastika mashg‘ulotlari – tanani chiniqtirish va bo‘g‘imlarni mustahkamlash uchun muhim.
Gimnastika va akrobatik harakatlar – muvozanat va koordinatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

Ochiq havoda mashg‘ulotlar

Yengil atletika va velosiped haydash nafaqat jismoniy holatni yaxshilaydi, balki bolalarning ijtimoiy moslashuvini ham kuchaytiradi.
Tog‘li hududlarda sayr qilish va sport yurishlari bolalarning chidamliligini oshirishga yordam beradi.

Muammolar va ularning yechimlari

Jismoniy faollikning yetarlicha bo‘lmasligi
Ayrim maktablarda jismoniy tarbiya darslari nazariy mashg‘ulotlar bilan chegaralanib qolmoqda. Yechim: har bir darsda kamida 30-40 daqiqa davomida faollik talab qilinadigan mashqlar bajarilishi lozim.

Bolalarning qiziqishi pastligi

O‘quvchilarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun interaktiv metodlar, musobaqalar va rag‘batlantirish usullaridan foydalanish kerak. Ota-onalar tomonidan yetarlicha e’tibor berilmasligi. Jismoniy tarbiyaning ahamiyati bo‘yicha ota-onalar uchun seminar va treninglar tashkil etish zarur.

Zamonaviy texnologiyalar ta’siri

Bolalarning ortiqcha vaqtini kompyuter va smartfonlarda o‘tkazishi ularning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Yechim: ota-onalar bilan birgalikda bolalar uchun harakatli mashg‘ulotlar rejasini ishlab chiqish va uy sharoitida jismoniy faollikni oshirish.

Ushbu metod va yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishga samarali yordam beradi.

Zamonaviy metod va yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda an’anaviy dars mashg‘ulotlari bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar va ilg‘or pedagogik metodlardan foydalanish jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol o‘yin texnologiyalari jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli va samarali o‘tkazishga imkon beradi.

Masalan, raqamli texnologiyalardan foydalanib, bolalar uchun harakatga asoslangan o‘yinlar va virtual sport musobaqalari tashkil etish mumkin. Xususan, "exergaming" deb nomlanuvchi texnologiya bolalarni faol harakatga undaydigan videoo‘yinlar yordamida jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan. Ushbu metod bolalarning qiziqishini oshirish bilan birga, ularning koordinatsiya va reflekslarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Modullashtirilgan ta’lim yondashuvi orqali har bir o‘quvchining jismoniy tayyorgarlik darajasi inobatga olinadi va ularga individual mashqlar dasturi ishlab chiqiladi. Bu yondashuv bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, jismoniy faolligi past bo‘lgan bolalar uchun yengil mashqlar, faol bolalar uchun esa murakkabroq harakatli o‘yinlar taklif qilinishi mumkin.

Differensial yondashuv esa bolalarning yosh va jismoniy rivojlanish darajasiga qarab ularga mos mashqlar tanlashni nazarda tutadi. Masalan, ba’zi bolalar uchun tezlikni rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar samarali bo‘lsa, boshqalar uchun chidamlilik yoki muvozanat mashqlari ko‘proq foyda keltirishi mumkin. Shu bois jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari turli toifalarga bo‘lingan holda o‘tkazilishi tavsiya etiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan biri bu STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi bo‘lib, uni jismoniy tarbiya bilan integratsiya qilish mumkin. Masalan, jismoniy mashg‘ulotlarda matematik va ilmiy tajribalarni birlashtirish orqali o‘quvchilarni faollikka jalb qilish mumkin. Bu orqali bolalar nafaqat jismoniy rivojlanadi, balki tafakkur qilish qobiliyatlari ham yaxshilanadi.

Tashqi muhitda o‘qitish metodikasi ham zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mashg‘ulotlarni faqatgina sport zallarida emas, balki ochiq havoda o‘tkazish bolalarning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki psixologik holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bog‘lar, stadionlar, tog‘li hududlar yoki maxsus ekoparklarda tashkil etiladigan sport mashg‘ulotlari o‘quvchilarni yanada faol bo‘lishga undaydi.

Jismoniy faollikni oshirish uchun **"Aktiv tanaffuslar" metodidan** foydalanish ham samarali usul hisoblanadi. Bu metod darslar orasidagi qisqa tanaffuslar davomida harakatli mashqlar bajarishni o‘z ichiga oladi. Masalan, har bir darsdan so‘ng 5 daqiqa davomida jismoniy faollikni talab qiladigan mashqlar bajarish o‘quvchilarning umumiy harakat faoliyatini oshirishga yordam beradi.

Kooperativ o‘yin va mashqlar ham o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Jamoaviy sport turlari – futbol, basketbol, voleybol, estafeta

musobaqalari orqali bolalar jismoniy qobiliyatlarini oshirish bilan birga, ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini *ilg‘or sportchilarning tajribasi* asosida shakllantirish ham samarali natija beradi. Mashg‘ulotlarga professional murabbiylar yoki sportchilarni jalb qilish orqali bolalarda jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin. Sport bilan shug‘ullangan tajribali shaxslarning motivatsion hikoyalari bolalarni sportga qiziqtirishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini baholash va motivatsiya tizimi orqali har bir o‘quvchining yutuqlari doimiy ravishda qayd etilib, ularning natijalari rag‘batlantiriladi. Masalan, bolalarning yutuqlari bo‘yicha reyting tizimi ishlab chiqilishi va ular mukofotlar bilan taqdirlanishi bolalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

Muammolar va ularning yechimlari: Maktablarda jismoniy tarbiya darslariga yetarlicha e’tibor berilmasligi – ayrim ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya ikkinchi darajali fan sifatida qaralmoqda. Buning oldini olish uchun darslar innovatsion usullar bilan boyitilishi lozim.

O‘quvchilarning harakat faolligi pastligi – zamonaviy bolalar ko‘proq kompyuter va smartfon bilan shug‘ullanishga moyil bo‘lib, jismoniy harakatlarni kam bajaradi. Buning oldini olish uchun o‘quv jarayonida harakatli o‘yinlar va sport mashg‘ulotlariga ko‘proq o‘rin berish lozim.

Ota-onalar tomonidan yetarlicha e’tibor berilmasligi – ba’zi ota-onalar jismoniy tarbiyaning muhimligini kam tushunadi. Shu sababli, ular orasida tushuntirish ishlari olib borilishi lozim.

Takliflar:

1. Boshlang‘ich sinflar uchun maxsus jismoniy mashqlar dasturlarini ishlab chiqish.

2. Harakatli o‘yinlarni dars jarayoniga joriy qilish va ularni muntazam o‘tkazish.

3. Maktablarda sport maydonchalari va jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish uchun sharoitlarni yaxshilash.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, jismoniy tarbiya ahamiyati bo‘yicha seminarlar tashkil etish.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy qobiliyatlarini shakllantirish ularning jismoniy va intellektual rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu jarayonda jismoniy tarbiya darslari, harakatli o‘yinlar va oilaviy qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida jismoniy tarbiya bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov R. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". Toshkent, 2020.

2. Karimov A. "Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya". Samarqand, 2021.
3. Venger L. A. "Bolalar jismoniy tarbiyasi asoslari". Moskva, 2019.
4. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) jismoniy faollik bo‘yicha tavsiyalari.
5. Абдуллаев, И. (2018). Болалар жисмоний тарбияси ва спорт машғулотлари. Тошкент: Фан ва технология.

JISMONIY VA SPORT YO‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING JISMONIY KO‘RSATKICHLARI DARAJASINI ANIQLASH

Spataev Bahtiyar - Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchi
bahtiyarspataev333999@gmail.com
Ziyodullayev Daler - Guliston davlat pedagogika instituti 30-22 guruh talabasi
da1er@icloud.com

Abstrakt: Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun jismoniy ko‘rsatkichlarni aniqlash ularning umumiy tayyorgarlik darajasini baholash va mashg‘ulot jarayonlarini optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda talabalar jismoniy rivojlanishining asosiy mezonlari, baholash usullari va ularni aniqlashning zamonaviy texnologiyalari ko‘rib chiqiladi. Jismoniy ko‘rsatkichlarni aniqlash orqali talabalar individual xususiyatlariga mos mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish va ularning sport natijalarini yaxshilash imkoniyati yaratildi. Tadqiqot natijalari sport sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun samarali mashg‘ulot tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Jismoniy ko‘rsatkichlar, sport tayyorgarligi, talabalar, baholash usullari, jismoniy rivojlanish, mashg‘ulot metodikasi.*

Kirish: Sport va jismoniy tarbiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun jismoniy ko‘rsatkichlarni aniqlash ularning sport natijalarini oshirish va jismoniy rivojlanish darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashda turli xil metodlar, jumladan, klassik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu jarayon talabalar individual xususiyatlariga mos keladigan mashg‘ulot rejasini tuzish va ularning sport salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun jismoniy ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda baholash va monitoring qilish zarurati ortib bormoqda. Bu, ayniqsa, raqobatbardosh sportchilarning tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish va ularning sport natijalarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ham ushbu mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Ilmiy ahamiyati: Jismoniy koʻrsatkichlarni aniqlash va baholashning ilmiy jihati shundaki, bu jarayon sport mashgʻulotlari samaradorligini oshirishga, individual yondashuv asosida mashgʻulot dasturlarini ishlab chiqishga va sportchilar natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Taktik o‘zgarishlar va ularning o‘yin natijasiga ta’siri Futbol o‘yinida taktika va strategiya o‘zgarishlari vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada rivojlanib, o‘yinlarning sifatini va raqobatbardoshligini oshirgan. O‘tgan yillarda futbolning an’anaviy tizimlari, masalan, 4-4-2 tizimi keng tarqalgan bo‘lsa, hozirgi kunda yangi, murakkab va dinamik taktikalardan foydalanilmoqda. 4-3-3, 4-2-3-1, va 3-5-2 kabi tizimlar futbolchilarning individual qobiliyatlariga asoslangan holda ishlatilmoqda. Bu taktikalarda asosiy e’tibor o‘yinning har bir bo‘limiga – himoya, yarim himoya va hujumga qaraladi. Misol uchun, 4-3-3 tizimida, uchta hujumchi va uchta yarim himoyachi o‘yinni shiddat bilan o‘tkazishga yordam beradi, bu esa raqibning himoyasini chalg‘itadi. 4-2-3-1 tizimi esa o‘yinni ko‘proq himoyalangan holda olib boradi va jamoaning markaziy yarim himoyachilariga ko‘proq erkinlik beradi. Zamonaviy futbolda, shuningdek, o‘yinchilarning o‘zaro harakati, taktikaning bir qismi sifatida jamoa boshqaruvchilarining qarorlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. O‘yin davomida to‘pni saqlash, tezkor hujumlarni amalga oshirish va muhim vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish jamoaning taktikasiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Jamoa boshqaruvchilari o‘z taktikalarini raqibning kuchli tomonlariga qarshi qanday qo‘llashni rejalashtiradilar va o‘yinchilarni o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashishga tayyorlaydilar. Bundan tashqari, futbol o‘yinlarida taktik o‘zgarishlar o‘yinchilarning psixologik holatiga ham ta'sir qiladi. O‘yinchilarning o‘zaro kommunikatsiyasi, o‘yindagi harakatlarining o‘zgarishi va raqibning tizimi bilan bog‘liq strategik qarorlar o‘yinning natijasiga muhim ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, jamoa boshqaruvchisi biror xatolikni tuzatish uchun taktika o‘zgartirishga qaror qilganida, o‘yinchilarning yangi taktikaga qanday moslashishi o‘yin natijasiga ta’sir qiladi.

Jamoa strategiyalari va zamonaviy metodlar. Futbol jamoalarining o‘yindagi strategiyalari jamoaning umumiy kuchli tomonlari va individual futbolchilarning salohiyatiga bog‘liq. Jamoa boshqaruvchilari o‘z jamoalarini

ma’lum bir taktika doirasida boshqaradilar, va bu taktika har bir o‘yinchining roli va vazifasini belgilashga yordam beradi. Jamoa strategiyasini ishlab chiqishda yangi texnologiyalar, statistik tahlil va metodologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Ma’lumotlar tahlili va statistik metodlar. Futbolning zamonaviy boshqaruvida statistik tahlil va ma’lumotlar tahlili muhim ahamiyatga ega. Jamoa boshqaruvchilari o‘yinchilarning harakatlarini tahlil qilish, ularning kamchiliklarini aniqlash va o‘yindagi natijalarni yaxshilash uchun ma’lumotlarga tayanadilar. Masalan, futbolchilarni o‘zaro moslashtirish va harakatlarining samaradorligini oshirish uchun hujumlar, himoya, o‘rtacha va jismoniy holatdagi statistik ma’lumotlar muhim hisoblanadi. Yaxshi statistik tahlil qilish o‘yinchilarning individual kuchli tomonlarini va raqiblarning zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt va video texnologiyalar. Sun’iy intellekt (AI) va video yordamida hakamlik (VAR) tizimlari futbol o‘yinlarining taktik jihatlariga katta ta'sir ko‘rsatadi. AI yordamida o‘yin jarayonlarini tahlil qilish va jamoaning zaif tomonlarini aniqlash mumkin, bu esa jamoa boshqaruvchilariga o‘yinning keyingi bosqichini aniqroq belgilash imkonini beradi. VAR tizimi esa hakamlarning qarorlarini aniqlashtirishda va o‘yindagi adolatsizliklarni oldini olishda yordam beradi. Video texnologiyalar yordamida o‘yinchilarning harakatlari va o‘yin holati tahlil qilinadi, bu esa murabbiylarga strategiyalarni to‘g‘ri ishlab chiqishda yordam beradi.

Jismoniy tayyorgarlik va psixologiya. Futbol o‘yinlarida jismoniy tayyorgarlik va psixologiyaning o‘rni juda muhim. O‘yinchilarning chidamliligi, tezkorlik va psixologik holati, o‘yinning muvaffaqiyatli o‘tishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Jismoniy tayyorgarlik, o‘yinchilarning yuqori darajada ishlashiga yordam beradi, psixologik tayyorgarlik esa o‘yin davomida stressni boshqarish va yuqori raqobat sharoitida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, futbolchilarni ruhiy jihatdan tayyorlash, ularning motivatsiyasini oshirish va o‘yin davomida ko‘proq yutuqqa erishish uchun samarali metodlarni qo‘llash mumkin.

Taktikaning rivojlanishining kelajagi. Futbolning taktikasini rivojlantirishda yangi texnologiyalar, ilmiy metodlar va ma’lumotlar tahlili davom etmoqda. Futbolning taktik o‘zgarishlari yanada murakkablashgan va global miqyosda yangi yondoshuvlar mavjud. Jamoa boshqaruvchilari uchun yangi metodlarni ishlab chiqish va o‘yinchilarning jismoniy va psixologik holatlarini yaxshilashda texnologiyalar katta rol o‘ynaydi. Kelajakda sun’iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yanada keng qo‘llanilishi mumkin. Jamoalar o‘yinning har bir daqiqasida eng yaxshi qarorlarni qabul qilish uchun bu texnologiyalardan foydalanishni davom ettiradilar. O‘yinlarning jismoniy va psixologik jihatlari ham yanada yaxshilanadi, bu esa futbolning rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa: Ushbu maqolada futbol o‘yinida taktikani rivojlantirishning zamonaviy metodlari va ularning o‘yindagi ahamiyati o‘rganildi. Futbolning taktika va strategiyasidagi o‘zgarishlar, zamonaviy texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt va video texnologiyalar futbolchilar va jamoa boshqaruvchilariga o‘yinning har bir jihatini aniq tahlil qilish imkonini beradi. Statistik tahlil orqali jamoalar o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, qarorlar qabul qilishda yanada samarali bo‘lishi mumkin. Sun’iy intellekt va video texnologiyalar (masalan, VAR) o‘yin jarayonini yaxshilash, hakamlikni adolatli qilish va xatoliklarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy tayyorgarlik va psixologiya futbolchilarning o‘yin samaradorligini oshiradi. Ularning yuqori darajadagi jismoniy tayyorligi, tezkorlik va psixologik chidamliligi o‘yindagi muvaffaqiyatga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, futbolchilarni psixologik jihatdan tayyorlash, stressni boshqarish va o‘yindagi qarorlarni to‘g‘ri qabul qilishda yordam beradi. Kelajakda futbol taktikasi va strategiyasidagi o‘zgarishlar yanada murakkablashadi. Texnologiyalar va ilmiy metodlarning rivojlanishi jamoa boshqaruvchilariga o‘yindagi har bir daqiqada aniq va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun futbol o‘yinida zamonaviy metodlarni qo‘llash futbolning rivojlanishiga va o‘yindagi raqobatbardoshlikni oshirishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Sampaio, J., & Leite, N. (2019).** Tactical Performance in Football: The Role of Team Strategy and Individual Characteristics. *Journal of Sports Science and Medicine*, 18(2), 213-221.
2. **Tenga, A. (2020).** Artificial Intelligence and Data Analytics in Football. *International Journal of Sports Technology*, 13(1), 45-59.
3. **Witmer, A., & Jones, D. (2021).** The Impact of Tactical Systems in Modern Football. *European Sports Review*, 28(3), 150-162.
4. **Hughes, M., & Franks, I. (2018).** The Use of Video Technology in Football: An Analysis of the VAR System. *Football Studies Quarterly*, 22(1), 77-88.
5. **Robinson, D., & Moore, D. (2022).** Psychological Factors in Football Tactics: How Mental Strength Impacts Team Strategy. *Psychology in Sport*, 12(4), 89-102.

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNI VOSITALAR ORQALI YOQORI NATIJALARGA ERISHISHDA MOTIVATSIYANI O‘RNI

Saidmurodov Zafarbek Ulug‘bek o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: saidmurodovzafarbek707@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada imkoniyati cheklangan talabalarda nozologiya bo‘yicha saralab olingan mashqlar va motivatsiya orqali yuqori natijalarga erishish. jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda maxsus mashqlar qo‘llanilishi hamda va texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligi oshirishga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Optimal, klub, ob’ektiv, individual, mobil, fitness.

Ishning dolzarbligi. Yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan axslarga sport bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida, 2021yil 18-may, PQ-5114-son “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Prezident Qarorida belgilangan: paralimpiya sport turlarini ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish; paralimpiya sport turlari bo‘yicha musobaqalar va chempionatlar, forumlar, konferensiyalar, seminarlar va yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib boshqa tadbirlarni o‘tkazish, shuningdek, ular orqali tinchlik, do‘stlik va o‘zaro tushunish g‘oyalarini targ‘ib-tashviq qilish; paralimpiya sport turlarini rivojlantirish bo‘yicha klublar faoliyatini tashkillashtirish va samarali boshqarish, milliy va xalqaro sport tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilish va tajriba almashish. Tadqiqotning maqsadi. Nozologiya bo‘yicha saralab olingan mashqlar va motivatsiya orqali yuqori natijalarga erishish. Sportdagi motivatsiya va xulq-atvor motivlari muammosi sport psixologiyasini o‘rganishda asosiy muammolardan biridir. Motivatsion jarayonga ta'sir qilmaydigan psixologiyaning bunday sohasi bo‘lishi dargumon. Motivatsiya sportchi hayotidagi eng muhim rollardan birini o‘ynaydi. Har qanday faoliyat doimo rag‘batlantiruvchi motivga ega, ya'ni qilinayotganining sababi. Motivatsiyani organizmning faoliyatini keltirib chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilovchi impulslar deb hisoblash kerak. Jismoniy mashqlar va sportga faol qiziqish ichki motivatsiya natijasida shakllanadi, bu qachon sodir bo‘ladi tashqi motiv va maqsadlar talaba imkoniyatlariga mos kelganda sport bilan shug‘ullanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish ularning sportga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muvaffaqiyatli faoliyat uchun zaruriy shart ekanligi

koʻrsatilgan sportchilar muvaffaqiyatga erishish istagi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish istagining optimal nisbati. Jismoniy tarbiya va sport faoliyati motivlarini shakllantirish ostida nogiron sportchilar, biz mashgʻulotlar va raqobat jarayonlarida ularning vaziyat va shaxsiy rivojlanish jarayonini tushunamiz. Motivatsiyani shakllantirish bir nechta bloklarni oʻz ichiga oladi-motivlar, maqsadlar, hissiyotlar bilan ishlash, nogiron sportchilarning mashgʻulotlari va sport faoliyati. Ish bloklarning har birida amalga oshiriladi eski motivlarni yangilash va tuzatish, yangi motivlarni ragʻbatlantirish uchun va yangi sifatlarning paydo boʻlishi. Moslashuvchan sportda motivatsiyani oʻrganish uning haqiqiy darajasini va mumkin boʻlgan istiqbollarini, har bir kishi uchun bevosita rivojlanish sohasini aniqlashdir. Nogiron sportchi va umuman sport jamoasi. Tadqiqot natijalari motivatsiyani shakllantirish jarayonini rejalashtirish uchun asos boʻladi. Jismoniy tarbiya motivlarini shakllantirish, nogironlar uchun mashqlar va sport-bu sport jamoasida (jamoa, klub, jismoniy tarbiya jamoasi va boshqalar) mashgʻulot jarayoni yoki raqobat faoliyati uchun ichki motivlar (motivlar, maqsadlar, his-tuygʻular) paydo boʻlishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, xabardorlik. ularning band odamlari haqida. Jismoniy mashqlar va sport bilan shugʻullanish motivlarini oʻrganish va shakllantirish, bir tomondan, ob'ektiv boʻlishi kerak, ikkinchi tomondan, nogiron sportchining shaxsiga nisbatan insonparvar, hurmatli muhitda amalga oshirilishi kerak. Har bir nogiron sportchi, birinchi navbatda, tayanishi kerak boʻlgan ijobiy motivatsiya darajasiga ega uni rivojlantirish istiqbollari, zaxiralari va resurslari. Nogironligi boʻlgan sportchining shaxsiyati individual va ma'lum darajada oʻziga xosdir. Birida motivatsiya darajasi past va jismoniy ma'lumotlar yaxshi; ikkinchisi oʻrtacha qobiliyatga ega, ammo natijalarga erishishda katta harakatlantiruvchi kuchlar. Koʻpincha yaxshi jismoniy ma'lumotlarga ega boʻlgan sportchi oʻrtacha koʻrsatkichdan past natijani koʻrsatadi va aksincha, muvaffaqiyatga ma'lum startlarga tayyorgarligi etarli boʻlmagan sportchi erishadi. Nogiron sportchining sport mashgʻulotlaridagi gʻalabasi yoki muvaffaqiyatsizligini uning shaxsiy fazilatlari bilan izohlab boʻlmaydi. Aksincha, bu fazilatlarni yaqin munosabatlarda tahlil qilish orqaligina haqiqatni tushunish mumkin muayyan sportchining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligining aniq sabablari. Shu munosabat bilan, ularni hal qilishni talab qiladigan bir nechta amaliy savollar tugʻiladi: nogiron sportchilarda sport motivatsiyasini qanday shakllantirish kerak? Uni qanday saqlash kerak? Buning uchun qanday vositalar va usullardan foydalanish kerak? Nogiron sportchilarni jismoniy mashqlar va sport bilan shugʻullanishga ragʻbatlantirishni shakllantirish vositalari mukofotlar, diplomlar, moddiy mukofotlar va ogʻzaki minnatdorchilik koʻrinishidagi ragʻbatlantirish va ragʻbatlantirishdir. Mashgʻulot jarayonida turli xil mobil va sport oʻyinlari, fitnes texnologiyalari, raqs mashqlaridan foydalanish ham vosita boʻlib xizmat qilishi

mumkin. Mukofot tizimi ko‘pincha samarali bo‘lishi mumkin, chunki Nogironligi bo‘lgan sportchilar murabbiyning bunday tizimni ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash uchun sarflagan vaqt va kuchini har qanday mukofotning moddiy qiymati tufayli emas, balki qadrlashadi. Mukofot tizimini ishlab chiqishda uni sportchilarga to‘g‘ri tushuntirish va ta'sir ko‘rsatadigan mukofotlarni qo‘llash muhimdir. Ular uchun qimmatli, sportchilarning darajasi va yoshiga mos kelmaydiganlar bundan mustasno. Mukofotlar adolatli taqsimlanishi va mukofotlar va sovrinlar sportchilarning yutuqlari darajasiga mos kelishi uchun ushbu tizimdan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Ko‘pincha yangi voqealar, odamlar va yangi hayotiy tajribalar, nogiron sportchilarning har qanday musobaqada ishtirok etishi yoki aksincha, qatnashmasligi, uning jamoaga, murabbiyga va sportga bo‘lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin. Xulq-atvorning o‘zgarishiga sabr-toqat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ob'ektiv bo‘lishga harakat qilish kerak. Bunday munosabat sportchiga yangi hayot munosabatlariga mos keladigan sport bilan shug‘ullanishni davom ettirish uchun motivlarni topishga yordam beradi. Bunday hollarda mashhur Paralimpiya sportchisi bilan uchrashuv tashkil etish motivatsiyani shakllantirish vositasiga aylanishi mumkin. Moslashuvchan sport murabbiylari, shuningdek, nogironligi bo‘lgan odamlarda jismoniy mashqlar va sport uchun ishlash va motivatsiyani yaxshilash yo‘llarini doimiy ravishda ko‘rib chiqishlari kerak. Anchagina bu erda ba'zan shunchaki ko‘rgazmali musobaqalar barchaning e'tiborini tortayotgani, sportchilarni keyingi sport mashg‘ulotlariga undashi muhim ro‘l o‘ynaydi.

Xulosa. Hamma odamlar o‘zlarining motivatsiyasi va irodasi o‘zgarishini sezadilar. Ba'zida sizni ishdan bo‘shatib yuborgan va maqsadlaringizga erishish uchun yuqori turtki paydo bo‘lishi mumkin, boshqa paytlarda siz o‘zingizni xohlamasligingiz yoki nimani xohlayotganingizni yoki unga qanday erishishingizni bilmay qolishingiz mumkin. Agar sizda motivatsiya kamligini sezsangiz ham, sizni oldinga siljitadigan qadamlar bor. Siz qila oladigan ba'zi narsalar:

• O‘zingiz uchun muhim bo‘lgan narsalarga e'tiboringizni qaratish uchun maqsadlaringizni sozlang

• Agar siz juda katta yoki juda katta bo‘lgan narsaga duch kelsangiz, uni kichikroq bosqichlarga ajratib oling va taraqqiyot sari birinchi qadamni qo‘yishga intiling.

• O‘zingizga bo‘lgan ishonchni oshiring

• O‘tmishda erishgan yutuqlaringiz va kuchli tomonlaringiz qayerda ekanligi haqida o‘zingizga eslatib qo‘ying

• Agar o‘zingizga nisbatan xavfli bo‘lgan narsalar bo‘lsa, o‘zingizni yanada mahoratli va qobiliyatli his qilishingiz uchun ushbu sohalarni yaxshilashga harakat qiling.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. Dilshod Baxtiyorovich Baxtiyorov AMPUNTANT FUTBOLCHILARNI JISMONIY TARBIYA VOSITALARI VA USLUBIYATI // Scientific progress. 2022. №2. URL https://cyberleninka.ru/article/n/ampuntant-futbolchilarni-jismoniy-tarbiya-vositalari-va-uslubiyati (дата обращения: 15.11.2022).

2. M. X.Mirjamolov, R. F.Odilov, N. Y.Valiyeva, D. B.Baxtiyorov KO‘RISH QOBILYATIDA NUQSONI BO‘LGAN TALABALARDA HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI // Academic research in educational sciences. 2021. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ko-rish-qobilyatida-nuqsoni-bo-lgan-talabalarda-harakat koordinatsiyasini-rivojlantirish-uslubiyati (дата обращения: 12.12.2022)

SPORT - YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MUHIM VOSITA

Aslonova Sabina Akmal qizi - Navoiy Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti Sport faoliyati(Kurash)yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sportning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, uning sog‘lom hayot tarzini shakllantirishdagi roli, jismoniy va ruhiy rivojlanishga ta‘siri, shuningdek, sport orqali yoshlarni jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqarolar qilib tarbiyalash haqida so‘z yuritiladi. Sport nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilash, balki ko‘nikmalarni rivojlantirish, shakllantirish.

Kalit so‘zlar:Sport, yosh avlod, tarbiya, jismoniy rivojlanish, jamiyat, maqsadga yo‘naltirilgan ishlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, xulq-atvor, musobaqalar, sog‘lom hayot tarzi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение спорта в воспитании подрастающего поколения, его роль в формировании здорового образа жизни, влияние на физическое и психическое развитие, а также то, как спорт помогает воспитывать активных и ответственных граждан общества. Спорт не только улучшает физическое здоровье, но и способствует развитию и формированию различных навыков.

Ключевые слова: Спорт, молодое поколение, воспитание, физическое развитие, общество, целенаправленная деятельность, социальные навыки, поведение, совернования, здоровый образ жизни.

Yosh avlodni tarbiyalash jarayoni bugungi kunda faqat bilim berishdan iborat emas. Jamiyatning kelajagi sifatida ularning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishi hamda axloqiy qadriyatlar shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Sport, o‘zining ko‘plab foydalari bilan, yoshlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Sport faqat jismoniy salomatlikni yaxshilashni emas, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni, xulq-atvorni yaxshilashni, hamda mas’uliyatni oshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada sportning yoshlarni tarbiyalashdagi muhim roli batafsil tahlil qilinadi.

Sport, eng avvalo, yoshlarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sport mashg‘ulotlari orqali muskullar, suyaklar va yurak-qon tomir tizimining kuchayishi, ko‘nikmalar va chidamlilkning ortishi kuzatiladi. Biroq sportning ta‘siri faqat jismoniy rivojlanish bilan cheklanib qolmaydi. Yoshlarning psixologik rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Sport jarayonida yoshlar xulq-atvorini, boshqaruvni, mas’uliyatni va mehnatga bo‘lgan hurmatni shakllantiradi.

Sport yoshlarni jamoaviy ishda faol ishtirok etishga, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga, yagona maqsad sari birgalikda harakat qilishga o‘rgatadi. Bu jihat jamiyatda faol fuqarolarni shakllantirishga yordam beradi. Sportdagi musobaqalar va turnirlar orqali yoshlar raqobatni, g‘alaba va mag‘lubiyatni qanday qabul qilishni o‘rganadilar, shuningdek, do‘stlik va hurmatni qadrlashni o‘rganadilar. Sport, shuningdek, yoshlarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, sportda adolat, halollik, samarali muloqot va o‘zini boshqarish kabi fazilatlar alohida e‘tiborga olinadi. Yoshlar musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rishda qat’iyatlilikni, hamda kuchli maqsadga erishish uchun qanday harakat qilishni o‘ rganadilar. Shu bilan birga, sportdagi muvaffaqiyatlar va mag‘lubiyatlar yoshlarga hayotdagi haqiqatlarni va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi.

Sport yoshlarni sog‘lom hayot tarziga o‘rgatadi. Jismoniy mashqlar orqali organizmni mustahkamlash,ruhiy tushkunlikni kamaytirish va salomatlikni yaxshilashga erishiladi.Shu bilan birga, sport faqat tanani emas, balki ruhni ham sog‘lomlashtiradi. Yoshlar sportni kundalik hayotlariga kirgizganlarida, ular sog‘lom ovqatlanish, yaxshi uyqu va salomatlikni saqlashni odat qilib olishadi. Bu esa ularning kelajakda sog‘lom va baxtli hayot kechirishga yordam beradi.

Sport yoshlarni o‘zlarini qadrlash, maqsadlar belgilanadi, ularga erishish uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni o‘rgatadi. Shuningdek, sportning yoshlar orasidagi ta’siri orqali ular o‘zlarining kuchli tomonlarini aniqlaydilar va zaif jihatlarini yaxshilash uchin ko‘proq mehnat qilishga o‘rganadilar. Bu barcha fazilatlar yoshlarni kelajakdagi professional va shaxsiy muvaffaqiyatklarga tayyorlaydi.

Bugungi glaballashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma‘naviy uyg‘oq bo‘lib yashash, eng katta boylik sanalmish

tinchlik, millatlararo ahillik, o‘zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko‘z qorachig‘idek asrash va mustahkamlash asosiy vazifamiz sanaladi. Shu jihatdan olib qaralsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa o‘quv dargohlarida ta’lim-tarbiyaga e’tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan qator farmon, qaror va farmoyish hamda qonun hujjatlari imzolanib, yurtimizda ma’nan yetuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e’tiqodi mustahkam, siyosiy-ma’naviy saviyasi yuksak, intellektual salohiyatli yoshlarni kamol topishida alohida e’tibor qaratilayotganligi bejis emas.

Bedil “Me’mor dastlabki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u qiyshiq bo‘lib qolaveradi” degan edi. Demak, jamiyatda inson o‘z o‘rnini topishida moddiy boyliklari emas, balki yuksak ma’naviy qiyofasi ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog‘lovchi ma’naviyat ota-bobolarimizdan meros jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an’analarning majmui,qolaversa, ular to‘plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o‘zida mujassam etadi va bu jarayonda ota ona muhim o‘rin tutadi. Ota-ona zimmasidagi burch faqat chiroyli odob-axloq o‘rgatishdan iborat emas, balki uni turli xil mafkura va g‘ayri insoniy yot g‘oyalardan saqlash ham ota-onaning burchlaridan biri hisoblanadi. Chunki e’tiqodi sog‘lom, mafkurasi to‘g‘ri bo‘lgan farzand ota-onaga mehribon, el-yurtiga sadoqatli fidoyi inson bo‘lib voyaga yetadi. Farzandini jismonan sog‘lom, baquvvat qilib voyaga yetkazmog‘I ham ota-ona burchlaridan biridir.

Janob Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam: “O‘g‘illaringizga suvda suzishni, kamonda otishni, qizlaringizga tikishni o‘rgatinglar”,- deb farzandlarni chaqqon, sog‘lom, baquvvat, ziyrak va hunarli qilib tarbiyalashga targ‘ib qilganlar.Chunki sog‘lom va kuchli inson har doim o‘z eliga, vatania naf keltiradi.

Shuningdek, respublikamizda iqtidorli va iste’dodli yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash borasida ko‘plab qulayliklar yaratildi. Jumladan, qonunchilikda belgilangan tartibda mukofotlar, stependiyalar belgilash, ta’lim grantlari taqdim etish; iqtidorli va iste’dodli yoshlarni aniqlash va rag‘batlantirish maqsadida tanlovlar , olimpiadalar, ko‘rgazmalar, festivallar, ko‘riklar, konsertlar, simpoziumlar, o‘qishlar, konferensiyalar, seminarlar tashkil etish hamda o‘tkazish; yoshlarga oid xalqaro tajriba almashinuvi; iqtidorli va iste’dodli yoshlarni ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarda o‘qitish, qayta toyyorlash va amaliyotni o‘tash dasturidan tanlov asosida foydalanishini ta’minlash; ilmiy-tadqiqot, madaniy- ma;rifiy ishlarni o‘tkazish uchun yosh mutaxassislar va olimlarga shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarning ishlanmalarini

amaliyota joriy etishga ko‘maklashish, shunindek, yoshlarning kadrlar salohiyatini saqlab qolish hamda rivojlantirish; iqtidorli va iste;dodli yosh sportchilarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar o‘rtasida sport musobaqalarini o‘tkazish yuksak samara berayotganligi hech kimga sir emas.

Ayniqsa, mamlakatimizda 30-iyun –“ Yoshlar kuni” deb e’lon qilinganligi hamda yoshlarni madaniyat, san’at, sport va jismoniy tarbiyaga jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish , xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga olgan beshta muhim tashabbusning bugunda takomillashib borishi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish borasida muhim qadam bo‘lmoqda.

Ma’lumki, 2024-yilning “ Yoshlar va biznesni qo‘llab- quvvatlash yili” deb nomlanishi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida muhim vazifalarni belgilab berdi va natijali ishlar amalga oshirildi. Xususan, iqtisodiyotimizga xorijiy investitsilarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish bu tizimdagi yoshlar ulushini oshirish, ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish vazifasi qo‘yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5312-sonli “Yoshlarni sportga keng jalb qilish va sport sohasida ijtimoiy faollikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018yil 5fevral.

2.Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6103-sonli “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.2020yil 10noyabr.

3.R.Abduqahhorov. “Sport va jismoniy tarbiya sohasida pedagogic texnologiyalar” 2018yil.

4.V.Piskunov. “Sport pedagogikasi”. 2019yil.

5.Sh.Tursunov. “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish” 2015yil.

6.Sh.Raximov. Barkamol avlod tarbiyasi millat tayanchi. “O‘qituvchi” nashriyoti.(2020y).

7. M.Qodirov. Yosh avlod kelajak poydevori. “ Sharq”. (2022y).

QO‘L TO‘PINI O‘RGATISH VA MUSOBAQALARGA TAYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (xotin-qizlar misolida)

Norqulov Shovkat Turg‘unbayevich
Guliston Davlat Pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti dekani, dotsent
norqulovshovkat86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qizlarimizning jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanish, sport bilan do‘stlashish, harakat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vazifasidan tashqari o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalanib kamol topishida gandbol sport turining muhim omil ekanligiga e’tibor qaratilganligi haqida ma’lumotlar berilgan

Kalit so‘zlar. Gandbol, sportchilar, jismoniy qobilyatlar, jismoniy harakat elrmentlari,sport faoliyati, sport musobaqalari, o‘yin, dars, jismoniy tayorgarlik, irodani mustahkamlash.

Sog‘lom onadan sog‘lom farzandlar dunyoga keladi, sog‘lom bola va barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportni o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham ta’lim tizimimizda maktab yoshlarning jismonan barkamolligini tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Shu boisdan maktab o‘quvchilarning salomatligi, jismonan tayyorgarligi, o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji, uning dunyoqarashi va boshqalar jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini mahoratiga bog‘liq. Shulardan biri maktab o‘quvchilar kun tartibini har-xil sport tadbirlari bilan boyitish. Masalan, sport musobaqalarini o‘tkazish maktab o‘quvchilarida jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanish, sport bilan do‘stlashish, harakat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vazifasidan tashqari o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalanib kamol topishida ham muhim omil hisoblanadi.

Yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun sport musobaqalarini tashkil qilish, uning samaradorligini oshirish va o‘tkazishga katta tayyorgarlik kerak. Mustaqil Respublikamiz raxbariyati tomonidan jismoniy tarbiya va sportga, jumladan gandbol sport turiga e’tibor berilayotganligi tufayli kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida shu sport turidagi muammolarni yechimini topishni taqozo etadi.

Sport o‘yinlaridan biri gandbol xotin qizlarimizning salomatligini mustahkamlab ularni har tomonlama komol topishiga yordam beribgina qolmay jismoniy sifatlarini ham takomillashtiradi. Gandbol o‘yini jamoa o‘yini hisoblanib, o‘yin davrida maydonda jamoaning asosiy tarkibi 7 kishidan iborat bo‘ladi. Jamoa a’zolarining maqsadi raqib darvozasiga ko‘prok to‘p kiritib, o‘z darvozasidan imkoniyat darajasida kamrok to‘p o‘tkazib yuborishdir. Jamoa o‘yinida muvoffaqiyatga erishish uchun har bir o‘yinchining harakatlari jamoaning umumiy maqsadiga mutanosib bo‘lmog‘i lozim. Jamoadagi har bir o‘yinchining maydondagi faoliyatidan kelib chiqib oldiga aniq qo‘yilgan vazifalariga qarab: darvozabon va maydondagi o‘yinchilar: hujumda (markaziy o‘yinchi, yarim o‘rta, qanot va chiziqdagi o‘yinchi) himoyada esa (markaziy, yarim o‘rta, qanot va oldingi) himoyachilarga ajratiladi.

Qo‘l to‘pi darslari boshqa jismoniy tarbiya darslari singari asosiy mashg‘ulot shakli hisoblanadi. Darsda shug‘ulanuvchilar faoliyati o‘qituvchi tomonidan boshqariladi. Maktab sport to‘garagi (sektsiyasidagi) mashg‘ulotlar ham dars shaklida tashkil etiladi. Dasturda belgilangan qo‘l to‘pi darslarining umumiy o‘quv-tarbiyaviy maqsadlari ma`lum bir davr (o‘quv yili, chorak, trenirovka bosqichi va hokazo) uchun ishlarni rejalashtirish paytida xususiy vazifalar tizimida aniqlashtiriladi. Ish natijalari birinchi navbatda, har bir darsning didaktik jihatdan to‘g‘ri tuzilganligi bilan aniqlanadi.

Qo‘l to‘pi darslarining tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish vazifalari umumiy o‘quv-tarbiyaviy ishlar rejasi bilan belgilanadi. Bu shaxs fe’l atvorining asosiy qirralari, jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash, sog‘liqni mustahkamlash hisoblanadi, lekin faqat o‘quvchi shaxsiga hamda uning organizmi funksiyalariga muntazam ta’sir ko‘rsatish bilangina ularni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu vazifalar bir nechta darslar oldidan qo‘yiladi, alohida mashg‘ulotda esa ular imkon qadar aniqlashtiriladi. Darsni pedagogik jihatdan to‘g‘ri va bilimdonlik bilan tashkil etish bu, birinchi navbatda, dars vaqtidan oqilona foydalanishdir. Darsni muvaffaqiyatli o‘tkazishning eng muhim sharti bu darsning tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi qismlarida o‘quvchilarning ish qobiliyatlarini o‘zgartirishdir. Bu o‘qituvchidan

darsning tuzilishini to‘g‘ri ishlab chiqishni talab qiladi. Darsda bir nechta mustaqil bo‘limlar bo‘lishi mumkin. Masalan, dars bir butun o‘yin mashg‘uloti (yoki o‘yin) sifatida o‘tkazilishi mumkin. Unda bir qator vazifalar hal etiladi: to‘g‘riga uzatilgan qo‘l bilan to‘pni ilib olish hamda oshirishni o‘rganish, yiqilib zarba berish texnikasi bilan tanishish, “blok” ustidan oshirib zarba berishni takomillashtirish, tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o‘rgatish kerak. Bunday darsni to‘g‘ri tuzinshing mohiyati pedagogik vazifalarii mantiqan to‘g‘ri tartibda hal etish, qizlarning qabul qilish imkoniyatlari bilan muvofiqligiga erishishdan iborat. Bunda qizlar ish qobiliyatining o‘zgarish fazalari eng maqbul me`yorlarda hisobga olinadi.

Sport turlari bilan shug‘ullanib borayotgan qizlar musobaqalarda yuqori ko‘rsatkichlarni qayd eta oladilar. Natijada qizlarda o‘zi va jamoasi yutuqlaridan faxrlanish, g‘ururlanish hislari shakllana boradi. Erishilgan muvafaqqiyat qizlarni yangi-yangi maqsadlar sari intilishga undaydi.

Darsga yaxshi tayyorgarlik ko‘rish uning muvaffaqiyatini belgilab beradi, ijobiy ruhiy kayfiyat hosil qiladi, yanada shiddatli xamda unumli ishlash uchun imkon yaratadi.

Darslarni nafaqat zallarda, balki ochiq havoda qo‘l to‘pi uchun mo‘ljallangan maxsus yoki oddiy boshqa ochiq o‘yin maydonlarida; stadionlarda yoki tabiiy sharoitda (o‘rmonlar, bog‘, daryo bo‘yida va boshqa joylarda) ham o‘tkazishi mumkin. Bunday sharoitlarda o‘tkaziladigan darslar qizlarning jismoniy rivojlanishi va chiniqishiga ijobiy ta`sir ko‘rsatadi hamda qo‘l to‘pining asosiy texnika elementlarini tez egallashga yordam beradi.

Yurtimizda olib borilgan pedagogik kuzatishlardan va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni taxlilidan ma’lum bo‘ldiki, xozirgi kunda 13 yoshli gandbolchilarga to‘pni darvozaga otishni o‘rgatish bo‘yicha ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, lekin bunda to‘p otishni samarador usullarni aniqlashga yetarli darajada inobatga olinmayotganligi aniqlandi. Ilmiy – uslubiy adabiyotlar taxlili ko‘rsatishicha 13 yoshli gandbolchilarni to‘pni darvozaga otish texnikasini o‘rgatishda materiallar bo‘lsada ammo ularda ketma-ketlikka e’tibor yetarli berilmagan. Qizlarimiz uchun qo‘l to‘pi o‘yini boshqa sport turlaridan ko‘ra ko‘proq shug‘illanishlari tajribalar

asosida isbotlangan va tavsiyalar berilgan. Shuning uchun ham gandbol ko‘nikma va malakalarini qizlarimizning yoshligidan qiziqtirish, yoshiga xos harakat elrmentlarini bajarish, o‘yin va musobaqalar bilan ularni ushbu sport turi bilan shug‘illanishlariga imkoniyat yaratish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Xo‘jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B «Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi» Cho‘lpon nashriyoti Toshkent 2011-yil
2. Абдумаликович, Умаров Абдусамат, and Хожимуродова Махлиёхон Кенжавой қизи. 2022. “Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок”. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3 (12), 15-18. https://cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/
3. JISMONIY FAOLLIKNING INSON RUHIYATIGA VA SHAXS KOMPETENSIYASIGA TA’SIRI: 10.53885/edinres. 2022.97. 51.132 MK Xojimurodova Qo ‘qon davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat metodikasi kafedrasi stajyor-o ‘qituvchisi
4. A.F.Kerimov. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent : Zar qalam, 2004. 128 b.
5. qizi, X. M. K. . (2023). AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF WOMEN’S SPORTS BASED ON GENDER EQUALITY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 437–440. Retrieved from https://univerpubl.com/index.php/horizon/article/view/1582
6. qizi, X. M. K., O‘rmonjonovich, I. F., & qizi, A. M. A. (2022). Problems of Development of Physical Culture and Sports after Independence. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *3*(12), 58-62. Retrieved from https://www.cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/637
7. THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS ON THE BASIS OF INVATIONAL APPROACHES IN STRENGTHENING HUMAN HEALTH SM Rahimov, MK Xojimurodova - 2023

UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNING SPORT MASHG‘ULOTLARIDA TIKLANISH VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mamatqulova Nazira Anvar qizi - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: naziramamatqulova2005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola uzoq masofaga yuguruvchilarning sport mashg‘ulotlarida tiklanish vositalaridan foydalanishning nazariy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada tiklanish jarayonlarining sportchilarning jismoniy va psixologik holatiga ta’siri tahlil qilinadi, zamonaviy sportda qo‘llanilayotgan tiklanish usullari, jumladan, krio- va termoterapiya, elektrostimulyatsiya, massaj, ovqatlanish va gidratatsiya kabi vositalar ko‘rib chiqiladi. Oxirgi 10 yillikdagi ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida tiklanish vositalarining sportchilar natijalarini oshirishdagi ahamiyati va ularning dolzarbligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari sportchilarning sog‘lig‘ini saqlash, jarohatlarni oldini olish va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun tiklanish jarayonlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Uzoq masofaga yuguruvchilar, tiklanish vositalari, krioterapiya, termoterapiya, elektrostimulyatsiya, mioterapiya, sport tiklanishi, mushak tiklanishi, gidratatsiya, sportchilarning ovqatlanishi, psixologik tiklanish.

Kirish. Sportchilarning tiklanish jarayonlari zamonaviy sportda asosiy e’tibor qaratiladigan jihatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, uzoq masofaga yuguruvchilar uzoq muddatli jismoniy yuklamalarni bajarishi sababli, ularning mushaklari, nerv tizimi va organizmi tez-tez charchaydi. Tiklanish jarayonlarining sport natijalariga ijobiy ta’siri ko‘p yillar davomida o‘rganilib, ilmiy asoslanib kelmoqda. Biroq, so‘nggi yillarda tiklanish jarayonlarini tezlashtirish va yanada samarali usullarini izlab topish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy sport tibbiyotidai tiklanish jarayonlari uchun yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan qator ishlar olib borilmoqda. Uzoq masofaga yuguruvchilarning tiklanish jarayonlari jismoniy tayyorgarlikni oshirish va musobaqalarda yaxshi natijalarga erishish uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, tiklanish jarayonlarining to‘g‘ri tashkil etilishi sportchilarning jarohatlardan saqlanishga va ularning uzoq muddatli sport formasini saqlashga yordam beradi. Shu sababli, tiklanish vositalarining dolzarbligi sportchilarning salomatligi va natijalariga ta’sir ko‘rsatishda katta ahamiyat kasb etadi. So‘nggi o‘n yillikda sport tibbiyoti sohasida tiklanish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ular sportchilarning tiklanish darajasi va ishlash qobiliyatini oshirish uchun yangi uslublarni aniqlashga qaratilgan. Bu jarayon sportda katta ahamiyatga ega bo‘lib, sportchilarni ortiqcha yuklanishdan

himoya qilish va ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlash uchun zarur hisoblanadi. Ilgari tiklanish jarayonlari faqat dam olish yoki yengil mashqlar bilan cheklanib kelingan bo‘lsa, hozirda bu jarayonlar yuqori texnologiyali usullar va vositalar bilan birgalikda kengayib bormoqda. Krio va termoterapiya, elektrostimulyatsiya, mioterapiya kabi yangi uslublar sportchilarning tiklanishida sezilarli natijalar bermoqda [1]. Zamonaviy sport tibbiyoti tiklanish jarayonlarining ta’sirchanligini oshirish maqsadida sog‘lom ovqatlanish, to‘g‘ri gidratatsiya va psixologik tiklanish usullariga ham katta e’tibor qaratmoqda. Tiklanish jarayonining psixologik tomoni, ya’ni sportchilarning stress darajasini kamaytirish va ularning aqliy holatini yaxshilash borasidagi ilmiy izlanishlar ham juda dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, uzoq masofaga yuguruvchilar uchun yuqori intensivlikdagi mashg‘ulotlardan keyin to‘g‘ri tiklanish usullari tananing qayta ishlash qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur usul sport natijalarini yaxshilashga intilayotgan barcha sportchilar va murabbiylar uchun muhimdir. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, to‘g‘ri tanlangan tiklanish vositalari uzoq masofaga yuguruvchilar uchun mushaklar faoliyatini mustahkamlash, jarohatlarning oldini olish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uzoq masofaga yuguruvchilar uzoq vaqt davomida katta yuklamalar ostida ishlagani sababli, ularning tiklanish jarayonlari tez va samarali bo‘lishi kerak. Shuning uchun bu mavzu nafaqat sportchilar, balki murabbiylar va sport shifokorlari uchun ham dolzarbdir. Tiklanish jarayonlari natijalarni yaxshilashda, jarohatlardan himoya qilishda va sportchi organizmiga bo‘lgan bosimni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun zamonaviy sportda turli xil tiklanish vositalaridan foydalanish keng qo‘llanilmoqda va bu sohada doimiy ravishda yangi tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Tadqiqotning maqsadi uzoq masofaga yuguruvchilarning sport mashg‘ulotlarida tiklanish vositalaridan foydalanishning nazariy asoslarini o‘rganish va ularning zamonaviy sport amaliyotidagi ahamiyatini tahlil qilish asosida yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Zamonaviy tiklanish vositalarining turlarini o‘rganish;

-Tiklanish jarayonlarining uzoq masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini tahlil qilish;

Tiklanish vositalarining zamonaviy sportda qo‘llanilishi va samaradorligi to‘g‘risidagi ilmiy ma’lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;

- So‘ngi yillardagi qilingan ilmiy ishlar tahlili asosida tiklanish vositalarining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan usullar quyidagilardan iborat:

Adabiyotlar tahlili: Zamonaviy sportda tiklanish jarayonlari va vositalari haqida ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va monografiyalar o‘rganildi.

Tahliliy usul: Ilmiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilindi va ularning amaliy sportga ta’siri baholandi.

Taqqoslash usuli: Zamonaviy tiklanish usullari va an’anaviy tiklanish usullari bir-biri bilan taqqoslandi. Tadqiqotda so‘ngi yillarda o‘tkazilgan ilmiy ishlardan foydalangan holda zamonaviy tiklanish vositalarining samaradorligi ochib berildi. Bunda ayniqsa uzoq masofaga yuguruvchilarga mos keladigan tiklanish usullari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tiklanish jarayonlarining samarali tashkil etilishi uzoq masofaga yuguruvchilar uchun natijalarni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Mushaklar va asab tizimining haddan tashqari zo‘riqishi sportchining faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shu sababli tiklanish jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, krio- va termoterapiya usullari uzoq masofaga yuguruvchilarda mushaklarning tiklanish tezligini oshiradi va charchoqni kamaytiradi. Bu usullar tana haroratini boshqarish orqali mushak tolalarining zo‘riqishini kamaytirib, ularni bo‘shashtiradi. Elektrostimulyatsiya esa mushaklar faoliyatini tezroq tiklashga yordam beradi, bu usuldan foydalanish sportchilarda yuqori yuklamalardan keyin tezroq tiklanishni ta’minlaydi. Shuningdek, massaj va mioterapiya usullari ham uzoq masofaga yuguruvchilarning mushaklaridagi zo‘riqishni kamaytirib, qon aylanishini yaxshilash orqali tiklanishni tezlashtiradi. Oziqlanish va suyuqlik qabul qilishning tiklanish jarayonlarida muhim o‘rin tutishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Tadqiqotlar sportchilarning to‘g‘ri ovqatlanish rejimi va gidratatsiyasi mushaklarning tiklanishida hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatmoqda. Psixologik tiklanish usullari ham sportchilarning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Stress va ruhiy zo‘riqishdan xoli bo‘lish mushaklarning tezroq tiklanishiga va umumiy jismoniy holatni yaxshilashga yordam beradi. Meditatsiya, nafas olish mashqlari va diqqatni jamlash texnikalari sportchilarda charchoq darajasini kamaytirishda katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, zamonaviy tiklanish texnologiyalari, jumladan, krio-sovutish kameralaridan foydalanish ko‘p sportchilar tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu usul mushaklar shikastlanishini kamaytirish va yallig‘lanish jarayonlarini oldini olishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq masofaga yuguruvchilar uchun massajning tiklanish jarayonlariga ta’siri ko‘proq fiziologik darajada bo‘lib, mushaklarning ishlash qobiliyatini tiklashga yordam beradi. Ilmiy manbalarda oziq-ovqat va suyuqlik balansini saqlash mushaklarning tiklanish jarayonlaridagi roli katta ekanligi ta’kidlanadi. Bir qator tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mashg‘ulotlardan keyin oqsil va uglevodlarni iste’mol qilish mushaklarning tezroq tiklanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, gidratatsiya

orqali organizmdagi suyuqlik balansini saqlash sportchilarning charchoqni kamaytirishiga xizmat qiladi. So‘ngi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar tiklanish jarayonlarining nafaqat jismoniy, balki psixologik tomonlarini ham o‘rganishga yo‘naltirilgan. Tiklanishning bu ikki jihati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, umumiy samaradorlikni ta’minlaydi. Yangi texnologiyalarning qo‘llanilishi, xususan, krio-sovutish va elektrostimulyatsiya uzoq masofaga yuguruvchilarning tiklanish samaradorligini oshirgan. Shu bilan birga, sportchilarning to‘g‘ri ovqatlanishi va yetarli darajada dam olishining tiklanish jarayonlaridagi o‘rni juda muhim. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sportchilar uchun tiklanish jarayonlarining yaxshi tashkil qilinishi ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tiklanish vositalarining samarali qo‘llanilishi uzoq masofaga yuguruvchilarning natijalarini sezilarli darajada oshiradi, bu esa sportchilarga yuqori natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. So‘nggi yillarda uzoq masofaga yuguruvchilarning tiklanish jarayonlari bo‘yicha turli xil tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu mavzuga oid ilk tadqiqotlar orasida O‘rta Osiyoda Olimjonova (2015) krio- va termoterapiyaning uzoq masofaga yuguruvchilarda mushak to‘qimalarini tiklashdagi ahamiyatini o‘rgangan. Olimjonovaning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, bu usullar uzoq muddatli yuklamalardan keyin sportchilarning tiklanish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi [1]. Shuningdek, Masson va Brukner tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda krio-sovutish terapiyasining sportchilarda mushaklarning zo‘riqishini kamaytirish va tiklanishni tezlashtirishga bo‘lgan ijobiy ta’siri o‘rganilgan. Ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu usul mushaklarning jarohatlanishini oldini olish va charchoqni kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi [2]. O‘rganish jarayonlari doirasida Yukawa va Hashimoto sportchilarda elektrostimulyatsiyaning tiklanish jarayonidagi roli haqida tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, elektrostimulyatsiya mushaklarning tiklanish jarayonini tezlashtirib, mushak to‘qimalarining qobiliyatini oshiradi va qon aylanishini yaxshilaydi [3]. 222 Jismoniy tarbiya vasport ilmiy tadqiqotlar instituti Tiklanish vositalari va usullari bo‘yicha qilingan tadqiqotlarda oziqlanishning ahamiyati ham katta rol o‘ynaydi. Anderson va Smith tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda oqsil va uglevodlar muvozanatli ovqatlanishi mushaklarning tiklanishiga katta ta’sir qilishi aniqlangan. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, to‘g‘ri ovqatlanish nafaqat mushak to‘qimalarining qayta tiklanishida, balki sportchilarning umumiy jismoniy holatini yaxshilashda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi [4]. Psixologik tiklanish borasida olib borilgan izlanishlar ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Wang va Choi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar meditatsiya va stress darajasini kamaytiruvchi texnikalar uzoq masofaga yuguruvchilarning tiklanish jarayonlarida qanday rol o‘ynashi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, aqliy va jismoniy holat o‘rtasidagi

bog‘liqlik sportchilarning samaradorligini oshiradi va charchoqni kamaytiradi [5]. Shu bilan birga, Nikolayev va Yelena tomonidan olib borilgan tadqiqotlar krio-sovutish kameralarining sportchilarga ta’sirini batafsil o‘rganib, uzoq masofaga yuguruvchilar uchun ushbu usulning foydali tomonlarini ko‘rsatib berdi [6].

Xulosa. Uzoq masofaga yuguruvchilarning sport mashg‘ulotlarida tiklanish vositalarining samarali qo‘llanilishi sportchilarning natijalarini oshirishda va jarohatlardan himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, krio- va termoterapiya, elektrostimulyatsiya, massaj va to‘g‘ri ovqatlanish kabi tiklanish usullari sportchilarning jismoniy holatini tiklashda katta rol o‘ynaydi. Oxirgi yillarda psixologik tiklanish usullarining qo‘llanilishi ham sport natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur maqola orqali uzoq masofaga yuguruvchilar uchun tiklanish vositalarining nazariy asoslari yoritildi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida ularning samaradorligi tahlil qilindi. Tiklanish jarayonlari nafaqat sport natijalarini oshirishda, balki sportchilar sog‘lig‘ini saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, bu mavzu zamonaviy sportda dolzarb hisoblanadi va sportchilar hamda murabbiylar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Olimjonova, M. (2015). Krio- va termoterapiya usullarining uzoq masofaga yuguruvchilarning mushak to‘qimalarini tiklashdagi ahamiyati. O‘zbek sport tibbiyoti jurnali, 8(3), 25-30.

2. Masson, J., & Brukner, P. (2018). Cryotherapy and its effects on muscle recovery in long distance runners. Journal of Sports Medicine and Physical Fitness, 58(1), 12-20.

3. Yukawa, K., & Hashimoto, S. (2019). Electrical stimulation as a tool for enhancing muscle recovery in athletes. International Journal of Sports Medicine, 40(4), 215-222.

4. Anderson, M., & Smith, J. (2017). The role of nutrition in muscle recovery after endurance sports. Journal of Sports Nutrition and Exercise Metabolism, 26(2), 134-145.

5. Wang, L., & Choi, S. (2020). The impact of meditation on psychological recovery in endurance athletes. Journal of Applied Sports Psychology, 32(3), 198-210.

6. Nikolayev, V., & Yelena, S. (2021). Cryo-chamber therapy and its effectiveness in the recovery process of long-distance runners. European Journal of Sport Science, 19(5), 531-538.

7. Brunner, P., & Blume, H. (2019). The effect of massage and myotherapy on muscle recovery in endurance athletes. Manual Therapy and Sports Performance, 27(6), 205-212.

5-SINF O‘QUVCHILARINING CHIDAMLILIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

D.X.Xasanov - O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
“Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: dxasanov65@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada 5-sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: maktab o‘quvchilari, jismoniy sifatlar, chidamlilik, o‘rta sinf, mashg‘ulot.

Tadqiqot maqsadi. Umumiy o‘rta ta’limning 5-sinf o‘quvchilarini sport to‘garaklari mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirish.

5-sinf o‘quvchilarining sport to‘garaklarida chidamlilik sifatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar Toshkent shahar Yangihayot tumani 4-sonli umumta’lim maktabi va Sergeli tumani 8-sonli umumta’lim maktabining sport to‘garaklariga joriy etilgan.

Sport to‘garaklarida chidamlilik sifatini rivojlantirish bo‘yicha mashqlar berib o‘tilgan.

Mashqlar aylana bo‘ylab bajariladi. Har bir „bekat“ o‘zining shartli nomiga ega, chunki unda ishlatiladigan mashqlar bevosita aniq bir mushaklarni rivojlantirishga qaratilgan.

Har bir “bekat”da mashqlarni tanlash o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligiga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Topshiriqlarning o‘zlashtirilishiga qarab mashqlar murakkablashtirib boriladi. Aylanma mashq qilish usulidan foydalanish orqali o‘quvchilarda chidamlilik sifati rivojlanadi. Hamma bekatlardagi mashqlar to‘liq bajarib bo‘linganidan so‘ng mashq tugatilgan hisoblanadi. O‘quvchilar 3-4 ta guruhga bo‘linib, bekatlarga borib turishadi. O‘qituvchi signalidan so‘ng mashq bajarish boshlanadi. 20-30 soniyadan so‘ng o‘qituvchi signali bilan o‘quvchilar soat strelkasi bo‘ylab aylanib boshqa bekatlarni o‘tishadi.

O‘rta sinf o‘quvchilarida aylanma mashq uslubi orqali chidamlilikni rivojlantirishda 6 ta bekat tuzib chiqilgan. Birinchi bekat “turnik” bekati bo‘lib, unda turnikka osilgan holda 5-8 marta tortilish sharti berilgan. Ikkinchi bekat “qo‘llar” bekati bo‘lib, unda yerga tayangan holda qo‘llarni 10-12 marta bukib-yozish sharti berilgan. Uchinchi bekat “qorin” bekati bo‘lib, unda chalqancha yotib, qo‘llarni bosh orqasiga qo‘yiladi. Gavdani 10-12 marta oldinga ko‘tarib-tushirish

sharti berilgan. To‘rtinchi bekat “Brus” bekati bo‘lib, unda brusda qo‘llarga tayanib, 3-5 soniya davomida oyoqlarni 90 gradus ushlab turish sharti berilgan.

Tajribaning boshi va oxirida 5-sinf qizlarining jismoniy rivojlanishi haqida ma’lumotlar 1-jadvalda berilgan.

1- jadval

Pedagogik tajribaning boshi va oxirida 5-sinf qizlarining jismoniy rivojlanishi haqida qisqacha ma’lumotlar

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
		Tajriba g.	Nazorat g.	Tajriba g.	Nazorat g.
1.	Tana vazni, kg	44,8±3,7	45,0±3,9	49,3±4,6	49,1±4,5
2.	Tana uzunligi, sm	142±6,3	142±6,8	156±5,2	154±4,4
3.	Ko‘krak qafasi aylanasi, sm	67,6±1,7	68,2±0,8	76,1±1,8	75,5±1,9
4.	O‘pkaning tiriklik sig‘imi, ml	1650±300	1725±265	2010±150	1870±120
5.	YuQS /yurakning qisqarish soni/	70±5	72±7	71±6	73±5

Tadqiqot davomida 5-sinf qizlarining jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olingan testlarda tana vazni, tana uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi, yurakning qisqarish soni kiritilgan.

O‘rganilgan barcha guruhlardagi qizlarning “tana vazni” ko‘rsatkichi sezilarli darajada quyidagicha o‘zgardi: tajriba guruhida - 8,3% ($t=2,5$; $p<0,01$); nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkich 9,1%ga oshgani kuzatildi ($t=3,07$; $p<0,01$).

O‘rganilayotgan guruhlarning qizlarida “tana uzunligi” quyidagicha xarakterga ega: tajriba guruhida o‘lchangan parametr 9,8% ($t=6,3$; $p<0,001$); nazorat guruhida 8,5%ga o‘sganini ko‘rish mumkin ($t=5,6$; $p<0,001$).

Ko‘krak qafasi aylanasi bo‘yicha olingan ko‘rsatkichi bo‘yicha tajriba guruhi qizlari tajriba boshida o‘rtacha 67,6 sm bo‘lgan bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 76,1 sm ni tashkil etdi. Nazorat guruhi qizlari esa, tajriba boshida ko‘krak qafasi aylanasi 68,2 sm bo‘lgan bo‘lsa, tajriba oxirida 75,5 sm ekanligi aniqlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi qizlarida o‘sish samarali darajani tashkil etadi.

O‘pkaning tiriklik sig‘imi bo‘yicha olingan ko‘rsatkichi bo‘yicha tajriba guruhi qizlari tajriba boshida o‘rtacha 1650 ml bo‘lgan bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 2010 ml ni tashkil etdi. Nazorat guruhi qizlari esa, tajriba boshida o‘pkaning tiriklik sig‘imi 1725 ml bo‘lgan bo‘lsa, tajriba oxirida 1870 ml ekanligi aniqlandi. Bundan

ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi qizlarida o‘sish samarali natijani tashkil etadi.

Xulosa

Toshkent shahar Yangihayot tumani 4-sonli umumta’lim maktabining 5-sinf o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan maxsus dastur chidamlilik sifatini rivojlantirish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari Sport to‘garaklarida qo‘llanilib tajriba guruhidan olingan chidamlilik sifati bo‘yicha natijalar umumiy 17,3% ga ko‘tarilgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat sport-ta’lim muassasalarida olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilarni tayyorlash va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 22.08.2022 yil 466-sonli qarori.

2. Salixova G.X. “13-15 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida rivojlantirish metodikasi” dissertasiya Chirchiq-2022, 147 bet.

3. Salomov R.S. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” Toshkent-2014, 72-bet.

4. Goncharova O.V. “Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish” Toshkent-2005, 79-bet.

GIMNASTIKA MASHQLARI TERMINOLOGIYASI VA ATAMALARNING AXAMIYATI

Samadov Ural Saloxiddinovich - Gulistom davlat pedagogika instituti,
Tabiiy fanlar fakulteti, “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishi 36-24 guruh talabasi
usamadov370@gmail.com

Anotatsiya

Gimnastika mashqlari terminologiyasi va atamalari jismoniy tarbiya va sport sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada gimnastika terminologiyasining rivojlanishi, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va mashqlarni o‘rganishda qanday yordam berishi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Atamalar har bir harakatning aniq va qisqa ifodasini ta'minlaydi, bu esa mashqlarni samarali o‘rganish va bajarishni osonlashtiradi. Maqolada terminologiyaning yasalish usullari, atamalarga qo‘yiladigan talablar, hamda bu atamalarni qo‘llashning amaliy usullari haqida ham so‘z boradi. Shuningdek, gimnastika mashqlari terminologiyasining kelajakdagi takomillashuvi va yangi yutuqlarni aks ettirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Gimnastika, terminologiya, atamalar, jismoniy tarbiya, mashqlar, harakatlar, ta’lim, o‘quv jarayoni, takomillashtirish.

Dolzarbligi. Ko‘p bilim sohalarida, turli ishlab chiqarish, harakat faoliyatida buyum hodisa, tushuncha, jarayonlarini qisqacha ifodalsh maqsadida maxsus atamalardan foydalaniladi.

Jismoniy tarbiyada, jumladan behad ko‘p mashqlar qo‘llaniladigan gimnastikada atamalar juda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Atamalar mashg‘ulotlar vaqtida o‘quvchilar bilan o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlarini yengillashtirish, gimnastikaga oid adabiyot nashir qilishda gimnastika mashqlari ta‘rifini soddalashtirishda yordam beradi. Gimnastika atamalari gimnastikadan boshqa mashg‘ulotlarda ham keng qo‘llaniladi.

Gimnastika mashqlarining aniq nomini bilmasdan turib uni o‘rganish qiyin. Shu sababli ularni o‘rganish jarayonida atamaning ahamiyati ayniqsa, kattadir. Qisqacha atamalar harakat ko‘nikmalarini shakillantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarning tasdiqlashicha, ular mashqni bajarish uchun o‘zini tayyorlashga yordam beradi, o‘quv jarayonini esa yanada oson va maqsadga muvofiq qiladi.

Gimnastika atamasi - bu gimnastika mashqlari, umumiy tushunchalari, snaryadlar, inventarlarning nomlarini qisqacha ifoda etish uchun qo‘llaniladigan maxsus nom (atama)lar, shartli (belgilab qo‘yilgan) qisqartirishlarning , mashqlarni yozish shakillarining tuzilishi hamda ishlatilish qoidalaridir.

Atama leksikasining bo‘limi sifatida shu fanning mazmuni, nazariyasi va amaliyoti bilan yaqindan bog‘liqdir.

Gimnastikada termin deganda, biron harakatlantiruvchi faoliyat yoki tushunchaning qisqacha shartli nomi tushuniladi.

Boshqa sohalardagi kabi, gimnastika terminologiyasi ham jismoniy tarbiya taraqqiyoti bilan bir qatorda takomillasha bordi chunki, amaliyot va fanda nimaiki yangilik paydo bo‘lsa, u tilda muqarrar aks etib, uni boyita boradi.

Vatanimizda gimnastika atamasi 1938 yilda joriy etilgan bo‘lib, rus adabiy tili lug‘at fondi asosida qurilgan edi. Shuning uchun u gimnastika bilan shug‘ullanuvchilarning turli kontengentlariga anchagina tushunarli va yaqin, shuningdek sobiq halqlarning boshqa tillarga to‘g‘ri (mashqlar mazmuniga qarab) tarjima qilish imkonini beradi. Yangi terminalogiyaning afzalligi avvalo, shundan iboratki, terminlar tuzish va ularni qo‘llashga ilgaridan boshqacha yondoshilardi. Mualliflar terminlar tuzish sistemasini har bir harakatining eng xarakterli xususiyatlarini ko‘rsatish bilangina cheklanib, ayni vaqtda shu harakatni aniq va qisqa ta’riflash imkonini beradigan qilib belgiladilar.

Gimnastikaning rivojlana borishi, nazariya va amaliyotda erishilgan yangi-yangi yutuqlar gimnastika terminologiyasini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

Gimnastika buyicha 1962-1963 yillardagi konferentsiyalari ham shu masalaga bag‘ishlangan edi.

Jismoniy tarbiya inistitutlari, ayniqsa Moskva, Leningrad va Kiyev jismoniy tarbiya institutlari gimnastika kafedralarining o‘qituvchilari gimnastika terminologiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar.

Atamaga qo‘yiladigan talablar Atama yasashning eng ko‘p tarqalgan usuli – mavjud so‘zlarga yangi ma’no berish (ularni boshqacha tushunish). Masalan, ko‘prik, kirish, o‘tish, chiqish kabi so‘zlar gimnastikada ana shunday atamalardan hisoblanadi. Ko‘pincha atama so‘zlarning, masalan, baland-past (qo‘shpoya), balandlab-uzoqqa (sakrash) singari o‘zaro birikishidan ham yasaladi. Osilish, tayanish, tebranish, o‘tirish va shu kabi ayrim so‘zlar atama sifatida qo‘llaniladi.

Statik holatlarni bildiradigan atama masalan, tayanish, bilaklarga tayanish, qo‘llarga tayanish, kuraklarda turish, boshda turish, qo‘llarda turish, kabilarda tayanch sharti hisobga olinadi, osilish, burchakli osilish, bukilib osilish, egilib osilish, singarilarda esa gavda holati (uning bo‘g‘inlarini bir biriga nisbatan qanday turishini) hisobga olib yasaladi.

Tebranish mashqlarining atamalar muayyan harakatlantiruvchi faoliyat xususiyatlarini hisobga olib yasaladi. Masalan: bilaklarga turib oldinga siltanib ko‘tarilish, qaddini rostlab siltanib ko‘tarilish, oyoqni juftlab yoki bitta oyoqda, ko‘tarilish va hokazo.

Sakrash va sakrab tushish atamalari sport gimnastikasida gavdaning havodagi holatiga qarab belgilanadi, masalan: oyoqlarni yig‘ib sakrash, oyoqlarni kerib

sakrash, to‘ntarilish; badiiy gimnastikada gavda bilan oyoqlar holatiga qarab belgilanadi: yopiq sakrash, ochiq sakrash, hatlab sakrash, sapchish, tayanib o‘mbaloq oshish, tashlanib sakrash, siltanib sakrash, chir aylanib sakrash va hokazolar.

Atamalarni qo‘llash qoidalari Gimnastika atamalari shug‘ullanuvchilarning malakasi hisobga olingan holda qo‘llanilishi kerak. Masalan, ishlab chiqarish gimnastikasi, ertalabki gigienik gimnastika va boshqa sog‘lomlashtirish gimnastikasi shakllarini o‘tkazishda umumrivojlantiruvchi mashqlarning asosiy atamalaridan foydalanibgina qolmay ular xalq so‘zlashuv adabiy tilidagi so‘zlar bilan to‘ldirib boriladi.

Atamaga ma’lum talablar qo‘yiladi:

1.Tushunarlilik.Ona tili lug‘at tarkibi va boshqa tillardan olingan so‘zlar, shuningdek, internatsional termin - so‘zlar asosida qurilgan bo‘lib, mazkur halq tilidagi va so‘z yasash va grammatika qoidalariga to‘la mos bo‘ladi. Shundagina atama so‘zlar tushunarli, hayotiy va barqaror bo‘ladi. Ona tili qoidalarini buzilishi atamalarning tushunarli bo‘lmay qolishiga olib keladi.

2.Aniqlik.Atama ta’riflanayotgan harakat (mashq) yoki tushunchaning mohiyati haqida ochiq oydin tasavvur beradigan bo‘lishi kerak. Atamaning aniqligi mashq haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilish uchun katta ahamiyatga molik bo‘lib u mashqni tezroq o‘rganib olishda yordam beradi.

3.Qisqalik.Atamalar qisqa, talaffuz etishga qo‘lay bo‘lgani ma’qo‘l. Mashqlarga nom berish va ularni yozishni engillashtiradigan qisqartiruv qoidalari ham shunga xizmat qilishi darkor.

Gimnastikaning sport turlari bilan shug‘ullana boshlaganlar mashqlarni o‘rganish bilan bir vaqtda atamani ham bilib borishlari zarur.

Yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan gimnastikachilar va akrobatlar, o‘qituvchilar, trenerlar uchun atama alohida bir maxsus til bo‘lib qoladi.

Hamma atama so‘zlarni quyidagicha guruhlarga bo‘lib chiqqan ma’qo‘l:

1. *Umumiy atamalar.*Bular mashqlarning alohidagi guruhlar, umumiy tushunchalarni va hokazolarni ta’riflash uchun qo‘llaniladi. Masalan, saf mashqlari, erkin mashqlar va boshqalar.

2. *Asosiy (konkret) atamalar.* Bular mashqlarning mazmun belgilarini aniq ta’riflash imkonini beradi. Masalan, ko‘tarilish, pastga tashlanish, aylanish, burilish, osilish, tayanish, sakrab tushish, engashish, tashlanish va boshqalar.

3. *Qo‘shimcha atamalar.* Bular asosiy atama so‘zlarga aniqlik kiritadi va harakat yo‘nalishini ijro etish usuli, tayanish sharti va hokazolarni ko‘rsatib beradi. Masalan, qaddini rostlab, yoysimon, to‘ntarilib va boshqalar. Mashqning nomi, odatda, uning mohiyatini ifoda etadigan asosiy atamadan va harakatni, uning izchilligini aniqlab beradigan qo‘shimcha termindan iborat bo‘ladi. Zarurat

bo‘lganda, ijro xarakterini ta’kidlaydigan uqtirish so‘zlari ishlatiladi (masalan, qo‘l keskin, bo‘shashtirib, mayin harakatlantiriladi va hokazo).

Qisqartirish qoidalari(ayrim ifodalarni tushirib qoldirish)

Bayon qilish qisqaroq bo‘lishi uchun gimnastikada odatda ko‘p holatlarni, harakatlarni yoki ularni qismlarining nomlarini ko‘rsatmaslik qabul qilingan. **Masalan, quyidagi so‘zlar tushirib qoldiriladi:**

«oldindan», «oldinga»- harakat yo‘nalishini ko‘rsatishda, agar shu harakat eng qisqa, iloji boricha yagona yo‘l bilan (masalan, oldindan qayrilib) bajariladigan bo‘lsa;

Qo‘llar, oyoqlar, oyoq uchlari, kaftlar holatining qandayligi- agar bu holat belgilangan uslubiga mos bo‘lsa;

«gavda»- engashishda;

«oyoq»- oldinga, orqaga siltanishda, oyoq uchini qo‘yishda;

«ko‘taring», «tushiring»- qo‘l yoki oyoqlar bilan harakat bajarganda;

«uzunasiga», «ko‘ndalangiga»- muayyan gimnastika snaryadiga ko‘proq xos bo‘lgan odatiy holatlarda;

«ustidan tutish» - eng ko‘p tarqalgan bo‘lgani uchun, «ichkariga sakrab tushish» (yoki snaryad ichkarisiga holat);

«sakrab tushish» yoki «sakrash»- gimnastika snaryadining nomidan shunday qilinishi ma’lum bo‘lsa;

«egilib»- bunday holat ijro texnikasidan ma’lum bo‘lsa. Masalan, qo‘shpoyalarda: oldinga siltanib ko‘tarilish- orqaga siltanib sakrab tushish;

«kaftlar ichkariga qaragan»- qo‘llar pastga tushirilgan, oldinga uzatilgan, orqaga uzatilgan yuqori ko‘tarilgan holatda;

«kaftlar pastga qaragan»- qo‘llar ikki yonga yoki chapga (o‘ngga) uzatilgan holatda;

«oldingi yoysimon»- qo‘llar oldinga harakatlantirib ko‘tarilsa yoki tushirilsa.

Dastlabki holat (d.h) faqat mashqning boshida ko‘rsatiladi. Oyoq- qo‘llar va gavdaning harakat yo‘li, harakat eng qisqa yoki odatdagi usulda bajarilmagandagina ko‘rsatiladi.

Dastlabki holatlar – mashqlar ijrosi boshlanishi oldidan turishlar va boshqa holatlar.

Turishlar: asosiy turish (AT)lar safga turishga mos keladi.

Turishning quyidagi turlari bor: oyoqlarni kerib turish, oyoqlarni keng kerib turish, chalishtirib turish. Bunda oyoq kaftlari juftlanadi, o‘ng (chap) oyoqda erkin turish.

O‘tirishlar – yerda yoki gimnastika snaryadlarida o‘tirish holatlari. O‘tirishning quyidagi turlari bor: oyoqlarni kerib o‘tirish, burchakli o‘tirish, oyoqlarni kerib burchakli o‘tirish, bukilib o‘tirish, oyoqlarni quchoqlab o‘tirish,

sonda o‘tirish va boshqalar.

Cho‘kkayish – shug‘ullanuvchilarning oyoqlari bukilgan holat yarim cho‘kkayish, ortga engashib yarim cho‘kkayish «suzuvchi starti» deb ham ataladi va hokazo.

Tashlanish – tayanch oyoqni biron tomonga tashlab bukish harakati yoki shundan keyin hosil bo‘lgan holat.

Tayanishlar – yelkalar tayanch nuqtasidan yuqori bo‘lgan holatlar.

Tayanishlarning quyidagi turlari bor:

Cho‘kkayib tayanish, o‘ng tizzaga tayanish, o‘ng tizza bilan chap qo‘lgan tayanish va chap tizza bilan o‘ng qo‘lga tayanish, tik bukilib tayanish, bilaklarga tayanib yotish, orqadan tayanib yotish va hokazolar.

Qo‘l va bel harakatlari – harakatlar barovar, galma-gal, ketma-ket, shuningdek, o‘ng qo‘l o‘ng tomonga, chap qo‘l chap tomonga, buning teskarisi, parallel (ikki qo‘l bir tomonga), simmetrik va nosimmetrik bo‘lishi mumkin. Ular asosiy va oraliq tekisliklardan qo‘llarni bukmay va bukib bajariladi. Qo‘llar bukilgan atamaga «bukish» so‘zi qo‘shiladi. Masalan, qo‘llarni bukib orqaga uzatish, qo‘llarni bukib yon tomonlarga uzatish va hokazo. Oyoqlarni bukishda ham shu atama ishlatiladi. Masalan, o‘ng oyoqni bukib oldinga uzatish yoki orqaga shu holatda uzatish.

Qo‘llarning dastlabki holati; qo‘llar belda, yelkalarda, bosh ortida, ko‘krak ortida va hokazo. Doira qo‘l oyoq boshni aylana bo‘ylab xarkatlantirish, shuning oyoqlarni snaryad tepasidan aylantirish.

Engashish – gavdani bukishni bildiradigan atama. Engashishning quyidagi turlari bor: to‘la engashish, kirishib engashish. Yarim engashish, oyoqlarni keng ochib engashish, oyoqlarni keng ochib engashish. Oyoqlarni quchoqlab engashish, orqaga engashib yerga yotish.

Muvozanat – shug‘ullanuvchilarning bir oyoqda turgandagi, shuningdek, osilib yoki tayanib turgandagi gorizontal holati. quyidagi turlari bor: o‘ng oyoqda engashib muvozanat saqlash; yonlama, orqaga engashib, oyoq ushlab va hokazo.

Xulosa. Gimnastika mashqlari terminologiyasi va atamalari jismoniy tarbiya va sport sohalarida muhim o‘rin egallaydi. Ularning o‘rganish va o‘qitish jarayonlaridagi roli beqiyos bo‘lib, to‘g‘ri va aniq atamalarning ishlatilishi mashqlarni samarali bajarish, o‘quvchilarning harakat ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Terminlarning aniqligi, qisqalik va tushunarliligi o‘quv jarayonini yengillashtirib, gimnastika mashqlarini o‘rgatishda samara keltiradi. Gimnastika terminologiyasining rivojlanishi va takomillashuvi jismoniy tarbiya sohasining ilmiy va amaliy jihatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqola gimnastika atamalarining tarixiy rivojlanishi, yasalish usullari va qo‘llanilish qoidalari haqida batafsil ma'lumot berdi. Shuningdek, terminologiyaning kelajakda takomillashishi va yangi sport yutuqlarini aks

ettirishdagi o‘rni hamda bu jarayonning jismoniy tarbiya va sport ta’limiga ta'siri muhokama qilindi. Gimnastika atamalari nafaqat sportchilar uchun, balki o‘qituvchilar va trenerlar uchun ham muhim vosita bo‘lib, ular mashqlarni aniq va samarali ta'lim berishda yordam beradi. Maqolada keltirilgan fikrlar va xulosalar, jismoniy tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar va amaliyotga oid qiymatli tavsiyalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR

1.Karimov M.K. Xoreografiya mashqlari va badiiy gimnastika. O`quv qo`llanma. T.: 2003. -120 b.

2.Gimnastika:uchebnik/V.M.Barshay,V.N.Kur`s, I.B.Pavlov.- Rostav n/D:Feniks, 2011.-314,[1]c.:il.- (Visshee obrazovanie).

3.M.N.Umarov.«Gimnastika». O`quv qo`llanma, T., “VNESHIN VESTPROM”, 2015y.,400 b.

KORRUPSIYA- FUQAROLIK JAMIYATINING TANAZZULI

Aslonova Sabina Akmal qizi -Navoiy Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti Sport faoliyati(Kurash)yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiya, ya’ni poraxo‘rlik haqida so‘z boradi. Korrupsiya tarixda mavjud bo‘lganligi va unga qarshi qo‘llanilgan jazo hamda hozirgi kunda jahon mamlakatlari poraxo‘rlikka qarshi qo‘llayotgan tajribalari haqida ma’lumotlar berilgan. O‘zbekistonda ham bunga qarshi qo‘llanilgan chora tadbirlar, qabul qilingan qonunlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:Korrupsiya, illat, tarix, qonun, jahon tajribasi, va bir qancha davlatlar;(Singapur, Xitoy, Daniya, BMT).

Аннотация: В данной статье рассматривается коррупция, а именно взяточничество. Приведены сведения о существовании коррупции в истории, мерах наказания за нее, а также о современных антикоррупционных мерах, применяемых в разных странах. Также освещены меры, законы и инициативыб принятые в Узбекистане для борьбы с коррупцией.

Ключевы слова: Коррупция, порок, история, закон, мировой опыт, несколько стран (Сингапур, Китай, Дания, ООН).

Annotation: This article discusses corruption, specifically bribery. It provides information about the historical existence of corruption, the punishments applied against it, and the anti-bribery practices implemented by various countries today.

The article also highlights the measures, laws, and initiatives taken in Uzbekistan to combat corruption.

Keywords: Corruption, vice, history, law, global experience, several countries (Singapore, China, Denmark, UN).

Ma’lumki, jamiyat taraqqiy etgan sari qonunlar ham rivojlana boradi. Har bir mamlakat o‘z qonuniga egadir. Eng achinarlisi ba’zi odamlar qonunni buzish uchun chiqariladi deb o‘zlarini oqlashga urunishadilar. Misol uchun bir qonunbuzar qonunni buza turib qo‘lga olinadi va jazoga tortiladi, ammo u bu jazodan qutulib qolish uchun himoyachisiga pora taklif qilish oqibatida yana bir qonunni buzadi. Biz bu maqolada poraxo‘rlik haqida gapirmoqchimiz, ya’ni “korrupsiya” Korrupsiya fuqarolik jamiyatidan “daraxt”ni yemiruvchi bir qurtdir.

Gap korrupsiya haqida borar ekan, u jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illatdir. Korrupsiya mamlakat yuksalishiga, demokratiya rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada xalq qoloqlashadi. Ularda inson ongini loqaydlikka, boqimandalikka tobe qiluvchi kayfiyat yuzaga keladi.

Inson o‘z huquq va erkinliklari, burchlarining poymol bo‘layotganini ko‘rib turib unga befarq munosabatda bo‘ladi. Oqibatda bu atrofga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Demokratiya va inson huquqlari deya bong urilayotgan bir paytda jamiyat a’zolarining bunga nisbatan bee’tibor pozitsiyada turishi mamlakatni ichdan yemiradi. Davlat qachon rivojlanishda yuksak cho‘qqiga erishadi, qachon qachon demokratik davlatlar qatoriga qo‘shila oladi? Bu fuqarolarning huquqiy ongiga bog‘liq emasmi? Fuqaro qonunni bilmasa, unga amal qilmasa, uning jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi qanday bo‘lardi? Nega qonunni bila turib unga amal qilmaydi? Bu savollar bizni haligacha o‘ylantirib kelmoqda. Harakat qilish vaqti kelmadimikin. Biz korrupsiyani o‘z jamiyatimizdan yoqotishga harakatni boshlashimiz kerak.

Jahonda korrupsiya atamasiga turlicha yondashishadi, ya’ni “ Korrupsiya- shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimiyatini suiste’mol qilishdir. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta’kidlashicha, “korrupsiya- mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat”,- deb izohlashadi.Aslidachi korrupsiya faqat davlat mansabdorlari ichidami? Menimcha yo‘q! ular ta’riflashayotgan korrupsiyaning yuqori bir ko‘rinishidir. Etimologik jihatdan “ korrupsiya” atamasi “buzish,pora evaziga og‘dirish” degan ma’noni anglatadigan lotincha “corruption” so‘zidan kelib

chiqqan. Demak, bundan bilish mumkinki, har qanday pora evaziga qilinadigan ish bu – korrupsiyadir.

Tarixga nazar soladigan bo‘ladigan bo‘lsak, korrupsiyaning tag ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Masalan, tarixchi Gerodotning yozishicha, eramizdan avvalgi VI asrda hukmdorlik qilgan Eron shohi Kambiz, Sizam ismli qozini pora olgani uchun terisini shilib olishni va o‘tirgan qozilik kursisini o‘sha teri bilan qoplashni buyurgan . Qozzilik lavozimiga esa poraxo‘rlik nima bilan yakun topishini hamisha yodda tutish uchun Sizamning o‘g‘li Otan tayinlanishi, bundan tashqari, Rossiyada korrupsiyani birinchi cheklanishi Ivan III hukmronlik qilgan davrda yuz berganligi, uning nabirasi Ivan IV esa poraxo‘rlikka qarshi o‘lim jazosini qo‘llaganligi korrupsiyaning qadimdan mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

Mansabdor shaxslarni o‘z mavqeyidan foydalanib boshqalarga ta’sir o‘tkazish orqali vazifasini suiste’mol qilishi korrupsiyani o‘z maqsadini tezroq amalga oshrishning qulay yo‘liga aylantirib qo‘ydi. Mansabdor shaxs ortiqcha qiyinchiliklarsiz, harakatlarsiz osongina o‘z maqsadiga erishadi yoki kimgadir shu orqali osongina yordam beradi. Natijada yordam olgan kishi ham yordam bergan kishi ham bundan minnatdor. Odamlar o‘z mavqeylaridan foydalanib osongina jiyanini yoki boshqalarni biror korxona yoki firmaga osongina joylashtirib qo‘yishadi. Vaholanki, jiyani bu ishga liyiq emas, u hattoki ish yuritishni ham bilmaydi. Endilikda u korxona axvolini tasavvur qilib ko‘ring. Ish yuritishni bilmaydigan boshliq korxonani tanazzulga uchratatadi. Agar bu holat davlat organlarida, qonunchilikda va boshqa turli mansablarni egallashsachi? Ha! To‘g‘ri endilikda davlat tanazzulga yo‘l oladi.

Fuqarolar orasidagi korrupsiyaga nisbatan bo‘lgan ijobiy munosabat, ya’ni korrupsiyani butunlay qoralash o‘rniga uning jamiyatimizda yanada chuqurroq ildiz otishiga sababchi bo‘lishi achinarli holat, albatta. Faqatgina boshqalar oldida korrupsiyani qoralash, ammo aytilgan gaplarga, fikrlarga amal qilmagan holda o‘z mavqeyini suiste’mol qilish, qonunga zid ravishda ish yuritish va buni berkitish, bu ishda kimnidir sherik qilish jinoyat, ammo odamlar ko‘ra turib bu ishlarni takror va takror qilishadi. Lekin demokratik ruhda tarbiyalangan jamiyatda korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmaydi. Demak, fuqaralarni demokratik ruhda tarbiyalash kerak. Bundan kelib chiqadiki, tarbiyani birinchi navbatda, o‘zimizdan, ya’ni biz yoshlardan boshlash kerak. Har bir shaxs o‘z mehnati evaziga kun kechirishi, o‘z mehnati evaziga muvaffaqiyatga erishishi, o‘z ishini bajarishda doimo olis bo‘lishi va qonunga tayangan holda ish ko‘rishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiya”si zimmasiga pora olganlik uchun eng kam oylik ish haqqining 50 barobaridan 100 barobarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 5yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Ushbu jinoyat og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganda 10yildan 15 yilacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina mas’ul xodimlarning vazifasi emas, yoki davlat rahbarlari bunga javobgar degan fikr umuman joiz bo‘lmaydi, balki bu jarayonda barchamiz birdek harakat qilsak ko‘zlangan natijaga erishishimiz mumkin. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda ochiq-oshkoralikka juda katta e’tibor berilmoqda. Amalga oshirilayotgan bu ishlarda esa ommaviy axborot vositalarining ahamiyati juda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.BMT ning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma’lumotnomasidan.

2.I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.O‘zbekiston. 1997-yil.

3.2017-2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, 2017-yil 82-bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan. “Xalq so‘zi” 2018-yil 7-dekabr.

5. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston” NMIU, 2017-29b.

OLIY O‘QUV YURTLARIDA TALABALARNING NAZARIY BILIM ASOSLARINI AMALIYOTDA QO‘LLASH

Spataev Bahtiyar - Guliston davlat pedagogika institute stajyor-o‘qituvchi
bahtiyarspataev333999@gmail.com

Ziyodullayev Daler - Guliston davlat pedagogika instituti 30-22 guruh talabasi
da1er@icloud.com

Abstrakt: Oliy ta’lim tizimida nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishi talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish masalalari, ilg‘or yondashuvlar hamda jahon tajribasiga asoslangan samarali metodlar tahlil qilinadi. Talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilib, ta’lim jarayonining takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Nazariy bilim, amaliyot, oliy ta’lim, innovatsion metodlar, eksperimental ta’lim, kasbiy ko‘nikmalar, ta’lim jarayoni, interfaol o‘qitish.*

Kirish: Bugungi kunda oliy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri – talabalarga chuqur nazariy bilim berish bilan birga, ularni amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassis sifatida shakllantirishdir. Amaliy tajribaga ega bo‘lmagan talabalar bitirgandan so‘ng real ish sharoitlariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, amaliy loyihalar va ishlab chiqarish tajribasi bilan bog‘lash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda mehnat bozori nafaqat nazariy bilimlarga ega mutaxassislarni, balki amaliyotda real muammolarni hal qila oladigan, kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni talab qilmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimini takomillashtirish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash orqali yosh mutaxassislarning ishga tayyorgarlik darajasini oshirish dolzarb masaladir.

Ilmiy ahamiyati: Nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unlashuvi o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalar amaliy mashg‘ulotlarga jalb qilinganida, ularning kasbiy rivojlanishi va mustaqil fikrlash qobiliyati ancha oshadi.

Asosiy qism: Dunyo bo‘ylab rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish tamoyiliga asoslangan. Masalan,

AQSh va Yevropa mamlakatlarida "dual ta’lim tizimi" keng qo‘llanilib, bu jarayonda talabalar darslarning ma’lum qismini ishlab chiqarish korxonalari yoki tashkilotlarda o‘tashadi. Germaniyada ishlab chiqarish bilan bog‘liq ta’lim tizimi keng rivojlangan bo‘lib, talabalar ta’lim olgan sohalarida real loyihalarda qatnashishadi. Yaponiya va Janubiy Koreyada esa amaliy ta’lim laboratoriya va texnoparklar bilan integratsiya qilingan bo‘lib, talabalar ilmiy-innovatsion loyihalar ustida ishlash orqali amaliy bilimlarga ega bo‘lishadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash bo‘yicha keng islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, universitetlar va korxonalar hamkorligi yo‘lga qo‘yilib, talabalar ishlab chiqarish korxonalari bilan bevosita bog‘langan holda o‘qitilmoqda. Masalan, texnika yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar zavod va fabrikalarda amaliy mashg‘ulot o‘tash imkoniyatiga ega bo‘lsa, iqtisodiyot va menejment yo‘nalishidagi talabalar korporatsiyalar va banklarda tajriba orttirmoqdalar.

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashning samarali usullaridan biri – interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishdir. Bunday metodlar qatoriga case-study (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish), simulyatsiya mashg‘ulotlari, rol o‘yinlari, loyiha ishlari va tadbirkorlik faoliyati kiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ularning nazariy bilimlarni real hayotiy sharoitlarda qo‘llash ko‘nikmasini oshiradi.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari, onlayn platformalarda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish talabalarning tajribaviy bilimlarini boyitishga yordam beradi. Masalan, tibbiyot sohasida virtual operatsiyalarni simulyatsiya qilish orqali talabalar jarrohlik amaliyotlarini xavfsiz muhitda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini joriy etishda kadrlar tayyorlash tizimi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar o‘z kasbiy bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi lozim. Shu sababli, pedagog kadrlar uchun ishlab chiqarish amaliyotlari, xorijiy tajriba almashish dasturlari va innovatsion metodlarni joriy etish muhimdir.

Oliy ta’limda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash jahon tajribasida muhim tamoyil hisoblanadi. Turli mamlakatlar ta’lim tizimida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan samarali yondashuvlar mavjud. Germaniyada dual ta’lim tizimi keng tarqalgan bo‘lib, unda talabalar o‘qish bilan birga ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o‘tashadi. Bu tizim talabalarning

nazariy bilimlarini real ish sharoitida mustahkamlashga imkon yaratadi va ularni mehnat bozoriga tayyorlaydi.

AQShda oliy o‘quv yurtlari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik tizimi rivojlangan bo‘lib, talabalar universitetlar bilan bir qatorda korxonalarda ham loyihalar ustida ishlaydi. Masalan, texnologik universitetlarda talabalar yangi innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etishadi, bu esa ularning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ko‘plab universitetlar talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish orqali ularning nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini ta’minlaydi.

Buyuk Britaniyada “Work-Based Learning” (ishga asoslangan o‘qitish) tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda talabalarning o‘quv jarayonida egallagan bilimlari bevosita amaliy ish faoliyatida qo‘llanadi. Universitetlar turli kompaniyalar bilan hamkorlik qilib, talabalar uchun ishlab chiqarishda o‘qish imkoniyatini yaratadilar. Bu esa kadrlarning malakali va zamonaviy talablar asosida tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Yaponiya ta’lim tizimida ham nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda talabalar ishlab chiqarish korxonalarida stajirovka o‘tash orqali nazariy bilimlarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, universitet va korxona hamkorligi keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, talabalar amaliy mashg‘ulotlar davomida kompaniya muammolarini hal qilishda bevosita ishtirok etishadi.

O‘zbekistonda ham nazariy va amaliy ta’limni uyg‘unlashtirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Dual ta’lim tizimini joriy etish, oliy o‘quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, amaliyot dasturlarini kuchaytirish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilindi. Xususan, kasb-hunar ta’limi tizimida talabalarga nazariy bilim bilan bir qatorda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash imkoniyatlari yaratilmoqda.

Finlandiya tajribasi:

Finlandiyada ta’lim tizimi nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unlashganligi bilan ajralib turadi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarga faqat auditoriyada emas, balki haqiqiy ish muhitida ham bilim olish imkoniyatini yaratadi. Universitetlar davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikda talabalarni real loyihalar va tadqiqotlarga jalb qiladi. Bu yondashuv talabalar uchun kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Singapur modeli:

Singapur oliy ta’lim tizimi ham nazariy va amaliyot uyg‘unligiga katta e’tibor qaratadi. Talabalar universitetda ta’lim olayotganda, parallel ravishda amaliyot o‘tash uchun sanoat korxonalariga yuboriladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan

amaliy ta’limni rag‘batlantirish maqsadida turli grantlar va moliyaviy yordam dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Singapur texnologiya universitetlari talabalarni xalqaro miqyosda tan olingan kompaniyalarga amaliyotga jo‘natib, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Kanadada kooperativ ta’lim modeli:

Kanadada “Co-op” ta’lim modeli keng tarqalgan bo‘lib, bunda talaba o‘qish jarayonida ishlab chiqarish amaliyotidan o‘tadi va bitiruvdan oldin haqiqiy kasbiy tajribaga ega bo‘ladi. Masalan, Vaterloo universiteti talabalari o‘qishning 40-50% qismini amaliyotda o‘tkazishadi. Ushbu model bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Xitoyda amaliy ta’lim strategiyasi:

Xitoyda oliy ta’lim muassasalari sanoat korxonalari bilan hamkorlikda ishchi kuchini zamonaviy iqtisodiyot talablari asosida tayyorlashga harakat qilmoqda. Ayniqsa, texnologiya va muhandislik yo‘nalishlarida amaliy mashg‘ulotlarning ulushi oshirilgan. Hukumat yirik korporatsiyalar bilan hamkorlikda maxsus amaliyot dasturlarini ishlab chiqmoqda va talabalarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilmoqda.

Germaniyaning “Ausbildung” tizimi:

Bu tizim bo‘yicha talabalarga ma’lum bir soha bo‘yicha nazariy bilim beriladi va ular o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish joyida amaliy tajribaga ega bo‘lishadi. Germaniyada ushbu model orqali ko‘plab yosh mutaxassislar muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat boshlaydi.

Janubiy Koreyada universitet-sanoat integratsiyasi:

Janubiy Koreyada oliy ta’lim va sanoat o‘rtasidagi hamkorlik keng yo‘lga qo‘yilgan. Davlat tomonidan universitetlarga sanoat bilan hamkorlik qilish majburiyati yuklangan bo‘lib, bitiruvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga yo‘naltirish tizimi mavjud. Talabalar startap inkubatorlarida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, ularning loyihalari real iqtisodiy jarayonlarga bog‘langan.

O‘zbekistonning yangi islohotlari:

O‘zbekistonda dual ta’lim tizimi rivojlantirilmoqda. Talabalar o‘z yo‘nalishiga mos ravishda ishlab chiqarish amaliyotiga jalb etilib, korxonalarda amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Hukumat tomonidan "Kasbga yo‘naltirish va amaliyot dasturi" joriy qilinib, yosh mutaxassislarning amaliy malakasini oshirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Dual ta’lim tizimi, sanoat va universitet hamkorligi, loyiha asosida o‘qitish kabi usullar talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi va ularni real mehnat bozoriga moslashishga yordam beradi.

Muammolar va ularning yechimlari:

Muammo 1: Amaliy mashg‘ulotlarning yetarli emasligi

Ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida nazariy darslarga ko‘proq e’tibor beriladi va amaliy mashg‘ulotlar cheklangan. Bu esa talabalarning real ish sharoitlariga moslashish jarayonini murakkablashtiradi.

✓ Yechim:

O‘quv dasturlarini amaliyotga yo‘naltirish va dual ta’lim tizimini keng joriy etish. Ishlab chiqarish korxonalari va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish. Talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini o‘quv jarayoni bilan integratsiya qilish.

Muammo 2: O‘qituvchilarning amaliy tajribasi yetarli emas

Ba’zi pedagoglar nazariy bilimga ega bo‘lsalar-da, real sektor va amaliy tajribaga kamroq ega. Bu esa talabalarga zarur ko‘nikmalarni yetkazishda muammolar tug‘diradi.

✓ Yechim:

O‘qituvchilarni sanoat va ishlab chiqarish korxonalari bilan yaqindan tanishtirish.Ularni malaka oshirish kurslariga jalb qilish va ishlab chiqarish amaliyotidan o‘tishini ta’minlash. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar va sanoat vakillari tomonidan mahorat darslarini tashkil etish.

Muammo 3: O‘quv dasturlarining eskirganligi

Ba’zi ta’lim dasturlari zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kelmaydi va talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarlicha hissa qo‘shmaydi.

✓ Yechim:

Ta’lim dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish va real sektor bilan integratsiya qilish. Ish beruvchilarning fikrlarini inobatga olgan holda yangi o‘quv rejalarini ishlab chiqish. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash.

Muammo 4: Amaliy mashg‘ulotlar uchun texnik baza yetarli emas

Ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida laboratoriyalar, simulyatorlar va amaliy mashg‘ulotlar uchun texnik jihozlar yetishmaydi.

✓ Yechim:

Oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy laboratoriyalar va texnoparklar tashkil etish.
Virtual va raqamli texnologiyalar yordamida amaliy mashg‘ulotlarni rivojlantirish. Universitet va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, talabalar uchun amaliy bazalarni kengaytirish.

Muammo 5: Talabalarning motivatsiyasi pastligi

Ba’zi talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga unchalik e’tibor bermaydi yoki bunday imkoniyatga ega emas.

✓ Yechim:

Talabalar orasida real loyiha va startaplar ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish. Ish beruvchilar bilan hamkorlikda stajirovkalar va amaliyot dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Talabalarga amaliyot davomida rag‘batlantirish tizimini joriy etish (stipendiyalar, sertifikatlar, ishga joylashish imkoniyati).

Muammo 6: Ish beruvchilarning talabalar bilan hamkorligi sustligi

Ko‘pgina korxonalar oliy ta’lim muassasalari bilan bevosita hamkorlik qilmaydi, natijada talabalar amaliy tajriba olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

✓ Yechim:

Korxonalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va dual ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish.
Ish beruvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilish, ma’ruza va seminarlar o‘tkazish. Universitet bitiruvchilari uchun ishga joylashish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Oliy ta’lim tizimida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash jarayoni turli to‘siqlarga duch kelmoqda. Biroq, xalqaro tajribalar va innovatsion yondashuvlar orqali bu muammolarni samarali hal qilish mumkin. Dual ta’lim tizimini kengaytirish, texnik bazani rivojlantirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va talabalar motivatsiyasini kuchaytirish orqali nazariy bilimlarning real hayotga tatbiq etilishini ta’minlash mumkin.

Takliflar:

1. Dual ta’lim tizimini rivojlantirish – talabalarning o‘qish jarayonida ishlab chiqarish amaliyotini oshirish.

2. Interfaol metodlarni keng joriy etish – case-study, loyiha uslubi, simulyatsiyalar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

3. Virtual va raqamli texnologiyalardan foydalanish – amaliy mashg‘ulotlarni yanada realistik qilish uchun zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish.

4. O‘qituvchilarning malakasini oshirish – zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish.

5. Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kuchaytirish – universitetlar va sanoat korxonalari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash.

XULOSA

Oliy o‘quv yurtlarida nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unlashuvi talabalarni kasbiy tayyorgarlikka yaxshiroq moslashtirishga yordam beradi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor qaratish mutaxassislarning ishga joylashish imkoniyatini oshiradi. Shu sababli, innovatsion metodlarni joriy etish, interfaol yondashuvlardan foydalanish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish talabalar uchun sifatli ta’lim muhitini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Macmillan.
2. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall.
3. Biggs, J. & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. Open University Press.
4. OECD (2020). Innovative Learning Environments. OECD Publishing.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi” farmoni.

STOL TENNISDA ZARBANING ASOSIY TURLARI VA BAJARISH TEXNIKASI

Ummataliyeva Diyoraxon Qahramonjon qizi - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

e-mail ummataliyevadiyoraxon@gmail.com

Annotatsiya: Stol tennisi sportida zarbalar turli xil texnikalariga va strategiyalarga asoslanadi.Bu maqolada stol tennisida eng asosiy zarba turlari va ularni va ularni to‘g;ri bajarish texnikalari keltirilgan. Zarba turlari orasida forehand, backhand, servis, chop va smash kabi zarbalar o‘yining muvaffaqiyatli bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun zarbalarni to‘g‘ri o‘rganish va ularni o‘zlashtirish sportchining muvaffaqiyatiga erishishdagi asosiy omillardan biridir.

Kalit so‘zlar: Stol tennisi, zarba turlari,forehand, servis, chop, smash, texnika, o‘yin strategiyasi, sport, tennis sporti.

Kirish. Stol tennis, yoki stol tennisni, dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va yuqori tezlikda o‘ynaladigan sport turidir . Bu sportda o‘yinchilar to‘plamini raqib maydoniga qattiq va aniqlik bilan yuborish orqali o‘zaro raqobatlashadilar. O‘yinchi uchun zarba turini to‘g‘ri tanlash va bajarish, o‘yinda muvaffaqiyatli bo‘lishning asosiy omillaridan biridir. Zarba turlari o‘yin uslubiga qarab o‘zgaradi va har bir zarba o‘zining maxsus texnikasi talab qiladi. Stol tennisida zarbaning bajarishning bir nechta asosiy turlari mavjud, ular o‘yinchining raqibining strategiyasiga javoban moslashuvi muhimdir. Ushbu maqolada forehand, backhand, servis, chop, va smash zarbalari ularning bajarilish texnikalari haqida so‘z boradi. Har bir zarba turli o‘yinlarining texnik va jismoniy tayyorgarligini talab qiladi , shuning uchun ularni mukammal o‘zlashtirish , o‘yinda yuqori natijalarga erishishda yordam beradi.stol tennisi raketka bilan o‘ynaladigan sport turlari orasida boshqa sport turlariga qaraganda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki bu sport

turida o‘yinchilar bir qancha o‘yin uslublarida o‘yin olib borishadi. Shuning uchun ham stol tennisi sport turi ko‘p qirrali ekanligi bilan o‘ziga xosdir. Sportchilarning o‘yin darajalari oshib borgani sayin ularning o‘yin uslublari xilma-xilligi kamayib boraveradi, bunga sabab esa texnik jihatdan o‘yinchilarning zaif uslublari ham o‘yin davomida tezda yo‘qolib boraveradi, ammo hatto eng katta xalqaro darajadagi stol tennisi o‘yinlarida ham juda ko‘plab bir-biriga o‘xshamagan o‘yin uslublarini kashf etish mumkin. Masalan, stol tennischilarining o‘yin uslublari xilma-xilligi kuzatilishi jihatidan 2021-yil stol tennisi tarixidagi eng mashhur yil hisoblanadi. Stol tennisida hujumkor o‘yin uslublari boshqalariga qaraganda ustunlik qiladi.Stol tennisda jismoniy faollikni tezkor fikirlashni va strategiyalarni talab qiluvchi sport turidir.Ushbu sportda zarbaning bajarilishi juda muhim bo‘lib, u o‘yinchining muvaffaqiyatli belgilovchi omil bo‘ladi. Stol tennisi o‘yinda zarbaning turli xil usullari mavjud, ularning har biri o‘yinchiga turli taktikalarda foyda krltiradi.

To‘g‘ri zarba stol tennisda eng ko‘p ishlatiladigan zarbalaridan biridir. Bu zarba to‘gri qo‘l bilan yoki o‘ng qo‘lda o‘ynaladi va odatda raqibning to‘g‘ri tomoniga yo‘naltiradi. To‘g‘ri zarba raqibning hujumiga javob berish , balni tarmoqa yo‘naltirish va o‘yinda bosim o‘rnatish uchun juda samarali.Orqa zarba bu raketkaning oraqa tomonidan amalga oshiriladigan zarbadir va u o‘ng qo‘li bilan o‘ynaydiganlar uchun kamroq tabiiy bo‘ladi.Xavfli zarba yoki smash yuqori uchgan to‘pni yuqori tezlikda va kuch bilan pastga tushirishni maqsad qilgan zarba. Chuqur zarba to‘pni yuqoriga qarab aylantirib yuborishdir. Bu zarba o‘yinchiga ballni o‘zgacha yo‘nalish imkonini beradi, shuning uchun raqib uni qaytarish qiyinroq bo‘ladi.O‘zbekiston, so‘nggi yillarda stol tennis sportiga katta e’tibor qaratib, ushbu sportni rivojlantirish borasida bir qator yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga, stol tennisi mamlakatda nafaqat o‘yinchilarni tayyorlash, xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonish va sportni ommalashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Hozirgi kunda o‘zbek stol tennisi o‘zining rivojlanishiga yangi bosqichga o‘tgan bo‘lsa-da, hali amalga oshirilish kerak bo‘lgan ishlar mavjud.

O‘zbekiston stol tennisi sohasida jahon miqyosda o‘z ornini topishga harakat qilmoqda. O‘zbekistonlik o‘yinchilar xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, o‘zlarining malakalarini namoyish etmoqda. Masalan, Jahon Chempionati va Osiyo Chempionati kabi yirik musobaqalarda o‘zbekistonlik sportchilar o‘zaro raqobatlashib, bir necha bor yuksak natijalarga erishdilar.

O‘zbekistonda stol tennisi yoshlar o‘rtasida keng tarqalgan. Mamlakat bo‘ylab ko‘plab maktablar va sport maktablarida stol tennisi darslari o‘tkazilmoqda. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa yirik shaharlarida stol tennisi bo‘yicha sport maktablari faoliyat yuritadi.

Stol tennisiga qiziqish ortgan sari, bu sport turi nafaqat jismoniy faollikni, balki mantiqiy fikrlashni va strategik yondashuvni rivojlantiradi. O‘zbekiston hukumati

yoshlarni sportga jalb qilish uchun o‘zining maqsadli dasturlarini ishlab chiqmoqda. Bu dasturlar doirasida o‘yinchilarga eng zamonaviy tayyorgarlik metodikalari va uslublari taklif etilmoqda.

Xulosa. O‘zbekiston stol tennisi sporti sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan va hozirgi kunda rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tgan davlatlardan biridir. Mamalakatda stol tennisi nafaqat xalqaro miqyosda o‘z o‘rnini topishda davom etmoqda, balki yosh avlodni tayyorlash, sportni ommalashtirish va jismoniy faollikni targ‘ib qilishda ham katta ahamiyatga ega.Stol tennisi bugungi kunda o‘zbekistonda faqatgina o‘yin emas, balki ijtimoiy madaniyatning bir qismiga aylangan, odamlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni kuchaytiruvchi sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamalakatda stol tennisi rivojlanishida sport maktablarining, murabbiylarningva ilmiy pedagogik sohaning ahamiyati katta. Yosh sportchilarni tayyorlash uchun zamonaviy tirening uslublar va texnalogiyalar joriy qilinishi o‘yinchilarning natijalarini yaxshilashga yordam bermoqada.O‘zbekistonda stol tennisi o‘zining rivojlanishida yangi bosqichga o‘tgani , texnalogiyalar va zamonaviy tayyorgarlik usullarining joriy etilishi, yoshlarni tayyorlashni samarali tizmlari va xalqaro musobaqalarda o‘zbek sportchilarning muvaffaqiyatlari bularning barchasi stol tennisda mamlakatdagi yuksalishga katta hissa qo‘shmoqda .

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi jismoniy tarbiya sport vazirligi stol tennisi (2020)
2. Xolmamatov ,S stol tennisi o‘yin texnikasi va taktikasi (2019)
3. Fazilov.R. Stol tennisi o‘yin zamonaviy usullar va trening texnikasi 2021
4. O‘zbekiston respublikasi yoshlar ishlari ,sport turizm vazirligi
5. Jahongirov .D. Stol tennisi texnalogiyalar 2022

OLIY TA’LIM MUASSASALARI JISMONIY MADANIYAT TALABALARIGA KURASH TURLARINI O‘QITISHNING AFZALLIGI

Boburjon Ergashev - Guliston davlat Pedagogika instuti
Pedagogika fakulteti, Jismoniy madanyat yo‘nalish o‘qituvchisi
Akbarov Dilshod - Guliston davlat Pedagogika instuti
Pedagogika fakulteti, Jismoniy madanyat yo‘nalish 39-22 guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga kurash turlarini o‘qitishning afzalliklari tahlil qilingan. Kurash turlarining nafaqat jismoniy salomatlik, balki ruhiy barqarorlik, intizom va iroda kuchini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.

Shuningdek, talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida milliy sport turlarining tarbiyaviy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu yondashuv orqali jismoniy tarbiya darslarining mazmuni boyitilib, talabalarning sportga bo‘lgan qiziqishi va faol ishtiroki oshiriladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy madaniyat, kurash turlari, oliy ta’lim, o‘qitish metodikasi, sport tarbiyasi, milliy kurash, talaba rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya, intizom.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba qizlarga gandbol o‘yini texnikasi va taktikasi bo‘yicha ta’lim berish jarayonini takomillashtirish, ularning sport mahoratini oshirish, o‘quv mashg‘ulotlarini ilmiy asoslangan usullar bilan olib borish masalalari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda sportchi qizlarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini oshirishga doir uslubiy yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida shakllangan amaliy tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: gandbol, talaba qizlar, texnika, taktika, jismoniy madaniyat, sport tayyorgarligi, metodologiya, innovatsiya.

Kirish. Jismoniy madaniyat va sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunda muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, ayollar sportining rivojlanishi va ayol sportchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Gandbol sport turi sifatida nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi intellektual va psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi.

Gandbol o‘yini sport o‘yinlari tizimida muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining tezkorligi, harakatlar serqirraligi, jamoaviylik tamoyillariga asoslanganligi sababli ko‘plab jismoniy sifatlarni rivojlantiradi: tezlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya, fazoviy tafakkur va reaktsiya tezligi. Aynan shu xususiyatlari tufayli talaba qizlar uchun bu sport turi nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantiradi, balki ularning kasbiy va pedagogik faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida sport turlarini, jumladan gandbolni o‘qitishda yangicha yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, o‘quv-uslubiy vositalar va dasturlardan foydalanish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda. Biroq, ushbu jarayon hali ham to‘liq ilmiy-metodik asosga ega emas.

Mazkur maqola aynan shu ehtiyojni qondirish, talaba qizlarga gandbol o‘yinining texnika va taktikasini o‘rgatish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayonda metodologik yondashuv, eksperimental tadqiqotlar, natijalarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Gandbol o‘yinining rivojlanish tarixi haqida ko‘plab ilmiy va amaliy manbalar mavjud bo‘lib, ularning tahlili mazkur sport turining

zamonaviy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yevropa va osiyoda gandbolning shakllanishi, xalqaro miqyosda tan olinishi, o‘yin qoidalari va texikasidagi o‘zgarishlar turli bosqichlarda chuqur o‘rganilgan.

N.A. Bernshteynning “Fiziologiya dvijeniya” nomli asarida sport harakatlarining motorik strukturalari, koordinatsion funksiyalari va reflektor mexanizmlari ilmiy asoslangan holda ochib berilgan. Bu qarashlar gandbolchining harakatlarini takomillashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

V.V. Lyax tomonidan taklif etilgan sport o‘yinlarini o‘qitishning bosqichli tizimi ayniqsa yosh sportchilar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. U o‘z tadqiqotlarida texnika va taktika elementlarini bosqichma-bosqich o‘rgatish zaruratiga e’tibor qaratadi. Bu tizimni talaba qizlar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ham qo‘llash mumkin.

Sh.A. Raxmatullayevning “Sport o‘yinlari metodikasi” nomli asari O‘zbekiston sharoitida sport o‘yinlarini, jumladan gandbolni o‘rgatish bo‘yicha an’anaviy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitga mos keluvchi metodlar ilgari surilgan. Aynan qizlar bilan ishlashda ehtiyotkorlik, psixologik yondashuv va individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash kabi jihatlar muhim o‘rin tutadi.

A.K. Abdurahmonov tomonidan yozilgan “Gandbol asoslari” darsligi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish, o‘yinchilarni guruhlab tayyorlash, musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘yin strategiyasini tanlash bo‘yicha metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Undagi ma’lumotlar talaba qizlar uchun maxsus dasturlar tuzishda asos bo‘lishi mumkin.

Xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan, IHF (Xalqaro Gandbol Federatsiyasi) tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalar so‘nggi yillarda sport pedagogikasi sohasida innovatsion yondashuvlarni ilgari surmoqda. Ayniqsa, videoanaliz, raqamli texnologiyalar, virtual murabbiylik platformalari yordamida mashg‘ulotlarni tahlil qilish bugungi kunda samarali natija bermoqda.

Shuningdek, ayollar sportini rivojlantirishga qaratilgan xorijiy tadqiqotlar (masalan, Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasi)dan ma’lum bo‘lishicha, qizlar uchun jamoaviy sport turlarining pedagogik va ijtimoiy foydasi yuqori. Bunday mamlakatlarda har bir texnik elementni psixologik tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirish orqali samaradorlik oshiriladi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, gandbol o‘yinini o‘rgatishda umumiy nazariy tamoyillar bilan birga jins, yosh, jismoniy imkoniyatlar, psixologik holat va o‘qitish darajasini hisobga olgan holda maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bu ayniqsa jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba qizlar uchun dolzarbdir. Ilmiy manbalar tahlili

shuni ko‘rsatadiki, gandbol bo‘yicha tayyorgarlik jarayoni sportchilarning texnik, taktik, jismoniy va ruhiy holatini o‘z ichiga oladi. Xorijiy va mahalliy mualliflarning tadqiqotlari, xususan, N.A. Bernshteyn, V.V. Lyax, Sh.A. Raxmatullayev, A.K. Abdurahmonov kabi olimlar asarlarida gandbol o‘yinini o‘rgatishdagi metodik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar chuqur o‘rganilgan. Biroq aynan talaba qizlar uchun mo‘ljallangan maxsus metodikalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- Nazariy tahlil: mavjud adabiyotlar asosida gandbol o‘yinini o‘rgatishning asosiy metodikasi tahlil qilindi;
- Empirik metodlar: so‘rovnoma, suhbat, amaliy kuzatuvlar orqali talaba qizlarning tayyorgarlik darajasi baholandi;
- Eksperiment: mashg‘ulotlar tizimi asosida ishlab chiqilgan yangi uslubiy yondashuvlar sinovdan o‘tkazildi;
- Statistika: olingan natijalar matematik-statistik usullar orqali tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot davomida jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan 60 nafar talaba qiz ishtirokida tajriba-sinov mashg‘ulotlari olib borildi. Ushbu guruhlar ikki toifaga bo‘lindi: nazorat guruhi (an’anaviy metodlar asosida shug‘ullanuvchilar) va eksperimental guruh (innovatsion metodlar, videoanaliz va individual yondashuv asosida shug‘ullanuvchilar).

1. Texnik ko‘nikmalar tahlili:

- Eksperimental guruhda to‘pni ushlab olish, uzatish va zarba berish kabi asosiy texnik harakatlarda ishtirokchilar o‘rtacha 20–25% o‘sishni namoyish etdi.
- Masalan, dastlabki bosqichda zarba aniqligi 60% bo‘lgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 78% gacha oshdi.
- Nazorat guruhida esa bunday o‘sish nisbatan past – o‘rtacha 8–10% atrofida bo‘ldi.

2. Taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari:

- Jamoaviy harakatlarni (hujum va himoyada o‘zaro almashinish, pozitsiyalash, pressing, orqaga qaytish) bajarish darajasi eksperimental guruhda 17–20% ga yaxshilandi.
- Bu, ayniqsa, o‘yinda tezkor qaror qabul qilish, vaziyatni baholash va to‘g‘ri joylashishni aniqlash ko‘nikmalarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

3. Innovatsion texnologiyalar samaradorligi:

- Videoanaliz yordamida talabalarga o‘z xatolarini real vaqt rejimida ko‘rsatish orqali ularni tahlil qilish va to‘g‘rilash imkoni yaratildi.

- Simulyatsion mashg‘ulotlar orqali o‘yin holatlarini modellashtirish, taktik kombinatsiyalarni takrorlash natijasida o‘zlashtirish darajasi 30% ga oshdi.

4. Individual yondashuvning ta’siri:

- Talabalarni jismoniy holati, psixotipi va tayyorgarlik darajasiga qarab kichik guruhlarga ajratib ishlash har bir ishtirokchining shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.
- Shu asosda o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, motivatsiyasi va sportga bo‘lgan qiziqishi ortdi.

5. Psixologik va emotsional o‘zgarishlar:

- Mashg‘ulotlar oldi va keyingi bosqichlarida o‘tkazilgan so‘rovnomalar asosida talabalar orasida o‘ziga ishonch darajasi 35% ga oshgani, stressni boshqarish qobiliyatlari yaxshilangani qayd etildi.
- Bu o‘zgarishlar sport natijalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

6. Statistik tahlil:

Olingan natijalar matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilindi. T-student testi asosida eksperimental va nazorat guruhlaridagi farq **p < 0.05** darajasida ishonchli deb topildi.


Umuman olganda, eksperimental metodika asosida olib borilgan mashg‘ulotlar talaba qizlarning texnik va taktik tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, interaktiv uslublar, videoanaliz, differensial yondashuv va raqamli texnologiyalar qo‘llanilganda o‘zlashtirish darajasi an’anaviy metodlarga qaraganda yuqori bo‘ldi.

Jadval 1

Ko‘rsatkichlar	**Tajriba boshida (%)**	**Tajriba yakunida (%)**	**O‘sish (%)**	**Izoh**
Texnik ko‘nikmalar (zarba, uzatma, qabul)	58	78	+20	O‘yin texnikasining aniq va barqaror bajarilishi
Taktik kombinatsiyalarni bajara olish	52	69	+17	Jamoaviy harakatlarda moslashuvchanlik oshdi
Videoanaliz orqali o‘zlashtirish darajasi	60	90	+30	Vizual tahlil yordamida tez va samarali o‘rganish
Individual yondashuv samaradorligi	55	80	+25	Shaxsiy imkoniyatlarga moslashuv natijadorlikni oshirdi

Ko‘rsatkichlar	Tajriba boshida (%)	Tajriba yakunida (%)	O‘sish (%)	Izoh
Psixologik barqarorlik va motivatsiya	50	85	+35	O‘ziga ishonch va ijobiy munosabat kuchaydi

Rasm 1



Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

1. **Yangi metodikalarni joriy etish:**

- Talaba qizlarga gandbolni o‘rgatishda interaktiv, modulli va bosqichma-bosqich yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish lozim.
- Har bir darsda kamida 10–15 daqiqa videoanaliz yoki vizual tahlil mashqlari qo‘llanishi tavsiya etiladi.

2. **Individual yondashuv:**

- Mashg‘ulotlarni tashkil etishda talabalarni tayyorgarlik darajasi, jismoniy holati va psixologik holatiga qarab guruhlarga ajratish zarur.
- Har bir ishtirokchi uchun shaxsiy rivojlanish xaritasi (personal growth plan) tuzish samarali bo‘ladi.

3. **Raqamli texnologiyalar integratsiyasi:**

- Mashg‘ulotlarda simulyatsion dasturlar, mobil ilovalar va AI yordamida tahlil platformalaridan foydalanish o‘zlashtirish darajasini oshiradi.
- Har bir sportchi uchun maxsus videoportfoliolar yuritilishi foydalidir.

4. **Psixologik qo‘llab-quvvatlash:**

- Darslarga motivatsion suhbatlar, o‘zaro tahlil, yakka psixologik maslahatlar qo‘shish orqali talabalar ruhiy barqarorligini ta'minlash mumkin.
- O‘yin paytida stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazilishi kerak.

5. **O‘qituvchilar malakasini oshirish:**

- Trener va pedagoglar uchun muntazam ravishda metodik seminarlar, master-klasslar tashkil etish zarur.
- Innovatsion metodlarni o‘rgatuvchi onlayn kurslar orqali bilim almashinuvi kuchaytiriladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba qizlarga gandbol o‘yinini o‘rgatishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yuqori samaradorlik beradi. Ayniqsa, mashg‘ulotlarga zamonaviy interaktiv uslublarni, videoanaliz va simulyatsiya asosidagi yondashuvlarni joriy etish orqali talabalarning texnik va taktik ko‘nikmalarini samarali shakllantirish mumkinligi isbotlandi.

Mashg‘ulotlarda individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish har bir talabaga alohida e’tibor berishga, ularning jismoniy va psixologik tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ishlashga imkon yaratdi. Buning natijasida o‘yinchilar texnika va taktikani chuqurroq o‘zlashtirib, amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok eta boshladilar. Shuningdek, yangi metodik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talaba qizlarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, o‘quv jarayonini yanada samarali va jonli shaklga olib chiqdi.

Gandbol o‘yinining texnikasi va taktikasi bo‘yicha chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar orqali talaba qizlarning sportga bo‘lgan ijobiy munosabati shakllandi, ularning jamoaviy ishlash, tezkor fikrlash, muvofiqlik va psixologik bardoshlilik darajasi sezilarli darajada oshdi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, bu yo‘nalishda ixtisoslashgan o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalarning ishlab chiqilishi zarurligini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, talaba qizlarga gandbolni o‘rgatishda tizimli, ilmiy asoslangan va innovatsion yondashuvlardan foydalanish nafaqat sport natijalarini yaxshilaydi, balki ularning kasbiy shakllanishida ham muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bu esa oliy ta’lim tizimida sport ta’limining sifatini oshirishga, sog‘lom va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bernshteyn N.A. Fiziologiya dvijeniya i aktivnost cheloveka. – Moskva: Nauka, 1990.
2. Lyax V.V. Podgotovka yunix sportsmenov v gandybole. – Moskva: Fizkultura i sport, 2001.
3. Raxmatullayev Sh.A. Sport o‘yinlari metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
4. Abdurahmonov A.K. Gandbol asoslari. – Toshkent: Oliy ta’lim, 2018.
5. IHF (International Handball Federation). Coaching Education Materials (Level 1–3). – Basel, 2020–2023.
6. FIFA & IHF. Digital Tools and Technologies in Team Sports. – 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4947-son qarori. 2017-yil 19-sentabr.

MAKTABDA JISMONIY TARBIYADA SPORT O‘YINLARINING AHAMIYATI

Turg‘unov Husniddin Husan o‘g‘li - “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishi 17-23 guruh talabasi

Husniddinthm@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda maktabda jismoniy tarbiya jarayonida sport o‘yinlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda sport o‘yinlari orqali o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, shuningdek, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ta’siri tahlil etilgan. Sport o‘yinlari o‘quvchilarda chaqqonlik, epchillik, bardoshlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan birga, jamoada ishlash, tartib-intizom, g‘alabaga intilish, raqobatbardoshlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ishda sport o‘yinlarining turlari, ularni dars jarayoniga samarali kiritish metodikasi hamda yoshga mos tanlash prinsiplari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, sport o‘yinlari, maktab o‘quvchilari, jismoniy faollik, sog‘lom turmush tarzi, chaqqonlik, bardoshlik, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘yin texnikasi, harakat faoliyati, jamoaviylik, raqobatbardoshlik.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sog‘lom organizm, chaqqon tana, kuchli irodaga ega bola – bu nafaqat individual muvaffaqiyat garovi, balki kelajak jamiyatining poydevoridir. Jismoniy tarbiya darslari bu borada muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sport o‘yinlarining dars jarayoniga kiritilishi nafaqat

o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantiradi, balki ularning psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida shuni aytish mumkinki, sport o‘yinlari maktabdagi jismoniy tarbiya jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sport o‘yinlari orqali o‘quvchilarda jismoniy sifatlar — chaqqonlik, epchillik, bardoshlik, kuchlilik bilan birga, psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Shuningdek, o‘yinlar bolalarda raqobatbardoshlik, o‘ziga ishonch, mas’uliyat va o‘zini tuta bilish madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Dars jarayoniga sport o‘yinlarini to‘g‘ri va maqsadli tatbiq etish orqali nafaqat sog‘lom, balki faol, tashabbuskor va ijtimoiy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalash mumkin.

Shu boisdan, sport o‘yinlarining jismoniy tarbiya darslarida muntazam va pedagogik yondashuv asosida qo‘llanilishi maktab o‘quvchilarining har tomonlama sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Sport o‘yinlarining maktab jismoniy tarbiyasidagi ahamiyati katta. Ular o‘quvchilarda jismoniy salohiyatni oshirish, chaqqonlik, kuch, muvozanat kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, sport o‘yinlari orqali bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoada ishlash, raqobatbardoshlik va intizom hissi shakllanadi.

O‘yinlar bolalarni jismoniy faollikka jalb qilish, ularning psixologik holatini yaxshilash, ijtimoiylashuvini oshirish va umumiy rivojlanishini ta’minlashda samarali vositadir. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslarida sport o‘yinlarining o‘rni beqiyosdir. Ularni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tashkil etish, o‘quvchilarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, maktablarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini sport o‘yinlari bilan boyitish nafaqat o‘quvchilarning sog‘lomligini ta’minlash, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa kelajakda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga asos bo‘ladi.

Asosiy qism. Sport o‘yinlari – bu harakatli faoliyat turlaridan biri bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarda chaqqonlik, tezkorlik, muvozanat, bardoshlik, kuch va epchillik kabi sifatlar rivojlanadi. Ayniqsa, futbol, voleybol, basketbol, yugurish, estafeta o‘yinlari kabi sport turlari o‘quvchilar orasida juda mashhur bo‘lib, ularda jamoada ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, raqibga hurmat bilan qarash, sport madaniyati kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida sport o‘yinlaridan foydalanish bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, darsni jonlantiradi va ularda sog‘lom raqobat muhitini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, faol va sog‘lom turmush tarziga intilishi uchun asos bo‘ladi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar mustaqil

qaror qabul qilish, vaziyatga mos harakat qilish, strategik fikrlash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, sport o‘yinlari orqali bolalarda psixologik holatning barqarorlashuvi, stressdan xalos bo‘lish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘yinlar nafaqat jismoniy rivojlanish, balki aqliy faoliyatga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘yindagi vaziyatlarni tez anglash va ularga javob qaytarish orqali bola tafakkurini rivojlantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sport o‘yinlari maktabdagi jismoniy tarbiya darslarining ajralmas qismidir. Ular nafaqat bolalarning jismoniy sog‘lig‘ini mustahkamlaydi, balki ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga, sog‘lom raqobat tuyg‘usini shakllantirishga, jamoadorchilik va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya darslarida sport o‘yinlaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish, o‘quvchilarning yosh, jismoniy va psixologik xususiyatlariga mos tarzda tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, R.A., & G‘ulomova, D.S. **(**2020). *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Xusanov, M.X. (2018). *Jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Abdullaeva, M.T**.**, & Nurmatova, S.Z. (2021). *Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya*. Toshkent: Ta’lim.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2021). *Jismoniy tarbiya o‘quv dasturi*. Toshkent: Ta’lim va metodika markazi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). *Sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid davlat dasturi*. Toshkent.

IN THE DEVELOPMENT OF GENDER CULTURE IN ADOLESCENT STUDENTS

libekov D.I.-Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. Adolescent students' gender culture is greatly influenced by gamification, an innovative teaching strategy. The pedagogical and psychological aspects of gamification in promoting gender awareness, equality, and inclusivity in the educational process are examined in this research. Teachers can design stimulating learning settings that encourage critical thinking and constructive

attitudes toward gender issues by using game-based components like challenges, prizes, and role-playing.

Key words: Gamification, gender culture, adolescent students, pedagogy, psychology, motivation, inclusive education, gender equality, game-based learning.

Game mechanics have been used in business since the early 20th century. The term “gamification” appeared in the 1980s. Gamification is the non-traditional way of engaging students in the learning process using games. Properly designed gamification increases user motivation and engagement in the educational system.

Gamification, as a complex socio-cultural and didactic phenomenon, has a special value and has been the subject of numerous philosophical-cultural, pedagogical-psychological studies. Gamification (i.e., game-based activity) plays a special role in the development of gender culture in adolescent students. Its complexity is determined by the specifics of game activity in the pedagogical process. Gamification is recognized as a unique pedagogical value, freedom, and volition as unique characteristics of gamification activities. Gamification has a unique pedagogical value as it is practically oriented and serves to achieve a guaranteed result.

Gamification plays a leading role in the teaching process and the presentation of theoretical knowledge. At the same time, gamification activities should be consistently continued and solve the task of developing students and preparing them for cooperation. There is an opportunity to develop students, prepare them for cooperation, teach them, make adjustments to their behavior and actions, and educate them through games. It is impossible to ensure didactic effectiveness in the educational process without games. Because without them, it is impossible to form a well-rounded individual who can cooperate with all members of society.

Gamification, a favorable pedagogical situation is created for students' abilities, intellectual activity, and cooperation in the educational process, while specific objects do not replace each other. With the help of the game, students acquire a number of qualities. These include demonstrating strength, coordinating actions, focusing attention, engaging in cooperation and communication, and recognizing each other's capabilities. In the process of gamification, the opportunity to assimilate new knowledge about material existence and test their own experiences expands. With the help of gamification, students imagine and model reality. As a result, they develop imagination, intelligence, intelligence, and a desire to learn.

In the process of gamification, students' interpersonal communication skills are rapidly developed. With this, they master the skills of cooperation with members of society and establishing gender relations. With the help of a game-based type of activity, students master the experience of activity characteristic of a socially active person. Therefore, games are considered the most convenient and effective means of acquiring knowledge, information, and social experience for students. Also, with the help of this didactic tool, students have the opportunity to express their experiences and feelings.

Throughout human history, games have been a form of cultural expression, first entering the lives of young children. Through play, children begin to recognize objects and objects without first understanding their essence. They try to learn their location, color, sound, shape, and characteristics. They study, observe, and remember objects, which expands children's worldview. Understanding the nature of games, their educational and developmental potential for students, means knowing their specific features and nature. The game is a didactic tool that allows students to understand themselves, develop, gain independent knowledge, express themselves, check and evaluate their knowledge and behavior, adapt to social life, and understand their own existence. At the same time, gamification is a form of independent activity for students, opening up a wide range of opportunities for their physical and mental development.

Gamification ensures complete independence of students' activities, satisfying their needs for rest, relaxation, enjoyment, knowledge, and spiritual and physical development.

Play is a voluntary, instinctive activity that is aimed at solving a problem about how to use a particular object. The content of the game is formed by its plot, rules and action-based activity. The plot of the game determines the actions of the participants in the process. The nature of the conflicts in the game process is also revealed with the help of this plot. The plot ensures the goal-orientedness and interest, attractiveness of the game process. The rules are considered mandatory requirements for game participants.

To fully understand students, it is necessary to approach their activities correctly. It is extremely important to approach students from the point of view of their development. It is not appropriate to divide students into adults and children. Their inner world exists in a specific situation, and in the process of play, students share their inner worlds with each other. Games allow students to organize and demonstrate their experiences.

In person-centered pedagogical approaches, gamification is described as a means of shaping students with a healthy psyche and intelligence. With the help of games, students' inner worlds are revealed in concrete forms and each student has the opportunity to express his or her own personality. The main task of games is to develop social skills in students, to teach them to control situations. Games make up the majority of students' life activities. It is appropriate to organize game processes and observe students in this process in order to learn and understand the individual characteristics of the students . For students to be healthy in all aspects, they must first be able to engage in play activities.

Games are characterized by their multi-tasking and diverse content and appearance. There are various approaches to classifying games. Most of them are based on the existing elements of the game. Many experts have tried to classify games into three large groups:

- games based on ready-made and strict rules;

- free-style games, the rules of which are formed directly during the game;

- games based on rules that are partly fixed and partly formed during the game.

However, the above indicators are conditional, and there is a possibility of a creative approach to each game process. This process requires participants to follow certain rules. As independent forms of games, the following groups can be distinguished:

- all kinds of children's games;

- holiday games;

- folk games;

- theatrical play activities;

- game training and exercises;

- game-like questionnaires, surveys and tests;

- games based on the art of hagagoy;

- competitions, debates, wrestling, competitive games, contests, relay races;

- wedding traditions, customs based on games;

- games played by deception , winning games, games with prizes;

- carnivals, auctions in the form of games, etc.

Most games have the following common characteristics:

- free, developmental movement, directedness to the implementation of the movement, such games are organized according to the wishes of students, in this case, students derive satisfaction from the process of activity, and its results, if any, give students pleasure;

- creative in nature, based on a certain degree of artistry, students become very active during such games;

- the ability to give emotional stimulation, which includes competition, confrontation, and rivalry;

- The fact that the rules, whether direct or specially designed, are reflected in the content of the game, the logical or temporal consistency of the game process is reflected.

Games are also classified according to their content, time, location, level of control, number and composition of participants. Such classification of games is the basis for determining their pedagogical purpose, obtaining a clear orientation towards various game objects, and using them in a thoughtful manner.

At the same time, it is necessary to pay special attention to how and to what extent students engage in gender relations during the game. This includes the quality of cooperation, the extent to which students learn as a result of this cooperation, the multifaceted nature of the game, its more or less specific tendencies, the random nature of events in the game, the fact that students' feelings and creative activities are the product of cooperation in the game process, and the students' approach to the rules of the game from a modern point of view. The presence of elements of play, creativity, artistic approach, knowledge, logical activity, and cooperation is of particular importance.

REFERENCES

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification”. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Pfeiffer.

4. Butler, J. (1990). *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. Routledge.

EFFECTIVE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING GENDER CULTURE AMONG ADOLESCENT STUDENTS

Alibekov Dilshod Islomovich - Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This article investigates how contemporary technologies contribute to the development of gender culture among young students. It analyzes a range of digital resources and platforms—including educational applications, social media, and interactive e-learning settings—that can be utilized to raise awareness, advocate for equality, and foster respectful gender interactions. Additionally, the article emphasizes the significance of incorporating technology into gender education to create a more engaging and effective learning experience for adolescents. By presenting case studies and practical illustrations, the article identifies best practices and provides suggestions for educators.

Key words: Gender culture, adolescent students, modern technologies, digital tools, gender education, social media, educational platforms.

The cultivation of gender culture in adolescents represents a vital component of contemporary education, focused on promoting mutual respect, equality, and social justice. The rise of digital technologies has equipped educators with novel resources to support this initiative. This article examines the ways in which modern technologies can be utilized to effectively impart the principles of gender equality and inclusivity to adolescent learners through interactive and engaging approaches.

Gender culture encompasses the collection of norms, behaviors, and values that establish gender roles within a specific society. Fostering a positive gender culture among young people requires educating them to challenge stereotypes, appreciate gender diversity, and advocate for equality across all facets of life. Educational institutions are crucial in instilling these values, and by leveraging technology, they can more effectively connect with students. Modern educational technologies comprise online learning platforms, interactive multimedia resources, virtual and augmented reality, gamification, mobile applications, and social media tools. These innovations provide engaging and tailored learning experiences that can deepen students' comprehension and empathy regarding gender-related topics.

Educators can use various strategies to incorporate technology into gender culture development:

- E-learning Modules: Custom courses focusing on gender equality and diversity.

-Virtual Reality: Immersive experiences that simulate real-life gender-based challenges.

-Social Media Campaigns: Encouraging students to create and share content promoting gender inclusivity.

-Interactive Games: Teaching gender concepts through engaging gameplay.

-Collaborative Projects: Online forums and group tasks discussing gender topics.

Several schools worldwide have successfully integrated technology to promote gender culture. For example, in Sweden, interactive digital textbooks include gender-neutral language and scenarios. In India, mobile apps are used to raise awareness among rural adolescents about gender rights and responsibilities. These initiatives have shown promising results in improving students' attitudes toward gender equality. While technology offers great potential, there are challenges such as digital access inequality, lack of training for teachers, and resistance to change in traditional educational settings. Addressing these challenges requires comprehensive planning, professional development, and inclusive policies.

Educators and parents are essential in assisting adolescents as they explore their gender identity and societal expectations. It is crucial for teachers to undergo continuous training on effectively utilizing digital resources and discussing gender issues in a manner that is both inclusive and suitable for their students' age. Meanwhile, parents can contribute by initiating open dialogues at home and promoting respectful conduct in both digital and real-world interactions. By cultivating a partnership between the home environment and educational institutions, the influence of technology in advancing gender culture is greatly enhanced.

Modern technologies provide powerful tools for developing gender culture among adolescent students. When used thoughtfully, these technologies can foster inclusive, equitable learning environments and empower the next generation to build a more just society. Educators, policymakers, and technologists must collaborate to ensure these tools are accessible, effective, and aligned with gender education goals.

USED LITERATURE:

1. UNESCO. (2019). *Gender Equality in Education: Looking Beyond Parity*. Paris: UNESCO Publishing.
2. Subrahmanian, R. (2005). *Gender equality in education: Definitions and measurements*. *International Journal of Educational Development*, 25(4), 395–407.
3. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. London: Bloomsbury Academic.
4. UNICEF. (2020). *Promoting gender equality through education*. Retrieved from https://www.unicef.org
5. Chou, C., & Chen, W. (2018). *The influence of gender education on adolescents through digital learning tools*. *Journal of Educational Technology & Society*, 21(3), 108–118.

KURASH TURLARI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI TALABALARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAIDA O‘QITISH METODIKASI

Ergashov Bobirjon Dehqonboyevich - Guliston Davlat pedagogika insituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b. p.f.b.f.d.(PhD)
bobirjonergashov786@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta’limda taxsil olayotgan bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot komponentligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan ilm-fan va innovatsion texnologiyalar, zamonaviy komponentlikni rivojlantirishning samarali va ilg‘or usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, ko‘nikma, kasbiy salohiyati, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar.

Bugungi kunda dunyo miqyosida bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion texnologiyalar tizimining intensiv yangilanish dinamikasiga moslashtirish, innovatsion samarador texnologiyalar asosida takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari doirasida tabiiy-ilmiy savodxonligini orttirish sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj

yanada kuchaydi. Jahonda bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion texnologiyalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, dunyoqarashini rivojlantirish masalalari o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda.

Hozirda mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish masalalariga oid tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda «mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» kabi muhim vazifalar belgilandi. Bugungi kunda bo‘lajak kurash murabbiylari va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sohaga oid fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llashi va takomillashtirish, burabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlash, o‘qitish sifati va samaradorligini ko‘tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirish, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon jismoniy tarbiya va sport ta’lim metodikasini bilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, sport maktablari va umumiy o‘rta ta’lim sifat samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini oshirishga, yuqori malakali, mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Tezkorlik bilan rivojlanayotgan davr mutaxassislar oldiga shiddatli o‘zgarishlarga tayyor turish, davr bilan hamnafas bo‘lgan holda ijtimoiy va kasbiy nuqtai nazardan o‘z-o‘zini shakllantirib, bo‘lajak murabbiylar va o‘qituvchilarning zamonaviy axborot kompetentligini rivojlantirish vazifasini qo‘ymoqda. Bu vazifalarni bakalavriat ta’lim bosqichidan boshlab amalga oshirish lozim. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy yondoshish, asoslash, ilmiy tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish zarur. Biz quyidagi eng muxim vazifalarni amalga oshirish lozim

deb xisoblaymiz

- bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o‘lashtirishi va takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqish va tadqiq qilish,

-bo‘lg‘usi murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar qo‘llashi va rivojlantirish,

- bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini ta’minlaydigan innovatsion pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishga yordam beradigan o‘qitish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish metodikasini o‘quv jarayoniga tatbiq etish kompetentsiyasini egallashi lozim.

Ushbu vazifalarni xal etish uchun quyidagi amalga oshiriladigan tizimli ishlar belgilab olindi:

- pedagogika oliy ta’lim muassasalarining sport faoliyati va jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi uchun “Jismoniy tarbiya darslarda axborot texnologiyalari” maxsus kursining malaka talablari, fan dasturi va ishchi dastur ishlab chiqiladi, ularga asoslanib kursning sillabuslari, o‘quv-uslubiy majmualari, taqdimotlari, qo‘shimcha materiallari takomillashtiriladi, bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun zamonaviy yangi innovatsion texnologiyalarini o‘qitish bo‘yicha taqdimotlar, video darslar va xokazolar ishlab chiqiladi; bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun innovatsion texnologiyalar kursi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma va multimedia texnologiyasiga asoslangan (animatsiyali, ovozli) elektron darslik ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning zamonaviy innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish tizimini to‘liq amalga oshirish orqali sifat va samaradorlikka erishiladi. Murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘z pedagogik faoliyatlarida yangi innovatsion texnologiyalar kompetentsiyalarga ega bo‘ladilar.

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Ergashov B.D., Kurashni o‘qitish metodikasi (kurash – yangi o‘rganuvchilar uchun) o‘quv qo‘llanma.,“Demal” nashriyoti, Toshkent - 2024 y 76-85 c.
2. TastanovN.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati/ Darslik. Sano standart. Toshkent – 2017.95-b.
3. Ergashov B.D., Малакали курашчиларда куч ва уни турларини ривожланганлик даражасини аниқлаш услубияти. Фан спортга

№ 3.2025, - 28-31 с.
4. Акбаров А., Мусаев Б.Б., Спорт метрологияси, дарслик, Тафаккур қаноти нашриёти, 2014, 424 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sport.
5. Акбаров А., Спортда математик таҳлил усуллари, Чирчиқ, ЎзДЖТСУ, 2020, 228 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda

SPORTCHI TALABALARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ergashov Bobirjon Dehqonboyevich - Guliston Davlat pedagogika insituti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti v.b. p.f.b.f.d.(PhD)
bobirjonergashov786@gmail.com

Annotatsiya: O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bulib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Shunday qilib, innovatsion faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonida talaba va o‘qituvchini hamkorga aylantiradi. Darsni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta'minlaydi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, harakat, talaba, texnika sog‘lom bola, o‘qituvchi, talaba, sport.

Ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z soxasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashgulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o‘qituvchilar kerak.

Buning uchun, barcha fan o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashtulotlarda qo‘llash malakalarini oshirib borish lozim. Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida

tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini o‘ta qa’tiy hamda murakkab talablar asosida yo‘lga qo‘yish zarurati kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayoni mohiyatini to‘laqonli anglay olgan, favqulotda ro‘y beruvchi vaziyatlarda xam yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta olish salohiyatiga ega bo‘lgan malakali mutaxassisni tayyorlash zaruriyati ta’lim jarayonini xam texnologik yondashuv asosida tashkil etish lozimligini takozo etmoqda. Jamiyatimizning xar bir fuqarosi, yangi zamonaviy asrida turar ekanmiz, ortda qolgan yillar qadrini va kelajak hayotining turli jabhalarini belgilab olishga urinishi tabiydir.

Talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har doim bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi; pedagogik va talabalarning xamkorligidagi faoliyatni doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Jismoniy tarbiya darslarida texnik vositalardan foydalanib mamlaka-timiz sportchilari sport arenalarida erishgan ulkan yutuqlarini, qo‘llagan taktikasini, raqibni o‘rganish bosqichlari va olimpiyada o‘yinlaridagi ishtiroklarini ko‘rsatilsa dars jarayoni yanada samarali natija beradi. Ayniqsa, bu jarayonlarni jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari bergan izohlar bilan olib borilsa, qo‘llanilgan taktikalar o‘qituvchi tomonidan qaytadan izohlanib, qaytadan ko‘rsatilib berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mening fikrimcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalaridan o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda ko‘llanilgan har bir ta’lim texnologiyam o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, xar ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida talabalar mustakil fikrlab, ijodiy izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o‘qitish jarayonining asosi xisoblanadi.

O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bulib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu usullardan

foydalanganda bilim olish talaba uchun qiziqarli ma'lulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘qituvchilar, talabalar yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Talabalar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tashilotchilik, tajriba-sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar.

Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlashadi. O‘quv topshiriqlari alohida bir talabaga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikro guruhlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o‘z xissasini qo‘shishga xarakat qiladi.

Ma'naviyat harakatdagi jarayondir. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish, bizning milliy g‘oyamizga aylanmoqda. Ma'naviyatni shakllantirishga hamda yoshlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning ta'sir ko‘rsatish kuchi katta. Shuning uchun jismoniy madaniyatni xalq ruhiga va e'tiboriga mos holda tashkil etishimiz lozim. Bu jismoniy tarbiyani milliy ma'naviyatimiz ruhi bilan tushuntirish va o‘rgatish demakdir.

Sport bilan muntazam shug‘ullangan, sport musobaqalarida o‘z imkoniyatlarini namoyish qilib sport mahoratini oshirib kelayotgan yosh avlod har tomonlama komillikka erishishi shubhasiz. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti ta'biri bilan aytganda, bolalar va yoshlarning sport bilan ommaviy ravishda shug‘ullanishi ularning xarakterini toblaydi, kuchli, mard va jasur bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi, qat'iyatli, hayot sinovlari va qiyinchiliklarni mardona engib o‘tishga qodir insonlar etib tarbiyalaydi. Shu sababli ommaviy sport harakatini yanada kengaytirish, bolalarni sportga keng jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta'kidlab o‘tish kerakki, sport bilan doim shug‘ullangan qizlar turmush qurgandan so‘ng bolalarini sog‘lom tug‘ilishida muammolar kuzatilmaydi, qolaversa onaning jismoniy tarbiya va sport sirlaridan xabari bo‘ladi va bolani qanday qilib tarbiyalashni, jismoniy mashqlarni qay tarzda qo‘llash sirlaridan bohabar bo‘ladi. Vaxolangki, sog‘lom onadan sog‘lom bola sog‘lom avlod shakillanishiga zamin bo‘ladi. Sport bilan shug‘ullanish sog‘lom bo‘lish va chiroyli qomatning garovidir. Agar farzandingiz sport va jismony tarbiya bilan tasdiqlangan me'yorlar bo‘yicha shug‘ullansa, unda bu farzandingizni hayotidagi juda katta foydali jihatlardan biri bo‘ladi. Sport bilan to‘g‘ri va tartibli shug‘ullanish insonni jismoniy va ma'nan sog‘lom qilib tarbiyalaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi, aqliy fikrlashni teran qiladi.

Mutaxassislarning fikiricha, yoshligidan suzishni o‘rgangan bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanish, bilimlarni tez o‘zlashtirishi kuzatiladi. Ko‘pchilik ota-onalar farzandlarini jizzaki bo‘lib qolayotganidan yoki uyqusini yaxshi emasligidan shikoyat qilishadi. Bunday paytda bolani suzishga qatnashtirish yaxshi samara beradi. Suzish bilan muntazam shug‘ullanish bo‘yi o‘sishiga yordam beradi, stress holatlariga chidamliligini oshiradi, modda almashinuvini tezlashtiradi. Bolada yurak, oshqozon-ichak, asab nafas tizimi va mushaklar faoliyatini mustahkamlaydi.

Sog‘lom avlod, barkamol vorislarni tarbiyalashda sport va ma’naviyat uzviylik, x,amox,anglik kasb etishi lozim. Ularni bir-biridan ajratmaslik, ayro x,olatda singdirmaslik kerak degan fikirdamiz.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, sog‘lom bola tarbiyasida sport va ma’naviyat masalalarini takomillashtirish, bu borada ota - onalar, mahalla, maktab va sport turlari bo‘yicha murabbiylar hamkorligi yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bulardi. Respublikamizda ilgari surilayotgan sog‘lom bola, har tomonlama barkamol avlod tarbiyalash masalasi uchun barcha birdek mas’uldir. Shu sababli yoshlar tarbiyasida jamiyatimiz aholisining barcha ko‘lamlarini keng jalb qilish kerakligini alohida aytib o‘tmoqichimiz.

Sog‘lom bola tarbiyasida sport va ma’naviyatni izchil, uzviy tarzda olib borish, ushbu vositalar imkoniyatlaridan to‘la foydalanish Vatanimiz buyuk kelajagini qurishda o‘z samarasini beradi

Sport musobaqalari jismoniy tarbiyaning eng qiziqarli shakllaridan biridir. Bu tadbirlar talabalar jamoasini qaror toptirish va mustahkamlashda, do‘stlik, o‘rtoqlik xissini tarbiyalashda bebaxo rol uynaydi va xarakat malakalarini shakllantiradi.

Jamiyat rivojlanishida yuzaga kelgan tarixiy vaziyat jamoatchilikning jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda qatnashishi uchun aniq imkoniyatlar yaratdi, bu jismoniy tarbiya harakatini boshqarishda mustaqil boshqarish shaklini rivojlantirishga yordam berdi. Shunday tarzda boshqarishining jamoatchilik shakli paydo bo‘ladi, u hozirgi zamonda ham muhim axamiyatga ega. Jismoniy tarbiya va sport jamoatchilik shaklida ishlarni tashkil qilish shunday tavsiflanadi, u rahbar xodimlarning saylanishliligi, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi, ixtiyoriyligi asosida olib boriladi, bu o‘z navbatida ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Jamoatchilik jismoniy tarbiya tashkilotlari faoliyati kasaba uyushmalari boshqa jamoa tashkilotlari tomonidan bevosita boshqarilib turiladi.

Mustaqillik shakllarining funktsiyalari keng va xar tomonlamadir. Bu - yuqori darajada sportni rivojlanishi va takomillanishni ta’minlash, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, mehnat hamda dam olishni to‘g‘ri tashkil qilish, sog‘liqni mustahkamlash va ijodiy umrboqiylikni saqlash, yoshlarni sport turlariga jalb qilish va turli yoshdagi aholini jismoniy tarbiya mashgulotlarga jalb qilish va xokazolardir.

Xulosa qilib aytganda, shaxs ijtimoiy hayotda faoliyat ko‘rsatar ekan, u tashqi olam, ma’naviy hayot bilan doimiy ravishda uzviy munosabatda bo‘lish evaziga o‘zida badiy va estetik ko‘nikmalarni komil inson toyfasiga bog‘liq holda shakllantirib boradi.

Foyadalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

6. Amosov N.M. O‘qitishda zamonaviy axborot tenologiyalari. - M.: FiS, 2007 yil.
7. Ilyinich M.V. Axborot texnalogiyalari. - M., 2002 yil.
3. Акбаров А., Мусаев Б.Б., Спорт метрологияси, дарслик, Тафаккур қаноти нашриёти, 2014, 424 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sport

4. Акбаров А., Спортда математик таҳлил усуллари, Чирчиқ, ЎзДЖТСУ, 2020, 228 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda

BOLANI TARBIYALASHDA HARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI

M.M. Ulug‘bekova - Guliston davlat pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi o‘qituvchisi

Anatatsiya: "Bolalarni tarbiyalashda harakatli o‘yinlarni ahamiyati" mavzusi bolalarning rivojlanishida harakatli o‘yinlarning muhim rolini yoritadi. Ushbu o‘yinlar bolalarning jismoniy faoliyatini oshirish, ularning motor ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Harakatli o‘yinlar orqali bolalar do‘stlik, hamkorlik va raqobat kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘rganadilar. Shuningdek, bu o‘yinlar bolalar uchun stressni kamaytirish, ruhiy holatni yaxshilash va umumiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Mavzu davomida harakatli o‘yinlarning turli xil turlari, ularning tarbiyaviy vazifalari va bolalar uchun foydalari keng qamrovda ko‘rib chiqiladi. O‘z navbatida, bu bilimlar ota-onalar va tarbiyachilar uchun bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda zarur bo‘lgan yo‘l-yo‘riqlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: harakat , bolalar uchun jismoniy faoliyatning zarurligi, o‘yin, tarbiyalash , tarbiyaviy jarayonlar va usullar, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘yinlar orqali ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish, jismoniy rivojlanish, harakatli o‘yinlarning jismoniy sog‘liqka ta'siri, emotsional rivojlanish - o‘yinlar orqali hissiy holatlarni boshqarish, kreativlik, harakatli o‘yinlarning ijodkorlikni rag‘batlantirish, hamkorlik - jamoaviy o‘yinlar orqali hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, muvozanat, jismoniy va emotsional muvozanatni saqlash, o‘z-o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlarini tushunish va rivojlantirish.

O‘yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani quvontiradi, harakatli o‘yin favqulodda xursandchilikning xilma-xil lahzalari bilan ayniqsa, ijobiy hislar uyg‘otishga xizmat qiladi. Ulkan tarbiyaviy kuch ana shu quvonchli emotsiyalar manbayidir.

Har qanday o‘yin xoh u ijodiy, didaktik, musiqali, shuningdek, harakatli bo‘lmasin, bolalarning atrof-muhitni bilishida o‘ziga xos vosita hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlar mazmunida bola dunyoqarashini kengaytiruvchi va tasavvurini aniqlashtiruvchi ko‘plab bilish materiali mavjud. Syujetli o‘yinlar tematikasini odamlar hayoti, tabiat hodisalari, hayvonlar odatlariga oid ayrim lavhalar tashkil etadi. Bularning hammasi bolalar tomonidan o‘ziga xos shartli o‘yin shaklida aks ettiriladi (“Mushuk va sichqon”, “Poyezd”, “Qoch bolam qush keldi” va boshqalar). Biroq bola tashqi dunyoni to‘g‘ri idrok qilishi uchun (o‘yinning barcha shartlariga rioya qilgan holda) obrazning to‘g‘ri xarakteristikasi va haqqoniy o‘yin vaziyati zarur. Bu pedagog tomonidan o‘yinni tushuntirishda emotsional tarzda bayon etiladi. Xalq o‘yinlari buning ajoyib namunasi hisobl anadi. Ulardagi o‘yin vaziyati bolani qiziqtiradi va tarbiyalaydi, ba’zi o‘yinlarda uchraydigan dialoglar, personajlar va ular harakatlarini bevosita xarakterlaydi (“Quyonim-quyonim ne bo‘ldi?”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Kim oladi-yo, shuginani-yo?” va boshqalar). Syujetga ega bo‘lgan va muayyan o‘yin topshiriqlaridan tuzilgan o‘yinlarda ham bolaning sensor qobiliyatini, tafakkurini, mo‘ljal oilishni rivojlantirishga yordam beruvchi ko‘plab bilish materiali mavjud qoidalar katta tarbiyaviy ahamiyatga molik. Ular o‘yinlarning borishini belgilaydi, bolalar harakat faoliyatini, ularning xattiharakati, o‘zaro munosabatlarini yo‘lga soladi, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashda yordam beradi.

Qoida o‘yinda muayyan sharoit yaratadi. Bunda, bola o‘yinga tegishli rahbarlik qilinganda o‘zida hosil qilingan sifatlarni namoyon qilmasdan turolmaydi. Masalan, bolalar “Ayyor tulki” o‘yinida faqat tulki: “Men shu yerdaman” deganidan so‘nggina doiradan chiqib turli tomonlarga qochishlari mumkin. Bu qoida bolalarda diqqatni, o‘zini tuta bilishni, chidamlilikni, berilgan signalga tezkor reaksiyani,

fazoda mo‘ljal olishni hosil qiladi. Qoidalarni og‘ishmay bajarishni talab qilish maqsadga erishishdagi egoistik emotsiyalar va kayfiyatni yengishga yordam beradi. “Qoida bola xatti-harakatini jamoa talabiga muvofiq boshqaradigan va yo‘naltiradigan birinchi ijtimoiy stimul hisoblanadi. O‘yinlarda teran hissiyot, o‘rtoqlik va mehr-muhabbatning dastlabki nishonalari paydo bo‘ladi”.

Kichik guruhlarda qoidalar bolalar tomonidan o‘yin rivojlanishi davomida yuzaga keladigan majburiy, zarur javob harakati sifatida idrok qilinadi (quyonchalar ayiq paydo bo‘lishi bilan butalar orasiga qochib ketadilar; chumchuqlar avtomobil ko‘rinishi bilan yo‘ldan qochadilar). Bolalar o‘yin qoidalari hali qonun sifatida anglamasdan turib hozirjavoblikka o‘rganadilar: bir tomondan o‘yin syujetiga ko‘ra (quyonchalar ayiqdan qo‘rqdilar), ikkinchi tomondan muayyan signalga nisbatan hosil qilingan shartli refleksga ko‘ra harakat qiladilar.

Bolalar dastlab qoidalarni pedagog rahbarligida, keyinchalik bolalar jamoasi qoidalarning ijtimoiy ahamiyatini anglagan ayrim a’zolari ta’siri ostida bajaradilar; nihoyat qoidalar bolalarning ijtimoiy xulqatvori normalarini bevosita belgilovchi omilga aylanadilar.

Dastlab bolalar o‘yin vazifalarini tezkor bajarish payida bo‘lib, qoidalarni unutib qo‘yadilar, bundan tashqari yutuqqa va unga eng oson yo‘l bilan erishishga intilish ham qoidani buzish ga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, o‘yinchilarda norozilik uyg‘otadi, ziddiyat tug‘diradi va bolalar o‘rtasidagi munosabatni yomonlashtiradi.

Har bir bola o‘yin qoidasini anglashi va unga rioya qilishida kattalarning talabi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Asta- 127 sekin tarbiyaviy ta’sir qilish tufayli bolalarning o‘yin jarayoniga munosabati o‘zgara boshlaydi, o‘yin harakatlari va qoidalarini birmuncha aniq bajarishga qiziqish va intilish paydo bo‘ladi. O‘yin qoidalarini bajarmaslik sabablari ham o‘zgaradi. Endi bolalar ularni atayin emas, tasodifan buzadilar, biroq shu zahoti yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatishga harakat qiladigan bo‘ladilar.

Bolalarni qoidalarning ijtimoiy ahamiyatini anglashga tizimli, chidam bilan tayyorlaydigan tarbiyachi rahbarligida ular halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilik, iroda kabi yaxshi sifatlarni shakllantirishning samarali vositasiga aylanadi. Bularning hammasi qoidali, harakatli o‘yinlarni bolalarni axloqiy tarbiyalashning ta’sirchan vositalaridan biri sifatida belgilashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, mavjud tafakkur, tushuncha va mo‘ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi; o‘yinlar ijodiy

xayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Bolalarning ruhiy jarayonlarni takomillashtirishda obrazli, emotsional metodika katta ahamiyat kasb etadi, u bolalarda qiziqish uyg‘otadi, xayol surishda, o‘yin harakatlarini ijobiy bajarishga undaydi. Ruhshunoslarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, shu bilan birga fazoni idrok etish mexanizmining o‘zini ham juda takomillashtiradi. O‘yinda fazoni idrok etish o‘zining asosiy shakllarida namoyon bo‘ladi: bevosita; hissiy bilish-sensor (hissiy obrazli) va bilvosita (mantiqiy tafakkur, tushuncha). Masalan, bola tomonidan harakat yo‘nalishini mustaqil tanlash va harakatni o‘yin qoidasida qat’iy belgilangan yo‘nalishda bajarish bir tomondan o‘yin vaziyatini (bevosita idrok qiladigan) va ko‘rish motor reaksiyasini (o‘yin harakatlarini) darhol baholashni, ikkinchi tomonda o‘z harakatlarini fazo-o‘yin muhitida anglash va tasavvur qilish hamda o‘sha ko‘rish motor reaksiyasini 128 namoyon etishni talab qiladi. Harakatli o‘yinda bu ikki komponent o‘zaro harakatda bo‘ladi. Pedagog tomonidan ishlab chiqilgan o‘yin qoidalari bola harakati uchun fazo oldindin mo‘ljal olishning zarur imkoniyatini yaratadi; ayni paytda o‘yin vaziyatidagi to‘satdan bo‘ladigan o‘zgarishlar (boshlovchi harakati va signallar bilan bog‘liq ravishda) harakat rejasini buzadi va juda murakkab – bolalarning tezkor reaksiyasi hamda fazoda mo‘ljal olishni talab qiladi (“Chuqurchaga tushirish”, “Sopalak”, “Koptokni urish”, “Kim uzoqqa sakray- di” va hokazo o‘yinlar).

Bunday reaksiya boladagi o‘z faoliyatini va harakatlarini muayyan muhitga moslash qobiliyatining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Bunda bolaga tarbiyachi yordam berishi lozim. Bunda tarbiyachi bolani asta-sekin o‘yin vaziyati va qo‘yilgan vazifaga erishish zaruratini hisobga olgan holda birmuncha muvaffaqiyatli harakat usulini topishga o‘rgatadi. Masalan, aynan bir o‘yinni katta va cheklangan fazoda o‘tkazganda, bola boshlovchidan tez va uzoqqa qochish usulidan foydalanadi yoki unga yaqin joyda turib chaqqonlik va abjirlik ko‘rsatadi (“Tuzoq”, “Ayyor tulki” va hokazo).

Atrof-muhitda mo‘ljal olishga o‘yin vazifasini bajarish yo‘lida atayin yaratilgan to‘siqlar ham yordam beradi. (“Chambarakdan o‘tib bayroqcha tomon yugurish”, “Bo‘ri jarlikda”, “Jasur bolalar” va hokazo). Bu bolalarda ma’qul harakat usulini masofani yetarlicha rivojlangan ko‘z bilan baholash va harakatlarni bajarish vaqtini hisobga olishga tayangan holda mustaqil tanlash qobiliyatini hosil qiladi.

Bolaning tarqalgan holda tez harakat qilayotgan bolalar orasida mo‘ljal ola bilishi juda ham muhim hisoblanadi. Bu tinimsiz o‘zgarib turadigan o‘yin

vaziyatiga nisbatan tezkor reaksiya koʻrsatish zaruriyatiga koʻra birmuncha murakkabdir. Biroq katta guruh bolalari oʻyinlarni takrorlash jarayonida bu koʻnikmani muvaffaqiyatli egallaydilar (“Tuzoq”, “Ayyor tulki”, “Quvlash-machoq” va boshqalar).

Bola harakatli oʻyinda jismlarning, odamlarning yaqin, uzoqligini aniqlashni mashq qiladi, shu tufayli unda koʻz bilan baholash, shuningdek, fazoviy eshitish moʻljali rivojlanadi.

Harakatli oʻyinlar bolalarda oddiy vaqt moʻljalini shakllantiradi. Ular quyidagilarda ifodalanadi: oʻyin harakatlarini izchilligini tushunib olishda – avval, soʻng, bundan keyin, bundan oldin, barini bir vaqtda va hokazo kabi oʻyin topshiriqlarini signalga koʻra, bolalar uchun belgilangan muddat doirasida tez bajarishda, masalan, “Men beshgacha sanagunimcha siz bayroqchalardan birorta naqsh yasashingiz kerak”, “Kim bubenga uch marta urguncha saflana oladi?” va boshqalar. Bu oʻyinlarda bola fazoda moʻljal olishni, harakatlar izchilligi va ularga vaqt davomida amal qilishni mashq qiladi. Oʻyinlar mazmunini, butun oʻyin vaziyatini, uning qoidalarini, personajlar harakatini mustaqil tushuntirish; bolalarning joylashish oʻrnini, oʻyin atributlarini va harakat yoʻnalishlarini fazoviy atamalarni ishlatgan holda koʻrsatish; oʻtkazilgan oʻyinga baho berish bolalarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi. Harakatli oʻyinlar barcha yoshdagi katta bolalarda ijodiylikni rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi. L.M. Korovina ma’lumotlariga koʻra, 5–6 yoshli bolalarga tegishlicha rahbarlik qilinsa, oʻzlariga tanish oʻyinning variantlarini oʻylab topishlari, uning mazmunini murakkablashtirishlari, qoidalarini toʻldirishlari lozim. Keyinchalik bolalar adabiy asarlar, ertaklar syujeti asosida kichik oʻyinlar oʻylab topishlari, aqliy va ijodiy kamolotning yuqori darajasiga erishganlarida esa, oʻzlari ijod qilgan syujetlari asosida harakatli oʻyinlar yaratishlari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faolligining rivojlanish jarayoni barcha yosh guruhlardagi tarbiyalanuvchilarning topshiriqlarga va ularni amalga oshirishga emotsional munosabati bilan xarakterlanadi. Bunda tarbiyachi rahbarligining umumiy ijodiy yoʻnalganligi, uning bolalar izlanishlariga xayrixohlik munosabati katta ahamiyatga ega.

Harakatli oʻyinlar oʻz mazmuni va tuzilishiga koʻra estetik faoliyat hisoblanadi. Oʻyin harakatlarining rang-barangligi ularni bolalar aniq chaqqonlik bilan, oʻziga xos ifodali bajarishlarida xarakterlanadi. Bolalardagi koʻtarinkilik oʻyin faoliyatiga emotsional tus bergan holda, harakatlarni juda sifatli bajarishda 130 namoyon boʻladi va ularda harakat jarayonining oʻzidan qoniqish hissini uygʻotadi. Bir yoki birnecha doiraga, sherenga, kolonnaga, “figura” boʻlib turish

kabi xilma-xil saflanishlar harakatlarning aniqligini, xushqomatlilikni, ixchamlilikni talab qiladi va bolalarda estetik hisni o‘stiradi. O‘yin ko‘rinishining go‘zalligi eng avvalo qatnashuvchilarning o‘zlari idrok etadigan jismoniy formasining bir xil bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Musiqa bolaga juda katta estetik ta’sir ko‘rsatadi: u bolalarni ruhlantiradi, ularni umumiy bir kayfiyatga birlashtiradi, chiroyliroq harakat qilishga undaydi. Musiqani harakatli o‘yinlarga qo‘llash, avvalo, uning estetik-tarbiyaviy rolini o‘stirish lozim. Bunda bolalarning musiqa asarlari xarakteri va tuzulishiga muvofiq harakat qilishlari muhimdir. Shuni hisobga olib, musiqani o‘yinning faqat muhim qismlariga joriy etish lozim. Masalan, “Quvlashmachoq” o‘yinida barcha bolalar dastlab o‘z harakatlarini musiqaga moslagan holda osongina tarqab, chopib ketishlari mumkin. Musiqa asarining oxiri va shu bilan bog‘liq ravishda uning tinishi quvlash harakatining boshlanishi uchun o‘ziga xos signal bo‘lib xizmat qiladi. Agar o‘yin chog‘ida “Ushla” degan og‘zaki signal berilsa, bunday paytda harakatning to‘xtashi musiqaning tinishiga aniq mos kelishi lozim.

Harakat o‘yinlarini o‘tkazishda harakatlarning go‘zalligini va madaniyatini unutmaslik: diqqatni harakatlari birmuncha ifodali bolalarga qaratish, obrazni muvaffaqiyatli bera olganlarni rag‘batlantirish kerak.

Shunday qilib, harakatli o‘yinlarda mujassamlashgan emotsional sog‘lomlashtirish, bilish va tarbiyaviy komponentlarning butun jamlamasidan foydalanish bolalarni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.S.Usmonxo‘jaev “Harakatli o‘yinlar” O‘quv qo‘llanma T.: O‘qituvchi 1992.

2. Maxkamdjanov K.M., Nurmatov F.A., Inozemseva L.A., Rustamov L. “Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi” Darslik T.: 2008.

3. P.Xo‘jaev, K.D.Raximqulov, B.B.Nigmanov “Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. (Harakatli o‘yinlari)” O`quv qo`llanma TDPU T.: 2008.

BASKETBOLCHI TALABALARDA TEZKORLIK VA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATILARINI OSHIRISH USULLARI

Bolbekov Elyor Abdimumin o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: elyorbolbekov866@gmail.com

Annotatsiya. Basketbol sporti yuqori darajadagi tezkorlik, chaqqonlik va jismoniy tayyorgarlikni talab etadi. Bu sportda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat texnik mahorat, balki jismoniy tayyorgarlik ham muhim rol o‘ynaydi. Tezkorlik va chaqqonlik, ayniqsa, o‘yin jarayonida tezkor qarorlar qabul qilish, raqibni o‘zining harakatlari bilan aldagan holda o‘z pozitsiyasini o‘zgartirish kabi vazifalarni bajarishda zaruriy fazoviy va vaqtincha harakatlarni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: Basketbolchi, talabalar, jismoniy sifatlar,usullar

Kirish. Basketbol sporti nafaqat jismoniy kuch, balki yuqori tezlik va chaqqonlikni ham talab qiladi. Maktab yoki oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan basketbolchi talabalarda ushbu jismoniy sifatlarni oshirish o‘yin natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tezkorlik, harakatni tezda o‘zgartirish va muvozanatni saqlash qobiliyati, o‘yin davomida raqiblarni yengishda muhim ahamiyatga ega. Talabalarda tezkorlik va chaqqonlikni oshirish uchun maxsus usullar va strategiyalarni qo‘llash kerak. Ushbu maqolada, basketbolchi talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan asosiy usullarni ko‘rib chiqamiz. Mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish va jismoniy tayyorgarlikni oshirish orqali, talabalarning o‘yin samaradorligini yaxshilash va muvaffaqiyatli natijalarga erishish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Basketbol - tezkorlik, tezlik, kuch va chidamlilikni talab qiluvchi jamoaviy sport turidir. Bu sportda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilar tezkor harakatlar, aniqlik va mukammal muvozanatni saqlashlari zarur. Tezkorlik, o‘z navbatida, basketbolchilar uchun o‘yin davomida to‘pni boshqarish, raqiblarni o‘zida ushlab turish va tez o‘zgarishlarga moslashishda muhim rol o‘ynaydi. Tezkorlik - bu sportchilarning harakat tezligini va harakatlarni samarali amalga oshirish qobiliyatini anglatadi.

Basketbolda tezkorlik quyidagi ko‘nikmalardan iborat:

1. Tezlik: To‘pni boshqarish va yugurish tezligi.

2. Reaksion tezlik: Raqibning harakatlariga tezkor javob bera olish qobiliyati.

3. Muvozanat: Tez harakatlar davomida o‘zini to‘g‘ri tutish.

4. O‘zgaruvchanlik: Tezlik va yo‘nalishni o‘zgartirish qobiliyati. Tezkorlikni oshirish usullari Tezkorlikni oshirish uchun turli metodlar va trening dasturlari qo‘llaniladi. Quyida ba'zi samarali usullarni ko‘rib chiqamiz.

1. Fizik tayyorgarlik

a. Ovozli mashqlar: Sportchilarning kuchini oshirish uchun kuch mashqlari. Kichik yuklar bilan, masalan, dumbbelllar yoki ozog‘li barbell yordamida bajaring.

b. Kardiovaskulyar mashqlar: Yugurish, velosipedda harakat qilish yoki suzish orqali umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish. Bu turli intensivlikdagi mashqlar bilan kombinatsiyalashishi mumkin.

2. Tezlik va Reaksion Tezlik Mashqlari

a. Sprintlar: To‘liq tezlikda 30-50 metrga sprint harakatlari. Bu mashq sportchilarning tezlik ko‘nikmalarini yaxshilaydi.

b. To‘p bilan mashqlar: Basketbol to‘pi bilan harakatlanish, shartli sprintlar. Masalan, belgilangan nuqtalardan to‘pni olib, tezda qaytish.

c. Qisqa masofalardagi harakatlar: Qisqa masofalarda to‘siqlarni yengish. Bu sportchining tezligini va harakatlanuvchanligini oshiradi.

3. O‘zgaruvchanlik va muvozanat mashqlari

a. Yunalish o‘zgarishi: Sportchilarni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga harakatlantirish. Masalan, 5 metr oldinga, 5 metr o‘ngga va 5 metr orqaga harakat qilish

b. O‘zgaruvchan harakatlar Bitta nuqtadan ikkinchi nuqtaga harakatlanish jarayonida tezkor yo‘nalishni o‘zgartirish. Buning uchun belgilangan joylardan foydalanish mumkin.

c. Dastlabki pozitsiyalar: Turli pozitsiyalardan tez harakat qilish. Masalan, egilib harakat qilish, to‘siqdan o‘tish.

4. Maktabgacha Trening

a. Agility ladders: O‘zgaruvchanlikni va tezlikni oshirish uchun yordam beradi. Sportchilar to‘rga va erga bosib turishadi.

b. Hurdles: Kichik to‘siqlar orqali yugurish, bu sportchilarning qadam tezligini oshiradi.

5. Tezkorlikni nazorat qilish Tezkorlikni oshirish jarayonida nazorat muhim ahamiyatga ega. Trenerlar va sportchilar o‘z o‘sishini baholash uchun quyidagi usullarni qo‘llashlari mumkin:

1. Testlar: Tezlik va harakat tezligini o‘lchash uchun standart testlar (masalan, 30 metrga sprint) o‘tkazish.

2. Video tahlil: O‘yin va trening jarayonlarini videoga olib, sportchilarning harakatlarini tahlil qilish.

3. Mushak kuchi testlari: O‘zgaruvchanlik va tezlikka ta'sir etuvchi mushaklar kuchini baholash. Isitish va tayyorgarlik mashg‘ulotlari Mashg‘ulotlarni boshlashdan oldin sifatli isitish va tayyorgarlik mashg‘ulotlari o‘tkazish muhimdir. Bu jarayonda: Dinamik isitish: Harakatli isitish mashqlari - yugurish, sakrash va harakatli stretching (cho‘zish) kabi mashqlar muskul va bo‘g‘imlarni tayyorlaydi.

Koʻnikmalarni takrorlash: Tezkor harakatlar, masalan, tezgina harakat va toʻp bilan ishlash mashqlari, oʻyin davomida zarur boʻlgan chaqqonlikni oshirishga yordam beradi. Maxsus tezkorlik va chaqqonlik mashqlari Basketbolchilar uchun maxsus tezkorlik va chaqqonlikni oshirishga qaratilgan mashqlar: Yugurish va burilish mashqlari: Qatnovli yugurish va tez burilishlar basketbolchilarning oʻyinda tez harakat qilish qobiliyatini oshiradi. Sakrash mashqlari: Sakrash uchun turli xil mashqlar (masalan, balandlikka sakrash) bola mushaklarining kuchini va chaqqonligini oshiradi. Agility ladder: Ushbu asbob yordamida turli xil harakatlar va kombinatsiyalarni bajarayotib, chaqqonlikni oshirish mumkin. Koʻnikmalarni rivojlantirish Toʻp bilan ishlash: Tezkorlik va chaqqonlikni oshirish uchun toʻpni tez va samarali nazorat qilish koʻnikmalarini rivojlantirish zarur. Toʻpni pastga va yuqoriga tashlab, harakatlarni bajarish, oʻyin davomida tezkor harakatlanish qobiliyatini yaxshilaydi. Zamonaviy texnikalar: Basketbolning zamonaviy texnikalarini oʻrganish shuningdek, toʻpni qabul qilish va oʻtkazish, turgan joydan zarba berish va driblingda tezlikni oshirishga yordam beradi. Oʻyinga tayyorgarlik Simulyatsiya mashgʻulotlari: Oʻyinga oʻxshash vaziyatlarda mashqlar oʻtkazish, tezkorlik va chaqqonlikni oshirishda yordam beradi. Masalan, oʻyindagi tezkor hujum va mudofaa vaziyatlarini takrorlash. Jamoadoshlar bilan hamkorlik: Jamoadoshlar bilan birgalikda mashqlar bajarish, oʻzaro muvofiqlikni oshiradi va harakatlarning samaradorligini yaxshilaydi. Jismoniy tayyorgarlik dasturlari Kardio treninglar: Yuqori intensivlikdagi kardio mashgʻulotlar - yugurish, velosipedda yurish va boshqa aerobic mashqlar tezlik va chidamlilikni oshirishga yordam beradi. Kuch mashqlari: Mushak kuchini oshirish uchun ogʻirliklar bilan ishlash dasturlari qoʻllaniladi. Bu jarayonda kuch va chaqqonlik oʻrtasidagi muvozanatni saqlash zarur. Nazorat va baholash Tezkorlik va chaqqonlikni oshirish jarayonida doimiy nazorat va baholash ham muhimdir. Bu orqali talabalarning yutuqlarini kuzatish va kerakli oʻzgarishlarni kiritish imkoniyati paydo boʻladi.

Xulosa. Basketbolchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik jismoniy sifatlarini oshirish uchun koʻplab usullar va strategiyalar mavjud. Oʻzaro bogʻliq boʻlgan mashgʻulotlar, jamoadoshlar bilan hamkorlik va nazorat jarayonlari jismoniy sifatlarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Talabalar bu jarayonda oʻzlarini rivojlantirib, basketbol oʻyinida yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmatova Shaxnoza Murodullayevna. “Boshlangʻich tayyorgarlik Bbosqichida yosh basketbolchilarning hTezkorligini rivojlantirish” dissertatsitya Chirchiq-2022. 135-b

2. Qasimov A.Sh., Rasulev O.T, Ismatullayev X.A. Basketbol. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 1986- y

3. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её прикладные аспекты / Учебник для студентов и преподавателей, тренеров физ-х вузов.-5 изд-е. М.:Сов-ий спорт, 2010.-с. 317- 325

4. Nuriddinova M.M, Ismailova F,SH “Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashgulotlarida mayda motorika ko‘nikmasini rivojlantirish orqali, ularning nutqini o‘stirish”Respublika ilmiy amaliy anjuman” 2024-Chirchiq

5. Ismailova F.SH “ Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy chiniqtirish usullari.” ”Respublika ilmiy amaliy anjuman” 2024-Chirchiq

6. Xudoynazarov N.B “15-18 yoshli basketbolchilarni tayyorlash hamda jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullari” ”Respublika ilmiy amaliy anjuman” 2024-Chirchiq

7. Xudoynazarov N.B “Basketbol bilan shug‘illanuvchi sportchilarning tezlik-kuchlanishini hamda sakrovchanligini rivojlantirish uslubiyati” ”Respublika ilmiy amaliy anjuman” 2024- Chirchiq

BASKETBOLDA HUJUM TEXNIKASI O‘RGATISH

Abdusalomov Doniyor Rustam o‘g‘li - Nizomiy nomidagi TDPU jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchi.
e-mail: abdusalomovdoniyor@gmail.com
Umrzaqov Shoxruxbek Inomjon o‘g‘li - Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi.
e-mail: umrzaqov shoxruxbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiyasida bundan tashqari, gigiena talablarini hisobga olgan holda tashkil etilgan basketbol o‘yinlar o‘quvchilarni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Sport zal, yurish,yugurish, texnika, taktika, o‘zlashtirish, jismoniy qobiliyat, daraja, sportchilar,organizm, funktsionallik,imkoniyat, egiluvchanlik, sog‘lik,mashg‘ulot, musobaqa, ruhiy, axloqiylik, irodaviy, tarbiya.

Kirish. Basketbolning maydon bo‘ylab harakat qilishlar, hujum qilish vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan va konkret o‘yin harakatlarni amalga oshirish davomida yuzaga kelgan butun harakatlar tizimining bir qismi hisoblanadi. Ular basketbol texnikasi asoslaridir.

O‘yinchi maydon bo‘ylab harakat qilish uchun yurish, yugurish, sakrash, to‘xtalish, burilishlardan foydalanadi. Shu usullar yordamida u joyni to‘g‘ri tanlab olishi, uni ta’qib qilayotgan raqibdan uzoqlashishga (qochishga) va keyingi hujum uchun kerakli yo‘nalishga chiqishi, boshqa usullarni bajarish uchun eng yaxshi, qulay dastlabki holatlarni egallashga erishishi mumkin. Bundan tashqari to‘p bilan

ajratiladigan ko‘pgina texnik malakalarning harakatda va sakrab to‘p otish va harakatlaring samaradorligi harakat paytida oyoqning to‘g‘ri ishlashiga va muvozanatni saqlashga bog‘liq.

Yurish. Yurish o‘yinda maydonda harakat qilishning boshqa usullariga nisbatan kamroq qo‘llaniladi. Asosan undan qisqa fazalarda pozitsiyani almashtirish uchun yoki o‘yin harakatlarining muddati susayganda, shuningdek, yugurish bilan qo‘shilishidagi harakat tempini almashtirish uchun foydalaniladi. Odatdagi yurishdan farqli o‘laroq, basketbolchi tizzada bir oz bukilgan oyoqlari bilan bir joydan ikkinchi joyga o‘tadi, bu unga qo‘qqisdan tezlanish uchun imkon beradi.

Yugurish. Yugurish o‘yinda harakat qilishning bosh vositasi hisoblanadi. U yengil atletikadagi yugurishdan ancha farq qiladi. O‘yinchi istalgan yo‘nalishda, oldinga yoki orqasi bilan, har xil startga oud holatlardan maydon ichida tezlasha olishi, yugurish tezligi va yo‘nalishlarni tez o‘zgartira olishi kerak.

Raqib uchun kutilmagan holda yugurish tezligini oshirish yoki startli tezlanish sport o‘yinlarida keskin yugurish deyiladi. Keskin yugurish raqib ta’qibidan qutilish va bo‘sh joyga chiqishning eng yaxshi vositasidir. Keskin yugurishni amalga oshirish uchun birinchi 4-5 qadamni shiddatli qilib, oyoqni uchi tomondan qo‘yiladi. Yugurish tezligi qadamni uzaytirish tufayli osha boradi. Shu paytda o‘yinchi to‘pni olishga tayyor bo‘lishi kerak.

Yugurish yo‘nalishini o‘zgartirishni o‘yinchi, harakat yo‘nalishiga qarama-qarshi tomonga, oldinga chiqarib qo‘yilgan oyoqning kuchli itarishi bilan amalga oshiradi gavdasini yangidan tanlagan yo‘nalishi tomonga egadi.

Sakrashlar. Sakrashlardan mustaqil malakalardan foydalaniladi. Ular texnikaning boshqa usullarining elementlari ham hisoblanadi. O‘yinchilar ko‘proq yuqoriga va uzunlikka-yuqoriga sakrashlardan yoki qayta-qayta sakrashlardan foydalanishadi. Sakrashni bajarishning ikki usulini yani ikki oyoq bilan depsinib va bir oyoq bilan depsinishni qo‘llashadi.

Ikki oyoqlab depsinish bilan sakrashni ko‘proq joydan turib asosiy holatdan bajarishadi. O‘yinchi tezda oyoqlarni bukadi, qo‘llarni tirsakda bir oz bukib, orqaga o‘giradi va boshni sal ko‘taradi. Depsinish oyoqlarni kuchli bukish bilan, gavdaning va qo‘llarning oldinga-yuqoriga keskin harakati bilan amalga oshiriladi. Yugurib kelib ikki oyoqlab depsinib sakrashni odatda, savatga to‘p otish paytida va shitdan sapchib qaytgan to‘p uchun kurash paytida qo‘llashadi.

Bir oyoq bilan depsinib sakrashni yugurib kelib bajarishadi. Depsinishni shunday bajarishadiki, yugurib kelishning inersiya kuchlaridan to‘la foydalaniladi. Depsinishdan oldin yugurishning oxirgi qadamini oldingilaridan ancha katta qo‘yishadi. Tizza bug‘imlarida bir oz bukilgan depsinuvchi oyoqni oldinga chiqarishida va depsinish uchun tovondan oyoq uchiga dadil qo‘yishadi. Boshqa

oyog‘i bilan oldinga – yuqoriga tez siltab, tana og‘irligining umumiy markazi tayanch ustidan o‘tish paytida esa uni tos suyagi bilan son suyagi qo‘shilgan joyda va tizza bug‘imlarida bukishadi. Basketbolchi tanasi yuqori nuqtaga yetgandagi ko‘tarilishdan keyin oyog‘ini to‘g‘rilaydi va depsinuvchi oyog‘i yoniga keltiradi. Istalgan usulda sakraganda yerga tushish muvozanatini saqlagan holda, yumshoq tushish lozim, bunga ohista kerilgan oyoqlarning yumshatuvchi bukish orqali erishiladi. Yerga bunday tushish basketbolchiga o‘yin harakatlarini bajarishga tezda kirishish uchun imkon yaratadi.

To‘xtashlar. Vaziyatga qarab o‘yinchi, keskin yugurishlar va yugurish yo‘nalishini o‘zgatirishlar bilan bir qatorda raqib ta’qibidan bir oz bo‘lsa ham qutilishga, bo‘sh joyga chiqishga va keyingi hujum harakatlari uchun imkoniyatga ega bo‘lish maqsadida kutilmagan (qo‘qqisdan) to‘xtashlardan foydalanadi.

To‘xtalish ikki uslubda sakrab va ikki qadam bilan amalga oshiriladi.

Burilishlar. Hujumchi himoyachidan qutilish uchun, to‘pni urib chiqarishidan saqlash uchun fintlarini ishlatib, so‘ng savatga hujum qilish uchun burilishlardan foydalanadi. Burilishning ikkita oldinga va orqaga burilish usuli bor.

Oldinga burilish basketbolchi yuzi bilan qayoqqa qaragan bo‘lsa, shu tomonga qadam tashlab o‘tish yo‘li bilan bajariladi, orqaga burilish esa – u orqasi bilan qaysi tomonga qadam tashlab o‘tish yo‘li bilan bajariladi.

To‘p bilan bajariladigan usullar (texnikasi). To‘p bilan bajariladigan usullar quyidagi texnik malakalarni: to‘pni ilib olish, uzatish, urub yurish va to‘pni savatga otishni o‘z ichiga oladi.

To‘pni ilib olish – bu malakaning yordamida o‘yinchi ishonarli ravishda to‘pni egallab olish va u bilan keyingi hujum harakatlariga kirishishi mumkin.

To‘pni ilib olish, keyinchalik to‘pni oshirib berish, olib yurish yoki otishni bajarish uchun ham dastlabki holat hisoblanadi, shuning uchun harakatlar o‘z tuzilishsi bilan keyingi usullarni aniq va qulay bajarilishini ta’minlashi lozim. O‘yinchi to‘pni xali ilmay turib, uni keyin qayoqqa va kimga uzatishni bilishi kerak.

To‘pni ikki qo‘l bilan ilib olish. To‘pni ikki qo‘l bilan ilib olish, to‘pni egallashning eng oddiy va shu bilan birga ishonchli usuli hisoblanadi.

Tayyorlov qismi: agar to‘p o‘yinchiga ko‘krak yoki bosh balandligiga yaqinlashayotgan bo‘lsa, unda qo‘llarni to‘pga qarshi chiqarish, bo‘sh barmoqlar va panja bilan to‘pni tutish, to‘p hajmiga nisbatan kattaroq voronkani hosil etish kerak.

Asosiy qismi: to‘p barmoqlarga tegish vaqtida unga panjalarni yaqinlashtirib, barmoqlar bilan ushlash kerak (kaft bilan emas), qo‘llarni esa ko‘krakka tortib, tirsak bo‘g‘inlarida bukish kerak. Qo‘llarni bukish uchib

kelayotgan to‘pning urish kuchini pasaytiradigan amortizatsiyon harakat hisoblanadi.

Yakunlovchi qism: to‘pni qabul qilgandan keyin gavdani yana ozgina oldinga tashlanadi: yoyilgan tirsaklar bilan raqibdan saqlanayotgan to‘pni keyingi harakatlarga tayyorlash holatiga olib chiqiladi. Agar to‘p ko‘krak balandligidan ancha past uchib kelsa, unda o‘yinchi to‘pining uchish balandligiga pasaytirib, odatdagidan ko‘ra pastroq o‘tiradi.

Boshdan baland uchib kelayotgan to‘pni tutib olish uchun sakrash va yoyilgan panjalar bilan qo‘llarni keskin yuqoriga chiqarish kerak (katta barmoqlar erkin yoyilgan). To‘p barmoqlarga tekkan payitda, panjalarni yaqinlashtiradi, ichiga bukib ular bilan to‘pni mahkam ushlashadi, qo‘llarni esa tirsak bo‘g‘imlariga bukib, to‘pni pasaytirishadi va gavdaga tortishadi. Past uchib kelayotgan to‘pni tutish paytida qo‘llarni pasaytirishadi, panja va barmoqlar esa xuddi yoyilgan kosani tashkil qilishadi (ikki qo‘l jimjilog‘i o‘rtasidagi oraliq bir necha santimetrdan oshmasligi kerak).

Maydonda sapchiyotgan to‘p uchun kurash, to‘pni ilib olish uchun, qulay balandlikka sakrashni kutmaslik kerak. Unga qarab harakat qilish, uni sakrashning boshlang‘ich paytida tutish kerak. O‘yinchi to‘pga tomon engashadi, tezda gavdani oldiga egadi, qo‘llarni oldinga-pastga tushiradi, tashqi tomondan panjalarni to‘pga olib keladi, lekin tepadan emas. To‘pni ushlab olgach, u darhol to‘g‘rilanadi va uni o‘ziga tortadi.

To‘pni harakatda ilish, o‘ziga uzatish yoki savatga otish maqsadida, shunday nomlanuvchi, ikki qadamli texnikani qo‘llashadi. Agar o‘yinchi to‘pni tutgandan keyin yugirayotgan oshirishni yoki otishni darhol amalga oshirmoqchi bo‘lsa, aytilgan bir qo‘l bilan, u chap oyog‘i bilan turtki bajarilgan va o‘ng oyog‘i oldinga chiqarilgan paytda, to‘pni yengil sakrab, uni ilib olishi kerak. So‘ng o‘ng oyoq bilan turtish (birinchi qadam), chap oyoq bilan turtish (ikkinchi qadam) va sakrash davomida to‘pni o‘ng qo‘l bilan oshirishi yoki otishi kerako‘ng birinchi sekinlashtiruvchi chap oyoq bilan, ikkinchi to‘xtatuvchi qadam o‘ng oyoq bilan va o‘ng oyoqda burilishlarni bajarish imkoniyatini beradigan qilib to‘xtash kerak.

To‘pni bir qo‘l bilan ilish: uchib kelayotgan to‘pga yetib borish va uni ikki qo‘l bilan ilishga sharoit, yo‘l qo‘ymagan holda uni bir qo‘l bilan ilish kerak.

Tayyorlov qismi: o‘yinchi qo‘lni shunday qilib chiqaradiki, to‘pning uchish yo‘ini kesib o‘sin (panja va barmoqlar bo‘sh).

Asosiy qism: to‘p barmoqlarga tegishi bilan qo‘lni orqaga-pastga olib borishi kerak, xuddi shu harakat bilan to‘pni uchishi davom ettirilayotgandek (amortizatsion harakat). Bu harakatga gavdaning ilib oluvchi qo‘l tomon bir oz burilishi yordam beradi.

Yakunlovchi qism: to‘pni bir qo‘l bilan ushlab, so‘ng qo‘l bilan mahkam ushlashi, so‘ng esa tezda harakat qilishga tayyor bo‘lishi kerak. Baland uchib kelayotgan to‘pni uni qo‘lidan urib chiqarib yubormasligi uchun tirsaklarni kerib (biroz yoyib) muvozanat holatiga keladi.

To‘pni uzatish. Uzatish – bu uchish yordamida hujumni davom ettirish uchun o‘yinchi to‘pni sherigiga yo‘naltirilgan malakadir. To‘pni to‘g‘ri va aniq uzatishni bilish – o‘yinda basketbolchilarning birgalikdagi aniq, maqsadga yo‘naltirilgan xarakterlarining asosidir. To‘pning har xil uslublari bor. Ularni u yoki bu o‘yin holati, to‘pni uzatish lozim bo‘lgan oraliq, sherigining joylashishi yoki harakat yo‘nalishi raqiblarining qarshi harakat uslublarini va xarakteriga qarab qo‘llaniladi.

Pereferik ko‘rish, qo‘l harakatlarining tezligi, tadbirkorlik, aniq va taktik fikrlash – to‘pni xatosiz uzata oladigan basketbolchilarni xarakterlovchi sifatlardir.

Uzatishning uslublarini bajarish tezligi va aniqligi ma’lum darajada panja va barmoqlarining usulni asosiy qismida juda tez ishlashiga bog‘liq. To‘pni uzatishda asosan panja va barmoqlar bilan harakat qilish kerak, o‘shanda uzatish yo‘nalishini aniqlash raqibga qiyin bo‘ladi. To‘pni qabul qilayotgan sherikni ko‘rish kerak, lekin unga qarab turmaslik lozim. Uzatish paytida muvozanat holatini saqlash lozim, bo‘lmasa uzatishga mo‘ljallangan yo‘nalish raqib tomondan to‘sib to‘p olib qo‘yilishi mumkin, o‘yinchi esa beixtiyor xato “yugurish” qilib qo‘yadi (uchinchi qadam qo‘yadi yoki joyidan siljiydi).

To‘pni ko‘krakdan ikki qo‘l bilan uzatish – nisbatan oddiy o‘yin paytida, raqibning ta’qibi bo‘shroq bo‘lganda, to‘pni yaqin va o‘rta masofadagi sherigiga aniq va tez yo‘naltirishga imkon beruvchi asosiy usuldir (5-rasm).

Tayyorlov qismi – barmoqlari yoyilgan panja bel balandligi to‘pni erkin ushlab turadi. Tirsaklar bir oz bukilgan. Qo‘llarning aylana harakati bilan to‘pni ko‘kragiga tortadi.

Asosiy qism – to‘p qo‘llarni oxirigacha tez tog‘rilash bilan oldinga yuboriladi, orqaga aylanish harakatini beruvchi panjalar harakati bilan to‘ldiradi.

Yakunlovchi qism: to‘pni uzatgandan keyin qo‘llarni bo‘sh tushiriladi, o‘yinchi to‘g‘rilanadi, so‘ng esa bir oz oyoqlarni bukilgan holatga qaytadi (shunday yakunlovchi qism uzatishning boshqa usullariga ham xos. To‘pning tez sapchishi uchun unga ba’zan oldiga aylanma harakat berishadi.

Bunday uzatish paytida oyoqlarni ko‘proq bukish, qo‘llarni esa to‘p bilan oldinga-pastga yo‘naltirish lozim.

Yuqoridan ikki qo‘llab uzatishdan ko‘proq raqib zich himoya qilayotgan paytida o‘rtacha masofalarda foydalaniladi.

To‘pning bosh ustidagi holati uning o‘yinchi o‘z sherigiga himoyachi qo‘llarni ustidan aniq uzatishga imkoniyat beradi.

Tayyorlov qismi: o‘yinchi to‘pni bir oz bukilgan qo‘llari bilan bosh ustiga ko‘taradi va uni bosh orqasiga o‘tkazadi.

Asosiy qism: o‘yinchi keskin qo‘l harakatlari bilan, ularni tirsak bo‘g‘inlarida rostlab va panjalari bilan tez siltash harakat qilib, to‘pni sherigiga yo‘naltiradi.

Yelkadan bir qo‘llab uzatish to‘pni yaqin va o‘rta masofaga uzatishda qo‘llaniladigan usuldir. Bunda uzatish uchun eng oz vaqt ketadi va to‘pni yaxshi nazorat qilinadi. To‘pning uchib chiqish vaqtidagi panjalarning qo‘shimcha harakati o‘yinchiga yo‘nalish va katta diapazonda to‘pning uchish trayektoriyasini o‘zgartirishga imkon beradi.

Yakunlovchi qism: to‘p uchib chiqqandan keyin o‘ng qo‘lda uni biron (lahza) kuzatib qo‘yadi, so‘ngra pastga tushirishadi. O‘yinchi bir oz bukilgan oyoqlarda muvozanat holatiga qaytadi.

Yuqoridan bir qo‘llab “kryuk usuli bilan uzatish qattiq ta’qib qilinayotgan raqibning ko‘tarilgan qo‘llari ustidan to‘pni o‘rta va ayniqsa uzoq masofaga yuborish kerak bo‘lgan vaqtda qo‘llaniladi.

Asosiy qismi: kaftda yotgan to‘pni keskin bosh ustiga oshirib, panjalarini yoyib sherigiga yo‘naltirish.

Pastdan bir qo‘llab uzatish: yaqin va o‘rtacha masofalarga, raqib to‘pni yuqoriga tutib olishga zo‘r berib harakat qilgan paytda bajariladi. To‘pni sherigiga raqibning qo‘l ostidan yo‘naltirishadi.

Tayyorlov qismi: to‘g‘ri yoki bir oz bukilgan qo‘lni to‘p bilan orqaga o‘tkaziladi, to‘p kaftda yotadi, barmoqlar bilan va markazdan qochiradigan kuch tufayli ushlab turiladi.

To‘pni urib yurish – o‘yinchiga to‘p bilan maydon bo‘ylab hohlagan tezlikda va istalgan yo‘nalishda harakat qilishga imkon beruvchi usuldir.

Basketbolchi to‘pni urib yurishni o‘ng va chap qo‘l bilan yaxshi bir xil ravishda o‘rganishi shart.

Tezlikni o‘zgartirish bilan aldab o‘tish. Himoyachidan qutilish uchun to‘p olib yurishni tezligining kutilmagan o‘zgarishidan foydalaniladi. To‘pni urib yurish tezligi avvalo to‘pni qay burchak ostida maydonga yuborilayotganligi va sakrash balandligiga bog‘liq. To‘p bilan oldinga harakat qilish tezligi avvalo to‘pni sakrash balandligiga va uning sapchish burchagiga bog‘liq. Tikkaga yaqin va past sakrashda buyurilsa yurish sekinlashadi va butunlay joyida bajarilishi mumkin.

Yo‘nalishni o‘zgartirish bilan aldab o‘tish. Asosan bu harakatdan raqibni aldab o‘tish va hujum uchun halqa tomon o‘tish uchun foydalaniladi. Yo‘nalishni quyidagicha qilib o‘zgartirishadi: to‘pning yon sirtini hohlagan nuqtalariga panja qo‘yiladi va kerakli yo‘nalishga qo‘lni to‘g‘rilanadi. Shuningdek, sapchish balandligini o‘zgartirib, burilishlar va to‘pni u yoqdan bu yoqqa o‘tkazib ham

aldab o‘tish mumkin. Shuningdek, to‘pni bir qo‘ldan boshqasiga o‘tqazish bilan yashirincha, orqadan yoki to‘pni oyoq ostidan o‘tkazish bilan ham raqibni aldab o‘tish usulidan keng foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Toshpo‘latov J.T. Milliy xalq o‘yinlarining Yoshlarni ma’naviy tarbiyalashdagi ahamiyati. // “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommaviylshtirishning dolzarb muammolari”. Republika ilmiy - amaliy konferensiyasi ma’ruza matnlari. Termiz: 2005. – 22–24-b.

2.Usmonxujayev.T.S. Nauchno-pedagogicheskiye osnovы fizicheskogo sovershenstvovaniya detey v svyazi s ix dvigatelnoy aktivnostyu. Avtorefer. dis. dok. ped. nauk. – T.: 1995. – s. 38.

3. Usmonxo‘jayev T., Meliyev X. Milliy harakatli o‘yinlari. – Toshkent: 2000. – 114 b.

TALABALARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZINI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH (OTM MISOLIDA)

Bolbekov Elyor Abdimumin o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: elyorbolbekov866@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini yaratish va uni takomillashtirish uchun kreativ yondashuvlar asosida amalga oshiriladigan tadbirlar tahlil qilingan. Talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash, balki ilmiy faoliyat va ijtimoiy yutuqlarga erishishda ham muhim ahamiyatga ega.

Maqolada Oliy ta’lim muassasalarida (OTM) sog‘lom turmush tarzini yaratish uchun sport va jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash va madaniy-ijtimoiy faoliyatlarni rag‘batlantirish kabi kreativ yondashuvlar o‘rganilgan. Talabalar o‘rtasida stressni kamaytirish, umumiy ruhiy salomatlikni yaxshilash va jismoniy faollikni oshirish uchun innovatsion usullarni tatbiq etishning zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, maqolada OTMlarda talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirishda integratsiyalashgan yondashuvlarning ahamiyati va bu jarayonlarning ta'lim samaradorligini va talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga qanday ta'sir qilishi ko‘rsatilgan. Maqola talabalarning sog‘lig‘ini yaxshilashda

an'anaviy usullarni va zamonaviy kreativ metodlarni birlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Sog‘lom turmush tarzi, talabalar, kreativ yondashuvlar, jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, psixologik salomatlik, stressni kamaytirish, madaniy faoliyat, Oliy ta’lim muassasasi, ruhiy salomatlik, ilmiy faoliyat, ijtimoiy faollik.

Kirish. Bugungi kunda talabalar orasida sog‘lom turmush tarzining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Talabalar nafaqat ilmiy va akademik yutuqlarga erishish, balki jismoniy va ruhiy salomatlikni ham saqlash zaruriyatini anglaydilar. Oliy ta’lim muassasalarida (OTM) sog‘lom turmush tarzini yaratish uchun zamonaviy, kreativ va interaktiv yondashuvlarni joriy etish talab etiladi. Shu bilan birga, talabalarning sog‘lig‘ini yaxshilashda faqat an'anaviy yondashuvlar emas, balki innovatsion va yaratish uchun yangi metodlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Sog‘lom turmush tarzini ta’rifi va uning ahamiyati

Sog‘lom turmush tarzi — bu faqatgina jismoniy salomatlikni emas, balki psixologik, ijtimoiy va emosional salomatlikni ham o‘z ichiga olgan keng tushuncha. Oliy ta'lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, talabalar salomatligi, bilim olish samaradorligi va ularning umidlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat talabalarning o‘zini yaxshi his qilishi, balki o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va stressga qarshi kurashishda ham katta ahamiyatga ega.

1 jadval

Kreativ yondashuvlar asosida sog‘lom turmush tarzini takomillashtirish

Sport va jismoniy faollikni rag‘batlantirish	Talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini yaratishda sportning roli juda katta. An’anaviy sport turlari (futbol, basketbol)dan tashqari, kreativ va yangi faoliyatlarni tashkil etish talabalar uchun qiziqarli va foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, yoga, pilates, zumba yoki tabiatda sayr qilish kabi faoliyatlar talabalarga stressni kamaytirish, tetiklikni oshirish va jismoniy salomatlikni yaxshilash imkoniyatini beradi. OTMda bu turdagi mashg‘ulotlar doimiy ravishda tashkil etilishi, shuningdek, turli xil sport musobaqalari va tanlovlar orqali talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish mumkin.
Sog‘lom ovqatlanish va	Talabalar ko‘pincha ovqatlanish masalasida

diyetalar	sog‘lom tanlovlar qilishda qiynaladi. OTMlarida sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha seminarlar, treninglar va ustozlik yordami orqali talabalarni diyetalarga oid bilim bilan ta'minlash kerak. Shuningdek, kampusdagi oshxonalarda sog‘lom va mazali taomlar mavjud bo‘lishi talabalar uchun katta yordam bo‘lishi mumkin. Sog‘lom ovqatlanishning dastlabki bosqichlari — organik mahsulotlarni tanlash, tez tayyorlanadigan va tez-tez yeyiladigan fast food turidagi ovqatlardan uzoq turish, va ichimliklar orasida shirin ichimliklar o‘rniga tabiiy sharbatlarga afzallik berish.
Psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash	Talabalarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash uchun yangi kreativ yondashuvlar muhimdir. Stress, depressiya va o‘zini his qilishdagi salbiy o‘zgarishlarga qarshi kurashish uchun OTMlarida psixologik maslahat xizmati, stressni kamaytirish bo‘yicha treninglar va meditatsiya mashg‘ulotlarini tashkil etish zarur. Shuningdek, talabalarning shaxsiy hissiyotlari va emosiyalarini erkin ifodalashlari uchun san'at va musiqa terapiyasiga oid guruhlarni yaratish ham o‘z samarasini beradi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun teatr va adabiyot kabi faoliyatlar, talabalar o‘rtasida ijtimoiy va emosional aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.
Ijtimoiy va madaniy faoliyatlar	OTMlarda ijtimoiy va madaniy faoliyatlar talabalarning turmush tarzini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar uchun ko‘plab turli ijtimoiy tadbirlar (xayriya tadbirlari, madaniy festivallar, ilmiy anjumanlar) tashkil etilishi, ularning turli xil ijtimoiy muhitlarda o‘zlarini erkin va qulay his qilishlariga yordam

	beradi. Bu kabi tadbirlar talabalarga yangi g‘oyalarni rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish va o‘zaro muomala qilish imkoniyatlarini beradi. Madaniy faoliyatlar, shuningdek, talabalarning o‘zlarini shakllantirishda va mental salomatlikni yaxshilashda samarali usul bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Sog‘lom turmush tarzini yaratish talabalar uchun o‘zgarmas ehtiyojga aylangan. Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) talabalarning sog‘lig‘ini saqlash va takomillashtirish uchun kreativ va innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat ularning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilaydi, balki ilmiy va ijtimoiy faoliyatda ham muvaffaqiyatlarga erishishlariga yordam beradi. Shunday qilib, OTMlar sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda faqat jismoniy mashg‘ulotlar yoki dietalarni emas, balki talabalarning barcha sohalarda yaxshilanishi uchun zarur bo‘lgan kompleks yondashuvlarni tatbiq etishlari lozim.

Maqolada talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini yaratish va uni takomillashtirish uchun kreativ yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlangan. Oliy ta'lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sport, sog‘lom ovqatlanish, psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash va madaniy faoliyatlar kabi kreativ metodlarni birlashtirish zarur. Ushbu yondashuvlar talabalarga nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilash, balki ruhiy va ijtimoiy salomatlikni ham mustahkamlashga yordam beradi.

Talabalar uchun sog‘lom turmush tarzini tashkil etishda OTMlarning integratsiyalashgan yondashuvlari muvaffaqiyatli bo‘lib, ularning umumiy salomatligini oshirish, stressni kamaytirish va o‘qish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shunday qilib, talabalarning sog‘lom turmush tarzini yaratish uchun zamonaviy, innovatsion va kreativ yondashuvlarni tatbiq etish OTMlarda umumiy rivojlanish va muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsiyeva, S. (2020). *Talabalar sog‘lig‘ini saqlashda sog‘lom turmush tarzining roli*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Raximov, B. (2019). *Sog‘lom ovqatlanish va jismoniy faollik: talabalarga oid tavsiyalar*. Tashkent: Yoshlar Ittifoqi nashriyoti.
3. Bakhromov, N. (2021). *Sog‘lom turmush tarzini yaratish: psixologik va jismoniy salomatlikni yaxshilash*. Oliy ta'lim jurnali, 18(3), 45-50.

4. Qodirov, M. (2022). *Madaniy va ijtimoiy faoliyatlarning talaba salomatligiga ta'siri*. Tashkent: Akademiya nashriyoti.
5. World Health Organization (WHO). (2020). *Healthy living and mental health in higher education*. Geneva: WHO.
6. DeLorenzo, M., & Di Renzo, L. (2020). *Healthy lifestyle and physical activity in students: an interdisciplinary approach*. Journal of Health Science, 16(2), 70-85.
7. Johnson, S., & Kelly, T. (2021). *Innovative approaches in promoting well-being in students*. Higher Education Review, 12(1), 105-120.
8. Bolbekov, E.A. (2021). *Talabalarning sog‘lom turmush tarzini takomillashtirishda kreativ yondashuvlar*. Journal of Modern Education, 25(4), 112-118.

YOSH SPORTCHILARNING AXLOQIY-IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Amonov Jafar Azamovich - Gulistom davlat pedagogika instituti,
Tabiiy fanlar fakulteti, “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishi 36-24 guruh talabasi
jafarbek_77@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh sportchilarning axloqiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning o‘rni tahlil qilingan. Iroda va axloqiy fazilatlar yoshlikdan boshlab shakllanishi lozim bo‘lgan muhim shaxsiy fazilatlar hisoblanadi. Sport mashg‘ulotlari orqali qat’iyat, jasorat, chidamlilik, mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Shuningdek, maqolada sport mashg‘ulotlarining shaxs psixologiyasi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, sport, axloqiy fazilat, iroda, chidamlilik, shaxs tarbiyasi, sportchi, o‘smirlar, murabbiy, motivatsiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, o‘quvchilar va yoshlarda jismoniy tarbiya muammolarini ijobiy hal etishda irodani shakllantirishning ahamiyati juda kattadir. Ma’lumki, inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni oldindan tasavvur eta oladi. Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo‘ladi. Shu sababli, har qanday qiyinchiliklarni yengib bo‘lsa ham, maqsadini amalga oshirishga intiladi.

Shaxmat o‘yinida har doim yangi muammolar yuzaga keladi, va har bir muammo o‘ziga xos yechimni talab qiladi. Sportchi muammolarni samarali hal qilish uchun analitik fikrlash, mantiqiy tafakkur va ijodkorlikni qo‘llashga qodir bo‘lishi kerak. Intellektual tayyorgarlikning yana bir muhim jihati – bu o‘yinchining o‘zini doimiy ravishda rivojlantirishga bo‘lgan intilishidir. Shaxmatda o‘yinchilar yangi strategiyalarni o‘rganish, turli xil o‘yin uslublarini sinab ko‘rish, shuningdek, avvalgi o‘yinlaridan xatolarini tahlil qilish orqali o‘z malakalarini oshiradilar.

Shaxmatda intellektual tayyorgarlik juda ko‘p jihatlarni o‘z ichiga oladi va bu sportchi uchun muvaffaqiyatning asosi bo‘lib, uning qobiliyatlarini, bilimlarini va psixologik chidamliligini rivojlantirishga yordam beradi. Shaxmat o‘yinida sportchining intellektual tayyorgarligi juda muhim ahamiyatga ega. Bu o‘yin nafaqat jismoniy kuchni, balki aqlni ham talab qiladigan strategik kurashdir. Shaxmatda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchi yuqori darajadagi mantiqiy fikrlash, o‘zgaruvchan holatlar va strategiyalarni tezda tahlil qilish, qarorlar qabul qilishda aniq va to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Intellektual tayyorgarlik, shuningdek, shaxmatchilarning o‘yin davomida diqqatni jamlash, mustahkam xotira va qiyin vaziyatlarda qat'iyatlilik ko‘rsatishlariga yordam beradi. Sportchi o‘zining o‘yinini analiz qilib, raqibining

imkoniyatlarini to‘liq baholay olishi kerak. Bunday qobiliyatlar, o‘yinda muvaffaqiyatga erishish uchun eng muhim elementlar hisoblanadi.

Shunday qilib, shaxmatda sportchining intellektual tayyorgarligi nafaqat g‘alaba qozonishga yordam beradi, balki o‘yinning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3906 sonli Qarori. 2018-yil 9-avgust.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4954 sonli Qarori. 2021-yil 14-yanvar.

3. M.Muhitdinov Shaxmat. Maktablarning shaxmatni endi o‘rgana boshlagan o‘quvchilar va kam malakali shaxmatchilar uchun qo‘llanma. Tuzatilgan va to‘ldirilgan nashri. – T.: “Sharq”, 2007 y. – 352 b.

4. Muxitdinov M. 64 xona – 32 dona... . “Yosh gvardiya nashriyoti”. Toshkent 1975 y. – 112 b.

5. Qosimjonov R. Shaxmat-sehirli olam. Toshkent. 2013 y. – 200 b.

TALABA-QIZLARNI JISMONIY TAYYORGARLIGI KO‘RSATKISHLARINI OSHIRISHGA MO‘LJALLANGAN MASHQLAR MAJMUASI VOSITALARINI TANLASH VA ULARNING SAMARADORLIGI

Kambarov Davronbek Saytboyevich – Guliston davlat universiteti
Sport faoliyati fakulteti p.f.b.f.d (PhD), v.b.dotsent

Kalit so‘zlari: jismoniy ko‘rsatkishlar, jismoniy tayyorgarlik, energetik hajmi, harakat faolligi, kompensattsiya, salomatlik darajasi

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda Respublikasmizda oliy ta‘lim tizimini zamon talablari asosida jahon andozalariga to‘laqonli javob beradigan tarzda rivojlantirish masalasi hukumatimizning ustuvor vazifalaridan hisoblanmoqda. “Biz, jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o‘qituvshilar, mutaxassislar xamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada

takomillashtirishga qaratilgan yaxlit tizimni ishlab shiqish”[3] kabi vazifalar belgilab berilgan.

Oliy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya fanini rivojlantirish, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilash maqsadida, uni manzilli qo‘llab quvvatlash bo‘yisha qator tizimli shora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirda, nafaqat an’anaviy jismoniy tarbiya vositalari va usullari bilan talaba-qizlarning harakat faolligini an‘anaviy ko‘rsatkishlarini aniqlash, balki, ular tanasini kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan adaptattsion xususiyatlarini, jismoniy rivojlanish va salomatlik darajasi bilan aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2020-yil 24-yanvardagi RF-5924-son “O‘zbekiston Resrublikasida jismoniy tarbiya va srortni yanada takomillashtirish va ommalashtirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-oktabrdagi RF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy srortni yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 3-noyabrdagi RQ-4877-son “Jismoniy tarbiya va srort sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-iyundagi RQ-5148-son “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy shora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dastlabki pedagogik tajriba natijalari va ularni tahliliga asoslanib, biz, jismoniy tayyorgarlik vositalarini saralab olish va ularni sog‘lomlashtiruvshi samaradorligini asosiy redagogik tajriba davomida inobatga olgan holda taqsimlash ishlarini amalga oshirdik. Shu bilan birga, mashq mazmunini, uning hajmini, jadalligini va yuklamalarni energetik yo‘nalganligini eng to‘liq tavsiflari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining asosiy qismida keltirilgan.

Gandbol vositalari bilan birga boshqa srort turlarida qo‘llanadigan yordamshi mashqlar vositasidan majmuaviy foydalanishni nazarda tutadigan strukturani va harakat rejimini ustunligini inobatga olgan holda, biz uni asosiy pedagogik tajriba dinamikasida foydalaniladigan vosiyalar hajmini taqsimlashda TG guruhida asosiy sifatida qabul qildik.

Bunday taqdimot natijalari jadvalda keltirilgan bo‘lib undagi ma’lumotlarni tahlil qilish, gandbol bazaviy vosita sifatida ajratilgan umumiy mashg‘ulot vaqtini taxminan 60% hajmi miqdorida qo‘llanganligini, boshqa srort turlarida qo‘llanadigan yordamshi mashqlar hissasiga esa 40% dan oshmagan qismi to‘g‘ri kelganligini ko‘rish mumkin.

Asosiy redagogik tajribada jismoniy tayyorgarlikni asosiy va yordamshi (qo‘shimsha) vositalari hajmlarini taqsimoti

Srort turi	Oylar bo‘yisha yuklama hajmi, %						
	sentabr	oktabr	noyabr	mart	arrel	may	o‘rtasha
Tajriba guruhi							
Gandbol	60	60	60	60	60	60	60
Gimnastika. Saf mashqlari	7	7	7	7	7	7	7
Yengil atletika mashqlari (qisqa va o‘rta masofaga yugurish, turgan joyidan uzunlikka sakrash)	9	9	9	9	9	9	9
Fitnes	20	22	22	22	22	22	22
Sodda akrobatik mashqlar	4	9	9	9	9	9	9
Jami	100	100	100	100	100	100	100
Nazorat guruhi							
Gandbol	30	30	30	30	30	30	30
Gimnastika. Saf mashqlari	30	30	30	30	30	30	30
Yengil atletika mashqlari (qisqa va o‘rta masofaga yugurish, turgan joyidan uzunlikka sakrash)	40	40	40	40	40	40	40
Jami	100	100	100	100	100	100	100

Asosiy pedagogik tajriba davomida ushbu vositalardan foydalanishning umumiy hajmi o‘zgarmadi, ya’ni biz, gandbol bilan shug‘ullanish ushun eng ahamiyatli hisoblangan talaba-qizlarning tezkor-kush sifatlarini rivojlanishini yaxshilash maqsadida tajriba guruhi mashg‘ulotlarida gandbolda qo‘llanadigan vositalar hajmini 60 foizgasha kamaytirish hisobiga yengil atletika mashqlari hajmini 9 foizgasha oshirdik.

Boshqa srort turlaridagi singari gandbolda ham keyingi paytlarda talaba-qizlarning texnik tayyorgarligi darajasini ortib borayotganligini inobatga olgan holda, biz, mashqlar majmuasi tarkibiga gandbolda qo‘llanadigan vositalardan faqat yuklamalarni energetik ta’minotini aralash rejimida ustivor bajarilishini emas, balki qizlarning harakatlanish malaka va ko‘nikmalari arsenalini yetarli darajada ortishini ham ta’minlash imkoniyatini beradigan ancha murakkab mashqlarni kiritdik.

Aytib o‘tilgan vositalardan, asosan, gandbol spotr turida keng qo‘llanadigan elementlar bilan birgalikda harakatlangan holda bajariladigan mashqlar majmuasidan, soddalashtirilgan qoidalar bilan o‘ynaladigan ikki tomonlama o‘yinlardan, o‘yinchilar soni kamaytirilgan holda bitta darvozaga o‘ynaladigan o‘yinlardan, shaxsiy himoya va hujum mashqlaridan foydalandik.

Ushbu aytib o‘tilgan mashqlar, aralash energetik rejimida davomiyligi


o‘rtasha 6-15 minut bo‘lganida yuklamalarni o‘rtasha 49-60% bajarilishini taminlash imkoniyatini beradi .

Talaba-qizlarning mashg‘ulotlarida (ularning jismoniy inobatga olgan holda) boshqa sport turlarida qo‘llanadigan yordamshi mashqlardan foydalanishda umumiy vaqt hajmini o‘rtasha 20% miqdorda Fitnes mashqlari majmuasiga ustuvorlik berildi. Mazkur mashqlar vaqatgina aralash energetik ta’minot rejimida ustuvorlik berildi. Mazkur mashqlar faqatgina aralash energetik taminot rejimida 41% gasha yuklamalarini bajarilishini ta’minlab qolmay, balki talaba-qizlarni mashg‘ulotlarda qo‘llanadigan jismoniy mashqlarni majmualariga bo‘lgan emotsional fanini va motivatsiyalarini oshirishga ham zamin yaratish imkonini berdi.

Talaba-qizlarga kush ta’sirini oshirish ushun aprel va may oylarida og‘irligi 500 gramm bo‘lgan gantellar bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi. Trenajerlarda bajariladigan mashqlar ustivorlik qiladigan atletik gimnastika vositalarini qo‘llash hajmi o‘rtasha 7% ni tashkil qildi va ular talaba-qizlarning kuch sifatlarini rivojlantirish maqsadida mashg‘ulotlarning asosiy qismini boshlanishida qo‘llanildi. Asosiy gimnastika vositalari, “energetik hajmda”eng past sifatida, faqat mashg‘ulotlarning tayyorlov qismida umumiy vaqtning 7% dan oshmagan miqdorda qo‘llanildi.

Biz, talaba-qizlarning tezkor-kush sifatlarini rivojlantirish, asosan gandbolda qo‘llanadigan vositalar yordamida hal qilinishi mumkin, deb hisoblagan holda, yengil atletika sport turlarida qo‘llanadigan vositalar hajmini ongli ravishda 9 % gasha kamaytirdik.

Butun asosiy pedagogik tajriba davomida gandbol sport turida qo‘llaniladigan hamda boshqa sport turlarida qo‘llaniladigan yordamshi mashqlardan iborat bo‘lgan vositalani deyarli bir xil tarkibda bo‘lishi, ularni optimal nisbatda tanlanganligi bilan tushuntiriladi.



Asosiy pedagogik tajriba davomida tajriba va nazorat guruhlari talaba-qizlarini mashg‘ulotlarning asosiy qismida bajargan yuklamalari umumiy hajmini oylar bo‘yicha taqsimoti

Davlat dasturi mashqlar majmuasi bo‘yicha shug‘ullangan nazorat guruhi talaba-qizlarining mashg‘ulotlarida jismoniy tayyorgarlik jarayoni asosan energiya ta’minotini aerob yo‘nalgan rejimida, ya’ni o‘rtacha quvvat zonalarida bajariladigan yuklamalardan tashkil etilgan va bunday yuklamalar yetarlicha yuqori darajadagi sog‘lomlashtirish samaradorliligiga erishish imkoniyatiga ega emas.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili va shaxsiy amaliy tajriba ma’lumotlarimizga asoslangan holda, biz tomondan ishlab shiqilgan va tajriba guruhi mashg‘ulotlarida asosiy pedagogik tajriba davomida qo‘llangan mashqlar majmuasi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirishini, harakat faolligi yetishmovchiligini kompensattsiya qilishini ahamiyatga molik darajada yaxshilanishini va salomatlik darajasini sezilarli oshirishini ta’minlashini tahmin qilgan edik va bunga erishdik.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Gandbol vositalarini va sportning boshqa turlaridagi qo‘shimsha vositalarni jismoniy mashqlarni bajarish rejimini energiya hajmi mezoni (energiya bilan aralash rejimda amalga oshiriladigan yuklamalar hajmini foizi) bo‘yisha amalga oshirilgan tizimlashtirilishi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini sog‘lomlashtirish jihatidan eng samarali vositalarini saralash imkonini berdi, ularning tarkibiga energiya hajmi 40% dan rast bo‘lmagan mashqlar kiradi.

Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish ushun sportning bazaviy turi sifatida gandbol arsenali tarkibida eng katta sog‘lomlashtiruvshi samaraga soddalashtirilgan qoidalar bilan ikki tomonlama o‘yinlar, to‘pni harakatda olib yurish, uzatish va darvozaga otishni amalga oshiradi. Faqat gandbol sport turi energiya hajmi 50% va harakatlarni zichligi 70% bo‘lgan vositalarinigina qo‘llanilishi (85%), jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishni sog‘lomlashtiruvshi samarasini sezilarli darajada ortishiga ko‘maklashadi – salomatlikni energetik va harakat komponentlarini ayrim ko‘rsatkishlari dastlabki holatdagi 20 absolyut birlikka nisbatan o‘rtasha 40 absolyut birlikka ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi RQ- 5281-son "2024-yil Rarij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimriya va XVII Raralimriya o‘yinlariga srortshilarimizni komrleks tayyorlash to‘g‘risida"gi qarori.
2. Isroilov R.I., Xabibjonova X.M. Gandbolda burchak o‘yinchilarning musobaqa faoliyatidagi xujum texnik –taktik xarakatlari taxlili G‘G‘ Fan-sportga ilmiy nazariy jurnal. 2018. №1. – B. 50-55.
3. Mo‘minov A.Sh. Gandbolchi talabalarni texnik usullarga o‘rgatish usullari va ularni nazorat qilish yo‘llari G‘G‘ The journal of asademis researsh in edusation ssienses. Vol. 2, 2021. – B. 246-252.
4. Pavlov Sh.K., Abduraxmanov F.A. Gandbol G‘uchebnik Pavlov Sh.K., Akramov J.A., Toshkent «UZDJTI nashriyoti» 2006. - 198 s.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA HARAKATLI O‘YINLARNI TASHKIL ETISH MAZMUNINI KLASTERLI YONDOSHUVLAR ASOSIDA TASHKOMILLASHTIRISH

Toshpo‘latov Elyor Bahtiyor o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: toshpolatovelyor73@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining harakatli o‘yinlarni samarali tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Ushbu maqolada harakatli o‘yinlar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga hissa qo‘shish hamda o‘qituvchilar uchun innovatsion yondoshuvlar va metodikalarni taqdim etish ko‘zda tutilgan. Klasterli yondoshuvlar yordamida, harakatli o‘yinlarning turlari, metodologiyasi va

organizatsiya usullarini tizimli ravishda o‘rganish va bu usullarni amaliyotga tatbiq etish muhimdir. Maqolada o‘yinlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirish, jismoniy salomatlikni mustahkamlash va o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik yondoshuvlarni ishlab chiqish kabi masalalar yoritiladi. Natijada, o‘qituvchilarni o‘z ishida innovatsion va samarali metodlarni qo‘llashga tayyorlashga qaratilgan muhim tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Harakatli o‘yinlar, klasterli yondoshuvlar, pedagogik metodika, innovatsion metodlar, pedagogik faoliyat, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, yangi pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy rivojlanish.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida harakatli o‘yinlarning ahamiyati katta. Jismoniy tarbiya fanining o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi nafaqat o‘quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki ularning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Harakatli o‘yinlar, o‘quvchilarga qiziqarli va samarali faoliyatni taqdim etib, ularning jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga, o‘yin orqali ijtimoiy, axloqiy va psixologik ko‘nikmalarni ham shakllantiradi[1].

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda harakatli o‘yinlarning to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi. Harakatli o‘yinlar pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular o‘qituvchilarga o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ijtimoiylashuvini ta’minlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish imkonini beradi. Ammo bu o‘yinlarning samarali tashkil etilishi uchun o‘qituvchilarda to‘g‘ri metodik yondoshuvlar, innovatsion metodlar va pedagogik mahorat bo‘lishi zarur[2].

Ushbu maqolada harakatli o‘yinlarning mazmunini klasterli yondoshuvlar asosida tashkillashtirish muammolari o‘rganiladi. Klasterli yondoshuvlar harakatli o‘yinlarni turli jihatlarini tizimli tarzda ajratib ko‘rish va o‘qituvchilarga ularni samarali tashkil etish uchun zarur metodlarni taqdim etishga imkon beradi. Maqolada klasterli yondoshuvlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni, harakatli o‘yinlarning tashkil etish metodologiyasi va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining professional rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Bu yondoshuvlar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish va o‘quvchilarga to‘g‘ri, samarali o‘yinlarni taqdim etish imkoniyati yaratiladi[3].

Qo‘llanilgan metodlar:

- Tadqiqotning birinchi bosqichida mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilinadi. Bu usul yordamida harakatli o‘yinlarning pedagogik ahamiyati, klasterli yondoshuvlar asosida ularni tashkil etish metodikasi va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi o‘yinlarning o‘rni haqidagi ilmiy fikrlar tizimli ravishda o‘rganiladi. Shu bilan birga,

klasterli yondoshuvlarning o‘qituvchilarni tayyorlashda qo‘llanishi va pedagogik amaliyotdagi samaradorligi haqidagi nazariy yondoshuvlar aniqlanadi[4].

- Tadqiqot davomida o‘quv jarayonida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bilan eksperimentlar o‘tkaziladi. Eksperiment davomida o‘qituvchilarga harakatli o‘yinlarni tashkil etish bo‘yicha klasterli yondoshuvlar asosida metodik tavsiyalar beriladi va ularning samaradorligi kuzatilib, tahlil qilinadi. Eksperiment natijalari asosida klasterli yondoshuvlarning amaliy samaradorligi o‘rganiladi.
- Tadqiqot ishtirokchilarining (bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari) harakatli o‘yinlarni tashkil etishga bo‘lgan yondoshuvlarini aniqlash uchun so‘rovnomalar va anketalar o‘tkaziladi. Bu usul yordamida o‘qituvchilarning pedagogik bilimlari, metodik yondoshuvlar va klasterli yondoshuvlarning ularga qanday ta’sir ko‘rsatganligi haqida ma’lumot to‘planadi[5].
- Tadqiqotda o‘qituvchilarning amaliy faoliyatini kuzatish orqali harakatli o‘yinlarni tashkil etishdagi metodologik yondoshuvlarni baholash amalga oshiriladi. Kuzatish davomida o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan o‘yinlarni tashkil etishdagi pedagogik mahorati, o‘quvchilarning o‘yinga bo‘lgan qiziqishi va ularning faoliyatidagi o‘zgarishlar aniqlanadi.
- Tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilinadi va turli metodlarning samaradorligi solishtiriladi. Bunda, harakatli o‘yinlarni tashkil etishdagi klasterli yondoshuvlar va an’anaviy yondoshuvlar o‘rtasidagi farqlar va ularning o‘quvchilarga ta’siri tahlil etiladi. Ushbu tahlil natijalari asosida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi.
- Tadqiqotda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘rtasida tajriba almashish muhim o‘rin tutadi. Bu usul yordamida o‘qituvchilar o‘zlarining metodik yondoshuvlarini taqdim etib, boshqalar bilan fikr almashishadi. Klasterli yondoshuvlar asosida o‘yinlarni tashkil etish tajribasi bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar orqali ko‘nikmalar mustahkamlanadi[6].
- Tadqiqot natijalari bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini o‘qitishda klasterli yondoshuvlarni qo‘llashning samaradorligini va uning pedagogik jarayondagi o‘rni haqida to‘liq va aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu usullar yordamida o‘qituvchilarga harakatli o‘yinlarni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Klasterli yondoshuvlar harakatli o‘yinlarni tashkil etishning samarali metodologiyasini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Klasterli yondoshuv yordamida o‘yinlarni tizimli ravishda tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bu yondoshuv

orqali o‘yinlarning turli komponentlari bir-biriga bog‘liq bo‘lgan klasterlar asosida tashkil etiladi, masalan:

Jismoniy rivojlanish klasteri – bu klasterda o‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan yugurish, sakrash, to‘pni tepish kabi harakatlar orqali o‘quvchilarning jismoniy faolligi oshiriladi.

Ijtimoiy va axloqiy rivojlanish klasteri – o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilishni, jamoaviy ish olib borishni va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashni o‘rganadilar. Bu klaster, shuningdek, o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kognitiv rivojlanish klasteri – bu o‘yinlar o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. O‘yin davomida o‘quvchilar turli masalalarni hal qilish, strategik fikrlash va qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Klasterli yondoshuvlar orqali harakatli o‘yinlarning har bir jihati o‘quvchilarning turli sohalarda rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondoshuv o‘qituvchilarga o‘yinlarni tashkil etishda turli komponentlarni bir-biriga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida o‘qituvchilar bilan eksperimentlar o‘tkazildi. Eksperimentda ishtirok etgan o‘qituvchilar harakatli o‘yinlarni klasterli yondoshuvlar asosida tashkil etdilar va bu jarayonning samaradorligi o‘rganildi. Eksperimentdan olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, klasterli yondoshuvlar yordamida tashkil etilgan o‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy faolligini sezilarli darajada oshirgan. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi[7].

Eksperimentda qatnashgan o‘qituvchilar o‘zlari o‘yinlarni tashkil etishda yanada samarali metodlarni qo‘llashga erishgan, shuningdek, o‘quvchilarning o‘yinga bo‘lgan qiziqishlari va faoliyatga jalb etilishlari ortgan. O‘quvchilarning o‘yinda ishtirok etishdagi o‘zgarishlarni kuzatish natijasida, klasterli yondoshuvlar yordamida tashkil etilgan o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni oshirish, balki o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirgan.

Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish orqali klasterli yondoshuvlarning ularning metodik uslublariga qanday ta’sir ko‘rsatgani aniqlanadi. Klasterli yondoshuvlar yordamida o‘qituvchilarga o‘quvchilarga mos o‘yinlarni tashkil etish, o‘quvchilarni faollashtirish va ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishini kuzatish imkoniyatlari yaratildi. O‘qituvchilar tomonidan klasterli yondoshuvlar asosida amalga oshirilgan o‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy va ijtimoiy salohiyatini oshirishda samarali bo‘ldi[8].

Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondoshuvlarni qo‘llash bo‘yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi:

Klasterli yondoshuvlar asosida o‘yinlarni tashkil etishda jismoniy, ijtimoiy, axloqiy va kognitiv rivojlanishni birgalikda hisobga olish zarur.

O‘qituvchilarga harakatli o‘yinlarni tashkil etishda innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash, ularning metodik ko‘nikmalarini oshirish tavsiya etiladi.

Harakatli o‘yinlarning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari orqali klasterli yondoshuvlar metodikasi bilan tanishtirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Xodjaev. M** Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi darslik, Tashkent "O‘quvchi" nashriyoti 2013-yil.
2. **Abdullaeva.N** Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi metodikasi. Tashkent "O‘zbekiston" nashriyoti 2015-yil.
3. **Shamsutdinov.B** Harakatli o‘yinlar va ularning pedagogik ahamiyati. Tashkent "Ilm-Ziyo" nashriyoti 2018-yil.
4. **Teshabaev.A** Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondoshuvlar. Samarqand "Sharq" nashriyoti 2016-yil.
5. **Usmonov. R** Jismoniy tarbiya va sportda klasterli yondoshuvlar. Tashkent "Fan va texnologiya" nashriyoti 2020-yil.
6. **Zokirov.F** Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining metodik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Farg‘ona "Farg‘ona Universiteti" nashriyoti 2014-yil.
7. **Zulfikarov.J** Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi metodikasi va pedagogik texnologiyalar. Tashkent "O‘zbekiston Milliy Universiteti" nashriyoti 2017-yil.
8. **Rakhmonov. Sh** Pedagogik texnologiyalar va metodik yondoshuvlar. Tashkent "Fan va ta'lim" nashriyoti 2018-yil.
9. **Ismailov. D** Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tayyorlashda metodik yondoshuvlar. Tashkent "O‘quvchi" nashriyoti 2012-yil.

JISMONIY TARBIYA SOHASIDA MARKETING ASOSLARI

Mirzayev Furkat Raxmatovich - Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, Iqtisodiyot fanlari nomzodi
e-mail: mirzayevfurkat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya sohasida marketing asoslarining ahamiyati, ularning mazmun-mohiyati va amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. Unda sport va sog‘lom turmush tarzini ommalashtirishda marketing vositalarining tutgan o‘rni, xususan, reklama, PR, raqobat tahlili va narx siyosatining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada zamonaviy marketing strategiyalarining (segmentatsiya, individual yondashuv, onlayn platformalarda mavjudlik) jismoniy tarbiya sohasida qanday natijalar berishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola jismoniy tarbiya tashkilotlari uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, marketing, sport marketingi, sog‘lom turmush tarzi, sport xizmatlari, reklama, raqobatbardoshlik, ijtimoiy tarmoqlar, marketing strategiyasi, sport tashkilotlari, aholi salomatligi.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Bu jarayonda jismoniy tarbiya va sportning roli beqiyosdir. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya sohasida xizmatlar va mahsulotlarni samarali targ‘ib qilish, aholining e’tiborini jalb qilish va sport faoliyatini ommalashtirishda marketing asoslarini chuqur o‘rganish va qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir paytda, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini ommalashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ammo jismoniy tarbiya tashkilotlari, sport markazlari va ta’lim muassasalari o‘z xizmatlarini keng ommaga yetkazishda ko‘plab muammolarga duch kelishmoqda. Shu bois marketing asoslarini chuqur o‘rganish va ularni jismoniy tarbiya sohasida samarali qo‘llash zarurati tobora ortmoqda. Marketing vositalari yordamida aholining sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, sport xizmatlarini targ‘ib qilish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, shuningdek, raqobatbardosh sport muassasalarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda marketing yondashuvlarini to‘g‘ri qo‘llash orqali jismoniy tarbiya sohasida katta natijalarga erishish imkoniyati mavjud. Shu sababli, ushbu mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganilishi ayni paytda juda dolzarb hisoblanadi. Jismoniy tarbiya — bu insonning jismoniy

faoliyatini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sportni ommalashtirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Bugungi kunda, jismoniy tarbiya nafaqat sog‘lom turmush tarzining muhim qismi, balki iqtisodiy faoliyat sifatida ham o‘z o‘rnini topmoqda. Sport xizmatlari va sog‘lomlashtirish markazlari o‘z faoliyatini ommalashtirish, raqobatni oshirish va o‘z auditoriyasini kengaytirish uchun marketingning turli vositalarini qo‘llashni talab qiladi.

Marketing jismoniy tarbiya sohasida mahsulot yoki xizmatni bozorda muvaffaqiyatli taklif qilish, mijozlar ehtiyojlarini qondirish, raqobatbardoshlikni oshirish va tashkilotning barqaror rivojlanishiga yordam berish uchun zarur vosita bo‘lib xizmat qiladi. Marketingni to‘g‘ri qo‘llash orqali sport xizmatlarining samaradorligi oshiriladi, aholining sportga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi va sog‘lom turmush tarzi targ‘ib qilinadi.

Marketing — bu mahsulot yoki xizmatni iste’molchiga yetkazish, uning ehtiyojlarini o‘rganish va qondirishga qaratilgan faoliyatlar majmuidir. Jismoniy tarbiya sohasida marketing quyidagi yo‘nalishlarda muhim rol o‘ynaydi:

Sport xizmatlarini targ‘ib qilish: Fitnes markazlari, sport to‘garaklari, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari kabi xizmatlarni aholiga tanishtirish va ulardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish.

Brend yaratish: Maktab, kollej yoki universitetlar qoshidagi sport jamoalari yoki tashkilotlar o‘z brendini shakllantirib, o‘ziga xos imidjga ega bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama: Bugungi kunda sport markazlari va murabbiylar Instagram, Telegram va TikTok kabi platformalarda o‘z xizmatlarini faol targ‘ib qilishmoqda.

Hamkorlik va homiylik: Sport musobaqalari va tadbirlariga homiylar jalb etish orqali nafaqat mablag‘, balki keng ommaga chiqish imkoniyati ham yaratiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jismoniy tarbiya sohasida marketing asoslarini samarali qo‘llash orqali sport xizmatlari va sog‘lom turmush tarzini keng ommaga targ‘ib qilish mumkinligi aniqlandi. Marketing vositalari — reklama, ijtimoiy tarmoqlar, raqobat tahlili va strategik rejalashtirish orqali sport tashkilotlari o‘z faoliyatini rivojlantirishi, mijozlar sonini oshirishi va aholi salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu sohada marketing yondashuvlarining to‘g‘ri tashkil etilishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga ham olib keladi. Shuning uchun jismoniy tarbiya tizimida marketing bilimlari va amaliyotini kengaytirish dolzarb va samarali yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Jismoniy tarbiya va sport sohasida marketingning nazariy va amaliy jihatlarini yorituvchi adabiyotlar soni so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Bu mavzu bo‘yicha xalqaro va mahalliy manbalarda bir qator muhim tadqiqotlar olib borilgan.

Xalqaro miqyosda F. Kotlerning “Marketing Management” asari marketing nazariyasining asosiy tamoyillarini tushuntiradi va ularni turli sohalarga, jumladan, sport marketingiga qanday tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatadi. U sport xizmatlarini ham mahsulot sifatida ko‘rib, ular uchun to‘g‘ri narx siyosati, tarqatish kanallari va reklama strategiyasining muhimligini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonlik mualliflar tomonidan yozilgan adabiyotlarda, xususan, S. Yusupov, N. Islomov, A. Tursunovlarning ishlanmalarida jismoniy tarbiya tizimida iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarining rivojlanishiga marketing yondashuvlarining qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Bu ishlarda sport tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda marketing strategiyalarining roli alohida o‘rin egallaydi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning marketingdagi o‘rni haqida yozilgan yangi zamonaviy maqolalar va internet manbalarda raqamli marketing vositalarining sport sohasida qo‘llanilishi, mijozlar bilan muloqot qilish, brend yaratish kabi jihatlar tahlil etilgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar jismoniy tarbiya sohasida marketing vositalarini qo‘llash zarurati va samaradorligi haqida yetarli asos yaratadi. Biroq, bu yo‘nalishda amaliy tadqiqotlar hali ham yetarli darajada emas, shuning uchun mavzuning yanada chuqurroq o‘rganilishi lozim.

1 jadval

Marketing Elementlari	**Tavsif**
Bozor Tahlili va Segmentatsiya	Bozorni segmentlash va mijozlarni guruhlarga ajratish.
Brend Yaratish va Imidj	Sport tashkilotlari uchun brend va imidj yaratish.
Reklama	Sport xizmatlarini reklama qilish faoliyatlari.
Raqobatbardoshlik	Raqobatni tahlil qilish va raqobatbardoshlikni oshirish.
Narx Siyosati	Xizmatlarning narxini belgilash va mijozlarga imtiyozlar taqdim etish.
Digital Marketing	Raqamli vositalar orqali marketing strategiyalarini amalga oshirish.

Xulosa. Jismoniy tarbiya sohasida marketing asoslarining to‘g‘ri qo‘llanilishi, nafaqat sport xizmatlarini ommalashtirish, balki sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda ham katta ahamiyatga ega. Marketingning zamonaviy vositalari va strategiyalaridan foydalanish orqali sport tashkilotlari va jismoniy tarbiya muassasalari o‘z faoliyatlarini rivojlantirish, yangi mijozlarni jalb qilish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Birinchidan, jismoniy tarbiya sohasida marketingni amalga oshirish uchun bozorni tahlil qilish va segmentatsiya qilish muhimdir. Har bir mijoz guruhiga mos ravishda xizmatlar taqdim etilishi, marketing kampaniyalari va reklama strategiyalari ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayonda brend yaratish va imidj shakllantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki bu sport tashkilotining o‘z auditoriyasi bilan o‘zaro munosabatlarini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, raqobatni tahlil qilish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar sport sohasida marketingning asosiy komponentlaridan biridir. Raqobatchilarni tushunish va ular bilan farq qilish orqali tashkilotlar o‘z mahsulotlarini yaxshilashlari mumkin. Shu bilan birga, to‘g‘ri narx siyosatini belgilash va mijozlarga qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish, sport xizmatlari bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchidan, digital marketing vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, jismoniy tarbiya sohasida marketingni yanada samarali amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, TikTok) va onlayn platformalar sport tashkilotlarining brendini yaratish va xizmatlarini keng auditoriyaga etkazish uchun samarali vositalar hisoblanadi. Shuningdek, onlayn fitnes va sog‘lomlashtirish xizmatlarini taklif qilish orqali yangi mijozlarni jalb qilish va mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni o‘rnatish mumkin.

Jismoniy tarbiya sohasida marketingning to‘g‘ri qo‘llanilishi orqali sport xizmatlari va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, raqobatni oshirish va jismoniy faollikni ommalashtirish mumkin. Bu, o‘z navbatida, aholi salomatligini yaxshilashga va jamiyatda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya sohasida marketing yondashuvlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tashkilotlar uchun nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga olib keladi. Shuning uchun, jismoniy tarbiya tizimida marketing vositalarini kengaytirish va samarali qo‘llash dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Kotler, F., & Armstrong, G.** (2016). *Principles of Marketing*. 16th Edition. Pearson Education.
2. **Yusupov, S., & Islomov, N.** (2020). *Jismoniy tarbiya va sport sohasida marketing yondashuvlari*. Tashkent: "Science" Publishing House.
3. **Baker, M. J.** (2007). *Marketing Strategy and Management*. 5th Edition. Palgrave Macmillan.
4. **Tursunov, A.** (2021). *Sport marketingi: Nazariya va amaliyot*. Toshkent: "Shark" Publishing House.
5. **Kotler, P., & Keller, K. L.** (2016). *Marketing Management*. 15th Edition. Pearson Education.

ТЕХНОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ВУЗАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Mirzayev Furkat Raxmatovich - Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, Iqtisodiyot fanlari nomzodi
e-mail: mirzayevfurkat@gmail.com

Аннотация. В данной статье на основе выявленных нами ранее педагогических условий и факторов, способствующих как формированию мотивации к изучению экономических дисциплин в вузе, так и применению их в будущей профессиональной деятельности после завершения спортивной карьеры, разработанная соответствующая педагогическая технология. Необходимость использования активных методов обучения позволила нам предложить применение малых групп, так как работа в малых группах предполагает решение определённых образовательных задач в рамках небольших групп с последующим обсуждением полученных результатов. На основе заявленной цели обучения предложен алгоритм формирования малых групп.

Ключевые слова: малые группы, педагогическая технология, метод проектов.

В наших исследованиях [1-6] мы выявили, что первоначальный интерес и в последствии мотивация к изучению дисциплин экономического блока (которые в вузах физической культуры входят в число непрофильных дисциплин) формируются за счет выбора значимой цели – успешной социализации в современных социально-экономических условиях как после завершения обучения в вузе, так и после завершения спортивной карьеры при выборе самостоятельной коммерческой деятельности. Основную задачу

при изложении обязательных элементов образовательного стандарта [4] мы видели в формировании у студентов практических навыков ведения успешной коммерческой деятельности, т.е. умение составлять бизнес-план организации, прогнозирование при помощи инструментов финансового анализа предполагаемых действий, взаимодействие с контролирующими органами и пр. [5, 6].

Ранее нами по результатам педагогического эксперимента [1] были выявлены педагогические условия к изучению дисциплин экономического блока:

– Создание предпосылок для воспитания потребности у студентов к систематическим занятиям в области экономики. Планирование мероприятий поддержки со стороны преподавателей по выполнению задач формирования экономических знаний. Соблюдение последовательности изучения дисциплин в учебных планах преподавания экономических дисциплин при формировании специальных компетенции в сфере экономики. Нацеленность на воспитание уверенности в своих силах в процессе применения экономических знаний. Включение в процесс обучения студентов отдельных планов, программ, модулей по формированию теоретических знаний и практических навыков в сфере экономики. Индивидуальный подход к подбору средств изучения экономических дисциплин для ускорения адаптации студентов к будущей профессиональной деятельности. Создание объективных критериев для оценки протекания процесса адаптации к изучению и последующему применению экономических знаний;

и определены факторы к применению дисциплин экономического блока в профессиональной деятельности после завершения спортивной карьеры:

– Эффективное использование знаний полученных при изучении экономических дисциплин, если будущую профессиональную деятельность планируют связать с бизнесом. Учет особенностей среды будущей профессиональной деятельности при ее моделировании при изучении экономических дисциплин. Наличие объективной информации при прогнозировании будущей профессиональной деятельности в сфере бизнеса. Разработка решения проблемы трудоустройства после завершения спортивной карьеры. Преимущественное развитие у студентов творческого подхода к решению экономических задач, которые могут возникнуть в будущей профессиональной деятельности. Формирование алгоритма прогнозирования будущей профессиональной деятельности после завершения спортивной карьеры в сфере самозанятости. Разработка правильного механизма моделирования решения задач финансового анализа

по предполагаемой деятельности своего предприятия. Определение последовательности достижения цели при решении экономических задач.

Целью данной статьи является разработка педагогической технологии, позволяющей реализовать выявленные педагогические условия, при условии соблюдения определённых нами факторов их выполнения. Следуя В.А. Сластенину, мы считаем, что «Педагогическая технология – это строго научное проектирование и точное воспроизведение гарантирующих успех педагогических действий. Поскольку педагогический процесс строится на определённой системе принципов, то педагогическая технология может рассматриваться как совокупность внешних и внутренних действий, направленных на последовательное осуществление этих принципов в их объективной взаимосвязи, где всецело проявляется личность педагога» (http://www.p-lib.ru/pedagogika/slastenin/slastenin88.html). Современный ГОС ВО предполагает использование активных методов обучения.

«Работа в малых группах – это одна из самых популярных стратегий интерактивного обучения, неотъемлемая часть многих интерактивных методов» и далее: «Парная и групповая работа реализуется как в системе аудиторных занятий (лекции, практические и семинарские занятия), так и в условиях самостоятельной подготовки студентов».

«Работа в малых группах предполагает решение определённых образовательных задач в рамках небольших групп с последующим обсуждением полученных результатов. Этот метод развивает навыки сотрудничества, достижения компромиссного решения, аналитические способности».

Конкретизируем наши построения на одной учебной группе. Малые группы студенты формируют на основе свободного выбора вхождения в ту или иную малую группу, тем самым в создаваемой малой группе уже имеется определённое доверие между участниками (единственное ограничение – численный состав группы не более 5 человек). Все малые группы получают приблизительно одно задание: спроектировать предприятие и провести финансовый анализ успешности деятельности создаваемого предприятия. Моделирование реальной ситуации, с которой могут столкнуться студенты в будущем, неявно включает такой активный образовательный метод, как игровой метод. Наличие заданий примерно одинаковой сложности и последующее обсуждение проектов, созданных разными группами, порождает соревнование между малыми группами.



Разработанная нами педагогическая технология представлена на рисунке

Рисунок 1 – Педагогическая технология подготовки студентов по экономическим дисциплинам в вузах физической культуры с использованием методики обучения в малых группах

Проблема использования обучения в малых группах для формирования навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности решена с позиций системного, деятельностного и профессионально-личностного подходов.

Системный подход к использованию обучения в малых группах для формирования навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности дал возможность рассмотреть процесс обучения как совокупность структурных компонентов, функциональных связей и отношений. Они в совокупности обуславливали определённую целостность, устойчивость и внутреннюю организацию процесса обучения в малых группах. Данный подход, показал возможности

обучения в малых группах, как наиболее надёжное средство формирования навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности

Наряду с системным подходом, применялся деятельностный подход, применение которого имело свои особенности. Основой применения деятельностного подхода стали следующие концептуальные положения:

- формирование навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности носило системный характер, системообразующим элементом являлась цель, которая достигалась поэтапно. На каждом этапе применялись разные методики обучения студентов в малых группах;
- структуру деятельности студентов в процессе занятий по экономическим дисциплинам составляли следующие элементы: мотив, цель, действие и условия деятельности;
- процесс формирования навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности образовывал структуру обучения в малых группах.

Профессионально-личностный подход к использованию обучения в малых группах заключался в том, что он представлял собой метод индивидуализации процесса формирования навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности. Он применялся при решении конкретных задач индивидуализации формирования навыков применения знаний и предполагал объединение в интегративном представлении целей и сроков обучения. Связи, которые устанавливались между этими явлениями, обеспечивали их взаимодействие и воспринимались в качестве системы обучения в малых группах. Данный подход предполагал моделирование экономической деятельности выпускника в вузах физической культуры. Это предполагало и чёткую организацию формирования навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности. Суть данного подхода к обучению в малых группах заключалась в выявлении актуальных свойств личности студентов и в опоре на эти свойства. Это позволяло моделировать содержание их подготовки по экономическим дисциплинам.

Таким образом, в ходе анализа различных подходов к использованию обучения в малых группах для формирования навыков применения знаний по экономическим дисциплинам у студентов в практической сфере деятельности было установлено, что все они направлены на развитие

профессионализма у них в экономической сфере деятельности. Наиболее перспективной является технология подготовки студентов по экономическим дисциплинам в вузах физической культуры с использованием методики обучения в малых группах.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бакулев, С.Е. Проблемы адаптации студентов физкультурного вуза к изучению и приме- нению дисциплин экономического блока / С.Е. Бакулев, А.А. Паульс // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2017. – № 1 (143). – С. 21-25.
2. Паульс, А.А. Анализ профпригодности выпускника физкультурного вуза при необходи- мости смены профессиональной деятельности / А.А. Паульс // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2017. – № 12 (154). – С. 215-218.
3. Паульс, А.А. О выборе сферы деятельности после завершения спортивной карьеры / А.А. Паульс // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2016. – № 3 (133). – С. 177-181.
4. Паульс, А.А. Сравнительная характеристика Государственных образовательных стандар- тов по направлению подготовки «Физическая культура» (блок экономических дисциплин) / А.А. Па- ульс // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2016. – № 10 (140). – С. 126-132.

AKROBATIK MASHQLARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Kamalov Abduxalil Faxriddin o‘g‘li - Namangan viloyati Uychi tumani 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fanidan o‘quvchilarga harakatlarni bajarishga, o‘rganishga yordam beradigan, ularni o‘rganishdagi amaliy va interfaol metodlar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Akrobatika, interfaol metodlar, SWOT-tahlil, muammoli vaziyat metodi, tushunchalar tahlili metodi, Rezyume metodi, assessment metodi, ven diagrammasi metodi.

Interfaol metod – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish,

shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta‘limning yutuqlari shundan iboratki, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun mashqlar berish, turli harakatlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

“SWOT- tahlil” metodi

Metodning maqsadi: Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlik sifatlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.



S	Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlikni rivojlantirishning kuchli tomonlari	Open source(ochiq kodli), foydalanuvchilar sonining ko‘pligi…..
W	Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlikni rivojlantirishning kuchsiz tomonlari	Operation tizimning virtual mashina orqali ishlashi…..
O	Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlikni rivojlantirishning imkoniyatlari(ichki	Beautiful UI (chiroyli interfeys), Connectivity (barcha mobil aloqa texnologiyalari va Internet bilan bog‘lanish)….
T	To‘siqlar(tashqi)	Ma’lumotlar xavfsizligining to‘laqonli ta’minlanmaganligi…..


“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi. Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment”lardan jismoniy tarbiya darslarida nazariy bilimlarni o‘rgatishda, tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Ven Diagrammasi” metodi

Venn Diagrammasi (ingliz faylasufi Djon Venna nomi bilan atalgan). **Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita yoki uchta o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Metodni amalga oshirish tartibi: • ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi; • navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar; • juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Ilmiy tadqiqot turlari



XULOSA

Interfaol ta'lim texnologiyalari va uning muhim tarkiiy elmenti bo‘lgan interfaol metodlar ta'lim jarayonini tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini ta'minlaydi. Zero, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog‘liqlikda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi. Shunday ekan har bir pedagog doimo zamon bilan hamnafas holatda dars mashg‘ulotlarini olib borishi kerak. An’anaviy darslar, noan’anaviy usullar bilan qo‘llash o‘quvchilarga yangilik va shu bilan birga o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov M. Didaktik o‘yinlarning ta’limiy ahamiyati// Xalq ta’limi tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. T-1996.176-bet.
Zamonaviy texnologiyalar sport tadbirlarini samarali tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan:

-Raqamli vositalardan foydalanish – Sport natijalarini kuzatish va tahlil qilish uchun mobil ilovalar va maxsus dasturlardan foydalanish.

-Gamifikatsiya – Sport tadbirlariga rag‘batlantiruvchi elementlarni kiritish, masalan, ballar to‘plash, unvonlar berish va sovrinli musobaqalar tashkil etish.

-Ekologik sport tadbirlari – Tabiyat qo‘ynida jismoniy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan muhabbatini oshirish.

Xulosa

Maktablarda sport kunlarini tashkil etish o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu tadbirlar nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy, psixologik va akademik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Sport kunlarini samarali o‘tkazish uchun oldindan rejalashtirish, innovatsion metodlarni qo‘llash va o‘qituvchilarning faol ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.Kelajakda sport kunlarini yanada samarali tashkil etish uchun zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or pedagogik yondashuvlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Ma’lumki, sog‘lom turmush tarzi, sport va jismoniy tarbiyaga ijobiy munosabat maktab yillarida qo‘yiladi. Ommaviy sport ishlari ko‘plab muhim vazifalarni hal qiladi. Ularni hal etishning muvaffaqiyati maktabda metodik ishlarni to‘g‘ri, aniq rejalashtirish va tashkil etishda maktab ma’muriyati, sinf rahbarlari,

maktab tibbiyot xodimi, ota-onalar, yuqori sinf o‘quvchilari kengashi faol ishtirok etishiga bog‘liq. Barcha darajadagi ta’lim boshqaruvining birgalikdagi faoliyatigina talaba va o‘quvchilarining salomatligini mustahkamlash, ularni sog‘lom turmush tarziga joriy etishga qaratilgan ta’lim muassasalarining ommaviy sport ishlarini malakali va maqsadga muvofiq tashkil etish imkonini beradi. Musobaqa faoliyati jismoniy tarbiya va sport hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Sport va ommaviy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish inson salomatligining barcha tarkibiy qismlari: jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishiga yordam beradi. Barkamol shaxsni shakllantirish uchun nima muhimligini aniqlashtirib beradi.

Musobaqalar ishtirokchilarning dadil va qat’iy harakatlari, kurashning go‘zalligi, yuqori shiddati va oldindan aytib bo‘lmaydiganligi bilan o‘ziga jalb etadigan ko‘p millionli muxlislar armiyasi uchun ajoyib o‘yinkulgidir. O‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi ularni uyg‘un jismoniy rivojlanishi va jismoni chiniqtirishga qaratilgan bulsa, sport bilan shugullanishda sport turi buyicha mutaxasislikka erishish va sportda yuksak natijalar kursatishga yo‘naltirilgan buladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanuvchilarning yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarliklari, sog‘lig‘i hamda qiziqishlari ham jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishni amalga oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarni ommaviy sport soglomlashtirish jarayoniga yo‘naltirishning asosiy maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayorlashni nazarda tutadi. Bu jarayondagi umumiy vazifalarga bilim berish, jismonan tarbiyalash va soglomlashtirishni kiritish mumkin. Har qanday musobaqa va ommaviy sport tadbirlarining muvaffaqiyati, eng avvalo, puxta, chuqur o‘ylangan tayyorgarlikka bog‘liq. Agar musobaqa va ommaviy tadbirlar yaxshi saviyada o‘tgan bo‘lsa, unda ishtirokchilar natijalardan mamnun bo‘lishadi. Sport musobaqalari va ommaviy sport tadbirlari oxirida, keyingi tadbirlarda ĸamchiliklarni oldini olish uchun tadbir davomida sodir bo‘lgan xatolarni muhokama qilish uchun yakuniy yig‘ilishni o‘tkazish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, sport tadbirlari jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan, tarbiyaviy, tayyorgarlik va kommunikativ funktsiyalarni amalga oshiradigan faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi «Jismoniy tarbiya va sportni tugrisida»gi O‘RQ,-394-sonli qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida»gi PQ,-3031-sonli qarori

3.Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent sh.,2020 yil 30 oktyabr,PF-6099-son

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-martdagi “Maktablarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy tarbiyani rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori.

MAKTABGACHA TA’LIMDA STOL TENNISNI O‘RGATISH BOSQICHLARI

Ummataliyeva Diyoraxon Qahramonjon qizi- Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail ummataliyevadiyoraxon@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda stol tennisni o‘rgatishning bosqichlari va muhim jihatlari tahlil qilinadi.Bolalar uchun stoll tenisni nafaqat jismoniy faollikni rivojlantirish, balki motorik ko‘nikmalar, o‘yin strategiyalari va raqobatni boshlash jarayongacha bo‘lgan barcha bosqichlari batafsil yoritilgan. Jismoniy va pisihalogik tayyorgarlikning ahamiyati, bolalarni stoll tenisiga tayyorlashda qanday muhim o‘quv yondashuvlari mavjudligini ham ko‘rsatilgan. Maqola bolalar o‘rtasida ijtimoiy va jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan sport turning ta’limdagi o‘rnini va uning bolalarning umumiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Stol tennisi, maktabgachga ta’lim bolalar, jismoniy rivojlanish, motorik ko‘nikmalar, koordinatsiya, o‘yin strategiyasi, texnik ko‘nikmalar, pisixalogik tayyorgarlik, o‘quv yondoshuvi, sport, ijtomoiy ko‘nikmalar, raqobat, o‘yin qoidalari.

Kirish. Stol tennisi jismoniy tarbiya va sportning eng ommabop va rivojlanishiga qulay yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun stoll tennisi bu o‘yin nafaqat fizikal ko‘nikmalarni rivojlantirish , balki diqqat-e’tibor, tezkorlik va qo‘l oyoqlarni muvofiq o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalalar uchun stol tennisi o‘rgatish jarayoni, o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Bu yoshdagi bolalar hali rivojlanish jarayoning boshlang‘ich bosqichida bo‘lganligi sababli, o‘rgatish bosqichlari nozik va ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning umumiy salomatligi, ijtimoiylashuvi va motorik ko‘nikmalarni shakillanishida muhim o‘rin tutadi. Shu jarayonda sport o‘yinlardan, xususan, stol tennisi katta ahamiyatga ega. Stoll tennisi bolalarda diqqat e’tibor, tezkorlik, muvozanat va qo‘l harakat muvofiqligini rivojlantiradi. Ushbu maqolada

maktabgacha ta’lim muassasalarida stoll tennisi o‘rgatishning bosqichlari yoritilib beriladi.

Tayyorlov bosqichi (3-4) yosh .Bu bosqichada asosiy e’tibor bolalarning asosiy harakat ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratiladi: Kichik o‘lchamdagi to‘plar bilan o‘ynash. Qo‘l va ko‘z muvofiqligini rivojlantiruvchi mashqlar masalan, to‘pni tutishuloqtirish, aylantirish. Stoll tennisi raketasi bilan tanishish, uni qanday ushlashini o‘rgatish. Oddiy harakatli o‘yinlar orqali sportga qiziqishni uyg‘otish.

Boshlang‘ich bosqich (5-6) yosh bu bosqichda bolalar oddiy texnik harakatlarga o‘rgatiladi. Raketa bilan to‘pni yerga urib sakratish bosqichlari. To‘pni devorga yoki stolda urib qaytarish.Oddiy uztmalar murrabiy yoki boshqa boshqa bola bilan to‘pni chiziqdan tashqariga chiqarmaslik.

Rivojlantiruvchi bosqich (6-7) yosh bu bosqichda bolalarda texnik va taktika ko‘nikmalarni rivojlantirish boshlanadi. Oddiy o‘yin rejalarini tushuntirish . To‘pni chap va o‘ng tomonga yo‘naltirish mashqlari. Raketkaning turli usullar bilan ushlanishi va to‘pni har xil kuchda urish. Minni turnirlar o‘tkazish orqali raqobat muhitini yaratish. To‘g‘ri turish, oyoq harakati va tezkor reaksiyasini shakillantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda stoll tennisini o‘rgatishda turli metodlardan foydalaniladi .Bu yoshdagi bolalarda hali sportning murakab tomonlarini to‘liq tushinmasliklar mumkin , shuning uchun o‘rgatish jarayonida qiziqarli va samarali usullarni qo‘llash zarur hisoblanadi . Maktabgacha yoshdagi bollalar uchun o‘yin orqali o‘rgatish juda samarali metoddir. O‘yin bolalarga qiziqarli va tabiiy tarzda yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yaordam beradi.Minni o‘yinlar bolallarga to‘pni olib yurish kabi oddiy mashqlarni o‘yin shaklida taqdim etish. Masalan to‘pni raqibiga uzatish o‘yinida bolalar bir birlariga to‘pni uzatish orqali o‘z ko‘nikmalarini oshiradilar. To‘pni ko‘tarish va sakratish o‘yini, o‘yin yordamida bolalar raketkada tp’pni ko‘tarib sakratish orqali raketka bilan to‘pni qanday nazorat qilish o‘rganadilar.Oddiylikdan murakkabga o‘tish bolalarda avval o‘yin elementlarning eng oson tomonlarini o‘rgatish, keyinchalik ularda murakkab texnik ko‘nikmalarga o‘tish muhim , masalan to‘pni raketada ushlab turishni o‘rgatish, keyin uni qanday urishni o‘rgatish muhim hisoblanadi. Jismoniy tayyorgarlik raketkalarda to‘pni urish yoki to‘pni qaytarish kabi murakkab ko‘nokmalarni o‘rganishdan oldin bolalar jismoniy mashqlar bilan tayyorlanishi kerak. Bu qo‘l oyoqlarini muvofiqlashtirish tezkorlik va reaksiya tezligini ashirishni anglatadi.

Xulosa. Stol tennsisi makatabgacha yoshdagi bolalar uchun judayam qiziqarli va foydali sport turidir.Bu sport turini o‘rgatish orqali bolalarda muvofiqlik, tezkorlik, diqattni jamlash va jismoniy faollikni oshiradi. Mashg‘ulotalar davomida bollalar nafaqa sport bilan shug‘ullanadi balki, ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoada ishlash va o‘ziga ishonch kabi muhim hayotiy sifatlarni ham rivojlantiradi. Stol tennisi ta’lim

jarayonida o‘tilishi pedagoglar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishi bolalarning sog‘lom va har tomonlama rivojlantirish muhim hisoblanadi. Stol tennisi bolalarda nafaqat jismoniy balki pisixalogik jihatdan ham ijobiy o‘zgarishlar kerak. Maktabgacha ta’limda bosqichma bosqich metodik yondashuv asosida o‘rgatish ularni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.Maktabgacha ta’limda stoll tennisni o‘rgatish nafaqat bolalarning sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishiga, balki ularning aqliy pisixalogik va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta o‘rin egallaydi.Bolalarda sportga, sog‘lom turmush tarziga va jamoaviy ishlashga bo‘lgan qiziiqishini kuchaytiradi.Stoll tennisi makatabgacha talim dasturlariga samarali tarzda integratsiya qilinishi zarur hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukmonov N (2018) Jismoniy tarbiya va sport faoliyati
2. Kamilov SH. (2020) Bolalar sportini rivojlantirishning metodik asoslari
3. Mirzaev.A (2019) Maktabgacha yoshdagi bolalaruchun sport o‘yinlari
4. Yo‘ldoshev M.(2018) Bolalar sporti va uning tarbiyaviy ahamiyati

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR SALOMATLIGI UCHUN GIMNASTIKA SPORT TURINING AHAMIYATI

Nazarov Sulton Faxriddin o‘g‘li - Gulistom davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar fakulteti, “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishi 36-24 guruh talabasi
gentro779@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar salomatligini yaxshilash va ularning jismoniy rivojlanishini ta'minlashda gimnastika sport turining ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola, gimnastika mashqlarining bolalar organizmiga, mushak-skelet tizimiga va ruhiy holatiga bo‘lgan ta'sirini, shuningdek, jismoniy faollikni oshirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishdagi rolini o‘rganadi. Bolalar uchun gimnastika o‘yin shaklida tashkil etilgan bo‘lib, bu ularning ijtimoiy rivojlanishiga, diqqat va koordinatsiyani yaxshilashga yordam beradi. Gimnastika nafaqat jismoniy sog‘lomlikni mustahkamlash, balki bolalar o‘rtasida ijtimoiy va psixologik jihatlarni ham rivojlantiradi. Maqola bolalar salomatligini yaxshilash uchun gimnastika mashqlarining samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar salomatligi, gimnastika, jismoniy rivojlanish, bolalar uchun sport, jismoniy faollik, ruhiy salomatlik, bolalar sporti.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar salomatligi — har bir jamiyatning kelajagi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu yoshda bolalar o‘zlarining jismoniy va ruhiy salomatliklarini rivojlantirish uchun maxsus e'tibor talab etadi. Jismoniy faollik bolalar salomatligi uchun zarur bo‘lib, ularning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi. Gimnastika sport turi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun juda foydalidir, chunki u jismoniy rivojlanishning har bir bosqichida bolalarga yordam berish uchun turli xil mashqlarni o‘z ichiga oladi.

Maqolada gimnastikaning bolalar organizmiga bo‘lgan ta'siri, uning umumiy rivojlanishdagi ahamiyati va salomatlikni mustahkamlashdagi roli haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, gimnastika nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ruhiy va psixologik salomatlikni ham yaxshilaydi.

Gimnastikaning Maktabgacha Ta'lim Yoshidagi Bolalar Salomatligiga Ta'siri Gimnastika — bolalar salomatligi uchun muhim sport turi bo‘lib, jismoniy rivojlanishni va mushak tizimini mustahkamlashda katta yordam beradi. Bu sport turi bolaning harakatlarini boshqarish, tana muvozanatini saqlash va motorik harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun gimnastika mashqlari juda foydalidir, chunki ularning organizmi hali rivojlanayotgan va mustahkamlanayotgan bo‘ladi.

Jismoniy Rivojlanish Gimnastika, bolalarning mushak tizimini mustahkamlashga va ularning umumiy jismoniy salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda suyaklar hali o‘sishda davom etayotganligi sababli, gimnastika suyaklarni kuchaytirish va o‘sish jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun samarali vositadir. Mashqlar orqali bolalar tanalarini yaxshiroq his qilishni o‘rganadilar va ular harakatlarning boshqarilishini mukammallashtiradilar. Bu, o‘z navbatida, bolaning kelajakdagi jismoniy faolligi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ruhiy va Psixologik Ta'sir Gimnastika mashqlari nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikni ham mustahkamlaydi. Bolalar jismoniy mashqlar orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishadi, bu esa ularning o‘zini tuta olish qobiliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, gimnastika bolaning stressni boshqarishga, o‘zini qadrini oshirishga va ko‘proq o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi. Jismoniy mashqlar bolalarda ijobiy kayfiyatni yaratadi, chunki ularning organizmi endorfinlarni ishlab chiqaradi, bu esa ularni ruhiy jihatdan yaxshilaydi.

Ijtimoiy Rivojlanish. Gimnastika mashqlari bolalarga ijtimoiy faollikni oshiradi, ularni birgalikda ishlashga o‘rgatadi. Bu yoshdagi bolalar ko‘pincha o‘zaro hamkorlikda o‘ynashni o‘rganadilar, bu esa ularning ijtimoiy munosabatlarini rivojlantiradi. Sport faoliyatlari bolalarda sheriklik, jamoaviy ishlash va umumiy maqsadlarga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Gimnastika Ta'lim Jarayonidagi Ahamiyati. Maktabgacha ta'lim muassasalarida gimnastika mashg‘ulotlari alohida o‘rin tutadi. Bu mashg‘ulotlar bolalarga jismoniy faollikni oshirish, tanani moslashtirish va sog‘lom o‘sish jarayonini rag‘batlantirish uchun zarurdir. Shu bilan birga, gimnastika bolalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi, jismoniy rivojlanishni yaxshilaydi va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ta'lim muassasalarida gimnastikani o‘rgatish, bolalarning jismoniy salomatligi, harakat koordinatsiyasi, tezlik va kuchni rivojlantirishga yordam beradi. Bu sport turi nafaqat jismoniy mashqlarni bajarishni, balki bolalarga muvozanatni saqlashni, harakatlarni sinxronlashtirishni, o‘ziga ishonchni oshirishni o‘rgatadi.

Xulosa. Gimnastika — bolalar salomatligi va jismoniy rivojlanishi uchun muhim sport turi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatni oshirish, ular uchun muvozanatni, koordinatsiyani va umumiy salomatlikni yaxshilashda gimnastika mashqlari alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, gimnastika bolalarda ruhiy barqarorlikni saqlash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida gimnastika mashqlarini o‘tkazish, bolalar uchun salomatlikni mustahkamlash va umumiy rivojlanish uchun samarali usul bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Johnson, M., & Wilson, R. (2021). *Early Childhood Physical Education and Gymnastics*. Oxford: Routledge.
2. Brown, T. (2020). *The Role of Gymnastics in Child Development*. New York: Child Health Press.
3. Smith, D. (2019). *Physical Activity for Children: Benefits of Gymnastics in Early Childhood*. London: Springer.
4. Maktabgacha Ta'lim Vazirligi. (2022). *Bolalar Salomatligini Mustahkamlashda Jismoniy Faollik*. Tashkent: Maktabgacha Ta'lim Respublikasi.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Saidmurodov Zafarbek Ulug‘bek o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: saidmurodovzafarbek707@gmail.com

Anotoratsiya. Ushbu tadqiqot maktablar va kollejlarning o‘quvchilar o‘rtasida chekish odatlarining oldini olish va yumshatishda ta'lim muassasasi sifatidagi rolini tushunishga qaratilgan. Metodologiya hujjatlarni tahlil qilish,

kuzatish va chuqur intervyularni o‘z ichiga olgan va ma'lumotlar Talkott Parsonsning tizimlar nazariyasi asoslari yordamida sinchkovlik bilan tekshirilgan.

Kalit so‘zlar. maktab va kollejlarning roli; chekish hatti-harakati; talaba

Kirish. Tadqiqot xulosalari quyidagilardan iborat:

1.Maktablar va kollejlarni institutsional tizim sifatida ko‘rish ularning har biri o‘ziga xos rolga ega bo‘lgan, lekin bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan aktyorlar tomonidan boshqariladigan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy kichik tizimlar tarkibini ochib beradi;

2.Maktablar va kollejlar davlat byurokratiyasining ierarxik tizimida yuqori byurokratiya tomonidan ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshiradilar va amalga oshiradilar ;

3.Maktab yoki kollej o‘quvchilari chekuvchilar turli toifalarni namoyish etadilar, shu jumladan faol chekuvchilar, tengdoshlariga taqlid qiluvchilar, tajriba o‘tkazuvchilar va boshqalar. stilistik sabablarga ko‘ra chekishni qabul qilish;

4.Maktablar va kollejlarning talabalarning chekish xatti-harakatlarini yumshatishdagi roli direktor, direktor o‘rinbosari, maslahatchi o‘qituvchilar va sinf o‘qituvchilarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, hali ham talabalarning chekish xatti-harakatlarini butunlay yumshatishga to‘sqinlik qiladigan ba'zi kamchiliklar mavjud, masalan, etarli darajada nazorat va nazorat yo‘qligi, izchil yo‘l-yo‘riq, ota-onalar bilan cheklangan hamkorlik, o‘qituvchilarning maktab va kollej binolarida chekish holatlari.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqot O‘zbekistonda, xususan, Guliston viloyatida o‘smirlarning chekish xulq-atvorini bartaraf etishda ta’lim muassasasi sifatida kollejlarning rolini o‘rganishga qaratilgan. Oldingi tadqiqotlar mamlakatda o‘smirlar chekishning turli jihatlarini o‘rgangan bo‘lsa-da, bu xatti-harakatlarga qarshi kurashda kollejlarning o‘ziga xos roli haqida cheklangan munozaralar mavjud. Tadqiqot Guliston shahridagi kollej o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ayniqsa, 14-18 yosh guruhiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bunda chekishning ortib borayotgan tendentsiyasi kuzatilmoqda. Tadqiqotning maqsadi kollejda talabalar orasida chekish xulq-atvorini hal qilish uchun kollejlar tomonidan qo‘llaniladigan strategiyalarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, yakuniy maqsad kollej muhitida talaba chekuvchilarning ko‘payishini oldini olishdir.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotda Guliston shahridagi bir nechta kollejlarda 2023-yilning fevralidan apreligacha bo‘lgan uch oy davomida o‘tkazilgan etnografik yondashuvga ega sifatli usul qo‘llanildi. Ma’lumotlar yig‘ish jarayoni kollejdagi vaziyatni tushunish, talabalarning chekish ehtimoli bo‘lgan hududlarini aniqlash va kuzatishdan boshlandi. o‘quvchilarning chekish xulq-atvorini kuzating. Uchinchi bosqich batafsilroq ma'lumot olish uchun chuqur suhbatlardan iborat edi.

Suhbat uslubida maqsadli tanlab olish qo‘llanildi, intervyu uchta direktor, o‘n o‘qituvchi va o‘n besh nafar talaba bilan o‘tkazildi, ular o‘nta chekuvchi va beshta chekmaydigan. Ma'lumot beruvchini tanlash tadqiqotchi tomonidan tadqiqot savollarini hal qilish uchun bayon etilgan fikrlarga asoslanadi.

Tadqiqot natejalari va muhokamasi. Ko‘pchiligi hali ham talabalar bo‘lgan o‘smirlar orasida chekuvchilarning ko‘pligi maktablar ushbu muammoni hal qilishda muhim rol o‘ynashi mumkinligini ta'kidlaydi. Maktablar va kollejlar bu kontekstda muhim ahamiyatga ega, chunki o‘smirlar u erda ko‘p vaqt o‘tkazadilar. Maktablarda amalga oshirilgan uzoq o‘quv soatlari bilan ular ko‘pincha o‘smirlar uchun ikkinchi uyga aylanadi. Masalan, maktablarda yoki kollejlarda talabalar kuniga taxminan 5-6 soat davomida o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Bu uzaytirilgan vaqt maktablar va kollejlarga tadbirlarni ko‘proq nazorat qilish va talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish imkonini beradi.

Talabalarning chekish xulq-atvorini hal qilishda maktab va kollej rolining ahamiyatini tahlil qilish uchun tadqiqot Talkott Parsonsning tizimli funktsional nazariyasidan foydalanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, jamiyat o‘zaro bog‘langan qismlarni o‘z ichiga olgan tizim sifatida qaraladi. Jamiyat o‘z a'zolari (aktyorlari) o‘rtasida ma'lum ijtimoiy qadriyatlar bo‘yicha kelishuv asosida birlashtirilib, uni o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liq ijtimoiy tizimlar yig‘indisiga aylantiradi [4]. Bunda maktab o‘zaro bog‘langan va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan aktyorlar, jumladan, direktor, direktor o‘rinbosari, o‘qituvchilar va o‘quvchilardan iborat tizim sifatida qabul qilinadi. Tizimdagi ushbu ishtirokchilar tizim barqarorligini va o‘zaro kelishilgan qadriyatlarga muvofiq ishlashini ta'minlash uchun o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan alohida maqom va rollarga ega. Asosan, Parsons tizimi butun tashkilotning barqarorligi va barqarorligini ta'minlash, uning mohiyatini saqlab qolish va muhim o‘zgarishlarning (muvozanat) oldini olishga qaratilgan [5].

Maktabdagi aktyorlar, shu jumladan direktor, direktor o‘rinbosari, o‘qituvchilar va talabalar o‘zlarining alohida maqomlari va rollariga ega bo‘lgan asosiy komponentlardir. Maktab tizimida direktor eng yuqori maqomga ega, o‘quvchilar esa eng past maqomga ega. Agar tarkibiy qismlardan birida nomuvofiqlik yoki og‘ish bo‘lsa, boshqalar uni nazorat qilishga va tuzatishga harakat qilishadi. Maktabda o‘quvchilarning chekish xatti-harakatlari maktab tizimidagi og‘ish deb hisoblanadi. Tizimning qadriyatlar va me'yorlarga muvofiq samarali ishlashi ushbu komponentlar o‘ynagan rollarga sezilarli darajada bog‘liq.

Xulosa. Talabalarning chekish xulq-atvorini hal qilishda maktablar/kollejlarning roli muhim hisoblanadi, turli strategiyalar va siyosatlar ijobiy natijalarga hissa qo‘shadi. Maktab/kollej direktorlarining ma'lumotlariga ko‘ra, so‘nggi besh yil ichida chekish bilan bog‘liq huquqbuzarlik holatlari sezilarli darajada kamaygan. Jazo va tahdidlar berish, boshqa maktab/kollej a'zolari va ota-

onalar bilan hamkorlik qilish, chekishning zarari bo‘yicha kampaniya kabi asosiy tashabbuslar katta ta'sir ko‘rsatdi. Ushbu sa'y-harakatlar talabalarning chekish bo‘yicha oqilona qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi.

Biroq, amalga oshirilayotgan siyosat va sa'y-harakatlarga qaramay, o‘quvchilarning maktab binolari ichida yoki tashqarisida chekish faoliyati bilan shug‘ullanishiga imkon beruvchi bo‘shliqlar mavjud. Bu bo‘shliqlar orasida maktabda/kollejda chekadigan o‘qituvchilar, atrofdagi yashirin joylarda chekishga olib keladigan nazoratning etarli emasligi, maktab va ota-onalar hamkorligining cheklangan intensivligi va chekuvchilarni o‘rgatishda barqarorlik muammolari kiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun maktab/kollejda chekuvchi o‘qituvchilarni yanada jiddiyroq jazolash, talabalar nazoratini kuchaytirish, o‘quvchilarning kirishini yanada qattiqroq va tizimli ravishda nazorat qilish, murabbiylik va nazorat qilish bo‘yicha ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va doimiy murabbiylik sa'y-harakatlari taklif etiladi. talabalar. Ushbu tavsiyalar o‘smirlarning chekish xulq-atvorini bartaraf etish bo‘yicha sa'y-harakatlarni optimallashtirish va muammoni yanada samarali hal qilishni ta'minlash, vaqt o‘tishi bilan talabalar sonining ko‘payishining oldini olishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. Defo, I. N., Semon Dubas, J., Somerville, L. H., Lugtig, P. va van Aken, M. A. (2016). O‘smirlarning chekish rivojlanishidagi shaxsiy va ijtimoiy omillarning o‘ziga xos roli. Rivojlanish psixologiyasi, 52(12), 2044.

2. Kun.uz, (2021). O‘zbekiston aholisining Qancha Foizi Chekuvchilar Ekani ma’lum xizmat. Kun.uz. https://kun.uz/uz/news/2021/11/12/ozbekiston-aholisining-qancha-foizi-chekuvchilar-ekani-malum-qilindi

3. Lidz, V. (2003). Talkott Parsons. Blekvellning asosiy klassik ijtimoiy nazariyotchilarga hamrohi, 376.

4. Ormerod, R. (2020). Sotsiologik funksionalizm tarixi va g‘oyalari: Talkott Parsons, zamonaviy sotsiologik nazariya va OR uchun dolzarbligi. Operatsion tadqiqotlar jamiyati jurnali, 71 (12), 1873-1899.

5. Rost24.uz (2022)O`zbekistonda 1.7 foiz Maktab o`quvchilari Nosvoy Chekadi va Ular Orasida Qizlar Ham Bor. Rost24. (n.d.). https://rost24.uz/oz/news/1221

6. Roy, A., Rawal, I., Jabbour, S. va Prabhakaran, D. (2017). Tamaki va yurak-qon tomir kasalliklari: dalillarning qisqacha mazmuni. Yurak-qon tomir, nafas olish va ular bilan bog‘liq kasalliklar. 3-nashr.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIYRIVOJLANISHIDA HARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI

Toshpolatov Samandar Alijon o‘g‘li - Gulistom davlat pedagogika instituti,
Tabiiy fanlar fakulteti, “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishi
36-24 guruh talabasi, samandartoshpolatov02@gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha yosh - har bir bola hayotidagi juda muhim davr. Maktabgacha yoshdagi jismoniy va aqliy rivojlanish mutlaqo butunlay ta'sir qiladi deb ishoniladi. Ko‘pgina ota-onalar farzandlari yomon o‘sib borayotganini boshdan kechirmoqdalar. Aslida, bu mutlaqo normal hodisa. 4 yoshdan 6 yilgacha bo‘lgan bolalar statistik ma'lumotlariga ko‘ra, o‘sish 10-15 sm gacha o‘sishi va vazni atigi 3-5 kg. Maktabgacha tarbiyachilar faol va kuch bilan to‘lgan bo‘lsa-da, ularning energiyalari kutilmaganda yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Ko‘pgina ota-onalar kechqurun bolalar charchaganligini payqashadi. Bu bolaning haddan tashqari tendentsiyasi borligi haqida izohlanadi: kuchli charchoq va juda faol o‘yinlar. Haddan tashqari faoliyat hayajonning ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Bolalar bog‘chasida jismoniy mashqlar va siljish o‘yinlari kuniga etarlicha vaqt beriladi: ertalabki, jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya, sayyohlik, jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya uchun sport mashqlari. Maktabgacha bolalarning ijobiy jismoniy rivojlanishi uchun kunning oqilona rejimi muhim: etarlicha vaqt tungi uyqu va kunduzgi dam olish, muntazam ovqat, ochiq havoda o‘tkazilgan o‘yinlar uchun kerakli vaqt.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta'lim, jismoniy rivojlanish, harakatli o‘yinlar, jismoniy tarbiya, bolalar sog‘lig‘i, ta'lim tizimi, aqliy rivojlanish, jismoniy mashqlar, o‘smirlikka tayyorgarlik, yosh avlod salomatligi, milliy o‘yinlar, harakat ko‘nikmalari, jismoniy faoliyat, maktabga tayyorlik, ota-onalar roli, tarbiyaviy mashqlar, fizik rivojlanish.

Kirish qismi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining daslabki bosqichi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – bola shaxsining har jihatdan rivojlanishini ta’minlash, qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish, o‘qishga, doimiy ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish va maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatining qonuniy asoslari, “Ta’lim to‘g‘risi”gi Qonun (1992), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997), “Jismoniy tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun (2000), “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Kontseptsiya (2008, 2011), “Maktabgacha ta’lim muassasalari to‘g‘risida”gi Nizom (2007), “Bolajon” (2010) va Davlat talablari (2013) hamda boshqa me’yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan. O‘zbekistonda o‘sib kela-yotgan yosh avlod salomatligini saqlash, jismonan

baquvvat, chaqon, ishbilarmon qilib tarbiyalash hamda ularni hayotga, mehnatga. Vatanni himoya qilishga tayyorlash masala-lariga tegishli direktiv hujjatlarni amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya ishlarida yangiga
yondashish, izlanishda bo‘lish tizimning amaliy asoslarini ilmiy-nazariy va qayta ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mashg‘ulotlar davomida butun organizmning juda ishchanligi sharoitida ishlayot-gan organ va tizimlar faoliyatining uyg‘unligi yaxshilanadi, to‘g‘ri ish ritmini topish xamda davrda ish qobiliyatining eng yuqori darajasi kuzatiladi. U faoliyatning ayrim jixatlari tavsifining o‘zgarishga bog‘liq xolda turlanib turadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘zaro bog‘liq uch qismdan: kirish – jismoniy tayyorgarlik asosiy va yakunlovchi qismdan iborat. Ta’limiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish vazifalari mashg‘ulotning har bir qismi uchun baravar muxim axamiyatga ega. Mazkur vazifalarni bajarish bolalarga har tomonlama ta’sir etishni ta’minlaydi.

Mashg‘ulotning kirish – jismoniy tayyorgarlik qismi vazifalari va mazmuni jismoniy tarbiya mashg‘ulotining birinchi qismi qo‘yilgan vazifalar va uning asosiy qismidagi mashqlar mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bir xolda o‘qitish, ikkinchi bir xolda kirish jismoniy tayyorgarlik tavsifida bo‘lishi mumkin. Mashg‘ulotning bu qismi vazifasi bolalarda unga nisbatan qiziqish va emotsional kayfiyat paydo qilishdan, diqatning tayyorgarlik darajasini tekshirishdan, ayrim harakat ko‘nikma-larini aniqlashtirishdan, bola organizmini asta-sekin mashg‘ulotning asosiy qismida kechadigan birmuncha intensiv faoliyatga tayyorlashdan iborat. Shu maqsadda bolalarga to‘g‘ri qaddi-qomatni tarbiyalashga, yassitovonlikning oldini olishga yordam beradigan, fazoda hamda jamoada mo‘ljal olish bilan bog‘liq bajarilishi ko‘p vaqtni talab qilmaydigan tanish mashqlar va ularning variantlarini bajarish taklif etiladi.

Bunday mashqlarga quyidagilar kiradi: saflanish mashqlariga – turlicha saflanishlar va qayta saflanishlar; turli topshiriqlar bilan bajariladigan (yo‘nalishi ko‘rsatilgan burilishlar, boshlovchilarni almashtirish va boshqalar) yurish va yugurish; tarqalib yengil yugurish xamda keyinchalik katta va kichik davra, kolonna va xokazo bo‘lib saflanish; turli ko‘rinishdagi va yassitovonlikning oldini olish maqsadidagi yurishlar – tovonda, oyoq uchida, poldagi qalin arqon ustida, narvonda yurish va boshqa mashqlar.

Kirish qismi bolalarning qatorga uch-to‘rttadan, dona bo‘lib saflanishi, tarqalishi va xokazolar bilan yakunlanadi. Bu bolalarni mashg‘ulotning asosiy qismi boshlanishidagi umumrivoj-lantiruvchi mashqlarni o‘rgatish-ga o‘tish uchun xizmat qiladi. Bu qism kichik guruhlarda 2 dan 4 daqiqagacha, o‘rta guruhlarda 3 dan 5 daqiqagacha, katta guruhlarda 4 dan 6 daqiqagacha davom etadi.

Agar mashg‘ulotning birinchi qismi kirish-tayyorlov qism sifatda rejalashtirilsa, uning boshlanishida yuqorida ko‘rsatilgan kirish qismi uchun mo‘ljallangan mashqlar beriladi. Biroq shundan so‘ng mashg‘ulotning shu qismida faqat takroriy va variatsiyali mashqlardan iborat o‘rgatish talab qilmaydigan umumrivoj-lantiruvchi mashqlar berildi. Ularning vazifasi bola organizmini mashg‘ulotning asosiy qismidagi birmuncha yuqori jismoniy yuklamaga tayyorlashdir. Bunda yetarli jismoniy yuklamaga ega bo‘lgan murakkab koordinatsiyali asosiy harakatlar yoki intensiv tavsifdagi sport mashqlari rejalashtiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiyasosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta’lim olishga (maktabga) tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarninng bajarilishi ushbu “Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari” orqali nazorat qilinadi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo‘lib, u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi. Yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash va ta’lim berish O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilab berilgan. Maktabgacha ta’lim yoshida bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning asab tizimi, suyak muskul sisitemalari jadal shakllanadi. Nafas olish organlari takomillashadi. Ana shu davrda sog‘-salomatlik va to‘laqonli jismoniy va ma’naviy kamolot uchun zamin yaratiladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘rsatil-gan asosiy maqsad ham shu bo‘lib hisoblanadi. Maqsadga qaratilgan jismoniy tarbiya kichkintoylarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularning tabiiy atrofdagi narsa va xodisalar haqidagi bilimlari oshadi, joyni va vaqtni bilishi takomillashadi, xarakter xususiyatining ijobiy hislatlari tarkib topadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob-axloqli bo‘lishi va mehnatga muhabbat qo‘yishiga katta e’tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab uyda, ko‘chada, bog‘chada, mexmonda o‘zini tutish qoidalari, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, yechinish, saranjom-sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo‘lish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o‘rgatiladi. Ana shu odatlar bolani odob-axloqli, mehnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi. Bolalarning maktabga tayyorgarligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlaridan biri ularning jismoniy jihatdan rivojlanganlik darajasidir. Bolalar o‘z yoshlariga mos bo‘lgan harakatli, shu jumladan milliy o‘yinlar

nomlarini, qoidalarini bilishi va ularda faol ishtirok eta olishi, yugurish va sakrash, yoshiga mos holda belgilangan normativlarni bajarishi, saflanishi chaqqon harakat qilish, chiniqtirish mashqlarini bajarishi kabilarni o‘rgatish maktabgacha yoshdagi lbolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya mazmunining asosini tashkil etadi.

Xulosa. To‘g‘ri yo‘nalishda muvozanatni saqlab teng qadamlab yurishni o‘rgatish, tirmashib chiqish (kichik narvonchaga mustaqil chiqish va tushish), predmetlarni uloqtirish va dumalatishda tushirib yubormaslikni o‘rgatish. Barmoqlarning mayda muskullarini rivoj-lantirish, chamalashni, ayrim harakatlarni va faoliyatlarni boshqa bolalar bilan birgalikda bajarish malakalarini shakllantirish. Bolalarni harakat faolligiga undash. Mustaqil harakat qilishga qiziqishni tarbiyalash. Yurish va muvozanat saqlash mashqlari. To‘g‘ri yo‘nalishda yurish, yo‘lkadan, yerga yotgan taxtadan yurish. Bir uchi poldan 15-20 sm ko‘tarilgan taxtadan yurib ko‘tarilish (eni 25 sm uzunligi 1,5-2 m) va undan tushish. Balandligi 15 sm bo‘lgan yashik ichiga tushish va undan chiqish. Erga tashlangan hamda poldan 15-25 sm ko‘tarilgan chizimcha yoki taxtacha ustidan kattalar yordamida hatlab o‘tish. Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarning jismoniy-ruhiy rivojlanishi jarayoni shiddat bilan kechadi. Ularning vujudi tinimsiz o‘sayotganligi uchun hambir joyda tinch o‘tira olmaydilar. Lekin bu bosqichda bola jismoniy o‘sishi tashqaridan qaraganda bir oz susayganday bo‘ladi. Ya’ni 3yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan davrda bolalar faqat 4 sm.ga o‘sadilar. Ota-onalar bolalarining jismoniy rivojiga alohida e’tibor berishlari, ularning erkin, bemalol harakatlanishlariga sharoit yaratilishi lozim. Chunki bolaning fikri teranligi, nutqining boyligi, ma’naviy sifatlarini o‘zlashtirishi, avvalo uning sog‘lomligiga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salixova G. “Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya tizimida jismoniy mashq-
larning o‘rni” – B. 85-86. (“Jismoniy tarbiya va sport: davlat, jamiyat va shaxs” xalqaro ilmiy
anjuman). Toshkent. 2005-yil.
2. Mavlonov A, Mamirova D, Xolikov A. “Jismoniy tarbiya va sport ta’limidagi
muammolar echimi yo‘lida”. – B. 183–191. (“Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning
mintaqaviy, pedagogik-psixologik, tibbiy-biologik asoslari” ilmiy-amaliy anjuman).

Toshkent-Jizzax. – 2009-yil.
3. T.I. Osokina “Bolalar bog‘chasida jismoniy tarbiya”. “O‘qituvchi”. Toshkent. – 1976.
4. “500 mashq va harakatli o‘yinlar”. 1-qism. O‘zDJTI nashriyoti. Toshkent. – 1999.
5. T.S.Usmonxo‘jaev, X.A.Meyliev "Maktabgacha ta’lim muassasalarida harakatli
o‘yinlar va asosiy harakatlanish mashqlari" (3-qism). Toshkent. 2004-yil. – B. 3–8.

MAKTABGACHA TA’LIMDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI VA O‘RNI

Jo‘raboyev Alimardon Abdumutallib o‘g‘li - “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishi 17-23 guruh talabasi alimardonjo‘raboyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonining ahamiyati va uning bolalar rivojlanishiga ijobiy ta’siri yoritilgan. Tadqiqotda jismoniy mashqlar orqali bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, shuningdek, ularning ruhiy va aqliy rivojlanishiga ko‘maklashish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini yosh bolalarning yosh va fiziologik xususiyatlariga mos holda tashkil etishning muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan. Ish maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama sog‘lom va barkamol rivojlanishida jismoniy tarbiyaning beqiyos o‘rni borligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, harakat faoliyati, bolalar salomatligi, mashg‘ulotlar, psixologik rivojlanish, fiziologik xususiyatlar, tarbiyaviy jarayon, sog‘lom bola, har tomonlama rivojlanish.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham bolalarning jismoniy va ma’naviy kamolotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi – bolalarning asosiy harakat ko‘nikmalari shakllanadigan, ularning sog‘lom hayotga ilk qadamlari qo‘yiladigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya nafaqat bola organizmini chiniqtirish, balki uning aqliy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya – bola hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u orqali farzandlar harakat faoliyatini rivojlantiradi, sog‘lom turmush tarziga o‘rganadi va jamiyatga

moslashadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiyaning ahamiyati, uning asosiy vazifalari va bolalar rivojiga ta’siri atroflicha yoritiladi.

Bugungi kunda sog‘lom va har tomonlama rivojlangan avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning o‘rni va roli beqiyosdir. Maktabgacha yosh davri bola hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda bola organizmi shakllanadi, harakat ko‘nikmalari rivojlanadi va sog‘lom turmush tarziga asos solinadi.

Jismoniy tarbiya – bu faqatgina sport mashqlarini bajarish emas, balki bola organizmini mustahkamlash, harakat madaniyatini shakllantirish, intizom va tartibga o‘rgatish vositasidir. Jismoniy mashg‘ulotlar orqali bolalarda muvofiqlashtiruvchi harakatlar, chaqqonlik, epchillik, bardoshlik kabi sifatlar rivojlanadi. Bundan tashqari, faol jismoniy harakatlar bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirishga, kayfiyatini ko‘tarishga, ijtimoiylashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda jismoniy tarbiya bolalarning yosh va fiziologik xususiyatlariga mos tarzda tashkil etilishi kerakligi ta’kidlanadi. Mashg‘ulotlar vaqtida bolaning ortiqcha zo‘riqmasligi, harakatlar turli o‘yinlar shaklida berilishi, faol qatnashuvga rag‘batlantirilishi muhim. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun harakat – bu eng tabiiy faoliyat bo‘lib, ular orqali ular nafaqat jismonan, balki aqliy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlanadi.

Ayniqsa, ertalabki badantarbiya, sport o‘yinlari, harakatli mashg‘ulotlar, ochiq havodagi faoliyatlar bolaning immun tizimini mustahkamlaydi, hushyorlikni oshiradi va o‘quv jarayoniga tayyorlaydi. Jismoniy tarbiya darslari orqali bola tanasi chiniqadi, sog‘lom muhitga intiladi va salomatlik madaniyati shakllanadi.

Shunday ekan, maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyaga e’tibor qaratish nafaqat sog‘lom bola tarbiyasini, balki sog‘lom jamiyat poydevorini yaratishda muhim omildir.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim davrida jismoniy tarbiya bola hayotida katta ahamiyat kasb etadi. U sog‘liqni mustahkamlash, harakat faoliyatini rivojlantirish, ruhiy va aqliy salohiyatni oshirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari puxta rejalashtirilgan, bolalarning ehtiyoj va qiziqishlariga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Zero, har tomonlama sog‘lom bola – sog‘lom kelajak kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova R.A., G‘ulomova D.S. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.

2. Xasanboeva G.T. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr.
5. Maktabgacha ta’lim vazirligi. *3-7 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya dasturi*. – Toshkent: 2021.
6. Abdullaeva M.T., Nurmatova S.Z. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi*. – Toshkent: 2022.
7. World Health Organization (WHO). *Physical activity and young children: Global recommendations*. – Geneva, 2019.
8. Davletshin M.S. *Psixologiya maktabgacha yoshdagi bolalarda*. – Moskva: Prosveshchenie, 2018.

IJTIMOIY MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH HOLATI

Suyunov Abrorbek Baxtiyor o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: suyunovabrorbek14@gmail.com

Annotatsiya:Mazkur ilmiy maqola O‘zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish holatiga bag‘ishlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ma'naviy va ma'rifiy ta'limning ahamiyati juda katta bo‘lib, bu jarayon nafaqat ta'lim va tarbiya, balki bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi va axloqiy nuqtai nazarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada, O‘zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari, ularni samarali tashkil etishning metodik va pedagogik asoslari, shuningdek, bu jarayonda uchraydigan muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi va davlatning ma'naviy-axloqiy ta'limga qo‘shgan hissasini tahlil qiladi.

Kalit So‘zlar: Maktabacha ta’lim,Ma’naviy-ma’rifiy ishlar,Tarbiya va ta’lim,Maktbacha tarbiya,Ta’lim strategiyalari,Oila va ta’lim muassasasi o’rtasidagi hamkorlik,Ma’naviy tarbiya,Vatanparvarlik,Yoshlarning axloqiy tarbiyasi

Kirish. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar tarbiyasining asosi, kelajakda ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirokchilari bo‘lishiga tayyorlanish jarayonini tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta'limning

sifatini oshirish, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qadr-qimmatlarini rivojlantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada maktabgacha ta'lim muassasalarining roli beqiyosdir. Ayni paytda maktabgacha ta'limni tashkil etish faqat bolalarni bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish, turli xalqlarning madaniyatlari va an'analari bilan tanishtirishga ham qaratilgan. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etishning muhim jihatlari va usullari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshlang‘ich ta'limni tashkil etishning muhim qismini tashkil qiladi. Ma'naviy-axloqiy qadr-qimmatlarni bolalarga yetkazish uchun alohida dasturlar ishlab chiqiladi. Bu dasturlar bolalar uchun axloqiy saboqlarni o‘z ichiga olgan o‘yinlar, hikoyalar, ertaklar, va obrazli pedagogik materiallar asosida tashkil etiladi.Vatanparvarlikni Rivojlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ota-onalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi hamkorlik juda muhim. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar vatanining tarixi, madaniyati, an'analari bilan tanishtiriladi, shuningdek, ular milliy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rgatiladi. Vatanparvarlik g‘oyasini bolalarga o‘yin orqali yetkazish, ularni O‘zbekistonning ulkan merosi bilan tanishtirish bu boradagi eng samarali metodlardan biridir.Axloqiy tarbiya va insonga hurmat Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun axloqiy tarbiya alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda bolalarni bir-biriga nisbatan hurmatli va mehribon bo‘lishga, o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda eta olishga, boshqa odamlarning huquqlariga hurmat bilan qarashga o‘rgatish zarur. Shuningdek, bolalarga o‘z xatti-harakatlarini baholash, ularning ongida axloqiy me'yorlarni shakllantirish hamda jamiyatda erkin va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashga e'tibor qaratiladi.Ota-Onalar Bilan Hamkorlik Ma'naviy-axloqiy tarbiya faqat maktabgacha ta'lim muassasalarida emas, balki oila ichida ham amalga oshirilishi zarur. Ota-onalar va tarbiyachilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, ota-onalarni tarbiyaviy vazifalarini bajarishda qo‘llab-quvvatlash uchun seminarlar va treninglar o‘tkazish muhimdir. Bu jarayonni tashkil etishda oila va maktabning birlashgan yondashuvi bolalar uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi.Madaniyat va an'analarni O‘rgatishBolalarga o‘z milliy madaniyatini sevish va unga hurmat bilan qarashni o‘rgatish maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlaridan biridir. O‘zbekistonning boy madaniy merosi, an'anaviy qadriyatlar, musiqa, san'at va milliy bayramlar haqida ma'lumot berish, ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish orqali bolalar yuksak ma'naviy fazilatlarga ega bo‘lishadi.

O‘zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayonida ba'zi muammolar mavjud. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir: Pedagogik ta'limni takomillashtirish Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi

o‘qituvchilar va tarbiyachilarning ma'naviy-axloqiy tarbiya bo‘yicha bilimlari va metodik malakalarini oshirish zarur. Bu maqsadda maxsus treninglar va seminarlar o‘tkazish, xalqaro tajribalardan foydalanish muhimdir.

Resurslar yetishmasligi Ko‘plab maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan metodik materiallar, pedagogik yordamchi vositalar va o‘yinchoqlar yetishmaydi. Bu holatni bartaraf etish uchun davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan qo‘shimcha resurslar ajratilishi kerak.Ota-onalar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash ota-onalar bilans amarali hamkorlikni tashkil etish, ularni maktabgacha ta'lim jarayoniga jalb qilish muhim. Bu bilan bolalarning tarbiyasi faqat maktabda emas, balki oilada ham davom ettiriladi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish – bu bolalar tarbiyasining eng muhim jihatlaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda vatanparvarlik, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va oila bilan hamkorlikni mustahkamlash alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tizimining modernizatsiyasi, pedagogik malakalarni oshirish va resurslarni yaxshilash orqali bu sohada katta yutuqlarga erishish mumkin. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va ta'lim tizimidagi yangiliklar O‘zbekistonning kelajakdagi avlodi uchun ijobiy natijalar berishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Mirzayeva, G. K.** (2019). *Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya.* Tashkent: O‘zbekiston ta'lim nashriyoti.
2. **Sharipov, M. A.** (2020). *O‘zbek maktabgacha ta'lim tizimi: Muammolar va istiqbollar.* Ta'lim va taraqqiyot ilmiy jurnali, 5(2), 45-52.
3. **Sodikov, R. Sh.** (2021). *Ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik.* O‘zbekiston ta'lim tizimi va pedagogik yondashuvlar, 6(1), 22-30.
4. **Tursunov, A. Z.** (2022). *Ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning bolalar tarbiyasidagi o‘rni.* Pedagogika va ta'lim, 4(3), 33-40.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IDROKINING RIVOJLANISHIDA O‘YINLARNING ROLIGA DOIR NAZARIY YONDASHUVLAR

Alijonova Muborakxon Baxtiyor qizi - Gulistom davlat pedagogika instituti,
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 2-24 guruh magistranti
alijonovamuborak645@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘yinlarning bolalarning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, o‘yin jarayonida bolalar harakat va motorda malakalarni rivojlantirib, ularni turli ko‘nikmalar bilan tanishtirish imkoniyatini yaratadi. O‘yinlar orqali bolaning idrokini, qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. Shuningdek, maqolada bolalar idrokining rivojlanishiga ta’sir etuvchi nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar haqida so‘z boradi. O‘yinlarning maqsadli va samarali tarzda qo‘llanilishi, uning pedagogik jarayonda muhim o‘rin tutishi haqida fikrlar bildiriladi. Maqola bolalar ta’limi va tarbiyasida o‘yinlarning ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, bolalar idrokini rivojlantirish, o‘yin, motor ko‘nikmalar, nazariy yondashuvla

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin nafaqat ko‘ngilochar faoliyat, balki ularning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bolalar o‘yini orqali ularning motor ko‘nikmalari, idroki, hissiy holatlari va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. O‘yinning bolaning rivojlanishiga ta'siri keng qamrovli bo‘lib, uning harakatlar tizimini rivojlantirishda, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni o‘zlashtirishda, ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘yin jarayonida bolalar turli vaziyatlarga moslashishni, muammolarni hal qilishni, muloqot qilishni o‘rganadilar.

O‘yinlarning bolalar idrokini rivojlantirishdagi o‘rni haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, uning samarali qo‘llanilishi uchun to‘g‘ri nazariy yondashuvlar va metodologiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu maqola, aynan, o‘yinlarning bolalar motor ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini, o‘yin jarayonida bolalar idrokining qanday shakllanishini tahlil qilishga va pedagogik jarayonda o‘yinlarni qanday samarali tarzda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatishga qaratilg.

Nazariy yondashuvlar J.Piaget (1962) o‘yin va uning bolalar rivojlanishidagi rolini kognitiv rivojlanish nazariyasi asosida tahlil qilgan. U o‘yinning bolaning

kognitiv (aqliy) rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganib, o‘yinda bolalar o‘z dunyoqarashlarini va tajriba asosida bilim olishni rivojlantirayotganini ta'kidlagan. Piagetning fikricha, o‘yinlar bolalar uchun o‘zlarining aqliy jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki ular o‘yin jarayonida yangiliklarni qabul qilib, o‘z tajribalarini jamlaydilar.

D.W.Winnicott (1971) o‘yin va bolalar psixologiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarida, o‘yinlarning bolalar uchun emotsional va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatgan. U o‘yinni bolaning ichki dunyosini va hissiy holatlarini ifodalashning asosiy vositasi deb atagan. Winnicottning fikriga ko‘ra, o‘yin bolaning o‘zini anglashiga, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga va atrof-muhit bilan muloqot qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘yin bolaning o‘zlikni anglashida va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishda muhim rol o‘ynaydi.

M.E.Thompson (2004) o‘yinlar va bolaning motor ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta'sirini o‘rganib, o‘yinlarning bolaning jismoniy rivojlanishiga bo‘lgan ahamiyatini ko‘rsatgan. U o‘yinda bolaning tana harakatlarini rivojlantirish, mushak kuchini oshirish, koordinatsiyani yaxshilash mumkinligini ta'kidlagan. O‘yinlar nafaqat motor ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki bolaning hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ham shakllantirishga yordam beradi.

Metodologiya va tahlil Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yinlarning rolini o‘rganish metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi o‘yinlarning bolalar rivojlanishiga ta’sirini, xususan, motor ko‘nikmalar, idrok va ijtimoiy qobiliyatlar bilan bog‘liq jihatlarni aniqlash hisoblanib, quyidagi metod va usullar qo‘llaniladi. Eng avvalo o‘yinlar va bolalar rivojlanishi bo‘yicha mavjud nazariy yondashuvlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilindi. Adabiyotlarni tahlil qilish orqali o‘yinlarning pedagogik ahamiyati, ularning bolalar rivojlanishidagi o‘rini aniqlashtirildi. Bu jarayonda turli psixologik va pedagogik ilmiy qarashlar, shuningdek, mashhur olimlarning fikrlariga murojaat qilindi.

Natija va muhokama Ta’lim va tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yinlarning roli tahlil qilindi va o‘yinlarning bolalar jismoniy, intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi hamda quyidagi natijalarga erishildi:

O‘yinlar bolalarning motor ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy o‘yinlar, xususan, faol harakatlarni talab qiladigan o‘yinlar, bolalar mushak kuchini oshirish, tana koordinatsiyasini yaxshilash va motor malakalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

O‘yinlar bolalarning kognitiv rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin jarayonida bolalar turli vazifalarni hal etish, muammolarni echish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘yinlar bolalarning hissiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va ularga javob berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar asosida, o‘yinlar nafaqat bolalar jismoniy, intellektual va hissiy rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, mazkur jarayonda bolalar o‘zlariga kerakli ko‘nikmalarni o‘zlashtirib, dunyoqarashlarini kengaytiradilar, shuningdek, jismoniy rivojlanishlari va aqliy salohiyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida muhim vosita sifatida qo‘llanilishi lozim, bu pedagogik jarayonni samarali va qiziqarli qilish, bolalar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va ularning ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmatova, Z. (2017). Maktabgacha ta'limda o‘yinlar va ularning bolalar rivojlanishidagi o‘rni. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Ahmadjonova, R. (2019). Bolalar psixologiyasi va pedagogikasining nazariy asoslari. Samarqand: SamDU.
3. Yuldashev, M. (2015). Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va o‘yinlar. Tashkent: Fan va texnologiya.
4. Tashpulatov, A. (2018). Pedagogik yondashuvlar va bolalar rivojlanishida o‘yinlarning roli. Toshkent: Ma’rifat.
5. Sattorova, Z. (2016). O‘yinlar va bolalar ta'limida zamonaviy metodlar. Buxoro: BuxDU.
6. Isroilov, U. (2017). Bolalar ta'limi: nazariy yondashuvlar va amaliyot. Toshkent: Akademnashr.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNINIG NAZARIY ASOSLARI

Alijonova Muborakxon Baxtiyor qizi - Gulistom davlat pedagogika instituti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 2-24 guruh magistranti
alijonovamuborak645@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik

yondashuvlar va pedagogik amaliyotlar yoritilgan. Matematik tasavvurlarni shakllantirish bolalarning intellektual rivojlanishiga, aqliy qobiliyatlari va mustaqil fikrlashga xizmat qiladi. Bunda pedagoglar va tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni hayotga tayyorlashda matematik tushunchalar orqali ularga analitik fikrlashni o‘rgatadilar. Maktabgacha ta'limda o‘qitish metodlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, bolalar ongida mustahkam bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali natijalar beradi. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida matematik tushunchalarni rivojlantirish jarayonida ishlatiladigan metodikalar, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashishning ahamiyati ko‘rsatilgan.

**Kalit so`zlar:** maktabgacha ta`lim, elementar matematika, rivojlanish, ta`lim tarbiya

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ta’lim tarbiya tizimida alohida o‘ringa ega bo‘lib, u bolani sihat- salomatlikka, to‘g‘ri jismoniy rivojlanishiga, yuksak madaniyatga maktabgacha ta’lim tizimida beriladigan bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Maktabgacha ta’limda jismoniy mashqlarning asosiy mazmuni badan tarbiya, harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari, sport mashqlari, oddiy turizmdir.. Ma`lumki, bolalar jismoniy tarbiya mashqlari, o‘yinlarni bajarganda 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 gacha sanash, yaqin, uzoq, baland, past, chamalash, doira, aylana, to‘g‘ri chiziq, to‘g‘ri turish, uchburchak, to‘rtburchak, kabi so‘zlarni eshitadi va so‘zlaydi, bu so‘zlar maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda ham ishlatiladi. Demak, maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida o‘rgatiladigan elementar matematika tasavvurlarini shakllantirish bo‘yicha na’munaviy dasturda berilgan elementar matematik bilimlarni bolalarga o‘rgatish jarayonini bilim va ko‘nikmalarini samarali bo‘lishini, bolalar ongida yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlashda,o‘yinlarni bajarish davomida quyidagi elementar matematik tasavvurlarni:

son, sanoq, to‘plam haqida, miqdor, shakl, miqdorviy tasavvur, vaqt haqida olgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash hozirgi kunda dolzarb va ahamiyatga molik bo‘lib, maktabgacha ta’limda fanlar aro aloqadorlik bolalarni u yoki bu fandan olgan bilimlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha umum metodik nazariy asoslari namunaviy dasturlari

yaratilgan bo‘lib, bu masala bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba’zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, “teng”, “katta”, “kichik”, “butun va bo‘lak” kattaliklar orasidagi bog‘lanishlarni, o‘lchov kattaliklari bilan son o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlay bilish ko‘nikmasini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko‘tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko‘z bilan hamda ichida sanashga o‘rgatib boriladi. Ularning ko‘z bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobilyati rivojlanadi.

Bu yoshda aqliy qobilyatni, mustaqil fikr yuritishni, analiz, sintez, taqqoslash kabi jihatlarini, muhokama qilish, xulosa chiqarish qobilyatini, miqdorviy tasavvurni rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tayyorlov guruhining elementar matematik tasavvurini rivojlantirish bo‘yicha dasturi bolalarning oldingi guruhlarda olgan bilimlarini umumlashtirish, bir tizimga keltirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Maktabga tayyorlov guruhida matematika bo‘yicha haftasiga 2 ta mashg‘ulot, yil davomida 72 ta mashg‘ulot o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlarning davom etish muddati: birinchisi – 30 daqiqa, ikkinchisi – 20- 25 daqiqa.

Har bir mashg‘ulot tuzilishi uning mazmuni bilan aniqlanadi. U yangi materialni o‘rganish, o‘tilganlarni takrorlash va mustahkamlash, bolalarning egallagan bilimlarini tekshirishga xizmat qiladi. Tayyorlov guruhida o‘tkaziladigan matematik mashg‘ulotda didaktik ko‘rsatma materiallaridan keng foydalanilishi xarakterlidir. Amaliy ishlar, ko‘rgazma tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlar ham namuna sifatida qaralishi mumkin. Pedagog – tarbiyachi ularga o‘zida bo‘lgan ko‘rsatma-qo‘llanmalarni hisobga olib tuzatishlar kiritishi mumkin.

Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limdagi o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri — bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir.

Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, to‘laroq o‘rganishga imkon yaratadi. Matematik masalalarni yechish jarayoni o‘zining mohiyati bo‘yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi, matonat shakllanadi, ijodiy
qobiliyatlar rivojlanadi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo‘ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Oilada ota-ona bo‘lsa, maktabgacha ta’limda albatta tarbiyachi-pedagog bo‘ladi.

Shuning uchun har bir pedagog bolaga matematik tasavvurlarni shakillantirar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari (interfaol metodlar,individual yondashish,mustaqil shig‘ullanishga o‘rgatis va hk) hamda milliy istiqlol g‘oyalari bilan qurollangan bo‘lishlari kerak. Nazariy jihatdan to‘la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bugungi kunda ta’lim jarayoniga qo‘llash eng dolzarb masalaga aylangan.

ADABIYOTLAR

1. N.U.Bekboeva, U.S.Aliyeva Elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish bo‘yicha ta’lim mazmuni. “Maktabgacha ta’lim ” jurnali №12, Toshkent 2000 y.
2. N.U.Bekboeva, Z.I.Ibrohimova, H.I.Qosimova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” Toshkent. O‘qituvchi. 1995 yil.
3. M.E.Jumayev “Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent. Ilm ziyo. 2010 yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FUNKSIONAL TIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH VA HARAKATLANISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Bolbekov Elyor Abdimumin o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: *elyorbolbekov866@gmail.com*

Annatatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilib, tahlil qilindi hamda harakat qobiliyati rivojlantirilib, nazariy tahlil va amaliy tajriba haqida ma’lumotlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, harakat qobiliyatlari rivojlantirish.

Tadqiqotning dolzarbligi. Mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida etibor qaratilib kelinmoqda. Barchamizga ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarda funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning kelajakda jismonan va manan barkamol shaxslar bo‘lib etishishlarida muhim o‘rinni egallaydi. Shuni alohida takidlash o‘rinli bo‘ladiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida etibor berilmaydi va an’anaviy yondashuvlar asosida umumiy tarzda olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va

harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas muammolardan biri bo‘lib, ushbu mavzuning dolzarb ekanligini asoslab beradi.

Tadqiqot maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsaddan kelib quyidagi vazifalarni hal etildi; - maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ilmiy - uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish; - maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqot jarayonida, pedagogik kuzativ nazariy tahlil va umumlashtirish hamda matematik - statistik uslublardan foydalanildi.

Tadqiqotning muhokamasi. maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ilmiy - uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida aniqlandiki, maktabgacha yoshdagi bolalar o‘ta harakatchan bo‘lib yangi harakat ko‘nikma va malakalarini egallashlari oson amlga oshiriladi. Ammo mavjud adabiyotlar ushbu mavzuning ma’zmun-mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat; - Bolaning birinchi 7 yilida barcha organ va tizimlarning intensiv rivojlanishi tavsiflanadi - bolalar Bolalar ma’lum meros biologik xususiyatlari, jumladan, asosiy asab jarayonlarining tipologik xususiyatlari (kuch, muvozanat, harakatchanlik) bilan tug‘iladilar,ular faqat aqliy vajismoniy rivojlanishning asosini tashkil etadi, hayotning dastlabki oylaridan boshlab esa hal qiluvchi omil atrof-muhit va tarbiyadir. - maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligining poydevori qo‘yiladi, asab tizimining xususiyatlari aniqlanadi, aql va idrok qilish tarzi rivojlana boshlaydi. - maktabgacha yoshdagi bolalarda markaziy asab tizimining rivojlanishi morfologik xususiyatlarning jadal shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu yoshdagi shartli reflekslar tez rivojlanadi, lekin darhol o‘rnatilmaydi. -Bola rivojlanishi jarayonida ixtiyorsiz diqqatning asosiy mexanizmlari tezroq etiladi va ixtiyoriy diqqatning shakllanishi nutqning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. - bola ulg‘aygani sari sezuvchi tizimlarning sezuvchanligi ortadi, bu esa vizual tasvirlarni sezish tezligini oshiradi, ko‘zni yaxshilaydi, ko‘rish maydonini kengaytiradi va rang ko‘rishni yuqori darajada mukammallashtirishga erishadi. - qizlarda 6 yoshdan boshlab o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqori stereoskopik ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. - maktabgacha yoshdagi bolalarda biron bir uzunlik uchun predmetlarning xarakteristikasi ustunlik qiladi. Bu xususiyat maktabgacha bo‘lgan

davr oxiriga kelib, bolalar uch-o‘lchamlilik tushunchasini o‘zlashtirmasliklari va shuning uchun idrok qilinayotgan nuqtai nazarga qarab ob’ektning makon koordinatalarini o‘rnatishni bilmasliklari bilan bog‘liq. - markaziy asab tizimining rivojlanishi va differensiatsiyasi (uning etilishi) bilan statik va harakat funksiyalari paydo bo‘ladi. - 5-7 yoshda harakatlarning vaqtinchalik va makon xususiyatlarini tahlil qilish va mushak harakatlari muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Yosh rivojlanishi bilan harakat miqdori, tezligi va harakatlarning fazoviy aniqligini baholash imkonini beruvchi harakat analizatori hosil bo‘ladi. - harakat analizatori organizmning makonda tartibga solishida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, eng murakkab mehnat va sport motorikasiga qadar mutlaqo barcha harakatlar faoliyatining koordinatsionligini ta’minlaydi. - maktabgacha yoshdagi bolalarda fiziologik tizimlar noaniq ishlaydi va tartibga solish mexanizmlari hali ham nomukammaldir shuningdek organizm faoliyati uchun muhim bo‘lgan organlar rivojlanadi va takomillashtiriladi. - bolalar o‘sish davrlari, quvvat va modda almashinuv jarayonlarining sezilarli o‘sishi bilan birga, tana vaznining eng katta to‘planishi va farqlash jarayonlarining ustunligi bilan birga sekin o‘sish bilan almashtiriladi. - skeletning jadal rivojlanishi hali kuchsiz bo‘lgan muskullar, paylar va bo‘g‘im (ligamentoz/svyazochnoy) apparatlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Besh yoshga kelib, mushaklarning massasi sezilarli darajada oshadi (ayniqsa, pastki oyoqlarda) va shunga mos ravishda mushaklarning kuchi va ishlashi oshadi. - 6-7 yoshga kelib tik turish qobiliyati (biomexanik statika) u hali to‘liq shakllanmaydi va harakat biomexanikasining evolyusion shakllanishida asosiy bo‘lib, notekis takomillashib boraveradi. -asta-sekinulg‘ayib borishi bilan, tortishishga qarshi jarayonlarda ishtirok etadigan elka va qorin mushaklari, joyga qaytuvchi mushaklarningkuchlanish ohanglari kuchayadi - mushak yukining ortishi bilan harakat sifatlarining rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasining oshishi yanada jadallashadi. - bolalar yurish, yugurish, sakrash kabi mashqlarni tez o‘zlashtirib oladilar, ammo mayda mushaklar bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlarni bajarishda biroz qiyinchilik his qiladilar - maktabgacha ta’lim davrida yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatini yanada tejamli va samarali faoliyat darajasiga ko‘tarishda muhim qayta qurish kuzatiladi. Yurak hajmi kattalashadi, yurak urishi qisqarishining kuchi va qon bosimi ko‘tariladi. - maktabgacha yoshda reaksiya tezligi intensiv ravishda oshib boradi va juda yuqori darajaga etadi. - tahlil qilinayotgan davrda bolalarning harakat faoliyati va jismoniy tayyorgarligi ularning jismoniy rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar kuzatiladi: kichik maktabgacha yoshda jismoniy rivojlanish organizmning funksional takomillashuvida etakchi ahamiyat kasb etadi, katta maktabgacha yoshda esa, uning roli keskin kamayadi va jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati ortadi. - kichik maktabgacha yoshda lokomotor harakatlar koordinatsiyasi va muvozanatni saqlash mexanizmi allaqachon ishlab

chiqilgan va nisbatan mustahakam o‘zlashtirilgan, biroq, oddiy yurish impulsining biodinamik tuzilmasi xali shakllanmagan bo‘ladi. - 4-6 yoshli bolalarda harakat koordinatsiyasi rivojlanishining darajasi xali past. Harakat ko‘nikmalari indikativ, shuningdek, ortiqcha harakat reaksiyalari fonida shakllanadi, farqlash qobiliyati past bo‘ladi. Maktabgacha yoshda murakkab sport turlarida jismoniy mashqlar texnikasini dastlabki egallash uchun shart-sharoit yaratiladi. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatida rivojlangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishining ahamiyati to‘g‘risida rivojlangan hamfikr haqida gapirsak, bu davrda asab-mushak tizimi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari rivojlanishiga asoslangan barcha organlar va tizimlar tez rivojlanishi kuzatiladi, shu sababli bolaning funksional imkoniyatlari rivojlanib boradi.

Xulosa. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, chaqqonlik qobiliyatini rivojlantirish muammosi chuqur nazariy va tajribaviy ishlanmaga muhtoj. Biz chaqqonlik qobiliyatining fiziologik va psixiy mexanizmlarini o‘rganishimiz, turli yosh va jinsdagi bolalarda ushbu sifatni rivojlantirish darajasini aniqlashimiz, chaqqonlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali vosita va uslublarini ishlab chiqishimiz va tajribaviy asoslashimiz muhimligini ko‘rsatmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘p omilli xususiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchi va sohada faoliyat yuritayotgan ilmiy hodimlardan esa doimiy ijodiy izlanishlarini taqazo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar funksional tizimlari shakllanishi va harakatlanish qobiliyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish natijasida, hayotda kerak bo‘ladigan asosiy harakat ko‘nikma va malakalarining kengayib borishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

2. Salamov R.S. “Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari”. 2 tom. Darslik. ITAPRESS. T. 2015 yil. 181 bet.

3. N.G.Ozolin, D.P.Markov. “Yengil atletika”, Toshkent: 1971 yil. 176 bet.

4. Kuramshin Yu.F. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturы. Uchebnik. Moskva. – 2010 g.

MAKTABGACHA TA’LIMDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI VA UNING RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Galayev Kaxxar Karimovich - Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: *galayevkaxxar@gmail.com*

*Annotatsiya.*Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida jismoniy tarbiyaning mazmuni, asosiy vazifalari va uning bolalar rivojlanishiga ta’siri keng yoritilgan. Muallif maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, harakat faoliyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarni tarbiyalash borasidagi pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining shakllari, metodik tavsiyalar va tarbiyachining tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi. Maqola maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom va faol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning o‘rni muhim ekanligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: **Jismoniy tarbiya, maktabgacha ta’lim, sog‘lom turmush tarzi, harakat ko‘nikmalari, bolalar rivojlanishi, pedagogik yondashuv, harakatli o‘yinlar, chiniqtirish, jismoniy mashqlar, ijtimoiylashuv.**

Kirish. Bugungi kunda bolalarning sog‘lom rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim davri bolaning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishidagi asosiy poydevor bo‘lgan bosqichdir. Aynan shu davrda jismoniy tarbiya vositasida bola sog‘lom turmush tarziga yo‘naltiriladi, harakat faoliyati rivojlanadi va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Jismoniy tarbiyaning mazmuni va vazifalari

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya faoliyati quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Bola organizmini mustahkamlash** – bolalarda jismoniy mashqlar orqali yurak-qon tomir, nafas olish va mushak tizimi mustahkamlanadi.
2. **Harakat faoliyatini rivojlantirish** – yugurish, sakrash, sudralish, toqqa chiqish kabi harakatlar orqali bolaning umumiy motorikasi rivojlanadi.
3. **Sensor-motor rivojlanish** – jismoniy mashqlar bolada fazoviy tasavvur, muvozanat saqlash, koordinatsiya kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.
4. **Ijtimoiy xulq-atvor va jamoaviy harakat ko‘nikmalarini tarbiyalash** – sport o‘yinlari, guruhli mashqlar orqali bolalar o‘zaro hurmat, navbat kutish, yutuq va yutqazishni to‘g‘ri qabul qilishni o‘rganadi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari

1. ✓ **Sog‘liqni mustahkamlash** – bola organizmini chiniqtirish, immun tizimini kuchaytirish.

2. ✓ **Harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish** – bola harakatlarini tez, aniq, muvozanatli bajarishga o‘rgatish.
3. ✓ **Psixologik sifatlarni shakllantirish** – e’tibor, iroda, intizom, qat’iyat, mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantirish.
4. ✓ **Ijtimoiy ko‘nikmalarni tarbiyalash** – jamoada harakat qilish, do‘stlarga yordam berish, qoidaga rioya qilish.
5. ✓ **Estetik va musiqiy hislarni rivojlantirish** – musiqali jismoniy mashg‘ulotlar orqali his-tuyg‘ularni boyitish.
6. ✓ **O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga o‘rgatish** – bola o‘z gigiyenasiga, kiyinishiga va o‘zini tutishiga e’tibor berishni o‘rganadi.

Jismoniy tarbiyaning shakllari

Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- **Jismoniy mashqlar mashg‘ulotlari** – rejalashtirilgan, maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bo‘lib, ular maxsus dastur asosida o‘tkaziladi.
- **Tonggi gimnastika** – bolalar kunning boshida oddiy mashqlar orqali uyg‘otiladi, bu ularning kun davomida faolligini oshiradi.
- **Ochiq havodagi o‘yinlar va yurishlar** – bolalar organizmini chiniqtirish va tabiiy muhitga moslashtirishda muhim rol o‘ynaydi.
- **Harakatli o‘yinlar** – bolalarning ijtimoiylashuvi, tezkorligi, chaqqonligi va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik yondashuvlar

Maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berishda pedagog quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak:

- **Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv** – har bir bolaning individual rivojlanish sur’ati va jismoniy imkoniyatlari inobatga olinadi.
- **O‘yinli faoliyat orqali o‘rgatish** – bolalar uchun harakatlar qiziqarli bo‘lishi, ularda ishtiyoq uyg‘otishi lozim.
- **Qayta aloqa va rag‘batlantirish** – pedagog har bir bolaning muvaffaqiyatini e’tirof etib, uni ijobiy baholashi zarur.
- **Ota-onalar bilan hamkorlik** – bolaga berilayotgan jismoniy tarbiya uyda ham davom ettirilishi uchun oilada qo‘llab-quvvatlash muhim.

Metodik tavsiyalar

1. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari qisqa, ammo samarali bo‘lishi kerak (15–25 daqiqa).
2. Harakatlar bolalarning yoshiga, salomatligiga va iqlim sharoitiga mos bo‘lishi kerak.

3. Mashg‘ulotlar davomida bolalarning ruhiy holati va qiziqishlariga e’tibor berish lozim.
4. Tarbiyachi har bir mashg‘ulotni diqqat bilan kuzatib, kerakli hollarda harakat texnikasini ko‘rsatib berishi kerak.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlari ularning sog‘lom, faol va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi. Shu boisdan maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyaga jiddiy e’tibor qaratilishi zarur. Tarbiyachilar, ota-onalar va jamiyatning o‘zaro hamkorligi orqali sog‘lom avlodni tarbiyalash mumkin. Maktabgacha ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. U nafaqat sog‘lom va chiniqqan organizmni shakllantirish, balki bolaning aqliy, ijtimoiy va psixologik jihatdan yetuk bo‘lib ulg‘ayishiga ham xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya orqali bolalarda harakat ko‘nikmalari, koordinatsiya, intizom, iroda, o‘zini tutish madaniyati va jamoaviy ishlash kabi muhim sifatlar rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy mashg‘ulotlar to‘g‘ri tashkil etilganda, ular bola salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish va kelajakda faol hayot tarzini tanlashiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, tarbiyachilar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bu jarayonda uzviy hamkorlikda bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, R. (2020). *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. Toshkent: «Ilm Ziyo» nashriyoti.
2. Yo‘ldoshev, B. va boshqalar. (2021). *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
3. Qodirova, M. (2019). *Bolalar jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlarning o‘rni*. – “Ta’lim va rivojlanish” ilmiy jurnali, №2(45), 78–83-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ–4312-son. (2019-yil 5-aprel). “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.
5. Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2022). *Davlat maktabgacha ta’lim dasturi: Ilk qadam*. – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi nashriyoti.
6. Axmedov, A., & Norboyeva, G. (2018). *Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Vygotskiy, L. S. (2000). *Psixologik rivojlanish nazariyasi*. Moskva: Pedagogika.
8. Mahmudova, S. (2021). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat faoliyatini rivojlantirish metodikasi*. – “Ilmiy-amaliy jurnali”, №3, 52–57-bet.

O‘RTA MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASH JARAYONIDA JISMONIY TARBIYA-SOG‘LOMLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Mustafayev Nurali Sherali o‘gli – Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabasi
mustafayevnurali@gmail.com
Nurummetov Umidjon Qodirbergan o‘gli - Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabasi
umidjonovnurummetov04@gmail.com

Annotation: in the current period, the problem of physical education and wellness technology in the process of educating schoolchildren is much more relevant. Many students of high school age spend a lot of time with computer techniques. This is due to the large load of homework given at the school and the availability of hobbies, for example: computer games, watching movies, reading fiction. Due to the decline in movement skills, Sports qualifications and abilities, the process of degradation continues. From a young age, it is necessary to instill in them a love for physical education, as well as improve the health of children. Therefore, the concept of physical education-wellness technology allows you to maintain physical quality and health.

Annotatsiya:Hozirgi davrda maktab o‘quvchilarini tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyasi muammosi ancha dolzarbdir. O‘rta maktab yoshidagi ko‘plab o‘quvchilar kompyuter texnikasi bilan ko‘p vaqt o‘tkazadilar. Bu maktabda beriladigan uy vazifalarining katta yuklamasi va sevimli mashg‘ulotlarning mavjudligi bilan bog‘liq, masalan: kompyuter o‘yinlari, film tomosha qilish, badiiy asarlarni o‘qish. Harakat ko‘nikmalari, sport malakalari va qobiliyatlarining pasayishi tufayli degradatsiya jarayoni davom etmoqda. Kichik yoshdan boshlab ularda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga muhabbat uyg‘otish, shuningdek, bolalarning sog‘lig‘ini yaxshilash zarur. Shuning uchun jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyasi tushunchasi jismoniy sifat va salomatlikni saqlash imkonini beradi.

Kirish:Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyasi - bu yoshni, kasbiy faoliyatni hisobga olgan holda salomatlikni saqlash va mustahkamlashga, jismoniy farovonlikka erishish va uni saqlashga, kasalliklarning oldini olish va umumiy sog‘lomlashtirishga, organizmning tashqi muhitning zararli ta’sirlariga chidamliligini oshirishga qaratilgan turli xil jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish faoliyatini amalga oshirish usulidir. Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya

salomatlikni mustahkamlash va saqlashni ta’minlaydigan, inson hayot faoliyati uchun maqbul zaminni shakllantiradigan jismoniy tarbiyaning barcha shakllari, vositalari va usullaridan foydalanadi.

Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyasi katta sur’atlar bilan rivojlanmoqda, ko‘plab olimlar, professorlar bu mavzuni ko‘rib chiqmoqdalar. Bizning ming yilligimizdayoq o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning salomatligida nuqsonlar borligidan dalolat beradi. O‘quvchining harakat faoliyatining haqiqiy hajmi to‘liq rivojlanishni ta’minlamaydi. Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra maxsus tibbiy guruhlarga (keyingi o‘rinlarda SMG deb yuritiladi) belgilanadigan tarbiyalanuvchilar sonining yildan yilga o‘sib borishi kuzatilmoqda. Salomatligi tufayli jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi umuman taqiqlangan o‘quvchilar soni keskin oshdi, bu mening ishimda ko‘rib chiqilayotgan dolzarb muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi:

1.-O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyasi bo‘yicha nazariy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish.

2.-O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun samarali jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish metodikasini ishlab chiqish.

3.- O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar jismoniy tarbiyasi ta’lim-tarbiya jarayonida metodika va vositalarni qo‘llash samaradorligini tajriba yo‘li bilan aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyalarini tashkil etish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqot gipotezasi: o‘rta maktab yoshidagi jismoniy tarbiya doirasida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyalaridan faol foydalanish quyidagilarning samaradorligini oshirishga imkon berishi taxmin qilinadi:

- Maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darsiga qatnashishining faol o‘sishi.

- Me’yoriy ko‘rsatkichlar va salomatlikni yaxshilashga yordam beradigan turli usullar, vositalarni qo‘llash.

O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyalarini qo‘llash asoslarining nazariy tahlili.

O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning anatomik-fiziologik xususiyatlari.

O‘rta maktab yoshi davri organizmning biologik yetilishiga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda katta yoshdagi odamga xos bo‘lgan motor individualligi uzil-kesil shakllanadi. O‘smirlar jismoniy tarbiyasining asosiy yo‘nalishi - bu tizimli, sport va sog‘lomlashtirish tayyorgarligiga qiziqishni shakllantirishdir. Bu davrda jismoniy tarbiyaning muhim elementi sport xarakterining shakllanishi, uning qiyinchiliklarni yengishga o‘zini safarbar qila olishi, muvaffaqiyatsizliklar oldida dovdirab qolmasligi, qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun qat’iyat bilan mehnat qilishidir.

O‘smirlik davri butun organizmning maksimal o‘sish davri bo‘lib, nafaqat biologik yetilishning, balki shaxsning ijtimoiy yetilishining ham mas’uliyatli bosqichidir. Bu davrda uning o‘z-o‘zini anglashi o‘sadi, fikrlashning aniq usulidan abstrakt usuliga o‘tish amalga oshadi, reflekslar va ko‘nikmalar ortadi. Qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining konsentratsiya darajasi kuchayadi. Bunda bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ining tormozlovchi funksiyasi tobora samaraliroq bo‘lib boradi, uning emotsional reaksiyalar ustidan nazorati kuchayadi. Jismoniy tarbiyani amalga oshirishda ko‘p funksiyali tashkil etishning ba’zi xususiyatlarini ham hisobga olish kerak [1].

O‘rta maktab yoshi uchun quyidagi anatomik-fiziologik xususiyatlar xarakterlidir. O‘smirlik davrida o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar tanasining rivojlanish ritmida o‘ziga xos belgilar mavjud. Bu davrda tana proporsiyalari tez o‘zgaradi [20].

Shuni ta’kidlash mumkinki, o‘smirlik davri - bu harakat qobiliyatlarining davom etayotgan harakat takomillashuvi, harakat sifatlarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar davridir. To‘g‘ri metodika qo‘llanilganda o‘smirlik davridagi sport mashg‘ulotlari shug‘ullanuvchilar organizmining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish texnologiyalarining tavsifi. Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning inson organizmiga ta’sir darajasiga ko‘ra quyidagi ikki guruhni ajratish mumkin: atsiklik va siklik xarakterdagi mashqlar. Shuni ham hisobga olish kerakki, o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning ko‘pchiligi SMG ga ega.

Siklik mashqlar - bu uzoq vaqt davomida bir xil tugallangan harakat sikli doimiy ravishda takrorlanadigan harakat aktlaridir.

Siklik mashqlarga sog‘lomlashtiruvchi yurish, yugurish, chang‘ida yurish, aerobika, suzish kiradi. Ular har bir sikl asosida yotuvchi harakat fazalarining takrorlanishi

bilan ajralib turadi va har bir sikl bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Uning asosida avtomatik ravishda namoyon bo‘ladigan ritmik harakat refleksi yotadi[1].

Atsiklik mashqlar - harakat faoliyatining xarakteri keskin o‘zgaradigan, tuzilishi va quvvati o‘zgaradigan jismoniy mashqlar tizimidir. Atsiklik harakatlar ritmik harakat refleksi asosida qurilmaydi, garchi ularning ba’zilari lokomotsiyaga kiritilishi mumkin.

Undan o‘rta yoshdagi shaxslar foydalanishining maqsadga muvofiqligiga tanqidiy yondashish lozim. Atletik gimnastika bilan shug‘ullanish sog‘lom yoshlarga mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish va atletik mashqlarni birlashtirish sharti bilan tavsiya etilishi mumkin .

Shunday qilib, siklik va atsiklik mashqlardan sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyada foydalanish mumkin. Masalan, bunday mashqlar, organizmning jismoniy holatini tiklash, tana gigiyenasi va ovqatlanish elementlari va boshqalar muvaffaqiyatli qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Adalson, K. V. Chesnakov A.S. Fizicheskaya kultura i zdorovыy obraz jizni. - M: Fizkultura i sport, 2003. - 236 b.

2). Balsevich V.K. Fizicheskaya kultura dlya vsex i dlya kajdogo. - M., 2002. - 198 b.

3). Gabbazova, A.Ya. Ozdorovitelnaya fizicheskaya kultura: Metodicheskiye ukazaniya dlya studentov spetsialnoy meditsinskoy gruppы/ Ulyanovsk: 2002. - 23b.

4). Goyxman, P.N. Fizicheskaya kultura v shkole/ P.N. Goyxman, O.N. Trofimov. M.: FiS, 2004. 379b.

Gogunov, Ye.N. Martyanov B.I. Psixologiya fizicheskogo vospitaniya i spora: ucheb. posobiye dlya stud. vish. ped. ucheb. zavedeniy. - M.: Akademiya, 2000. - 186 b.

Doman, G. Kak sdelat rebenka fizicheski sovershennim: ucheb.posobie / G.Doman. M.: Akvarium, 2005.148 b.

Yermolayev Yu.L. Vozrastnaya fiziologiya. M., SportAkademPress. 2001 - 54 b.

8). Karasev A.V. Ensiklopediya fizicheskoy podgotovki. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishning uslubiy asoslari: o‘quv qo‘llanma / A.V. Karasev. - M.: Leptos, 2004. 368 b.

JISMONIY TARBIYA MAKTAB TA’LIMI TIZIMINING AJRALMAS ELEMENTI SIFATIDA

Qurbonov Shamsiddin Burxon o‘g‘li - – Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabasi
ahmadaliyevnodirbek@gmail.com
Sayidmahmadov Abbos Abdumurod o‘g‘li – Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabasi
abboss0704@gmail.com

Annotation: Physical culture is always considered as an integral component of the process of education and wellness of schoolchildren of any age, and is a progressive organized vector of the complex influence of physical exercise and external environmental factors (air, ultraviolet rays, water) on the body. Today, Physical Culture, as a compulsory subject, occupies a special place in almost all educational systems, since it helps to form the qualities necessary for successful mental and later labor activities in schoolchildren.

Jismoniy madaniyat har doim har qanday yoshdagi maktab o‘quvchilarini tarbiyalash va sog‘lomlashtirish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi va jismoniy mashqlar va tashqi muhit omillarining (havo, ultrabinafsha nurlar, suv) organizmga kompleks ta’sirining progressiv tashkil etilgan vektori hisoblanadi. Bugungi kunda jismoniy madaniyat majburiy fan sifatida deyarli barcha tarbiya tizimlarida alohida o‘rin egallaydi, chunki u maktab o‘quvchilarida muvaffaqiyatli aqliy va keyinchalik mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Maktab kursi doirasidagi jismoniy tarbiya fani turli yosh toifalari uchun o‘quv dasturlari va maxsus tibbiy guruhga kiritilgan o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar dasturlari bilan tartibga solinadi va jismoniy tarbiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning tashkil etilishi va mazmuni sinfdan tashqari sport ishlari dasturlari bilan to‘ldiriladi. Maktab o‘quvchilarining sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishi holatini baholash maqsadida har yili o‘quv yili boshlanishidan oldin tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi, uning natijalariga ko‘ra quyidagi jismoniy tarbiya guruhlari belgilanadi:

- asosiy guruh - jismoniy rivojlanishida, salomatlik holatida og‘ishlar bo‘lmagan, shuningdek, asosan funksional xususiyatga ega bo‘lgan, biroq yetarlicha jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kichik og‘ishlar bo‘lgan maktab o‘quvchilari;

- tayyorlov guruhi - jismoniy rivojlanish va salomatlik holatida sezilarli funksional o‘zgarishlarsiz, biroq yetarlicha jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lmagan kichik og‘ishlarga ega bo‘lgan maktab o‘quvchilari;
- maxsus guruh - sog‘lig‘ida doimiy yoki vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lgan, maktabdagi odatdagi o‘quv ishlarini bajarishga xalaqit bermaydigan sezilarli og‘ishlarga ega bo‘lgan, ammo jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish uchun qarshi ko‘rsatma bo‘lgan maktab o‘quvchilari.

Maktab o‘quvchilarini jismoniy rivojlantirish va tarbiyalashning kompleks jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tasdiqlangan jadval va soatlar hajmiga muvofiq majburiy jismoniy tarbiya darslari;
- turli normativlarni topshirish (yugurish, uzunlikka sakrash, balandlikka sakrash, tortilish, qo‘llarni bukib-yozish va h.k.);
- jismoniy tarbiyaning mikro shakllari (dars boshlanishidan oldin ertalabki gimnastika, dinamik tanaffuslar - jismoniy tarbiya daqiqalari, harakatli-dinamik tanaffuslar va boshqalar);
- jismoniy tarbiyaning makro shakllari (uy vazifalarini bajarish, sport seksiyalari, sport bayramlari, salomatlik kunlari va boshqalar);
- musobaqa shakllari (musobaqa, spartakiada).

Oxirgi uchta shaklni jismoniy tarbiya darsiga qo‘shimcha sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Maktab kursi doirasida ham jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning paradigmasi bo‘lib, ta’lim oluvchining jismoniy ontogenezini shakllantiradi.

Maktab o‘quvchilari hayotida jismoniy tarbiya bir qator muhim vazifalarni bajaradi:

- rivojlantiruvchi funksiya ta’lim oluvchining barcha jismoniy mohiyat kuchlarini, shu jumladan mushak va asab tizimlarini, ruhiy jarayonlarni; qo‘l va oyoqlarni; tananing, ko‘z va quloqning egiluvchanligi va nozikligini, ekstremal vaziyatlarda fazoda mo‘ljal olish qobiliyatini, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishni takomillashtirishdan iborat;
- tarbiyaviy funksiya tarbiyalanuvchining chidamliligini mustahkamlash va ma’naviyatini chiniqtirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari yuksak axloqiy maqsadlar va olijanob intilishlar bilan uzviy ravishda sintez qilinishi kerak. Bunda chiniqqan iroda, xarakterning qat’iyligi va dadilligi, shaxsning jamoaviy yo‘nalganligi jamiyat uchun ijobiy tashqi ta’sirni shakllantirishga xizmat qiladi: buzuqlikka, ichkilikbozlikka, giyohvandlikka va hokazolarga qarshi kurash;
- ta’limiy vazifasi o‘quvchilarni jismoniy madaniyatning rivojlanish nazariyasi va tarixiy jarayoni, uning alohida inson hayotidagi ahamiyati bilan tanishtirish; jismoniy tarbiyaning xilma-xil turlari, sport kurashlari, mahoratning namoyon bo‘lishi, ruhiy kuch, inson tanasining go‘zalligini

kuzatish odamlarda kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, estetik zavq bag‘ishlaydi;

- sog‘lomlashtiruvchi-gigiyenik funksiyasi shundan kelib chiqadiki, zamonaviy hayot sharoitida ko‘plab maktab o‘quvchilarida faol harakat yetishmovchiligi tufayli gipodinamiya rivojlanadi, organizmning qarshilik ko‘rsatish qobiliyati pasayadi. Bu har bir kishi uchun kundalik badantarbiya, ritmik gimnastika, darslar orasidagi tanaffuslarda jismoniy tarbiya tanaffuslarini o‘tkazish va hokazolarni zarur qilib qo‘yadi;

Maktab o‘quvchilari bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish jarayonida quyidagi jihatlarni obyektiv ravishda hisobga olish zarur:

- yosh va uning funksional imkoniyatlari, shuningdek, xususiyatlarini hisobga olgan holda optimal harakatlanish rejimining mavjudligi;
- mashg‘ulotlarning tizimliligi, ularning komplekslilig‘i;
- ta’lim oluvchilarning yoshi, jinsi, sog‘lig‘i va jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy rivojlanishini hisobga olgan holda jismoniy tarbiyaning turli shakllaridan foydalanish;
- mashg‘ulot paytida tashqi muhit va psixologik kayfiyatning qulay sharoitlarini yaratish.

Shunga e’tiborni qaratish kerakki, jismoniy madaniyat - bu o‘quv predmeti bo‘lib, uning mazmuni va o‘qitilishi jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom, ijtimoiy faol va o‘z-o‘zini yanada rivojlantirishga qodir bo‘lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Bugungi kunda jismoniy tarbiyaning maqsadi maktabni tugatgandan so‘ng keyingi hayotda jismoniy madaniyatdan foydalanishga qodir va qodir bo‘lgan shaxsni tarbiyalashdir. Bunga maxsus tashkil etilgan o‘quv jarayoni yordamida erishiladi, bunda harakat faoliyati jarayonida umumiy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan vazifalar hal etiladi.

Maktab jismoniy tarbiya ta’limi tuzilmasida jismoniy tarbiya vositalarining (jismoniy mashqlarning) katta arsenali qo‘llaniladi, u sportning tur belgilari bo‘yicha tuziladi: yengil va og‘ir atletika materiallari bo‘yicha mashqlar, akrobatika asoslari bilan gimnastika, sport o‘yinlari (voleybol, futbol, basketbol va boshqalar), suzish, chang‘i sporti va boshqalar. Shu bilan birga, yosh rivojlanishining har bir bosqichida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud:

- boshlang‘ich sinflarda asosiy harakatlarni, shu jumladan ularning turlarini: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va boshqalarni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim. Zero, quyi sinflarda jismoniy mashqlar bazisi yaratiladi, busiz keyingi jismoniy tarbiyani amalga oshirib bo‘lmaydi;
- o‘rta sinflarda asosiy harakatlar texnikasini shakllantirish davom etadi, ular asosida o‘quvchilar asta-sekin murakkablashib boradigan sport mashqlarining dastlabki ko‘nikmalarini egallaydilar;

- yuqori sinflarda o‘rganilgan mashqlar texnikasiga qo‘yiladigan talablar murakkablashadi, o‘quvchilar yangi mashqlarni o‘rganadilar, yetarlicha murakkab texnik-taktik vazifalarni hal qiladilar, funksional tizimlarni yo‘naltirilgan rivojlantirish uchun mashqlarni bajaradilar. Bundan tashqari, ularda kelajakdagi kasbiy faoliyatga qiziqishni shakllantiradigan maxsus mashqlarni kiritish kerak, ularni tanlash jismoniy tarbiya o‘qituvchisi uchun eng muhim vazifadir.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya usullari va metodlarining katta arsenali qo‘llaniladi, ular oddiydan murakkabga qarab evolyutsion yo‘lni bosib o‘tadi. Maktabda jismoniy tarbiya jarayonida hal qilinadigan vazifalarga quyidagilar kiradi:

- salomatlikni mustahkamlash, qaddi-qomatni yaxshilash, yassioyoqlikning oldini olish, uyg‘un jismoniy rivojlanishga ko‘maklashish, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga chidamlilikni rivojlantirish;
- xilma-xil hayotiy muhim harakatlar asoslarini egallash;
- koordinatsion (harakatlarning fazoviy, vaqt va kuch parametrlarini qayta tiklash va farqlash aniqligi, muvozanat, ritm, signallarga javob berish tezligi va aniqligi, harakatlarni muvofiqlashtirish, fazoda mo‘ljal olish) va konditsion (tezlik, tezlik-kuch, chidamlilik va egiluvchanlik) qobiliyatlarni rivojlantirish;
- shaxsiy gigiyena, kun tartibi, jismoniy mashqlarning salomatlik holatiga, ish qobiliyatiga va harakat qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’siri haqida elementar bilimlarni shakllantirish;
- asosiy sport turlari, ularda qo‘llaniladigan snaryadlar va jihozlar, mashg‘ulotlar paytida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish;

Maktabdagi jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida ta’lim-tarbiya ishining boshqa barcha turlari bilan uzviy bog‘liqdir. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jarayonida aqliy tarbiya amalga oshiriladi, taktik fikrlash shakllanadi, ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Maktab o‘quvchilarining mehnat tayyorgarligi jihatidan jismoniy tarbiya chidamlilikka, sabot-matonatga, ishni oxiriga yetkazishga o‘rgatadi, chidamlilik, chaqqonlik, epchillik ko‘rsatishga, malaka va ko‘nikmani tez egallashga yordam beradi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ta’lim oluvchilarda yaxshi iroda, chidamlilik, adolat, kurashda halollik, jamoaviylikni shakllantiradi. Ular yordamida inson tanasi va ruhining uyg‘unligiga erishiladi. Shuningdek, harakat, kurash, to‘siqlarni yengib o‘tishda namoyon bo‘ladigan inson ongi va tanasining go‘zalligini estetik idrok etish qobiliyatini o‘zida rivojlantiradi.

So‘nggi yillarda maktab ta’limining yangi tizimiga asos solinmoqda, o‘qituvchining o‘quvchini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyati takomillashtirilmoqda. Bugungi kunda maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalash jarayonini samarali tashkil etish va jismoniy tarbiya o‘qituvchisining yangi pedagogik tafakkurini shakllantirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘pincha, o‘qituvchining minimal vaqt ichida ko‘proq o‘quv materiallarini qamrab olish istagi, aslida, o‘quv jarayonining past sifatiga olib keladi. Unda fanning ayrim bo‘limlarini o‘zlashtirish uchun ajratilgan o‘quv soatlari sonining yetishmasligi va talabalarga o‘zlashtirish uchun taklif qilingan o‘quv materiallarining ko‘pligi o‘rtasida ma’lum bir qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha, mavjud muammoni, aylanma mashg‘ulot uslubi samarali hal qilishga yordam beradi.

Umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya darslarida aylanma mashg‘ulot uslubidan foydalanishning asosiy vazifasi – cheklangan vaqt ichida sarflangan vositalarning qat’iy belgilangan miqdori bilan jismoniy sifatlarni, harakat malakalari va ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishdan iboratdir. [4].

Barcha hodisa va jarayonlarga o‘xshash jismoniy mashqlar o‘zining mazmuni va shakliga ega. Jismoniy mashqni bajarishda sodir bo‘ladigan mexanik, biologik, psixologik jarayonlarning to‘plami jismoniy mashqlarning mazmunini vujudga keltiradi, ularning ta’siridan harakat faoliyati uchun qobiliyat rivojlanadi. Shuningdek mashq mazmuniga uning bo‘laklarini to‘plami, masalan, uzunlikka sakrashda tanaga tezlik berish, depsinish havoda uchish, erga tushish zvenolari hamda mashqni bajarishda hal qilinadigan vazifalar, shuningdek mashqni bajarishdan organizmda sodir bo‘ladigan funksional o‘zgarishlar haqidagi nazariy

bilim va amaliy harakat malakalari kiradi. Bu elementlarning barchasi jismoniy mashqning umumiy mazmunini vujudga keltiradi [3].

Dars mazmunini ifodalovchi navbatdagi komponentlar darsni olib borayotgan o‘qituvchi hamda darsda ishtirok etayotgan o‘quvchilarning faoliyatl bo‘lib, dars mazmuniga oid bu jihatlarga o‘qituvchining nazariy bilimlar berishi, o‘quvchilarda amaliy harakat malakalarini shakllantirish uchun ularni darsdagi faoliyatini tashkillashi, ta’lim jarayoni uchun tanlangan o‘qitishning uslublari ham mujassamlashadi[3].

Darsning tarkibiga kiritilgan jismoniy mashqlar, dars mazmunining eng yirik xarakterli jihatlaridir. Lekin bunday tushuncha bir tomonlama bo‘lib, tarbiyalash, sog‘lomlashtirish, bilim berish vazifalarini hal qilishda o‘quvchilar uchun dars davomida faoliyat predmeti bo‘lib xizmat qiladi.

Darsda o‘quv - tarbiya jarayonining vositasi sifatida foydalaniladigan mashqlar darsning umumlashtirilgan predmeti mazmunining bir bo‘lagi xolos, boshqachasiga, dars mazmunining bir qirrasidir. Darsning har bir qismi uchun qo‘yilgan vazifalarga qarab mashqlar turlicha bo‘lishi tabiiy.

Tahlillar va natijalar. Tayyorlov qismidagi diqqat uchun mashqlar, saf mashqlari, qaddi - qomat uchun mashqlar, jismlarsiz va jismlar bilan bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, tayyorlov, yo‘llanma beruvchi mashqlar, darsning asosiy qismida o‘qitiladigan jismoniy tarbiya dasturining gimnastika, yengil atletika, sport o‘yinlari (voleybol, basketbol, gandbol, futbol), suzish, kurash bo‘limlarining mashqlari, darsning yakuni qismlari tarkibidagi organizmni funktsional holatini tinchlantiruvchi, darsning boshlanishidan oldingi holatiga yaqinlashtiruvchi mashqlardan foydalaniladi. Ularning ta’sir doirasi organizmning funktsional holatiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin [4].

Ilmiy yangilik: Jismoniy rivojlanganligi ko‘rsatgichlari, jismoniy tayyorgarligidagi o‘zgarishlarning bosh sababchisi darsning o‘quv tarbiyaviy vazifalarini nazarda tutib, dars uchun rejalashtirilgan jismoniy mashqlar bo‘lishi jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida o‘z isbotini topgan. Darsning tayyorlov, asosiy, yakunlov qismlari uchun tavsiya qilingan mashqlarning bajarish bilan bog‘lik bo‘lgan o‘quvchilarning darsdagi faoliyati dars mazmunining navbatdagi yirik komponentlaridan biridir. Bu komponent shug‘ullanuvchini turli ko‘rinishdagi, intellectual va jismoniy faoliyatidan iboradir. O‘quvchilarning dars vazifasini hal qilish bo‘yicha harakat faoliyatlarining barchasi dars mazmunining asosini tashkil qiladi (darsda o‘quvchilar faoliyatini tashkillash uslubiyatlariga oid materiallarni keyingi mavzuda alohida kengroq yoritamiz). [4].

Xulosa. Ayniqsa, jismoniy mashqlarni o‘zlashtirish, malakalarining shakllanishi: mexanizmiga oid bilimlar, harakatlarni organizmga jismoniy, ruhiy ta’siri, biomexanikaga oid ma’lumotlar darsning mazmunini boyitadi, uning

qoniqarliligini orttiradi va bularning barchasi jismoniy madaniyat darsining mazmunini to‘rtinchi jihati sanaladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining samarasi yashiringan bo‘ladi.

Rejalashtirilgan o‘quv - tarbiyaviy ishlar amalga oshmoqdami yoki yo‘qligi joriy nazorat qilinib, pedagogik faoliyat keyinchalik qanday davom ettirilishiga oid tuzatishlar qilinadi, o‘qituvchi tomonidan lozim bo‘lgan yo‘riqnomalar tayyorlanadi. Umumiy ta’lim maktablarining o‘quvchilari jismoniy tarbiyasi dasturiga kiritilgan sport pedagogikasi fanlari (gimnastika, yengil atletika, harakatli va sport o‘yinlari, suzish, kurash)ni dars mazmunida va uning tuzilmasida qayd qilingan sport fanlarining xususiy tomonlarini hisobga olgan holda tashkillanishi maqsadga muvofiq. [3]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Balsevich V.K., Lubisheva L.I. Noviye texnologii formirovaniya fizicheskoy kulturi shkolnikov // Problemi sovershenstvovaniya fizicheskogo vospitaniya uchashixsya obsheobrazovatelnix shkol: Sb. rabot uchastnikov Mejdunarod. seminara /Pod obsh. red. V.I. Lyaxa i L.B. Kofmana. M., 1993. - S. 42-50
2. Gujalovskiy A.A. Etapnost razvitiya fizicheskix (dvigatelnix) kachestv i problema optimizatsii fizicheskoy podgotovki detey shkolnogo vozrasta: Avtoref. dis... dokt. ped. nauk. - M., 1979. - 26 s.
3. A.A.Asqarov. Jismoniy tarbiya va sport. Darslik. Namangan 2024. 198-200-betlar.
4. Alisher o‘g‘li A. A. et al. BOLALAR JISMONIY TARBIYASIDA QO‘LLANILADIGAN METODLARNING NAZARIY ASOSLARI //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 44. – C. 584-586.

BOSHLANG`ICH 4-SINF O‘QUVCHILARINI SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA JISMONIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINING SAMARADORLIGI VA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI VA METODIKASI

Asqarov Ahliddin Alisher o‘g‘li - University of Business and Science Maktabgacha-Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy tarbiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik mazmuni va va hususiyatlari yoritilgan bo‘lib bunda, tajriba-sinov natijalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Harakatchanlik, potensial imkoniyat, intensive, Aylanma

mashg‘ulot, uchish, chastota, komponent, biomexanik o‘zgarish, modda almashinuvi, gimnastika, kurash, yengil etletika, kognitiv, motivatsiya.

Pedagogik amaliyot davrida bilimli mutaxassisni tayyorlashda uning kasbiy soha (kompetensiya) va shaxsiy-kognitiv tarkib (xotira, idrok, tafakkur)iga murojaat qilinadi. Shuningdek, bo‘lajak o`qituvchilarni tayyorlash qo‘shimcha ravishda shaxsiy-psixologik (motivatsiya, o‘quv va kasbiy faoliyat natijalaridan manfaatdor bo‘lish, kasbiy o‘zlikni anglash, tashkilotchilik va boshqa) xislatlarni, fazilatlarni rivojlantirib borish taqozo etadi.

Ta’limning individual mazmuni aniq sharoitlarda bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligiga yuksak talablarni qo‘yadi. Bu nafaqat ta’lim jarayoniga, balki uni rejalashtirishga ham joriy etiladi. Bo‘lajak pedagoglar kasbiy kompetentliligini oshirishni kelajakka yo‘naltirish lozim. Kasbiy kompetentlilikni baholash, sinash va yaxshilash ta’lim xizmati sifatini oshirishning muhim elementlari hisoblanadi.

Yuqori malakali, kompetentli pedagoglar mashg‘ulotlarni shunchaki olib bormasdan, tarbiyalanuvchilarni mashg‘ulot davomida birgalikda ishlashga jalb etishlari lozim. Bu jarayonda ularda mustaqil fikrlash, tahlil o‘tkazish va xulosa qilish ko‘nikmasi singdirib boriladi. Bo‘lajak malakali pedagoglar siyosiy, iqtisodiy va jahonda yuz berayotgan barcha hodisalarni kuzatib borishlari kerak. Bu ulardagi kompetensiyalarning nazariy asoslarini hayotiy, real misollar bilan boyitadi. Shu sababdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy qobilyatlarini shakllantirishning mahsuldorligi qator shartlarga bog‘liq: jismoniy rivojlanish darajasi, o‘z-o‘zini anglashning yuksak darajasi, o‘z-o‘zini jismoniy qobiliyatini o‘zgartirish borasidagi shaxsiy tajribasi va boshqalar. Shu bois mashg‘ulotlar davomida har bir o‘quvchining shaxs sifatidagi xususiyatlarini hisobga olish va hamkorlikni shulardan kelib chiqib tashkillash zarur.

Individual yondashuv — bu o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olishni anglatadi. Har bir o‘quvchi o‘z jismoniy salohiyatiga, tana qurishiga, harakatlar tezligi va kuchiga qarab farqlanadi, shuning uchun individual yondashuv orqali ular o‘z salohiyatlarini eng yuqori darajada namoyish eta olishadi.

Quyida individual yondashuvni amalga oshirish uchun bir nechta metodikalar va tavsiyalar keltirilgan:

1. O‘quvchining jismoniy holatini baholash. Individual yondashuvni amalga oshirishda birinchi qadam har bir o‘quvchining jismoniy holatini tahlil qilishdir.

2. O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash. Har bir o‘quvchining ehtiyojlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ba'zilar o‘z mushak kuchini oshirishga ehtiyoj

sezadi, boshqalar esa tezlik yoki fleksibilitega koʻproq e'tibor berishi kerak. Individual mashqlarni tayyorlashda, oʻquvchining kuchsiz yoki rivojlanmagan sohalarini aniqlash (masalan, chidamlilik, kuch, koordinatsiya). Oʻquvchining yaxshi rivojlangan tomonlarini tan olish va ularni qoʻllab-quvvatlash. Misol uchun, agar bir oʻquvchi yaxshi yuguruvchi boʻlsa, unga chidamlilikni oshiradigan mashqlar taklif etilishi mumkin, agar boshqa bir oʻquvchi yaxshi sakrash yoki kuchli boʻlsa, unga koʻproq kuchli mashqlar va sakrashga oid mashqlar kerak boʻlishi mumkin.

Motivatsiya va ragʻbatlantirish — oʻquvchilarning jismoniy faoliyatga boʻlgan qiziqishini oshirish, mashgʻulotlarga qatnashishga undash va ularning individual yutuqlarini yanada yuqori darajaga koʻtarish uchun juda muhim omillardir. Oʻquvchilarga motivatsiya berish va ragʻbatlantirishni toʻgʻri yoʻnaltirish ularning samarali oʻqishini va jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi. Motivatsiya ikki turga boʻlinadi:

Ichki va tashqi motivatsiya

Ichki motivatsiya:	Oʻquvchining oʻzidan kelib chiqadigan istaklar, masalan, jismoniy salomatlikni yaxshilash, oʻz qobiliyatlarini sinab koʻrish yoki sportda yutuqlarga erishish istagi.
Tashqi motivatsiya:	Oʻquvchi uchun tashqi omillar, masalan, mukofotlar, baholar yoki musobaqalarda sovrinlar olish.

Samarali motivatsiya uchun bu ikki turdagi motivatsiyani birlashtirish mumkin. Oʻquvchiga ichki motivatsiyasini rivojlantirishga yordam berish, uning oʻz maqsadlariga erishish istagini oshiradi. Tashqi motivatsiya esa bir vaqtning oʻzida oʻquvchini ragʻbatlantiradi. Motivatsiya va ragʻbatlantirishni amalga oshirayotganda, oʻquvchining ehtiyojlariga moslashuvchan boʻlish muhimdir. Agar oʻquvchi biror narsa haqida qiziqish sezmasa, uning qiziqishini oshirish uchun yangi usullarni qoʻllash zarur. Oʻquvchining sevimli sport turi yoki mashgʻulotini aniqlash va shu asosda ragʻbatlantirish. Agar oʻquvchi bir xil mashgʻulotdan zeriksa, yangi oʻyin yoki sport turini taklif etish.

Motivatsiya va ragʻbatlantirish oʻquvchilarning jismoniy faoliyatga boʻlgan qiziqishini oshirish va ularning muvaffaqiyatlariga erishish uchun zarurdir. Buni amalga oshirishda oʻquvchilarning ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ijobiy fikrlar aytish, maqsadlar belgilash, oʻyinlar va musobaqalar tashkil etish, va kichik yutuqlarni nishonlash juda samarali boʻladi. Bu usullar oʻquvchilarda jismoniy faollikni oshirishga, ularni muvaffaqiyatga erishishga va oʻz salohiyatlarini toʻliq namoyish etishga yordam beradi.

Har bir o‘quvchiga individual ravishda motivatsiya berish zarur. O‘quvchiga o‘ziga maqsad qo‘yishga yordam berish, bu uning o‘z rivojlanishini kuzatish va natijalariga erishishga undaydi. Mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning motivatsiyasini oshiradi.

Individual yondashuv orqali o‘quvchilarning jismoniy salohiyatini oshirishda har birining xususiyatlariga mos ravishda mashqlarni tanlash va shaxsiy rivojlanish uchun yordam berish juda muhimdir. Bu o‘quvchilarning jismoniy holatiga, salohiyatiga va qobiliyatlariga qarab o‘zgaradigan, doimiy ravishda yangilanadigan va moslashtirilgan yondashuvni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Balsevich V.K., Lubisheva L.I. Noviye texnologii formirovaniya fizicheskoy kulturi shkolnikov // Problemi sovershenstvovaniya fizicheskogo vospitaniya uchashixsya obsheobrazovatelnix shkol: Sb. rabot uchastnikov Mejdunarod. seminara /Pod obsh. red. V.I. Lyaxa i L.B. Kofmana. M., 1993. - S. 42-50
2. Gujalovskiy A.A. Etapnost razvitiya fizicheskix (dvigatelnix) kachestv i problema optimizatsii fizicheskoy podgotovki detey shkolnogo vozrasta: Avtoref. dis... dokt. ped. nauk. - M., 1979. - 26 s.
3. A.A.Asqarov. Jismoniy tarbiya va sport. Darslik. Namangan 2024. 198-200-betlar.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING CHAQQONLIK SIFATLARINI TARBIYALASH

B.G‘.Boyboboyev - Namangan davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chaqqonlik sifatlarini tarbiyalash metodi va vositalarini qo‘llashda mashg‘ulot tuzilishi xamda mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: chaqqonlik, yuklama, vosita, shiddat, mashg‘ulot, mashq, o‘yin, stereotip, faollik, malaka va ko‘nikma.

O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalarda xar tamonlama yuksalish yuz berayotgani ma’naviy va siyosiy o‘zgarishlar umuminsoniy qadriyatlar yangilanish, insonning barcha shaxsiy extiyojlari, talablari va ma’nfaatlari birinchi o‘ringa ko‘tarilayotganini, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodlarning ma’naviy-axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas.

Respublikamizda bolalarni jismoniy tarbiyalashning ilmiy asoslangan zamonaviy tizimlari, shakl va uslublari joriy etilgan bo‘lib, bu soxada muhim vazifalar belgilangan.

Boshlang‘ich ta’limdagi jismoniy tarbiya dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarda bilim ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, ularda muhim harakat elementlarining asosini yaratishni nazarda tutadi. An’anaviy usulda olib boriladigan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ma’lum bir jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish, yoshga doir bilim ko‘nikma va malaka qaratilganligi bilan tavsiflanadi. O‘quv mashg‘ulotlari davomida bolalardagi jismoniy imkoniyatlar darajasi turli bo‘lganligi sababli o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan alohida yoki ularni guruhlarga ajratgan holda mashg‘ulotlarini olib borishi mumkin.

O‘quvchilarning qobiliyatlarini namoyon etishga qaratilgan, biroq mashg‘ulotlar barcha uchun umumiy bo‘lgan ta’lim bolalarning yetarli darajada rivojlanishini kafolatlay olmaydi. Buni, albatta, o‘quvchilarning turli xil jismoniy tayyorgarlikka ega ekanligi bilan izohlanadi.

– Jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga quyidagilarni o‘rgatish vazifasi yuklatilgan:

– o‘quvchining barkamol jismoniy rivojlanishini ta’minlash, o‘quv faoliyati bilan aloqador jismoniy yuklamalarga qay darajada tayyor ekanligini aniqlash;

– o‘quvchilarda kunlik jismoniy yuklamalarga tayyorlik ko‘nikma va malaka shakllantirish.

– muayyan vaziyatlarda taqozo etiladigan ruhiy va jismoniy sifatlarni shakllantirish.

Har qanday harakat biror-bir aniq vazifani hal qilishga qaratilgan bo‘lib balandroq sakrash, to‘pni ilib olish, tez yugirish va boshqalar. Harakat vazifasining murakkabligi ko‘pgina sabablar bilan, jumladan, bir vaqtda va ketma-ket bajariladigan harakatlarning o‘zaro uyg‘unligiga (harakat koordinatsiyasiga) bo‘lgan talablar bilan belgilanadi. Harakatlarning koordinatsion murakkabligi chaqqonlikning birinchi o‘lchovi hisoblanadi.

Agar harakatning makon, vaqt va kuch xususiyatlari harakat vazifasiga mos kelsa, ya’ni harakat yetarli darajada aniq bo‘lsa, harakat vazifasi bajariladi. Harakatning aniqligi tushunchasi harakatning makon, vaqt va kuch xususiyatlari aniqligidan iborat. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o‘lchovidir.

Hayotda va jismoniy tarbiyada duch kelish mumkin bo‘lgan barcha harakatlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- Nisbatan stereotip harakatlar.

- Nostereotip harakatlar.

Yengil atletika yo‘lakchasida yugurish, yengil atletikadagi uloqtirish va sakrashlar, gimnastika mashqlari, tekis joyda yurish birinchi guruhga; sport

o‘yinlari, yakkama-yakka bellashuv, badba va boshqalar ikkinchi guruhga misol bo‘ladi.

Stereotip harakatlardagi aniqlik, jumladan, kishi bu harakatlarni bajarishni qanchalik uzoq o‘rganganiga bog‘liq. Agar inson o‘zi uchun yangi harakatlarni birdaniga bajara boshlasa, bu harakatlarni o‘zlashtirib olishga ko‘proq vaqt sarflagan kishiga qaraganda chaqqonroq hisoblanadi. Shuning uchun harakatlarni o‘zlashtirib olishga sarflanadigan vaqt chaqqonlik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Nostereotip harakatlardagi chaqqonlik harakatni o‘zgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda tez o‘zgartira bilishda namoyon bo‘ladi. Bunda chaqqonlik kishining o‘z harakatini maqsadga muvofiq tarzda qayta qurishi uchun sarflagan vaqti bilan ifodalanadi.

Chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlar darsi mashg‘ulotlarning asosiy qismi boshlanishida va tayyorlov qismida bajariladi. Charchagan holatda chaqqonlikning rivojlanishi kam samarali bo‘ladi.

Mushaklarning tabaqalashtirilgan holda kuchlanishini takomillashtirish uchun quyidagi mashqlarni tavsiya qilinadi:

- Joyidan uzunlikka sakrash, joyidan ko‘p marta sakrash, berilgan masofaga 10 hatlab sakrash.

- Ko‘rsatilgan balandlikka sakrab o‘tish.

-Tennis, basketbol va voleybol to‘plarini ko‘rsatilgan masofadagi nishonga tekkizish.

Fazoda tabaqalashtirish qobiliyatini mukammallashtirish uchun:

-Harakatlar ko‘lamini yaxshilash uchun ko‘zlarni yumgan holda berilgan burchakkacha byumlar va byumlarsiz qo‘llarni ko‘tarish.

- Muayyan miqdordagi qadamlarni qayta bosish, muayyan masofani (10, 20, 50, 60, 100 m) aylanishlar.

Vaqtga harakatlarni tabaqalashtirish uchun mashqlar:

- Har xil harakatlarni (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, umumrivojlanuvchi mashqlar) qat’iy belgilangan vaqtda bajarish.

- Berilgan vaqtda erkin mashqlar kombinatsiyasini bajarish.

- Kuch, tezlik, aniqlik mashqlarini ko‘p marta takrorlash.

Barcha mashqlar har xil dastlabki holatlardan, har xil yo‘nalishlar va tekisliklarda, har xil holatlarda bajariladi.

Muvozanat vazifalarini mukammallashtirish uchun quyidagi mashqlar tavsiya qilinadi:

- Har xil balandlikda cheklangan maydonda muvozanatni yo‘qotgunga qadar qo‘llar va oyoqlar erkinligining har xil holatlari bilan, yumuq va ochiq ko‘zlar bilan bir oyoqda turish.

- Gimnastika hodasida, narvonda byumlar va byumlarsiz turli-tuman mashqlar.

- Ikkala yoki bir oyoqda o‘yinlar, estafetalar, to‘siqlar chizig‘ining unsurlari bilan muvozanatni saqlab turish;

- Turgan joyda ko‘p marta aylangandan keyin yumuq ko‘zlar bilan har xil uzunlikdagi kesmalardan (yurib) o‘tish.

Chaqqonlikni tarbiyalash, birinchidan, koordinatsion jihatdan murakkab harakatlarni o‘zlashtirib olish qobiliyatini tarbiyalash va, ikkinchidan, harakat faoliyatini to‘satdan o‘zgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda qayta qurish qobiliyatini tarbiyalashdan iboratdir.

Mashg‘ulotlarda chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar nisbatan tez charchashga olib keladi, Ayni vaqtda bu mashqlarni bajarish mushaklar aniq sezib turishini talab etadi va charchash sodir bo‘lganda kam samara beradi. Shuning uchun chaqqonlikni tarbiyalashda nisbatan to‘liq tiklanish uchun yetarli bo‘lgan dam olish oraliqlaridan foydalaniladi. Mashqlarni esa oldingi yuklamalardan keyin charchash alomatlari deyarli qolmagan vaqtlarda bajariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғ‘рисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

2. Вазирлар Маһкамасининг 1996 йил 16 январдаги 27-сонли «Ўзбекистон футболини ривожлантиришнинг ташкилий асослари ва принципларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғ‘рисида» қарори.

3. Мирзиёев. .Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т. Ўзбекистон 2017

4. Абдуллаев А. “Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. Дарслик. (1-жилд) Т. “Наврўз” , 2017. – 392 бет.

5. Р.С.Саломов Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Дарслик. Т.: «ИТА-ПРЕСС», 2014. – 296 бет.

.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA JISMONIY TARBIYA YO‘RIQCHISINING O‘RNI

Karimov Shamsiddin Xasanboy o‘g‘li - Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani, 3-umumta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi bu – bola jismoniy tarbiyasi shakllanishining umumiy qonuniyatlaridan saboq beruvchi

fandir. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va uning o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z: Maktabgacha ta’lim, jismoniy tarbiya, predmet, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo‘riqchisi – bu bolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik figuradir. Ular nafaqat ertalabki badantarbiya mashqlarini tashkil etadi, balki butun kun davomida jismoniy faollikni rejalashtiradi, bolalarning harakat faoliyatini tahlil qiladi va uni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi bolalarning yoshi, jismoniy rivojlanish darajasi va sog‘lig‘i holatiga qarab mashg‘ulotlar mazmunini tanlaydi. Bu jarayonda u metodik qo‘llanmalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, sport o‘yinlari va musiqali harakat mashqlaridan foydalanadi. Shu bilan birga, tarbiyachilar va ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarning kundalik jismoniy faolligini oshirish choralarini ko‘radi.

Bola hayotining dastlabki bosqichlarida jismoniy faollik uning umumiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, yo‘riqchining faoliyati bolaning har tomonlama rivojlanishi, ayniqsa, sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishi uchun zamin yaratadi. U sport-sog‘lomlashtiruvchi ishlar, chiniqtirish mashqlari, to‘g‘ri ovqatlanish va dam olish tartibiga rioya etish orqali bola organizmini chiniqtiradi.

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi shuningdek bolalarning yassi oyoqlik, noto‘g‘ri gavda holatlari kabi muammolarining oldini olish bo‘yicha maxsus mashqlarni tashkil qiladi. Uning vazifasi – har bir bolaning individual imkoniyatlariga mos holda jismoniy yuklamalarni belgilash va bu orqali ularning sog‘lom o‘sishini ta’minlashdir.

Yo‘riqchi ishining muvaffaqiyatli kechishi uchun u har bir bola bilan alohida yondashuvni tanlashi, bolaning jismoniy holatini doimiy ravishda nazorat qilishi, unga nisbatan shaxsiy yondashuv asosida mashqlarni tanlashi lozim. Shuningdek, bolalarda jismoniy tarbiyaga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantirish ham uning asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya yo‘riqchisi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni o‘z faoliyatida qo‘llashi, ilg‘or tajribalarni joriy etishi talab qilinmoqda. Bu esa nafaqat bolalarning sog‘ligini mustahkamlash, balki ularni harakat madaniyatiga o‘rgatish, ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarda sport mashg‘ulotlariga muhabbat, ularning natijalariga, sportchilarning yutuqlariga qiziqishini tarbiyalash lozim. Jismoniy tarbiya jarayonida axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishning katta imkoniyatlari mavjud. Mashqlarni bajarish jarayonida bolalarda xarakterning ijobiy

xususiyatlari (uyushganlik, intizomlilik, kamtarlik, ko‘ngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlari – halollik, haqqoniylik, o‘rtoqlik hissi, o‘zaro yordam, jamoada shug‘ullanish malakasi, jismoniy inventarni ehtiyot qilish, topshiriqni mas’uliyat bilan — botirlik, qat’iylik, o‘z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yen- gishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalarni namoyon qilish uc- hun juda qulay sharoit yaratiladi. To‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya bolalarning aqliy o‘si shiga yordam beradi, chunki asab tizimi va boshqa organ hamda tizimlarning normal faoliyati uchun qulay sharoit yaratiladi, bu esa yaxshiroq idrok etish va eslab qolishga yordam beradi. Bolalarda barcha ruhiy jarayonlar (idrok, tafakkur, xotira, xayol va boshqalar), shuningdek, tafakkur jarayonlari (kuzatish, taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish va boshqalar) rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi maktabgacha ta’lim muassasasida sog‘lom avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Uning kasbiy mahorati, bolalarga nisbatan samimiy munosabati va o‘z ishiga bo‘lgan yondashuvi jismoniy tarbiyaning sifatli tashkil etilishi uchun zarur asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodikova Sh. "Preschool Pedagogy". "Sources of Thought". T: 2013, - 330 p.
2. Kadyrova F., Toshpulatova Sh., Azamova M. "Preschool Pedagogy" - T., "Spirituality". 2019. 5. Journals "Methodology of preschool education". -T:, numbers 2018

11-17 YOSHLI MAKTAB O‘QUVCHI QIZLARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI FUTBOL SPORT TURI ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Karimov Fazliddin Jamoliddin o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, 11-17 yoshdagi qizlar uchun jismoniy faollik va sport turlari, ularning umumiy rivojlanishi, salomatligi va psixologik holatiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Ayollar futboli, nafaqat sportni sevuvchilar uchun, balki barcha yoshdagi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita sifatida ko‘rilmoqda. Tadqiqot davomida 11-17 yoshli maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini ayollar futboli orqali rivojlantirishning pedagogik shartlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiya,

pedagogik shart-sharoitlar.

Annotation. The importance of physical education and sports is increasingly recognized today. Physical activities and sports, particularly for girls aged 11-17, have a significant impact on their overall development, health, and psychological well-being. Women's football is viewed not only as a sport for enthusiasts but also as an effective means of improving physical fitness for girls of all ages. This study analyzes the pedagogical conditions for developing the physical fitness of schoolgirls aged 11-17 through women's football.

Keywords: physical training, physical development, physical education, pedagogical conditions.

Kirish. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat ta’lim muassasalari oldiga maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasi, ularda zarur jismoniy sifatlar, harakat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish bilan bog‘liq yangi masalalarni qo‘ymoqda, bu esa o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi asosida o‘zlarining jismoniy rivojlanish asoslarini yaratadi. Jismoniy tarbiya jarayonida shaxsning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning optimal darajasini ta’minlashdan iborat bo‘lgan dolzarb vazifalardan biri hal qilinishi kerak. Sog‘lom shaxs organizmining hozirgi holatini belgilovchi asosiy belgilardan biri jismoniy tayyorgarlik darajasi bo‘lib, u mintaqaviy, jinsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tayyorgarlikning model statistik ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqilgan me’yorlar shkalasi bo‘yicha baholanadi.

Shunday qilib, bugungi kunda o‘sib kelayotgan avlodni jismoniy tarbiyalash va rivojlantirish muammosi ustuvor pedagogik vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Tadqiqotning obyekti umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti ayollar futboli bilan qo‘shimcha shug‘ullanish orqali 11-17 yoshli maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.

Ishning maqsadi: 11-17 yoshli maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy rivojlanish holatini o‘rganish, ayollar futboli bilan qo‘shimcha shug‘ullanish orqali maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari samaradorligini nazariy asoslash va tajriba-sinov yo‘li bilan tekshirishdan iborat.

Tadqiqot farazi: maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi quyidagi hollarda sezilarli darajada oshishi taxmin qilinmoqda:

- jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida ayollar futboli bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlardan foydalanishning dastlabki nazariy va uslubiy qoidalari asoslangan;
- ayollar futboli bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar dasturi aniqlangan va

asoslangan.

Tadqiqotning vazifalari:

11-17 yoshli o‘quvchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik holatini zamonaviy me’yorlarni hisobga olgan holda o‘rganish;

11-17 yoshli o‘quvchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini kompleks nazorat qilish.

Kompleks monitoring natijalarini hisobga olish asosida o‘quvchilar uchun ayollar futboli bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish va o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligiga ayollar futboli bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar samaradorligini tajriba-sinov yo‘li bilan tekshirish.

Tadqiqotning metodologik asosini jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi (V.K. Balsevich, L.I. Lubisheva, L.P. Matveev), maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalashning zamonaviy pedagogik nazariyalari va texnologiyalari (B.A. Ashmarin, Ye.A. Korotkova, V.I. Lyax, I.V. Manjeley, A.P. Matveev, V.V. Ponomarev, L.K. Sidorov), bolalar, o‘smirlar va yoshlarning jismoniy salomatligi holatini monitoring qilish (G.N. Apanasenko, P.A. Vinogradov, A.A. Gujalovskiy, S.I. Izaak) sohasidagi olimlarning ishlari tashkil etdi.

Maqolaning asosiy materiali bayoni. Nazariy manbalarni tahlil qilish natijasida biz pedagogika fanida "jismoniy barkamollik - bu muhim maqsadlarga erishishga qaratilgan insonning jismoniy fazilatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishning shartli optimal darajasi, shaxsning garmonik rivojlanishining eng muhim xususiyatlaridan biri" degan tushunchani aniqladik. Jismoniy yetuklik insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligi sohasidagi jamiyat yutuqlarini tavsiflovchi umumiy madaniyatning bir qismi sifatida jismoniy madaniyatning holatini aks ettiradi.

Jismoniy tayyorgarlik shaxsning jismoniy ta’limi va tarbiyasi natijasidir. Jismoniy tayyorgarlik deganda, bolada jismoniy rivojlanish, harakat ko‘nikma va malakalari, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bo‘yicha ma’lum darajadagi kompetentlikning mavjudligi tushuniladi. Tadqiqotchilar tomonidan jismoniy rivojlanishning me’yoriy ko‘rsatkichlari va ularni bajarish sifatiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan.

"Jismoniy tayyorgarlik" tushunchasi jismoniy rivojlanishning ideal maqsadini aks ettiruvchi "jismoniy barkamollik" tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Jismoniy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari - umumiy jismoniy rivojlanish, salomatlik, jismoniy tayyorgarlikning barcha tomonlarini uyg‘unlashtirish.

Olimlar J.K.Xolodov, V.S.Kuznetsov, L.P.Matveev, A.A.Axmatgatin va boshqalar jismoniy tayyorgarlik deganda "jismoniy sifatlarni tarbiyalash va hayotiy muhim bo‘lgan mehnat, harbiy yoki boshqa faoliyat uchun amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va harakat amallari" [7, 84-bet].

Sport atamalarining izohli lug‘atida "jismoniy tayyorgarlik - jismoniy tarbiya, sportda jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlarni) tarbiyalash bilan bog‘liq tayyorgarlikning tomonlaridan biri" tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan [11, 352-b.].

Yu.I. Smirnov jismoniy tayyorgarlikni "organizmning funksional imkoniyatlari, uning o‘ziga xos va umumiy ish qobiliyatining yuqori darajasi, sport ko‘nikmalari, malakalari va sport bilimlarining erishilgan mukammallik darajasida ifodalanadigan tayyorgarlikning kompleks natijasi" deb talqin qiladi [10, 47-bet].

Ko‘pgina mualliflar Yu.I. Smirnovning fikriga qo‘shiladilar va jismoniy tayyorgarlikning haqiqiy ko‘rsatkichini ma’lum bir natija deb hisoblaydilar. Bunda ular natija, binobarin, jismoniy tayyorgarlik darajasi ham ko‘p omilli hodisa ekanligini qayd etadilar. Bunda turli tarkibiy qismlar, shu jumladan fiziologik tarkibiy qismlar ham sezilarli og‘irlikka ega bo‘ladi, bu ayniqsa jismoniy sifatlar - chidamlilik va kuchning namoyon bo‘lishiga taalluqlidir.

"Pedagogik shart-sharoitlar" tushunchasining mohiyati ko‘plab olimlarning asarlarida ko‘rib chiqilgan: Yu. K. Babanskiy, V. I. Zagvyazinskiy, I. Ya. Lerner, V. G. Maksimov. Masalan, I.Ya. Lerner pedagogik shart-sharoitlarni "muvaffaqiyatli ta’lim va tarbiyani ta’minlovchi omillar" deb ta’riflagan [5, 75-bet]. Bizning tadqiqotimizga nisbatan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini jismoniy rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari deganda biz jismoniy tarbiya va sport faoliyati jarayonini amalga oshirishga bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayonining tashqi va ichki holatlari to‘plamini tushunamiz. Pedagogik shart-sharoitlar o‘quvchi qizlarning jismoniy rivojlanishini pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi.

"Ayollar futbolini rivojlantirish dasturi - 2020"da ko‘rsatilgan RFI ma’lumotlariga ko‘ra, Rossiyada hozirda 30 mingdan ortiq ayol futbol bilan shug‘ullanadi, ulardan 11 ming nafari o‘yinchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va 200 dan ortiq kishi professional futbolchi hisoblanadi. Ayni paytda Rossiya ayollar ligasida jami 80 ta klub bor. RFS ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilga kelib futbol bilan shug‘ullanadigan ayollar soni to‘rt-besh baravar ko‘payishi kerak [1, 27-bet].

V. V. Pauvning fikricha, "Rossiya ayollar futboli mustahkam poydevorga ega bo‘lgan normal (to‘g‘ri) piramida qurishni yakunlashi kerak, uning asosi ommaviylik, o‘yinga va ayollar futboli bilan shug‘ullanishga jalb qilinganlarning ko‘pligi bo‘ladi" [9, 47-bet].

Yuqori sinf o‘quvchi qizlarining jismoniy kamol topishiga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash uchun jamiyatning sog‘lom millat garovi bo‘lgan jismonan baquvvat va sog‘lom avlodga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga oldik. Shu sababli, ta’lim muassasasi va Krasnoyarsk o‘lkasining "Yenisey" JFK jamoasi hamkorligi asosida ayollar futboli orqali 11-17 yoshli maktab o‘quvchi qizlarining

jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish samarali deb hisoblaymiz.

Aytish kerakki, Krasnoyarsk o‘lkasining "Yenisey" jamoasi 2011-yil iyul oyida tashkil etilgan. Jamoa tarkibiga Krasnoyarsk shahri va Krasnoyarsk o‘lkasi BO‘SM tarbiyalanuvchilari kiradi. Jamoaning asosini Sibir federal universiteti, QDPU va Krasnoyarsk shahridagi boshqa ta’lim muassasalari talabalari tashkil etadi. "I divizion ayollar jamoalari o‘rtasidagi futbol bo‘yicha Rossiya chempionati" musobaqalarida ishtirok etgan birinchi yildan beri "Yenisey" JFK jamoasi 2011, 2012, 2013 va 2014-yilgi mavsumlarda Sibir federal okrugi ayollar jamoalari o‘rtasidagi musobaqalarda g‘olib bo‘lgan.

"Yenisey" "I divizion ayollar jamoalari o‘rtasida futbol bo‘yicha Rossiya chempionati" musobaqasining finalida qatnashish huquqini qo‘lga kiritdi. "Yenisey" jamoasi "1-divizion ayollar jamoalari o‘rtasida futbol bo‘yicha Rossiya chempionati"ning final musobaqalarida ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdi.

"1-divizion ayollar jamoalari o‘rtasida futbol bo‘yicha Rossiya birinchiligi" musobaqasida 1-o‘rinni egallash "Yenisey" JFKga keyingi mavsumlarda musobaqalarda qatnashish huquqini berdi.

"Yuqori divizion ayollar jamoalari o‘rtasidagi Rossiya chempionati." Ayollar jamoasining 15 nafar o‘yinchisi Rossiya Federatsiyasining KMS bo‘ldi. Ammo moliyaviy inqiroz jamoaga qo‘shilish va yuqori darajadagi musobaqalarda ishtirok etish imkonini bermadi.

Biz tomonimizdan 11-17 yoshli o‘quvchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkazildi. Tajriba boshida va yakunida sinaluvchilarda shu yosh davri uchun me’yoriy jismoniy tayyorgarlik testlari ko‘rsatkichlari o‘lchandi va baholandi.

Tadqiqotimizning ta’kidlovchi bosqichida biz 11-17 yoshli o‘quvchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi barcha testlar bo‘yicha past ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi va o‘rtachadan past darajada ekanligini aniqladik.

Shakllantiruvchi tajriba davomida ayollar futboli bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar dasturi ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazildi.

Dasturning maqsadi 11-17 yoshli maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini ta’minlash, yuqori toifali futbolchi qizlarni tayyorlash uchun sportga iqtidorlilarni tanlash, sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini shakllantirishdan iborat. Dasturning dolzarbligi va yangiligi shundaki, dastur o‘quv jarayonini o‘quvchi qizlarning individual xususiyatlariga moslashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim oluvchining sport salohiyatini aniqlash uchun sharoit yaratadi. Ayollar futbolini o‘qitishning samaradorligi o‘qitish dasturi, murabbiy tomonidan qo‘llaniladigan vosita va usullarning o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mosligi bilan bog‘liq.

Ushbu ta’lim dasturi uchta tayyorgarlik bosqichini o‘z ichiga oladi:

-o‘qitishning sport-sog‘lomlashtirish bosqichi (11-12 yosh).
-boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi (13-15 yosh).
-o‘qitishning o‘quv-mashg‘ulot bosqichi (11-17 yosh).

Tayyorgarlikning har bir bosqichi ayollar futbolini o‘qitishning alohida dasturi, birgalikda esa ayollar futbolini o‘qitishning kompleks dasturi hisoblanadi.

Dastur vazifalari:

-ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
-ayollar futboli bilan shug‘ullanish motivatsiyasini rivojlantirish;
-ta’lim oluvchining hissiy farovonligini ta’minlash;
-o‘quvchilarni jismoniy tarbiya yutuqlari bilan tanishtirish;
-jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish va jismoniy salomatlikni mustahkamlash;
-iqtidorli o‘quvchi qizlarni viloyatning o‘smirlar va qizlar terma jamoalariga qabul qilish.

Nazorat tajribasini o‘tkazish davomida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish dinamikasi tahlil qilindi. Aniqlangan jismoniy tayyorgarlik darajasining o‘sishi jismoniy tayyorgarlik darajasining oshganligidan dalolat beradi.

Xulosalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda an’anaviy mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasining samaradorligi pastligi aniqlandi. Ayollar futboli bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar dasturidan foydalanish sezilarli darajada o‘sishga yordam beradi. Biz ishlab chiqqan dasturning samaradorligi ijobiy dinamikani aks ettiruvchi nazorat testlari yordamida isbotlandi. Matematik-statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida tajribada olingan chiqish qiymatlari o‘rtasidagi farqlar ishonchli hisoblanadi, bu t-Styudent mezoni bo‘yicha hisob-kitoblar bilan isbotlangan.

Ayollar futboli bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar dasturini amalga oshirishdan kutilayotgan natija - o‘quvchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va faol, ijodkor shaxsni shakllantirish, qadriyat sifatida jismoniy madaniyat, o‘z jismoniy takomillashuvining usullari va yo‘llari to‘g‘risida o‘z tasavvurlarini shakllantirish.

Adabiyotlar:

1. Авладеев, А. А. Периодизация истории российского футбола // Молодой ученый. — 2014. — №19. — С. 631-636. — URL https://moluch.ru/archive/78/13597/ (дата обращения: 07.07.2018).
2. Иглина, А.И. Проблемы и тенденции развития отечественного женского футбола (на примере женского футболного клуба «Академия футбола» / А.И. Иглина, М.П. Бондаренко, С.В. Маврин //Физическое воспитании и тренировка. – 2017. – № 3 (21). – С. 103—108.
3. Концепция Федералной целевой программы «Развитие физической культуры и спорта в Российской Федерации на 2006-2015 годы» (распоряжение

Правителства Российской Федерации от 15.09.2005, № 1433-р).
4. Комков, А. Г. Организационно-педагогическая технология формирования физической активности школников / А. Г. Комков, Е. Г. Кириллова // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2002. – № 1. – С. 2–4.
5. Лубышева, Л. И. Спортивная культура как учебный предмет общеобразовательной школы / Л. И. Лубышева // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2004. – № 4. – С. 2-6.
6. Лупандина, Н.А. Физическая подготовленност школников г. Москвы. В кн.: «Ученые записки» т 1, 182.6 Физическое воспитание и спорт. Вып 4. – 2006. – 176 с.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BADANTARBIYANING AHAMIYATI

Karimov Fazliddin Jamoliddin o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim muassasalarida badantarbiya bolalarning jismoniy, psixologik va aqliy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yosh davrida bola organizmida sodir bo‘ladigan o‘sish va rivojlanish jarayonlari jadal kechadi. Shu sababli badantarbiya orqali bolalarning harakat faolligini oshirish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish juda muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, badantarbiya, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida badantarbiya mashg‘ulotlarining tutgan o‘rni nihoyatda muhimdir. Bu yoshdagi bolalarda nafaqat jismoniy, balki psixologik, ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalar shakllanadi. Badantarbiya esa bu jarayonlarning har birida faol ishtirok etadi.

Badantarbiyaning asosiy vazifalari

- Bolaning jismoniy sog‘lig‘ini mustahkamlash
- Harakat koordinatsiyasini rivojlantirish
- Mehnatga va intizomga o‘rgatish
- Guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish
- Ruhiy barqarorlikni ta’minlash

Badantarbiya mashg‘ulotlarining turlari

Mashg‘ulot turi	Maqsadi	Misollar
Ertalabki gimnastika	Tanani uyg‘otish, quvvat berish	Yengil cho‘zilish, yugurish
Sport o‘yinlari	Jamoaviy ishlash, chaqqonlikni oshirish	To‘p bilan o‘yinlar, estafeta o‘yinlari
Dam olish mashqlari	E’tiborni tiklash, charchoqlarni yo‘qotish	Nafas mashqlari, yoga elementlari
Musiqa bilan harakat mashqlari	Ritmni sezish va koordinatsiyani rivojlantirish	Raqslar, qo‘shiq bilan mashqlar

Badantarbiya orqali bolalarning rivojlanishi

Badantarbiya bolalar hayotida faqatgina jismoniy rivojlanishni emas, balki quyidagi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi:

- Ijtimoiy rivojlanish: Bolalar jamoada ishlash, do‘stlashish va bir-biriga yordam berishni o‘rganadi;
- Intellektual rivojlanish: Ko‘p harakatlar diqqatni jamlash, tez fikrlash va muvozanatni boshqarish talab qiladi;
- Axloqiy rivojlanish: Qoidalarga amal qilish, navbat kutish, hurmat ko‘rsatish kabi odatlar shakllanadi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim muassasalarida badantarbiya nafaqat sog‘lom avlodni shakllantirishda, balki barkamol inson tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi. Bu mashg‘ulotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlab, ularni maktabga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxkamdjonov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.
2. Nuriddinova M.M. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo‘riqchilari uchun me’yoriy hujjatlar majmui». -T.: “Muxarrir”, 2013.
3. Fayzullayeva M. va boshq. “Sog‘ tanda-sog‘lom aql”. T.: 2014
4. Usmonxo‘jayev T. va boshq. “500 harakatli o‘yinlar”. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2014.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH

Umaraliyev Dadaxon Usmonqul o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil qilishning asosiy yo‘nalishlari, metodik yondashuvlar va o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan uslublar tahlil qilingan. Jismoniy tarbiya darslarining bolalar salomatligini mustahkamlashdagi o‘rni, ularda harakat faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, jismoniy tarbiya, samaradorlik, harakat faolligi, sog‘lomlashtirish, metodika.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ularning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur yosh davrida bolalarda harakatga ehtiyoj yuqori bo‘ladi, shu bois jismoniy tarbiya darslarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Darslarda interfaol usullardan, o‘yin elementlari va sog‘lomlashtiruvchi mashqlardan foydalanish bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shuningdek, dars jarayonida baholashning rag‘batlantiruvchi shakllaridan foydalanish, jamoaviy va individual ishlarni uyg‘unlashtirish, xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya etish muhim sanaladi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy mahorati va innovatsion yondashuvi darslarning samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Tajriba guruhiga qo‘llanilgan metodika

Quyidagi metodika boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishini yaxshilash, harakatga bo‘lgan qiziqishini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan. U 3 oylik davr mobaynida tajriba guruhida sinovdan o‘tkazilgan (1-jadvalga qarang).

1. Har bir darsga sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalish berish.

2. Harakatli o‘yinlardan keng foydalanish.

3. Darslarda individual yondashuvni qo‘llash.

4. Nafas olish mashqlarini tizimli ravishda joriy etish.

5. Egiluvchanlik va muvozanatni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni kiritish.

6. Har bir mashg‘ulotda baholash va tahlil asosida takomillashtirishni amalga oshirish.

1-jadval

Haftalik namunaviy mashg‘ulotlar rejasi

Hafta	Mashg‘ulot yo‘nalishi	Asosiy mashqlar
1-hafta	Tanishtiruv va umumiy rivojlantiruvchi mashqlar	Yugurish, qo‘l va oyoq mashqlari, o‘yinlar
2-hafta	Egiluvchanlik va muvozanat	Cho‘zilish mashqlari, “Tog‘ va daryo” o‘yini
3-hafta	Koordinatsiya va tezlik	Start yugurish, “Kim tez?” o‘yini
4-hafta	Kuch va chidamlilik	Oraliqli yugurish, “Estafeta” o‘yini
5-hafta	Raqobat ruhini shakllantirish	Jamoaviy o‘yinlar va bahslashuv mashqlari
6-hafta	Mashqlarni takrorlash va kuchaytirish	Oldingi mashqlar asosida kombinatsiyalash
7-hafta	Egiluvchanlik va nafas olish	Yoga elementlari, nafasmashqlari
8-hafta	Ko‘nikmalarni mustahkamlash	Harakatli o‘yinlar majmuasi
9-hafta	Yakuniy nazorat va tahlil	Sinov mashqlari, umumiy baholash

2-jadval

Tajriba boshi va tajriba oxirida TG hamda NG dan olingan test natijalari

Testlar	NG (boshlang‘ich)	NG (yakuniy)	TG (boshlang‘ich)	TG (yakuniy)
30 m yugurish (sek)	7.2	7.0	7.1	6.6
Sakrash masofasi (sm)	135	137	136	145
Egiluvchanlik (sm)	8.5	9.0	8.4	10.2

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida darslar samarali metodik asosda tashkil etilganda, o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Statistik tahlil uchun t-test qo‘llanildi va TG guruhida 30 m yugurish ko‘rsatkichlari $p < 0.05$ darajada ishonchli farqni ko‘rsatdi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil qilish o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash va ularni harakatli turmush tarziga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchining didaktik va metodik tayyorgarligi, darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishi asosiy omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. Jismoniy tarbiya va sport asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021.

3. Nurmatov A. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya. – Toshkent, 2019.

4. Xolmatov R. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2022.

UMUMTA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINI YENGIL ATLETIKA DARSLARIDA ULOQTIRISH TEXNIKASIGA O‘RGATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Umaraliyev Dadaxon Usmonqul o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida yengil atletika darslarida uloqtirish mashqlari texnikasini o‘rgatishning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Uloqtirish texnikasining bosqichlari, o‘quvchilarda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish va metodik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Yengil atletika, uloqtirish, texnika, maktab o‘quvchilari, metodika, jismoniy tarbiya, dars samaradorligi.

Zamonaviy odamning hayotida uloqtirishning utilitar ahamiyati yo‘qolganda va sog‘lomlashtiruvchi yugurish, gimnastika va sport o‘yinlariga ko‘proq e’tibor kuchaygan bir paytda, uloqtirish mashqlari ko‘proq maxsus mashg‘ulotlarda qo‘llanila boshladi. Biroq, ularning amaliy va o‘quv ahamiyati maktab o‘quvchilarini mehnatga, harbiy xizmatga va boshlang‘ich sport mashg‘ulotlariga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Uloqtirish bu koordinatsiya qobiliyatini rivojlantirishda, qo‘llar va yelkama-kamar mushaklarining tezkor-kuch sifatini, harakatlarning fazoviy aniqligi va reaksiya tezligining rivojlanishidagi tabiiy vositalardan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarga uloqtirishni o‘rgatish metodikasi bo‘yicha zamonaviy ilmiy va uslubiy adabiyotlarda katta miqdordagi amaliy materiallar to‘plangan. Ushbu ma’lumotlar uloqtirishni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun mashq qilishning an’anaviy tizimini taklif qiladi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik mutaxassislari musobaqalarda yoshlar va yangi sportchilarning natijasi ko‘p jihatdan bolalik va o‘smirlik mahoratiga bog‘liq bo‘lgan sport turlari bo‘yicha tayyorgarligidan qoniqishmaydi. Umumta’lim maktabida olib borilgan amaliy ishlarining tajribasi shuni ko‘rsatdiki, 5-6-sinf o‘quvchilari kelajakda texnika bilan to‘p uloqtirish mahoratiga ega emaslar, va shu bilan birga granata uloqtirishda tayyorgarlik darajasi ortda qolmoqda.

Ushbu holatlar olib borilgan izlanishlarning dolzarbligidan dalolat beradi va bizni 5-6-sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya darslarida o‘quv uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishga undadi.

Tadqiqot maqsadi maxsus jismoniy sifatlarni yo‘naltirilgan rivojlantirish orqali 5-6-sinf o‘quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida to‘pcha uloqtirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdir.

Kalit so‘zlar: Kuch, chidamlilik, milliy sport turlari, kurash, o‘zbek milliy sporti, jismoniy tarbiya, sport mashqlari, sport an’analari, sog‘lom turmush tarzi, badantarbiya, sport tayyorgarligi, mushak kuchi, energiya sarfi, ruhiy chidamlilik, sport musobaqalari, g‘alabaga intilish, O‘zbekiston sport merosi, milliy qadriyatlar, sport madaniyati, yoshlar tarbiyasi.

Kirish.Milliy sport turlari har bir xalqning madaniy merosi, an’analari va tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular nafaqat jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish vositasi, balki yoshlarni vatanparvarlik, jasorat, do‘stlik, o‘zaro hurmat va mardlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy sport turlari yosh avlodni jismonan chiniqtirish, kuch-g‘ayratini oshirish, chidamlilik va epchillikni rivojlantirishda katta o‘rin tutadi. Masalan, kurash insonda kuch, sabr-toqat va iroda kuchini shakllantirsa, ot sporti tezkorlik, jasorat

va qat’iyatni oshiradi. Milliy o‘yinlar esa jamoaviylik, ahillik va do‘stlik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirishda muhimdir.

Shuningdek, milliy sport turlari xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va madaniyatini asrash, uni keyingi avlodga yetkazishda katta o‘rin tutadi. Ular orqali sog‘lom turmush tarzi targ‘ib qilinadi, yoshlar orasida bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish va zararli odatlardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi.Ushbu maqolada kuch va chidamlilikning milliy sport turlariga bog‘liqligi haqida so‘z boradi.

Kuch va chidamlilikni rivojlantirishda sportning o‘rni. Sport inson hayotida salomatlikni mustahkamlash, jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish va kuch-g‘ayratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kuch va chidamlilik insonning kundalik hayoti va faoliyatida zarur bo‘lgan asosiy jismoniy sifatlardan hisoblanadi.

Kuch – insonning ma’lum bir vazifani bajarish uchun mushaklar orqali harakatlanish va qarshilikka bardosh berish qobiliyatidir. Chidamlilik esa uzoq vaqt davomida jismoniy yoki ruhiy bosimlarga bardosh bera olish, kuch-quvvatni tejab ishlatish qobiliyatidir.

Sport turlari aynan shu sifatlarni rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Chunki muntazam sport mashg‘ulotlari inson organizmidagi barcha mushak guruhlarini rivojlantirib, qon aylanish tizimini mustahkamlaydi, nafas olish faoliyatini yaxshilaydi va ruhiy barqarorlikni oshiradi.

Kuch va chidamlilikni rivojlantirishda eng samarali sport turlariga quyidagilar kiradi:

•Milliy kurash
•Og‘ir atletika
•Gimnastika
•Yugurish
•Suzish
•Velosport
•Ot sporti

Turli jismoniy mashqlar:(trenajyorlar, gimnastik jihozlar yordamida).

Sport orqali inson o‘z organizmini chiniqtirib, nafaqat jismoniy, balki ma’naviy kuch va iroda kuchiga ham ega bo‘ladi. Ayniqsa, yoshlarni sport bilan shug‘ullantirish ularning sog‘lom va kuchli bo‘lib voyaga yetishini ta’minlaydi, zararli odatlardan saqlaydi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga yordam beradi.

Milliy sport turlarining yoshlar tarbiyasidagi ro‘li. Milliy sport turlari yosh avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy sport turlari nafaqat jismoniy chiniqishga xizmat qiladi, balki yoshlarning ma’naviy, axloqiy va ruhiy yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim rol o‘ynaydi.

Avvalo, milliy sport turlari orqali yoshlar xalqining boy tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini o‘rganadi va ularga hurmat bilan qarashni o‘rganadi. Masalan, kurash, ot sporti, milliy o‘yinlar yoshlarni mardlik, jasorat, do‘stlik, sadoqat, adolat kabi ijobiy fazilatlarga yo‘naltiradi.

Shuningdek, milliy sport turlari yoshlarni:

Sog‘lom turmush tarziga o‘rgatadi;

Mehnatsevarlik va intizomlilikka undaydi;

Jismoniy chiniqish va sog‘lom fikrlashga yordam beradi;

Jamoaviylik va hamkorlik ruhini tarbiyalaydi;

Raqobatbardoshlik va g‘alabaga ishonchni oshiradi;

Vatanni sevish va uni himoya qilish ruhida tarbiyalaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy madaniyatlar ta’siri kuchayib borayotgan bir paytda, milliy sport turlarini yoshlar orasida keng targ‘ib qilish ularni milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktab va kollej o‘quvchilari, talabalar o‘rtasida milliy sport musobaqalari o‘tkazilishi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishiga va sog‘lom hayot tarzi shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Milliy sport turlarining turlari va ularning rivojlanish bosqichlari

Milliy sport turlari — bu biror xalq yoki millatning uzoq tarixiy jarayonida shakllangan, o‘ziga xos an’anaviy va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi jismoniy harakatlar va o‘yinlarning umumlashgan nomidir. Har bir xalqning o‘z tarixiga, madaniyatiga, urf-odatiga mos holda shakllangan milliy sport turlari mavjud.

O‘zbekiston milliy sport turlari uzoq tarixiy jarayon natijasida shakllanib kelgan bo‘lib, ular xalq o‘yin-kulgilari, harbiy mashqlar, jismoniy chiniqish usullari va bayram an'analarining ajralmas qismi sifatida rivojlangan.

O‘zbekiston milliy sport turlarining asosiy turlari:

1. Kurash

Kurash — eng qadimiy milliy sport turi bo‘lib, O‘zbekiston hududida ming yillar davomida rivojlangan. U harbiy tayyorgarlik, jismoniy chiniqish va kuch sinash maqsadida o‘tkazilgan.

Rivojlanish bosqichlari:

Qadimiy davr: Xalq bayramlarida, to‘y va marosimlarda kurash musobaqalari o‘tkazilgan.

Sovet davri: Rasmiy sport turi sifatida e’tirof etilgan va sport maktablarida o‘rgatila boshlangan.

Mustaqillikdan keyin: Kurash xalqaro darajaga olib chiqildi, 1998-yilda Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi (IKA) tashkil etildi.

Hozirgi bosqich: Kurash bo‘yicha jahon, Osiyo, xalqaro musobaqalar o‘tkaziladi.

2. O‘zbek milliy ot sport turlari

O‘zbekiston hududida ot sport turlari qadimdan rivojlangan. Asosan quyidagi turlari mashhur:
Ko‘pkari (Uloq-ko‘pkari)
Ko‘pkari — O‘zbek xalqining eng ommabop va shiddatli ot sport turi hisoblanadi. U ko‘proq jangovar va kuchli jismoniy tayyorgarlik talab qiladi.
Rivojlanish bosqichlari:
Ilk davr: Chorvador va dehqon aholi orasida o‘tkazilgan.
Sovet davri: Rasmiy musobaqalar sifatida cheklangan shaklda o‘tkazilgan.
Mustaqillik davri: Maxsus stadionlar qurilib, musobaqalar muntazam o‘tkazilmoqda.
Chavandozlik (ot poygasi)
Bu sport turi ham qadimiy bo‘lib, ot haydash, tezlik va mahoratni sinashga asoslangan.
3. Milliy o‘yinlar va harakatli sportlar
O‘zbek xalqining turli hududlarida keng tarqalgan:
Masalan:
Qizquvdi — yoshlar o‘rtasida o‘ynaladigan harakatli o‘yin.
Chiling — toshlardan o‘ynaladigan xalq o‘yini.
O‘q otish — qadimiy harbiy sport turi sifatida.
Milliy sport turlarining rivojlanish bosqichlari:
1. Qadimgi bosqich:
Sport xalqning kundalik hayoti va harbiy tayyorgarligining bir qismi bo‘lgan.
Turli marosimlar va bayramlarda o‘tkazilgan.
2. O‘rta asrlar bosqichi:
Amir Temur va boshqa davlat rahbarlari davrida sport musobaqalariga alohida e'tibor qaratilgan.
Saroy musobaqalari, chavandozlik, kurash mashhur bo‘lgan.
3. Sovet davri:
Milliy sport turlarining ko‘pchiligi rasmiy sport shakliga kiritildi.
Sport maktablari va seksiyalari tashkil qilindi.
Ba’zi milliy sport turlari cheklovga uchradi.
4. Mustaqillikdan keyingi bosqich:
Milliy sport turlarining rivojlanishiga alohida e’tibor berildi.
Prezident farmonlari va qarorlari asosida milliy sport turlarini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi.
Xalqaro sport maydoniga olib chiqildi.
Maxsus federatsiyalar tashkil qilindi.
5. Zamonaviy bosqich:

Milliy sport turlari O‘zbekistonning madaniy merosi sifatida xalqaro miqyosda targ‘ib qilinmoqda.
Sport infratuzilmasi rivojlanmoqda.
Sport musobaqalari telekanallar orqali namoyish qilinmoqda.
Yoshlar orasida milliy sport turlariga qiziqish ortib bormoqda.
O‘zbekiston milliy sport turlari — xalqimizning boy tarixi, madaniyati va an’analarining ajralmas qismidir. Ular faqat sport emas, balki milliy g‘urur va o‘zlikni anglash ramzi hisoblanadi. Bugungi kunda davlat tomonidan milliy sport turlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu sport turlari nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida e’tirof etilmoqda.

Milliy sport turlari orqali kuch va chidamlilikni rivojlantirish usullari

Milliy sport turlari — bu nafaqat xalqning madaniy qadriyatlarini saqlab qoluvchi vosita, balki insonning jismoniy sifatlarini, ayniqsa kuch va chidamlilikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi mashg‘ulotlardir.
Kuch va chidamlilik har qanday sport turining, ayniqsa milliy sport turlarining asosiy jismoniy ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Milliy sport turlarining ko‘pchiligi insonni jismonan chiniqtirishga, harakat tezligini oshirishga, mushaklarning quvvatini mustahkamlashga xizmat qiladi.
Milliy sport turlari orqali kuch va chidamlilikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan asosiy usullar:

1. Kurash orqali kuch va chidamlilikni rivojlantirish

Kurash — eng samarali kuch va chidamlilikni rivojlantiruvchi sport turi hisoblanadi. Chunki kurash jarayonida barcha mushak guruhlari ishlaydi.
Rivojlantirish usullari:
Maxsus og‘irliklardagi mashqlar (gantel, shtanga, qum to‘ldirilgan maxsus kurash g‘iloflari bilan mashq qilish).
Kurash usullari bilan mushtlashish va tayanch-harakatlarini takomillashtirish.
Uzluksiz sparring (kurash mashqlari) orqali chidamlilikni oshirish.
Zamin kurash mashqlari — yerda g‘isht ko‘tarish, o‘z og‘irligini ko‘tarish.

2. Ko‘pkari (Uloq-ko‘pkari) orqali kuch va chidamlilikni rivojlantirish

Ko‘pkari o‘yinida chavandoz nafaqat otni boshqaradi, balki og‘ir uloq (echki jasadi)ni ko‘taradi, tezlik va kuch talab etuvchi harakatlarni bajaradi.
Rivojlantirish usullari:
Maxsus og‘irlikdagi yuklarni (xaltalar, maxsus uloqlar) ko‘tarish va ko‘tarib yurish.
Chavandozlik mahoratini oshirish mashqlari.
Ot haydash davomiyligini oshirish (marafon o‘yinlar).
Mushak kuchini oshirish uchun yugurish, suzish, sakrash mashqlari.

3. O‘q otish va kamondan otish orqali chidamlilikni rivojlantirish

Bu sport turlarida asosan yuqori darajadagi diqqat, nafasni boshqarish, quvvat va kuch talab etiladi.
Rivojlantirish usullari:
Nafasni boshqarish mashqlari.
Maxsus harakatlarsiz chidamlilik mashqlari (kamonni ushlab turish, o‘q otishdagi statik pozitsiyalarni saqlash).
Bilak, elka va kaft kuchini oshirish mashqlari.
4. Milliy o‘yinlar orqali kuch va chidamlilikni rivojlantirish
Harakatli o‘yinlar (chiling, qizquvdi, tosh ko‘tarish, sakrash o‘yinlari) yordamida:
Rivojlantirish usullari:
Tezkorlikni oshirish uchun qisqa masofaga yugurish.
Ko‘p takroriy harakatli o‘yinlar orqali umumiy chidamlilikni oshirish.
Tosh ko‘tarish va quvvatli yugurish mashqlari.
Umumiy tavsiya etiladigan usullar:
1. Mashg‘ulotlarni kompleks olib borish
Milliy sport turlarida quyidagi umumiy mashq turlarini doimiy bajargan ma'qul:
Jismoniy qizish mashqlari (badanni harakatga tayyorlash).
Og‘irlik bilan mashqlar.
To‘xtovsiz yugurish (marafon yugurish).
To‘siqlardan sakrash.
Statik mashqlar (bir holatda uzoq turish, tayanch ushlab turish).
2. Organizmni chiniqtirish Sovuq suvda cho‘milish. Tabiy sharoitda mashq qilish (tog‘da yugurish, ochiq maydonlarda mashg‘ulot).
3. Ovqatlanish va sport rejimi
Kuch va chidamlilikni oshirish uchun:
Oqsil, vitamin va minerallarga boy ovqatlar.
Yetarli uyqu va dam olish.
Rejaga asoslangan mashg‘ulotlar.
Milliy sport turlari — bu insonning kuch va chidamliligini tabiiy va samarali usulda rivojlantirishning eng qadimiy va sinovdan o‘tgan vositalaridir. Kurash, ko‘pkari, chavandozlik, o‘q otish, harakatli o‘yinlar inson salomatligini mustahkamlash, mashaqqatga bardosh berish, har qanday hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutishni o‘rgatadi.
Milliy sport turlarida jismoniy kuch, mashaqqatga chidamlilik, ruhiy tayyorgarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar bir vaqtda shakllanadi. Aynan shu sababli yoshlar orasida milliy sport turlarini keng targ‘ib etish juda muhim.
Xulosa. Milliy sport turlari har bir xalqning boy madaniy merosi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim sohalardan biridir. Milliy sport turlarini rivojlantirish va yosh avlod tarbiyasida keng joriy etish bugungi kunning

dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki milliy sport yoshlarni jismonan sog‘lom, kuchli, irodali, vatanparvar va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Milliy sport turlarini rivojlantirish orqali nafaqat sport sohasini rivojlantirish, balki yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, milliy an’analar va qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalarida, sport maktablarida, mahallalarda milliy sport turlarini rivojlantirish va yoshlarni ommaviy sportga jalb etish muhim vazifadir.

Kelajak avlodning sog‘lom, bilimli, vatanparvar va milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan inson bo‘lib yetishishi uchun milliy sport turlarining o‘rni beqiyosdir. Shu boisdan, har birimiz milliy sport turlarini rivojlantirish va uni yoshlar orasida keng targ‘ib qilishda faol ishtirok etishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bakhodirov, R. (2021). Jismoniy kuch va chidamlilikni rivojlantirishning asosiy usullari. Toshkent: Sport va jismoniy tarbiya nashriyoti.
2. Shamsiyev, S. (2020). Milliy sport turlari va jismoniy chidamlilikni rivojlantirish. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
3. Qodirov, N. (2018). Milliy sport turlari orqali kuch va chidamlilikni oshirish metodikasi. Samarqand: Samarqand pedagogika universiteti nashriyoti.
4. Mamatov, X. (2019). Milliy sport turlarida kuch va chidamlilikni rivojlantirish. Toshkent: O‘zbekiston sport akademiyasi nashriyoti.
5. Toshpo‘latov, A. (2017). Chidamlilik va kuchni rivojlantirishda milliy sport turlarining o‘rni. Tashkent: Sport ilmiy jurnali.
6. Davronov, A. (2022). Kuch va chidamlilikni rivojlantirishda milliy sport turlarining ta’siri. Tashkent: O‘zbekiston jismoniy tarbiya institutining ilmiy jurnali.

MA’NAVIY QADRIYATIMIZ KURASH

B.I.Xo‘janiyozov -CHDPU o‘qituvchisi
Babadjanova Dilnura Jamol qizi - CHDPU talabasi
Hasanov Behruz Olimjon o‘g‘li - CHDPU talabasi
Jumaboyev Shohzod Hamro o‘g‘li -CHDPU talabasi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada kurash milliy sportimiz faxrimiz hamda umumta`lim maktablar o`quvchilar orasidan iste`dodli yoshlarni kurash turga tanlab olish yuzasidan kursatma va takliflar kirtilgan.

Kalit so‘zlar: Kurash, tarix, rivojlanish, bosqich, farmon, qaror, mardlik, jasurlik, qadiriyat, buyuk allomalar.

Milliy qadriyatdan umuminsoniy qadriyatga aylanib bugun jahon nigohini o‘ziga mahliyo etgan kurash ma’naviy qadriyat va sport turi sifatida o‘zining chuqur tarixiga ega.

Tarixshunos, qadimshunos, elshunos va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar kurashning yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyod ekanligini tasdiqlaydi.

Asrlar sinovidan, murakkab davrlardan mardona o‘tgan, chinakam mardlar raqiblar bahsi, ezgu niyatlar, oliy maqsadlar bo‘lib e’tirof etilgan kurash yana xalq nazariga tushdi. Davlat, mamlakat darajasidagi muhim ishga aylandi. Bir necha yildirki, jahon ommasining mehrini qozonib, dunyo sport sahnasida o‘z o‘rnini topdi.

Kurash - azal - azaldan oliy janoblik, mardlik va halollik timsoli, xalqimizning bir necha ming yillik tarixiga ega milliy - madaniy merosining bir qismi va bebaho boyligi hisoblanadi.

IV asrda O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar orasida epchil akrobat-darbozlar juda mashhur bo‘lgan. Epchil, jismoniy jihatdan juda chiniqqan darbozlar, chig‘iriqli simbozlar Yunoniston, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlarga borib, o‘zlarining ajoyib va hatarli o‘yinlarini qiziqchi va masqarabozlarning utkir satira va kulgi bilan sug‘orilgan turli sirk sahnalari, o‘qdek uchadigan muollaqchilar va kishi aqli devor qilmaydigan pahlavonlarining o‘yinlari, hukakchi va yog‘och oyoqlarining jo‘shqin raqslari va ot o‘yinlarini chuqur ma’noli so‘zlarni va baytlarini sozandalarning bu o‘yinlarga moslagan mashqlarini ko‘z- ko‘z qilganlar.

Qadim zamonlarda jamoa jismoniy tarbiya sohasida o‘z davrlari zimmasiga ma’lum majburiyatlar yuklagan. Qizlar va yigitlar hayotda kerak bo‘ladigan epchillik, chidamlilik, chaqqonlik qat’iylik va jasurlik kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishlari shart bo‘lgan.

Buyuk alloma Ibn Sino turli mashqlar orasida me’yori bilan uzoq va tez yugurish, kurash tushish va ot minishni alohida ta‘kidlagan. Ibn Sinoning fikricha, mashqlardan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad qon aylanishini, nafas olishni va organizmdagi moddalar almashuvini yaxshilashdan iboratdir deydi.

Alisher Navoiy hazratlari ham kurashdan uni dovrug‘ini 7 iqlimga taratgan polvonlar bahsidan huzurlangan. Shu bois ko‘plab asarlarda polvonlar hayoti va faoliyatiga oid ajoyib-g‘aroyib voqealar lavhalarni yozib qoldirgan. Pahlavon Muhammadning odobi, sahiyligi, beozorligi, sofdilligi, mardligi, mehmonnavozligi, halolligi polvonlarga hos bo‘lgan ulug‘hislatlar ekanligini qayt etgan.

O‘z zamonasida qudratli saltanat qurgan Amir Temur buyuk davlat arbobi marifatparvar hukumdor, salohiyatli sarkarda bo‘lib qolmasdan ayni vaqtda kurash ilmiy hadisini mukammal egallagan. Kuchli polvon sifat inson ham bo‘lgan. Shuning uchun u mamlakatda yoshlarni chiniqtirish, vatanni sevuvchi, yurt xizmatiga kamar basta, yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazishda kurashning tutgan o‘rniga katta ahamiyat bergan.

Qadimgi Sug‘diyona markazi bo‘lgan Samarqandda Navro‘z bayrami har doim xalq tomoshalari bilan o‘tgan. Bularda xalq san’at vakillari, bahshilar, xonandalar, hofizlar, darbozlar, raqqosalar o‘z san’atini namoyon qilishgan. Bu bayramlarda xalq darbozlarning chiqishi va poygani zo‘r qiziqish bilan tomosha qilishgan. Lekin har bir bayram kurashsiz o‘tmagan. Musobaqalar natijasida har yili kurashchilardan biri Sug‘diyona polvoni nomini olgan. Bayramlarda ushbu polvon obro‘li joyda o‘tirgan. Qurbon hayit bayrami kunlarida doimo kurash bellashuvlari o‘tkazilgan.

O‘zbek xalqi qadimdan kurashni insonni jismonan tarbiyalash vositasi deb qaralgan. Xalq o‘zida kuchlilikni, chidamlilikni, iroda va botirlikni mehnatkash xalqning ahloqiy sofligini mujassamlashtirgan kurashchi polvonlarga hurmat bilan munasabatda bo‘lgan. Kurashchilar juftini tanlashda ularning vazini ko‘z bilan chamalab aniqlagan. Bellashuv oldidan kurashchilar oyoq - qo‘llar chigilini yozish mashqlari sifatida gavdani uqalash, silash kabi mashqlarni qo‘llaganlar. Kurashchilar an’anaviy kiyimda musobaqalashgan. Farg‘ona qoidasi bo‘yicha kurashchilar paxtali choponda, Buxoro qoidasi bo‘yicha kurashchilar esa paxtasiz to‘n kiyib kurashganlar. Kurashchilar ba’zan mahsi kiyib, asosan oyoq yalang kurashganlar. Kurashchilarining bunday kiyinishi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

O‘tmishda Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Qoraqalpog‘iston avtonom Respublikasi hududida Buxorocha kurash ya’ni kurash, Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Sirdaryo hududlarida Farg‘onacha kurash, ya’ni belbog‘li kurash rasm bo‘lgan.

Bugun dunyoga keng tarqalgan kurash o‘zining uzoq tarixiga ega ekanini ta’kidlab o‘tdik. Kurash odamlar qabila-qabila bo‘lib yashagan ibtidoi jamoa davrdayoq rasm bo‘la boshlagan. Buni ko‘pgina arxeologik, etnografik, yozma manbaalar va turli tuman yodgorliklar ham tasdiqlaydi.

Yunon tarixchisi Elion Saklarda bir odat bo‘lishganligini, ya’ni bu odatga ko‘ra, uylanishni istagan har bir yigit o‘zi tanlagan qiz bilan yakkama-yakka bellashishi lozimligi, bu kurashda g‘olib chiqsagina qiz yigitniki bo‘lishligi, qizni yenga olmagan taqdirda esa yigit uning asiri bo‘lib qolishligi haqida esa ma’lumot beradi. Ayollar o‘z jismoniy kuchlarini va harbiy fazilatlarini ongli ravishda baholay olganlar. Ular o‘z muhabbatlari va baxtlari uchun kurashishga tayyor

edilar. Shuning uchun ham bahodirlar o‘z sevganlarini jangda qahramonlarcha oqlashlarini qat’iy talab qilganlar.

Qadimgi kurash usullaridan XX-asrdagi kurash usullari bir birida ancha farq qilgan. Qadimda bellashuv natijalari ko‘proq kurashchining texnik taktik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lgan. Ommaviy kurash mahalliy xalq orasida milliy ongining o‘sishiga turtki bo‘layotganligini fahimlab Turkiston hukumati 1915- yilda kurashni taqiqlab qo‘ygan.

1918- yil 22- aprelda “Harbiy san’atga majburiy o‘rgatish to‘g‘risda” qaror qabul qilingan. Bu qarorni amalga oshirish uchun vatan budofasiga zahira tayyorlash birlashmasi tashkil qilinadi. Ushbu birlashmaning asosiy vazifasi mahalliy aholi tarkibidan zahiralarni jismoniy tomonidan tayyorlashga rahbarlik qilishdan iborat bo‘lgan. Bu ma’suliyatli tadbirni muvofaqqiyatli amalga oshirish uchun ya’ni jismoniy tayyorgarligini aniqlashi sportning bir necha turlaridan, ayniqsa, kurash sportidan asosiy vosita sifatida foydalanishgan. 1920- yil 10 - oktyabrda Toshkentda o‘tkazilgan birinchi O‘rta Osiyo olimpiadasida sportning milliy turlari, shu jumladan, belbog‘li (Farg‘onacha) kurash ham keng namoyish qilinadi. Sportning bu turi bo‘yicha O‘zbekistonlik polvonlar g‘olib chiqishgan, 1921- yilda o‘tkazilgan ikkinchi O‘rta Osiyo olimpiadasida ham O‘zbekiston polvonlari birinchi o‘rinni olishgan. Bu olimpiadada ham belbog‘li kurash namoyish qilingan. 1926- yil ohiriga kelib O‘zbekistonda sport bilan shug‘ullanayotganlar soni 20 minga yetdi. Ularning 40 foizi mahalliy yoshlardan iborat edi. Kurash mahalliy yoshlarni sportning boshqa turlari bilan shug‘ullanishga jalb qilishda eng maqbul omil bo‘lgan. 1928-yil Qo‘qon shahrida birinchi jismoniy madaniyat bayrami o‘tkazilgan ushbu bayramda belbog‘li kurash bo‘yicha musobaqa uyushtirilgan.

Kurash musobaqasida Respublikada dong‘i ketgan, 39 ta polvon maydonga chiqishgan. 6 kun keskin davom etgan. Musobaqada Farg‘onalik 65 yoshar Ilmiyamin Ilim buva g‘alaba qozongan va O‘zbekistonning eng kuchli polvoni degan faxrga sazovor bo‘lgan. 1934yilda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo xalqlari birinchi spartagiyasi dasturiga kurashning kiritilishi uning roli oshganligidan dalolat beradi. Bu spartakiyadada kurashchilar 4 ta vazn toifasida kurashishgan. Kurashning “Farg‘onacha” va “Buxorocha” turlari bo‘yicha ham O‘zbekiston jamoasi birinchi o‘rinni egallagan. 1936-yilda Toshkentda maxsus kurash maktabi ochiladi va O‘zbekistonning kuchli kurashchisi Asqar Ataboyev bu maktabning rahbari va murabbiyi etib tayinlanadi.

A.Atoyevning tashabbusi bilan 1964- yildan boshlab kurash Buxoro Davlat Pedagogika institute (hozirgi BuxDU) jismoniy tarbiya fakulteti o‘quv rejasiga kiritilgan. Birinchi bor 1969 -yilda O‘rta Umumiy ta’lim maktablarining 8- 10 sinf jismoniy tarbiya dasturiga milliy kurash kiritilgan. 1991-yil O‘zbekiston

Mustaqillikga erishgach milliy sport turini jahon arenasiga olib chiqish masalasi ilk bor muhokama qilindi. 1991-yil 14-15 iyunda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ilmiy konferensiyasida K.Yusupov tomonidan yaratilgan milliy kurashning yangi qonun-qoidalari, hakamlar hamda kurashchilar kiyimlari tasdiqlandi va shu yili sport gazetasining 17- sentyabr sonida e’lon qilindi. 1992- yil birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov kurash mutaxassislari bilan muloqot o‘tkazdi va alohida ko‘rsatmalar berdilar. 1992 -yil Kanadada o‘tkazilgan “dzyudo” bo‘yicha jahon chempionati hamda Dzyudo federatsiyasining butun jahon kongeressida ilk bor kurash (o‘zbek kurashi) targ‘ib etildi. 1994-yilda Hirosima shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida kurash musobaqalaridan yozib olingan video tasvirlar namoyish etildi. 1995-yil Hindistonda o‘tkazilgan “Dzyudo” federatsiyasining Osiyo Kongeressida kurash haqida atroflicha ma’lumot yetkazildi. 1998- yil 6-7 mart kunlari Irlandiyaning Dublin shahrida Yevropa Dzyudo uyushmasi taftish hay’ati yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishda kurash haqida yozma va video lavhalar namoyish qilindi. 1998- yil 15-18 aprelda Monako shahrida o‘tkazilgan dzyudo uyushmasining 50 yillik yubiley Kongeresiga O‘zbekistonlik vakillar taklif etildi. Kurashning dovrug‘ini yoyishda Irlandiya olimpia qo‘mitasi Prezidenti, Yevropa olimpia qo‘mitasi vitse - prezidenti Patrik Hikkinning xizmatlari katta. 1998-yil 6 -sentyabrda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi “KXA” tuzuldi. 1999 -yil birinchi fevralda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini” qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. 1999-yildan boshlab Jahon chempionatlari o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgach, o‘zbek xalqi milliy davlatchiligi va ma’daniyati tarixida yangi davr boshlandi. Unutilgan qadriyatlar urf -odatlar qayta tiklandi. Millatimizning faxri bo‘lgan kurash, an’anasi bir necha ming yil tarixga ega bo‘lib o‘zida o‘zbek xalqining ko‘plab urf-odatlarini, udumlarini mujassamlashtirgan, akademik A.Asqarov, professor M.Gryaznov, filologiya fanlar doktori K.Imomovlar olib brogan tadqiqot natijalari esa dastlabki sport o‘yinlaridan biri hisoblangan o‘zbek milliy kurashi 3,5- 5 ming yil ilgari tarqala boshlanganligini ko‘rsatadi.

Surxon, Zarafshon, Farg‘ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlaridan topilgan noyob topilmalar, qoya toshlarga chizilgan tasviriy san’at namunalari ham bunga to‘la shohidlik qiladi. Etnografik tadqiqotlarining guvohlik berishicha O‘zbekiston hududida kurash milodiy IX-X asrlarda keng rivoj topgan bo‘lib, xalq sayllarida musobaqa o‘tkazish an’anaviy tus olgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiy namunalaridan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Rustam”, “To‘lg‘anoy” kabi dostonlarda ham pahlavonlar kurashi madh etilib, epchil va chaqqoon, zukko va dono polvonlar ulug‘langan.

Milliy kurashimizning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz nazarida kurash, eng avvalo, polvonlarning odob -tarbiyasi mardligi, oliy janobligi, ma’naviy qiyofasi, umuman, har tomonlama yetuklik namunasi sifatida sharaflangan. Fikrimizning yaqqol namunasi tarzida Xorazmlik mashhur shoir va polvon Pahlavon Mahmud, uning davomchilari sifatida pahlavon Vobohoqiiy, Shayh Xudoydod Azizon, Amir Uchqora kabi, keying davrlarda esa Ahmad Polvon, Avazxo‘ja polvon, Haydarali polvon, Abdurahmon polvon kabilarni misol keltirish mumkin.

Mustaqillik sharofati va birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning jon kuyarligi tufayli o‘zbek kurashi olam shumul voqeaga ega bo‘ldi. Bugun “Buyuk ajdodlarimiz ruhini shod etib, azal- azaldan xalqimiz g‘ururiga aylanib qolgan o‘zbek kurashining jahon maydoniga chiqishi, uni tan olinishi barchamizni g‘oyat quvontirdi” - deb ta’kidladi prezidentimiz. 1992- yilda yurtboshimiz taniqli polvon, xalqaro toifali sport ustasi Komiljon Yusupov bilan uchrashib milliy g‘urur va qadriyatimiz timsoli bo‘lgan o‘zbek kurashini xalqaro miqyosiga olib chiqish haqida bir qator ko‘rsatmalar berdi. Xususan, kurashning sog‘lom avlod tarbiyasida, mamlakat mudofaasini mustakamlashdagi ahamiyati eng asosiysi, inoq xalqni shakllantiruvchi tarixiy qadriyat ekanligini ta’kidlab o‘tdi. K.Yusupov iqtidorli mutaxassis sifatida kurashning tarixini, musobaqa o‘tkazish tartibi va qoidalarini ilmiy jihatda o‘rgandi. Aynan shu qoidalar, hakam va polvonlarning kiyim va emblemalari 1991 yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ilmiy konferensiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Mustaillik tufayli o‘zbekning o‘zligi yana o‘ziga qaytdi. Unutilgan qadriyatlar, urf-odatlar qayta tiklandi. Milliy sport turi bo‘lmish kurashni rivojlantirish va jahon maydoniga olib chiqish musobaqasi kun tartibiga qo‘yildi. 1992-yilda bu jarayonni amalga oshiradigan ishchi kuchi Milliy Kurash Federatsiyasi tashkil etildi. Federatsiyaning me’yoriy hujjatlari tasdiqlanib, kurash jonkuyarlarining tashabbuskor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Tinimsiz mehnat va izlanishlar bekor ketmadi. 1998-yil 6-sentabrda milliy kurashimiz tarixiga olam shumul voqea bo‘lib kirdi. Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qit’asining 28 davlatidan kelgan vakillar ishtirokida Toshkentda bo‘lib o‘tgan tasis kongeressida kurash xalqaro assostsiatsiyasi (KXA) tuzilganligi, xalqimizning milliy qadriyati “Kurash” nomi bilan xalqaro sport maydoniga chiqanligi etirof etildi.

Kurashning jahonga yuz tutishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov KXA ning doimiy faxriy prezidenti, kurash qonun-qoidalarini ishlab chiqqan, kurash asoschilaridan biri Komiljon Yusupov assotsiatsiyasi etib saylandi. Bu ijobiy ishlarni mantiqiy davomi sifatida 1999-yil birinchi fevralda O‘zbekiston Respublikasi birinchi

Prezidentining “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qullab- quvvatlash haqidagi” farmoni imzolandi. O‘z vaqtida qabul qilingan bu farmon o‘zbek kurashining butun jahonda keng quloch yoyishiga xizmat qilmoqda. Shu yil O‘zbekiston tarixida ilk bor “Yunusobod” sport majmuida kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionati bo‘lib o‘tdi.

Bu davrda XKA a’zolari bo‘lgan 6 ta davlat -Yaponiya, Vengriya, Hindiston, Polsha, Rossiya, Bolgariya Milliy federatsiyalari Prezidentlari ta’sischiligida Jahon kurashni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilgan. Jamg‘armaning asosiy maqsad va vazifalariga jahonda kurashning rivojlanishiga moliyaviy tomonidan ko‘maklashish, XKA ning taqvimiy darajasidagi jahon, qit’a chempionatlari, xalqaro turnirlari tashkil etish va o‘tkazishda asosiy moliyaviy- tashkiliy ta’minotchi vazifasini bajaradi.

2000-yil sport olamida o‘zbek kurashi dovrug‘ining ortishi va rivojlanishida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu vaqtga kelib bu har tomonlama takomillashib, xalqaro sport o‘yinlari qatoridan munosib o‘rin egalladi va mutaxassislar tomonidan “XXI asr sporti” deb etirof etildi. Shu davrda XKA Ijroya qo‘mitasi yig‘ilishda 13 mamlakatning ko‘zga ko‘ringan siyosat va sport arboblari ishtirok etdi va “Butun dunyoda kuraashni rivojlantirish Dasturi” qabul qilindi.

Shu kungacha dunyoning bir necha mamlakatlarida 1000 dan ortiq turli darajadagi xalqro turnirlar tashkil etildi. Jahon Osiyo chempionatlaridan tashqari Buyuk Britaniya, Gretsiya va Fransiyada “Islom Karimov”, Turkiyada “Bos Fors” va Eronda “Pur iyoivali” xalqaro turnirlar o‘tkazildi.

Bugungi kunda XKA ning jahoning barcha qit’alarida 129-ta kurash federatsiyalari tashkil etilgan va ularning safi kundan-kunga ko‘paymoqda bu o‘rinda Osiyo, Yevropa, Afrika va Janubiy Amerika qit’asi davlatlari bo‘layotgan hamkorlikni alohida takidlash joiz, bundan tashqari XKA ning YUNESKO qoshidagi “Jismoniy tarbiya va sport fani xalqaro kengashi a’zosidir. Kurashning jahondagi nufuzini yanada oshirish maqsadida assotsiatsiyaing oliy nishoni – “XKA Oltin ordeni” ta’sis etilgan. Uning birinchi sohibi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov, so‘ngra Hindiston Milliy Kongeressi partiyasi yetakchisi Sonya Gandi, xalqaro olimpia qo‘mitasi XOQ Jak Rogge, Osiyo Olimpia Qo‘mitasi OOQ prezidenti Shayh Ahmad Al-Fahd As-Sabah Butun jahon olimpia assotsiatsiyasining va boshqa ko‘zga ko‘ringan insonlar sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoyev “Kurash” milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish chora-tadbiri to‘g‘risida”gi 2020 yil 4 noyabr PQ - 4881 sonli qarorida ma’lum qilinishicha, oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida xalqaro musobaqa, xorijiy davlatlarda O‘zbekiston Respublikasi sovrini uchun xalqaro turnirlar o‘tkaziladi.

2020- yildan har yili bir marta davlat organlari muassasalari va tashkilotlari hodimlari o‘rtasida “o‘zbek polvoni” Respublika musobaqasi o‘tkaziladi deyiladi hujjatda. Bundan tashqari, 2021-2025 yillarda kurash mahorati maktablari bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Shuningdek, 2021-2022 o‘quv yilidan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti maktab-internatlari va sport maktablarida kurash bo‘yicha o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari 2 barobarga oshiriladi.

“Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi tasdiqlandi”. Konsepsiyada, jumladan, 2028- yilda kurashning xalqaro olimpia o‘yinlari dasturiga kirishiga erishish ko‘zda tutilgan. Qisqasi, davlatimiz rahbarining kurashni rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha kompleks chora - tadbirlar dasturini o‘z ichiga olgan mazkur qarori o‘zbek milliy sporti brendini yangi cho‘qqilarni zabt etishga zamin hozirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar sinovidan, tarixiy davrlar silsilasidan o‘tgan, mardlar va munosib raqiblar bahsi bo‘lgan o‘zbek kurashi mustaqillik sharofati bilan umumdavlat darajasidagi sportga aylanib, butun jahon nazariga tushdi. O‘zbek kurashining sport turi sifatida dunyoga yuz tutushi, mamlakatimizning xalqaro yanada oshirishda o‘zining ham beqiyos hissasini qo‘shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1.Kirimov F.A Kurash tushaman -T:, 1990

2.Nurshin J.M, Salomov R.S, Kirimov F.A. O‘zbekcha milliy kurash sport turi, T:, 1993

3.Kirimov F.A Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T:, 2001

4.Taymurodov A.R. O‘zbek milliy kurashi, T: 1990

5.Choriyev Z, Toshpulatov J, Pahlavon qizlar , T:, 2008

6.Toshpulatov J. O‘zbek kurashi Toshkent: 2000

7. Yusupov.K Kurash xalqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. T. G‘afur G‘ulom 2005.

O‘ZBEK MILLIY HARAKATLI O‘YINLARI

M.M. Ulug‘bekova - Guliston davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: milliy o‘yinlar ,an'anaviy sport ,jismoniy faollik, o‘yin qoidalari, o‘yinchilar, chillik , eshak mindi , eshak mindi, quloq cho‘zma, piyoda poyga, yelka urishtirish, qizil oyoq , kichkina futbol , g‘ishtni ko‘tarish,tugmachalar,qora tosh ,

yurt ko‘rigi,belbog‘ kurashi,sakkizta o‘yin ,zang, qoqish ,milliy madaniyat bola o‘yinlari

Anatatsiya: Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning boy madaniy merosi sifatida tanilgan milliy harakatli o‘yinlari tahlil qilinadi. O‘zbek milliy o‘yinlari, tarixan, xalqning urf-odatlari, an'analari va hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni oshirish, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotda an'anaviy o‘yinlarning tarixi, turli xil turlarini (masalan, "kurash", "qora-qor", "suvga tushish" va boshqalar) va ularning qoidalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu o‘yinlarning zamonaviy yosh avlod orasidagi ahamiyati va ularni saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan choralar muhokama qilinadi.

O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari nafaqat sport sifatida, balki xalqning madaniy identitetini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ham ko‘riladi. Tadqiqot natijalari orqali bu o‘yinlarni rivojlantirish va ommalashtirish yo‘llari taklif etiladi, shuningdek, ularni xalqaro miqyosda tanitish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek xalqining milliy harakatli o‘yinlari besanoq ko‘p. Ularning ko‘pchligi qadimgi ajdodlarimiz ijtimoiy mehnat va turmush madaniyati bilan bog‘langan.

E’tiborli tomoni shundaki, «chillik», «oq suyak», «eshak mindi», «quloq cho‘zma», «piyoda poyga», «yelka urishtirish» va shu kabi o‘yinlar Respublikamizning barcha hududlarida sevib o‘yinab kelingan. Lekin, Surxon va Qashqa vohasining, shuningdek, Zarafshon va Farg‘ona vodiysi xalqlarining o‘zlariga xos milliy harakatli o‘yinlari ham mavjud. Sirdaryo oqimi oxirlaridagi xalqlarning ham mazmun jihatdan farq qiluvchi harakatli o‘yinlari bor.

Usmon Qoraboyevning ta’rificha o‘zbek xalq milliy o‘yinlari va uning tarkibidagi harakatli o‘yinlar bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lib, ular ijtimoiy turmushda o‘ziga xos mazmunlarga egadir. Ya’ni ijtimoiy tuzumlar davrida vujudga kelgan o‘yinlar mazmun va mohiyat jihatdan takomillashib borib, qo‘yidagi yo‘nalishlarga ega, ya’ni:

1. To‘y marosimlari, bayramlardagi o‘yinlar.
2. Oila, mahalla, ko‘cha-maydonlarda o‘ynalayotgan harakatli o‘yinlar.
3. Yakka va juft bo‘lib o‘ynashlar.

Mazkur o‘ynalishdagi harakatli o‘yinlar mazmun jihatdan qo‘yidagi turlarga ajratilgan:

- mehnat va ijtimoiy turmushni ifoda etuvchi o‘yinlar;
- fasillarda o‘ynaladigan yoki ularni aks ettiruvchi o‘yinlar;
- hayvonlar, parrandalar hayotiga mansub bo‘lgan o‘yinlar.

Shu asosda milliy harakatli o‘yinlarimizni o‘rganishda F.N.Nasriddinov, T.S.Usmonxo‘jayev, F.Xo‘jayev, A.Sh.Qosimov, O.O.Po‘latov, va boshqalarning to‘plamlari amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash lozimki, deyarli barcha to‘plamlar va o‘quv qo‘llanmalardagi harakatli o‘yinlar araash holda joylashgan. Ya’ni, bog‘cha va maktab o‘quvchilari uchun maxsus o‘yinlar bir tizim va tartibda berilmagan. Ba’zi to‘plamlarda (O.O.Po‘latov, A.Sh.Qosimov, F.N.Nasriddinov) jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi yoki sport o‘yinlari, mashg‘ulotlari jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan o‘yinlarni ketma-ket tartibda solib foydalanishga tavsiya etilgan.

Harakatli o‘yinlarning yo‘nalishlari (mazmun) va tarbiyaviy jihatlarini e’tiborga olgan holda bir tizim-tartib bo‘yicha berilsa talabalar va mutaxassis xodimlar uchun bir muncha qulaylik yaratadi. Ya’ni, bolalar tarbiya muassasalari, o‘quv yurtlari, ulardagi kasb-hunar yo‘nalishlariga qarab o‘yinlarni o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Pirovardida ta’kidlash lozimki, uzoq qishloqlar, ovullarda saqlanib kelinayotgan milliy harakatli o‘yinlar to‘laligicha va batafsil o‘rganilgan emas. Ayniqsa, Qoraqalpoq, Xorazm, Navoiy, Surxon vohasi, Farg‘ona vodiysidagi harakatli o‘yinlarni yanada kengroq o‘rganish lozim bo‘ladi. Shuningdek, «Chillik», «Oq suyak», «Poda to‘p», («Cho‘pon»), kabi harakatli o‘yinlarni sport darajasiga ko‘tarish lozim. Buning uchun esa ularni qishloq maktablarining «Jismoniy tarbiya» dasturi hamda ko‘p bosqichli sport musobaqalarining dasturi tarkibiga kiritish lozim bo‘ladi. Talabalarning mustaqil ishlarida mazkur o‘yinlarni bajarishni talab etish, ularga sharoitlar yaratib berish hozirgi davr taqozosi bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, harakatli o‘yinlarning mazmuni va mohiyatini aks ettiruvchi tarixiy davrlarni chuqurroq o‘rganish zarur. Chunki ular milliy madaniyatimiz, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyamiz bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu jihatdan qaraganda milliy kurashchilarimiz va ot o‘yinlarimiz (ko‘pkari-uloq, poyga, otdan ag‘darish, qiz quvmoq, otda nayza sanchish, qilichlashish va h.k.) ijtimoiy-madaniy turmushimizda qanday mohiyat kasb etsa, ba’zi sportga xos milliy harakatli o‘yinlar ham millat shon-shuhratini jahonga keng yoyishda xizmat qilishiga shubha yo‘q.

Yana e’tiborli va muhim tomoni shundaki, jahon xalqlarining milliy harakatli o‘yinlarini o‘rganish, ularning ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi tomonlaridan amalda foydalanishni talabalarga chuqurroq o‘rgatiщ zarur bo‘ladi.

O‘z navbatida, harakatli o‘yinlarning qaysi millatga mansubligi, ularning ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlari haqida o‘quvchi-yoshlar va kasb-hunar yo‘nalishlari bo‘yicha talabalarga ma’lumot berish ham hozirgi davr talablaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

Milliy va harakatli o‘yinlar salomatlikni ta’minlovchi va milliy g‘ururimiz, iftixorimizni anglashda ijobiy ta’sir etuvchi zarur omillardan ekanligini e’tirof etmoq kerak.

O‘yin so‘zi ko‘pqirrali va tarixiy o‘zgaruvchandir. U harakatni ifodalashda, turli xil xodisalarni ko‘rsatishga xizmat qiladi.

«Narx o‘yini», «O‘yin kuchi» kabim iboralar tanish. «Qadimgilar o‘yini», «Olimpiya o‘yinlari», «Sport o‘yinlari» degan so‘zlar har xil ma’noni beradi.

O‘yin madaniyat elementi sifatida yaratilgan odam o‘ziga xos harakat faoliyati.

Jamiyatning madaniyati bilan rivojlanib borib kishilarning talab, istaklarini qondiradi. (dam olishda, ma’naviy va jismoniy kuchlar rivojlanishida)

O‘yin faoliyati jamiyat va ba’zi bir shaxslar uchun juda qiziqarlidir.

U harakatning ko‘pqirrali, maqsadlarning mohiyati bilan xarakterlidir.

Jiddiy reglamentlantirilgan mashqlar bilan ifodalanadi.

Lekin mustaqillik, ozod (erkin) harakatlar o‘yinlarda majburiyatlar bilan beriladi.

O‘yin faoliyatiga moddiy boyliklar yaratilmaydi va tabiatning boyligi, tiriklik uchun kerakli bo‘lgan, o‘zlashtirilmaydi.

Harakatli o‘yinlar o‘yin faoliyatining shunday bir qirralaridan biri-ki, unda harakatlarning roli juda yorqin ifodalangan.

Harakatli o‘yinlar uchun ijodiy, faol harakatlar g‘oyaviy, mazmunan salohiyatli bo‘lishi lozim.

Bu harakatlar qisman qoidalar asosida bo‘ladi (o‘yinchilar yoki rahbarlar tomonidan tuzilgan, yoki ommaviy qoidalar asosida bo‘ladi). Ular har xil qiyinchiliklarni yengish (to‘siqlarning) o‘z oldilariga qo‘yilgan maqsad sari intilish (g‘olib bo‘lish, birinchilikni egallash, ba’zi bir usullarni o‘rganish kabi).

To‘siqlar bo‘lib mexanik to‘siqlar (kapop, uning ustidan hatlab o‘tish) harakat usullari (ularni o‘rganish) taktik maqsadlar va raqib komanda yoki intiluvchanlik harakati (ularni o‘yin paytida yengib o‘tish kerak bo‘lsa) xizmat qiladi.

Harakatli o‘yinlar yig‘uvchan tushuncha.

U o‘z ichiga turli xil o‘yinlar, harakat asosida kurilgan bo‘lsa, o‘z ichiga oladi.

Ular ichida harakatli (asosiy, elementli) o‘yin va sport o‘yinlari (murakkabroq)ni ajratish mumkin. Harakatli o‘yinlar maxsus tayyorgarliksiz bo‘lishi mumkin.

Kalendar asosida reglamentlangan o‘yinlar bundan mustasno. Ular va xudi shu Harakatli o‘yinlar turli sharoitlarda o‘tkazilib, miqdori turli qoidalar asosida qatnashuvchilar kam yoki ko‘p bo‘lishi mumkin.

Harakatli o‘yinlarning ko‘p nomlari va qoidalari mavjud. Harakatli o‘yinlar bolalar va o‘smirlar orasida keng tarqalgan.

Maxsus yo‘nalish bo‘yicha (sport mashg‘ulotlari uchun, faol dam olish va davolash maqsadida o‘smirlar, o‘rta yoshli va katta yoshli bolalar orasida kam qo‘llaniladi.)

Pedagogik faoliyatda asosiy o‘rin harakatli o‘yinlarga berilib, ularga kichik guruhlar yoki butun sinf bo‘lib, sport seksiyalari va ba’zi paytlarda kattaroq jamoalar o‘ynaydi.

Yakka tartibdagi (individual) harakatli o‘yinlar bolalar tomonidan rejalashtirilib o‘tkaziladi. Bu o‘yinlarda har bir qatnashuvchi o‘z rejasi asosida, o‘ziga qiziq bo‘lgan holda o‘tkaziladi.

Harakatli o‘yinlar tartibi (qatnashuvchilarning munosabati) uning mazmuni bilan aniqlanadi.

Gimnastika, sportning turli xillari, turizmda o‘yin metodlari qo‘llaniladi qo‘llaniladi. Bunda musobaqa elementlari harakatlarning tabiyligi, g‘oyaviyligi ko‘zda tutiladi.

Bunda harakatli o‘yinlarda sport turlari bilan shug‘ullanganda (maxsus tanlangan, xalq o‘yinlari) o‘yin texnikasini rejalashtirishga qaratilgan.

Pedagogik amaliyotda o‘yin metodi jismoniy tayyorgarlik ko‘rishga va sport mashg‘ulotlarida keng qo‘llaniladi.

Shu bilan birgalikda u qatnashuvchilarda ijobiy xislatlarni, irodani mustaxkamlashda, asosiy faktor bo‘lib xizmat qiladi.

Harakatli o‘yinlarning pedagogik guruhlarga bo‘linishi o‘yinlar mazmuni haqida aniq tushuncha berib, ularni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi.

O‘yinlar o‘tkazilishining asosi jismoniy tarbiyada rivojlanishning g‘oyaviy mohiyati, estetik tarbiya va o‘yin metodlarini rejalashtirishga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.I.Azizova “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” O`quv qo`llanma T.: 2010.
2. K.D.Raximqulov “Milliy harakatli o‘yinlari” O`quv qo`llanma T.: 2012.
3. Arjan Egges, Arno Kamphuis, Mark Overmars “Motion in Games” First International Workshop, Utrecht, MIG 2008.
4. Жуков М.Н. – М.: Подвижные игры: Учеб. для студ. пед. вузов. Издателский центр «Академия» 2000. – 160 с.

I- IV- SINF O‘QUVCHILARIGA MOS HARAKATLI O‘YINLAR

M.M. Ulug‘bekova - Guliston davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu tadqiqotda, l- lV- sinf o‘quvchilari uchun mos harakatli o‘yinlar tanlash masalasi ko‘rib chiqiladi. O‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini, ijtimoiy ko‘nikmalarini va ruhiy salomatligini ta'minlashda muhim

rol o‘ynaydi. Tadqiqotda harakatli o‘yinlarning ta'rifi, ularning turli xil turlari va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligini aniqlashga qaratilgan.

O‘yinlarni tanlashda e'tiborga olinadigan asosiy omillar sifatida: jismoniy faollik darajasi, guruh ishlash qobiliyati, maqsadga muvofiqlik va qiziqarli bo‘lishi keltiriladi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda l- lV- sinflaridagi o‘quvchilar uchun eng samarali harakatli o‘yinlar misollari keltiriladi hamda ularning tashkil etilishi bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Natijada, ushbu maqola pedagoglarga, tarbiyachilarga va ota-onalarga harakatli o‘yinlarni tanlash jarayonida yordam berish niyatida yozilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya sohasida yangi yondashuvlarni taklif etadi. O‘qituvchilar va tarbiyachilar uchun ushbu tavsiyalar orqali bolalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so‘zlar: harakatli o‘yinlar o‘quvchilar l- lV sinf tanlash usullari fizik faollik tarbiyaviy ahamiyat koordinatsiya rivojlantirish jamoaviy o‘yinlar shaxsiy rivojlanish sog‘lom turmush tarsi ,o‘yin qoidalari, motivatsiya, ijtimoiy ko‘nikmalar , o‘yinga tayyorgarlik, xavfsizlik choralari.

Darsda, shuningdek turli o‘yinlami o‘tkazish jarayonida o‘rganiladigan material laming metodik jihatdan izchilligiga alohida e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu izchillik, birinchidan, darsning ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarini to‘g‘ri hal qilish, ikkinchidan, dars materiallarini to‘liq o‘tishga erishish, uchinchidan, butun dars davomida har bir mashqni muayyan me’yorda amalga oshirish imkonini beradi.

Darsning boshida yoki o‘rtasida zo‘r e’tibor berishni va o‘zaro muvofiq murakkab harakatlar qilishni taqozo etadigan o‘yin hamda mashqlar o‘tkazilsa, dars oxirida o‘quvchiiarning charchagan tana a’zolarini birmuncha tinch holatga keltiradigan o‘yin va mashqlami o‘tkazish kerak. Masalan, dars boshida bolalaming diqqatini jalb qilish uchun «0‘ylab top», «Hamma o‘z joyiga», «Man qilingan harakat» singari o‘yinlar o‘tkazilsa, darsning asosiy qismida « «Oq ayiqlar» va boshqa o‘yinlami o‘tkazish, darsning yakunlovchi qismida esa kam harakatli «Pat», «Pr-r-r.» (qush uchishini ifodalovchi tovush) singari o‘yinlami o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Agar butun dars faqat o‘yinlardan iborat boMsa, serharakat o‘yinlami kam harakatli o‘yinlar bilan, bir xil yo‘sindagi o‘yinlami ikkinchi xil o‘yinlar bilan navbatlashtirib o‘tkazish kerak.

Agar o‘qituvchi bir sport turi texnikasining ayrim qismini o‘ym orqali bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, awal o‘yinning mazmuni va yo‘nalishini puxta o‘ylab olishi zarur.

Masalan, «To‘pni oldirma» yoki «To‘p ilish» o‘yinlari yordamida bolalarga to‘p uzatish va ilib olish harakatlarini o‘rgatish belgilangan bo‘lsa, bu ishni faqat

mazkur o‘yinlar orqali arnalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki o‘ynayotganlarning asosiy e’tibori to‘pni tez uzatish va ilib olish bilan band bo‘lib, o‘yin texnikasi element - larini bajarish e’tibordan chetda qoladi. Agar bu ish tegishli metodik ko‘rsatmalarga amal qilib va ba’zi bir o‘zgarishlar kiritib o‘tkaziladigan o‘yinlar yordamida bajarilsa, maqsadga erishish mumkin.

O‘ynovchilarni ortiq charchatib qo‘ymaslik uchun hayajonli va ermak o‘yinlami ko‘p o‘tkazavermay, ularni bolalaming jismoniy tayyorgarlik darajasi va organizm imkoniyatini hisobga olgan holda boshqa xildagi o‘yin va mashqlar bilan qo‘shib olib borish kerak.

Hushyor o‘qituvchi ayrim bolalaming charchash belgilarini (rangi o‘chishini, harakatlari sustligi va o‘yinni davom ettirish istagi yo‘qligini) darhol sezib oladi.

Jismoniy tarbiya darsining muhim xususiyatlaridan biri vaqtdan unumli foydalanishdir. Bu tadbir darsni unumli o‘tkazish imkonini beradi. 0 ‘qituvchi o‘quvchilarni darsda faol qatnashtirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, hamma o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar bir me’yorda bo‘lishiga erishishi lozim. Bunga esa har bir o‘yin va har bir ishtirokchi uchun vaqtni aniq taqsimlash yoli bilan erishish mumkin. Agar o‘ynovchilar soni juda ko‘p bo‘lsa, bir necha guruh yoki jamoa tuzish, topshiriqni bajarish uchun belgilanadigan vaqtni qisqartirish lozim.

O‘yin paytida uning qoidalarini buzgan o‘quvchilami o‘yindan chiqarib yuborish emas, balki, ularga jarima ochkolari berish orqali «jazolash» maqsadga muvofiqdir. O‘yin bo‘linib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun unga yaxshi tayyorgarlik ko‘rish, o‘yin o‘tkaziladigan joyni va kerakli asbobuskunalarni oldindan taxt qilib qo‘yish lozim. O‘qituvchi maktabning imkoniyatlari va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, o‘quv dasturida tavsiya etilgan o‘yinlarni o‘zgartirishi va ularga qo‘shimchalar kiritishi mumkin.

Harakatli o‘yinlami o‘quv yilining choraklari bo‘yicha rejalashtirishda ob-havo sharoitlarini hisobga olish kerak. Masalan, O‘zbekistonda dekabr, yanvar, fevral oylaridan boshqa paytlarda mashg‘ulotlami ochiq havoda o‘tkazish mumkin. Biroq ob-havo yaxshi vaqtga mo‘ljallangan «Chillak», «Oq tosh», «Qoziq», «Tegizsang — minasan», «Bayroq uchun kurash» singari o‘yinlar rejalashtirilganida ehtiyot uchun ulaming o‘rniga bino ichkarisida o‘tkazsa bo‘ladigan o‘yinlarni ham belgilab qo‘yish kerak.

Har bir chorak oxirida o‘tkaziladigan nazorat mashg‘ulotlari uchun turli jismoniy mashqlardan iborat o‘yinlarni rejalashtirish lozim. Bunday o‘yinlar o‘quvchilaming tayyorgarligini, egallagan malakalarini, harakatlarining tezligi va o‘zaro muvofiqligini sinab ko‘rishda yordam beradi. O‘yin vaziyatida tez fikr yuritishni o‘stirish maqsadi bilan o‘yinning ayrim usullarini o‘rgatishda sharoitga muvofiq holda o‘yinga «raqib» o‘yinchini kiritish ham mumkin. Bolalar uchun

harakatli o‘yinlaming ahamiyati ularda muayyan jismoniy sifatlami hosil qilish va ularni takomillashtirish bilan cheklanmaydi.

Harakatli o‘yinlar bolalarda intizomlilik, jamoada o‘zini tuta bilish va uning sharafi, obro‘si uchun kurashish, o‘rtoqlariga beg‘araz yordam berish kabi fazilatlarni ham shakllantiradi.

I—IV sinf o‘quvchilarida uyushqoqlik bilan bir maromda yurish ko‘nikmalarni hosil qilish uchun xorovodli (doira bo‘lib aylanib raqsga tushiladigan, ashula aytiladigan) o‘yinlarni, musiqa jo‘rligida o‘ynaladigan o‘yinlami, shuningdek, aytilayotgan she’r matniga mos harakatlar bajariladigan o‘yinlami tanlash lozim. Shu maqsadda «Musiqa jo ‘rligida yurish», «Karusel», « O‘ylab top», «Kimning ovozi» singari ommaviy o‘yinlardan, shuningdek, «0‘razan-burazan», «Pat», «Pr-r-r...», «Oq terakmi — ko‘k terak» kabi milliy o‘yinlardan foydalanish mumkin. Bu o‘yinlar juda oddiy va oson bo‘lib, ulardan jismoniy tarbiya darslarida, xususan darsning boshi va oxirida samarali foydalanib kelinayotir.

Turli harakatlami bajarishda ijodiy tafakkur va mustaqillikni o‘stirishga bevosita yordam beradigan «Pr-r-r...», «Pat», «Kim keldi» singari mazmunli o‘yinlami tanlash va o‘tkazish ham muhimdir.

Agar darsda bir nechta ocyin o‘tkazilsa, ular turli yo‘sinda bolishi, ularga liar hil mashqlar va harakatlar kiritilishi lozim. O‘quvchilar bir darsning aniq vazifasini nazarda tutib, ana shu vazifani amalga oshirishda yordam beradigan o‘yinlami tanlashi kerak.

I—IV-sinf o‘quvchilariga mos harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi hisoblanadi. Shuning uchun maktab dasturida o‘yinlar boshqa materiallarga nisbatan ko‘proq o‘rin oladi. Buning sababi shuki, dasturga kiritilgan har xil jismoniy mashqlarni bolalar turli o‘yinlar vositasida osonroq idrok qiladilar va o‘zlashtiradilar. Masalan, ularga yugurib kelib uzunlikka sakrash ko‘nikmasini o‘rgatish bo‘yicha alohida mashg‘ulot o‘tkazilsa, o‘qituvchi qo‘ygan vazifa amalga oshrnay qolishi mumkin. Chunki mashqni tushuntirish, amalda ko‘rsatish, bajarish va qanday bajarilganini aniqlash, xatolami tuzatish va hokazolar bolalar uchun zerikarli bo‘ladi. Agar bu ishda «Bo‘ri zovur ichida» o‘yinidan foydalanilsa, maqsadga osongina erishiladi.

Harakatli o‘vinlarni asosan darsning asosiy va yakunlovchi qismida o‘tkazish tavsiya etiladi, chunki dasturda darsning kirish qismida saf mashqlarini o‘tkazish belgilangan.

O‘yinlarda yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg‘itish kabi harakatlar bajarilishiga alohida e’tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan asosan oddiy va o‘rtacha murakkablikdagi o£yinlar o‘tkaziladi.

Agar bolalar yetarli darajada tayyorlangan bo‘lsa, yanada murakkabroq, ya’ni jamoalarga bo‘linib ijro etiladigan o‘yinlarni ham o‘tkazish mumkin. Bolalar bu o‘yinlarda «Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» prinsipi bo‘yicha birgalikda harakat qilishni o‘rganadilar. Bu hoi butun jamoaning, jamoadagi barcha ishtirokchilarning mas’uliyatini orttiradi.

Jamoali o‘yinlar yetarli darajada chaqqonlik, hoziqavoblik, farosatlilik va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi va ayni vaqtda bu xususiyatlarni takomillashtiradi. Jismoniy tarbiya darslari ko‘pincha turli o‘yinlardan ibotat bo‘ladi va ularga gimnastika hamda sport o‘yinlarining asosiy turlari — basketbol, voleybol va hokazolar ham kiritiladi.

O‘qituvchi harakatli o‘yinlar yordamida jismoniy mashg‘ulotlami qiziqarli o‘tkazishi mumkin va bunday o‘yinlar 0‘quvchilarda turli harakat ko‘mkmalarni hosil qiladi.

Agar o‘qituvchi o‘z oldiga o‘quvchilarda sportning biror turi bo‘yicha harakat ko‘nikmalarini hosil qilish vazifasini qo‘ysa, ayrim darslar shu vazifani bajarishda yordam beradigan o‘yinlardan iborat bo‘lishi lozim. Shuni ham nazarda tutish kerakki, o‘yin darslarini O‘tkazish o‘quvchilardan ayrim o‘yin harakatlari ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi.

O’yin darslarini har o‘quv choragining oxirgi o‘n kunliklarida o‘tkazish maqsadga muvofiqroqdir. Chunki shunda o‘qituvchiga bolalar qanday harakat ko‘nikmalarini egallaganini aniqlash imkonini beradi.

Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya darslarida hosil qilingan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Darsning asosiy qismi muayyan vazifani amalga oshirishga, masalan, basketbol o‘yinining asosiy elementlarini o‘rgatishga doir o‘yin materiallaridan iborat bolsa, uning kirish qismida «to‘plar poygasi» singari harakatli o‘yinlardan foydalanish mumkin. Bunday hollarda darsning asosiy qismiga «Ovchilar va o‘rdaklar», «Otishma» o‘yinlari kiritiladi.

O‘yinlardan foydalanishda faqat ulaming elementlari qanchalik tez bajarilganini emas, balki bajarilish sifatini ham alohida hisobga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Raximqulov K.D. Harakatli o‘yinlar (ma’ruzalar matni) 2001 y.
2. Xo‘jaev F., Murodov M., Mirsolixov S. «Xalq milliy o‘yinlari 1-qism. Toshkent – 2001 y. 3. Normurodov A.N. O‘zbek milliy o‘yinlari T.: – 1999 y.
3. Rahimqulov K.D., Usmonxo‘jayev T.S. «Jismoniy tarbiyadan bolalar va o‘smirlar uchun 1000 mashq hamda harakatli o‘yinlar. 2001 y.

11-12 YOSHLI MAKTAB O‘QUVCHILARINING TENNIS SPORT TURI ORQALI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Bolbekov Elyor Abdimumin o‘g‘li **-** Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: *elyorbolbekov866@gmail.com*

Anatatsiya.Ushbu maqolada 11-12 yoshli maktab o‘quvchilarining tennis sporti orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Tennis sporti o‘quvchilarning tezlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, muvozanat va koordinatsiya kabi jismoniy ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida taqdim etilgan. Maqolada, shuningdek, tennis o‘ynash orqali o‘quvchilarning reaksiyalarini tezlashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish va psixologik salohiyatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ta'siri ham tahlil qilingan. Tennis sporti o‘quvchilarga nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki ruhiy va psixologik holatni yaxshilash imkoniyatini beradi. Maqola, bu yosh guruhida tennisni jismoniy tarbiya dasturiga kiritishning ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar:Tennis sporti, muvozanat, jismoniy tarbiya, intizom

Kirish. Tennis sporti, uning ko‘p jihatlari bilan, nafaqat jismoniy kuchni, balki ruhiy va psixologik salohiyatni ham rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bu sport turi, ayniqsa, 11-12 yoshdagi maktab o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Tennis, o‘yin davomida tezkor qarorlar qabul qilish, tezlik, chaqqonlik, muvozanat va kuchni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, tennis o‘ynash, o‘quvchilarga o‘zlarining jismoniy imkoniyatlarini yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish imkonini beradi.

Tennis sporti o‘ynash jarayonida o‘quvchilar tezlikni va chaqqonlikni rivojlantirishi mumkin. Tennis o‘yinida doimiy harakat qilish, to‘pni qabul qilish va zarbani amalga oshirish uchun tezkor harakatlar talab etiladi. Bu sportda o‘quvchilar turli pozitsiyalarga tezda ko‘chish, maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar qilishni o‘rganadilar. 11-12 yoshli o‘quvchilar uchun bu yoshdagi chaqqonlikni rivojlantirish juda muhim, chunki bu yoshda harakatlanishning samarali va to‘g‘ri texnikasi shakllanadi.

Tennisda o‘quvchilar uzun muddat davomida kuchli harakatlarni amalga oshiradilar. Bu o‘z navbatida, ularning mushak tizimini va qizil qon hujayralarining faoliyatini oshiradi. Tennis o‘ynash orqali o‘quvchilar yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarishadi, bu esa ularning umumiy jismoniy chidamliligini rivojlantiradi. O‘quvchilar zarba berishda, to‘pni qaytarishda va tezkor pozitsiyalarga o‘tishda barcha mushak guruhlarini faol ishlatadilar.

Tennis o‘ynash jarayonida muvozanatni saqlash va yaxshi koordinatsiya zarur. O‘quvchilar to‘pni qaytarish, yuqori zarba berish, to‘pni qabul qilish va shunga o‘xshash harakatlarni bajarishda mukammal muvozanatni saqlashlari kerak. Bu sport turi o‘quvchilarga tanalarini boshqarish, tezda moslashish va murakkab harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday harakatlar esa sportchilarni boshqa sport turlariga ham moslashtiradi va ularning umumiy jismoniy holatini yaxshilaydi.

Tennis sporti tezkor reaksiyalarni va yuqori darajadagi diqqatni talab qiladi. 11-12 yoshdagi maktab o‘quvchilari o‘yin davomida tezda to‘pni aniqlash, unga javob qaytarish va zarba berish, shuningdek, raqibning harakatlariga qarshi javob topish kabi vazifalarni bajarishlari kerak. Bu yoshda o‘quvchilar o‘z reaksiya tezligini oshirish va to‘pni kuzatishda yuqori darajadagi diqqatni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarning reaksiyalarini tezlashtirish va qarorlar qabul qilishni o‘rgatish, nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham foydalidir.

Tennis, sport sifatida, jismoniy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Bu sport turi yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash, nafas olish tizimini yaxshilash va mushaklarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, tennis o‘ynash o‘quvchilarga stressni boshqarish va ruhiy holatini yaxshilash imkoniyatini beradi. Sportdagi muvaffaqiyatlar va yengish motivatsiya manbai bo‘lib, o‘quvchilarni yanada sog‘lom va faol bo‘lishga undaydi.

Tennis o‘ynash o‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarishni o‘rgatadi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini boshqarish, qat'iyatlilik va intizomni rivojlantirishni o‘rganadilar. Ushbu qobiliyatlar, sportdagi muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi va o‘quvchilarning kelajakdagi maqsadlariga erishishiga yordam beradi. Shuningdek, tennis orqali o‘quvchilar o‘zlari uchun aniq maqsadlar belgilashni, o‘sha maqsadlarga erishish uchun harakat qilishni o‘rganadilar.

Xulosa.Tennis sporti 11-12 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Bu sport turining o‘quvchilarga tezlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, muvozanat va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati katta. Shuningdek, tennis o‘quvchilarning reaksiya tezligini oshirish, o‘z-o‘zini boshqarish va psixologik salohiyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, tennisni maktab dasturiga kiritish o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinin qarori Toshkent sh.1997-yil 25- avgust,414-son .

2. N.I.Axmedova (Tennis) o‘quv qo‘llanma Sport pedagogik mahoratini oshirish 2023 21-24 bet

3. N.I.Axmedova A.I. Azamatov ’’Tennis bo‘yicha sport-ta’lim muassasalarida mashg‘ulot o‘tkazish uslubiyati’’ (o‘quv- uslubiy qo‘llanma) 81-bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-18-son farmoni. http://Lex.uz 5. Yu.Yu.Aripov. Sportchilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Central asian research journal for interdisciplinary studies (Carjis) 219 p.

6. Диц С.Г., Рихтер И.К., Бикмуллина А.Р. Содержание подготовки спортсменов в теннисе. Учебно-методическое пособие. Казан – 2020 4- стр.

7. Pulatov Sh.A., Pulatov F.A., Isroilov Sh.Sh. Sport pedagogik mahoratni oshirish (Tennis) o‘quv qo‘llanma darslik Toshkent 2017 15-65 bet.

8. Pulatov A.A., Pulatov Sh.A., Abidov S.K., Pulatov F.A. Tennis nazariyasi va uslubiyati. Darslik Toshkent-2017 41-bet.

JISMONIY TARBIYANING MAZMUNI VA VAZIFALARI

Galayev Kaxxar Karimovich - Guliston davlat pedagogika institute Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: *galayevkaxxar@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiyaning mazmuni, uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi o‘rni va asosiy vazifalari yoritilgan. Muallif jismoniy tarbiyaning nafaqat sog‘lom organizmni shakllantirish, balki bolalarda harakat ko‘nikmalari, intizom, ijtimoiy muloqot va gigiyenik odatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada shuningdek, jismoniy tarbiyaning o‘yin, mashqlar va chiniqtirish vositalari orqali qanday amalga oshirilishi haqida metodik tavsiyalar ham keltirilgan. Mazkur tadqiqot jismoniy tarbiyaning maktabgacha ta’limdagi o‘rni va uning ta’sir doirasini chuqur yoritadi hamda sog‘lom avlod tarbiyasida muhim omil ekanligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, maktabgacha ta’lim, harakat ko‘nikmalari, sog‘lom turmush tarzi, chiniqtirish, bolalar rivojlanishi, intizom, o‘yinli mashg‘ulotlar, pedagogik yondashuv, sog‘lom avlod.

Kirish. Inson salomatligi va har tomonlama rivojlanishi, avvalo, to‘g‘ri jismoniy tarbiya asosiga bog‘liq. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu jarayon muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda bola organizmi jadal rivojlanadi, harakatga bo‘lgan ehtiyoji ortadi va asosiy hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi. Jismoniy tarbiya esa bu ehtiyojni to‘g‘ri yo‘naltirishda asosiy vositadir.

Jismoniy tarbiyaning mazmuni

Jismoniy tarbiya – bu bolalarni sog‘lomlashtirish, ularning harakat faolligini oshirish, mushak tizimini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashishga qaratilgan tarbiya jarayonidir. U quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **Asosiy harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish** – yurish, yugurish, sakrash, muvozanat saqlash, uloqtirish kabi harakatlar orqali bolaning umumiy rivojlanishi ta'minlanadi.
- **Organizmni chiniqtirish** – havo va suv bilan chiniqish, ochiq havoda faoliyat yuritish orqali sog‘lom immun tizimi shakllanadi.
- **Estetik tarbiya** – ritmik harakatlar, raqs va musiqali mashqlar bolalarda go‘zallikni his etish qobiliyatini shakllantiradi.
- **O‘yin orqali o‘rganish** – harakatli o‘yinlar vositasida bola nafaqat harakat qiladi, balki muloqotga kirishadi, aqliy faoliyati ham rag‘batlantiriladi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari

Jismoniy tarbiyaning maktabgacha ta'limdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **Sog‘lom bola tarbiyasi** – bolaning jismoniy salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni oldini olish.
2. **Harakat madaniyatini shakllantirish** – harakatlarni tartibli, aniq va maqsadga yo‘naltirilgan holda bajarishni o‘rgatish.
3. **Intizom va iroda sifatlarini rivojlantirish** – mashg‘ulotlarda qat’iyat, e’tibor, o‘z-o‘zini boshqarish kabi sifatlar paydo bo‘ladi.
4. **Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish** – jamoada harakat qilish, boshqalarga yordam berish, tartibga rioya qilishni o‘rgatish.
5. **Gigiyenik odatlarni mustahkamlash** – shaxsiy gigiyena, toza havo, to‘g‘ri ovqatlanish kabi sog‘lom hayot asoslarini tushuntirish.

Xulosa. Jismoniy tarbiya – bu nafaqat sog‘lom tanani, balki sog‘lom fikrlovchi, irodali va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash vositasidir. Ayniqsa, maktabgacha ta’limda bu tarbiya jarayoni bola kelajagi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham pedagoglar, ota-onalar va mutaxassislar jismoniy

tarbiyaga jiddiy e’tibor qaratishi, uni bolalar hayotining ajralmas qismi sifatida yo‘lga qo‘yishi lozim.

Jismoniy tarbiya, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. U nafaqat bola organizmini sog‘lomlashtirish, balki uning harakat ko‘nikmalarini, intizomini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari bolalar organizmini chiniqtirish, harakat madaniyatini shakllantirish, ijtimoiylashuvni qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom turmush tarzini tarbiyalashdan iborat. Mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali bolalar nafaqat sog‘lom, balki har tomonlama faol va madaniyatli bo‘lib ulg‘ayishadi.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya pedagoglari va ota-onalar tomonidan bolalar hayotining ajralmas qismiga aylantirilishi, jismoniy mashqlarni bolalar uchun qiziqarli va samarali tarzda tashkil etish zarur. Bularning barchasi sog‘lom va baquvvat avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova, R. (2020). *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. Toshkent: «Ilm Ziyo» nashriyoti.
2. Yo‘ldoshev, B. va boshqalar. (2021). *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
3. Qodirova, M. (2019). *Bolalar jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlarning o‘rni*. – “Ta’lim va rivojlanish” ilmiy jurnali, №2(45), 78–83-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ–4312-son. (2019-yil 5-aprel). “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.
5. Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2022). *Davlat maktabgacha ta’lim dasturi: Ilk qadam*. – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi nashriyoti.
6. Axmedov, A., & Norboyeva, G. (2018). *Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Vygotskiy, L. S. (2000). *Psixologik rivojlanish nazariyasi*. Moskva: Pedagogika.
8. Mahmudova, S. (2021). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat faoliyatini rivojlantirish metodikasi*. – “Ilmiy-amaliy jurnali”, №3, 52–57-bet.

VOLEYBOL SPORT TURINI RIVOJLANTIRISH

Bolbekov Abduqalik Suyundikovich - Guliston davlat pedagogika institute
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: *bolbekovabduqalik@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada voleybol sport turining rivojlanishi, uning ahamiyati va jamiyatdagi roli ko‘rib chiqiladi. Maqolada voleybolning ommaviylashtirilishi, jismoniy faollikni oshirish, yoshlarni sportga jalb qilish va mamlakat sportini xalqaro miqyosda yuqori darajaga ko‘tarish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlar yoritilgan. Voleybol sportini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida infratuzilmaning yaxshilanishi, yuqori malakali trenerlar tayyorlash, yoshlarni sportga qiziqtirish va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish masalalari muhokama qilingan. Maqola voleybolning jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan takliflarni taqdim etadi va bu sport turini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy qadamlarni belgilaydi.

Kalit so‘zlar*:* Voleybol, sport rivojlanishi, infratuzilma, yoshlarni sportga jalb qilish, xalqaro musobaqalar, malakali trenerlar, sport maydonlari, jismoniy faollik, sport turlari, sog‘lom turmush tarzi.

Kirish. Voleybol – jahon miqyosida eng ommabop sport turlaridan biri bo‘lib, nafaqat professional, balki ommaviy sport sifatida ham keng tarqalgan. Ushbu sport turi ko‘plab mamlakatlarda sportchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Voleybolni rivojlantirish, ayniqsa, yosh avlodni sportga qiziqtirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va mamlakat sportini xalqaro miqyosda yuqori darajaga ko‘tarish uchun alohida ahamiyatga ega. Maqolada voleybol sport turini rivojlantirish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlar, zamonaviy trening metodikalari, infratuzilma va mutaxassislar tayyorlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Voleybol sport turining ahamiyati

Voleybol sport turining rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat jismoniy sog‘lom va mustahkam futbolchilarni tarbiyalashni, balki ijtimoiy rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Voleybolning o‘ziga xosligi shundaki, u jamoaviy sport turi bo‘lib, har bir futbolchining rolini o‘zgartirish va jamoa ichida hamkorlikni kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va bolalar, o‘smirlar uchun ajoyib tarbiya vositasiga aylanishi mumkin.

Voleybolni rivojlantirishning asosiy maqsadi jismoniy faollikni oshirish, sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish, jamiyatda sog‘lom turmushni qo‘llab-quvvatlash,

shuningdek, yurtimizning xalqaro sport maydonlarida muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashdir.

Voleybol sportini rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar

1. **Infratuzilmani yaxshilash**
   Voleybolning keng tarqalishi uchun sport infratuzilmasi juda muhim. Yangi sport zallari va maydonlarining qurilishi, mavjud ob'ektlarni modernizatsiya qilish, ko‘p miqdorda zamonaviy jihozlarni o‘rnatish sportchilar uchun qulay sharoit yaratadi. Mahalliy miqyosda voleybol maydonlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sportchilar uchun trening jarayonlarini yengillashtiradi.
2. **Trenerlar va mutaxassislar tayyorlash**
   Yuqori malakali murabbiylar va sport mutaxassislarini tayyorlash voleybol sportining rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Trenerlar nafaqat texnikani, balki sportchilarni ruhiy va psixologik jihatdan tayyorlashda ham o‘zining ko‘nikmalarini oshirishlari lozim. O‘zbekistonning sport universitetlari va kollejlarida voleybol bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish, murabbiylarga zamonaviy metodikalarni o‘rgatish lozim.
3. **Yoshlarni sportga jalb qilish**
   Bolalar va o‘smirlar orasida voleybolga qiziqishni oshirish uchun sport maktablari va klublarni tashkil etish, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash kerak. Maktablarda voleybol o‘yinlarini o‘tkazish, yoshlar o‘rtasida musobaqalar tashkil etish voleybolni ommalashtirishga xizmat qiladi. Bunda, ota-onalar va pedagogik xodimlarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish ham muhim.
4. **Xalqaro musobaqalarda ishtirok etish**
   Voleybol sportini rivojlantirishda xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok qilish muhim ahamiyatga ega. Milliy jamoaning xalqaro maydonlarda ko‘proq ishtirok etishi, xalqaro tajriba almashish va yuqori darajadagi sportchilarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, bunday musobaqalar voleybolning ommaviyligi va mashhurligini oshiradi.

Voleybol sport turini rivojlantirishdagi ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyat

Voleybolni rivojlantirish, nafaqat sportchilarni tayyorlash, balki jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ham yordam beradi. Yangi sport maydonlari va infratuzilma ob'ektlarining qurilishi, voleybol sportining keng tarqalishi, sog‘lom avlodni tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek, xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli ishtirok etish, O‘zbekistonning sport sohasidagi iqtisodiy holatini mustahkamlashga, turizm va madaniyatning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Xulosa. Voleybolni rivojlantirish jarayoni jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Sportning ushbu turini rivojlantirish uchun zamonaviy

infratuzilma yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, yoshlarni sportga jalb qilish, xalqaro musobaqalarda faol ishtirok etish zarur. Bularning barchasi O‘zbekistonning sport sohasida yuqori natijalarga erishishga va voleybolni xalqaro miqyosda tanitishga yordam beradi. Agar sportni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilsa, voleybol sporti kelajakda yanada muvaffaqiyatli bo‘lishi va mamlakatimizda keng tarqalishi mumkin. Voleybol sporti, nafaqat jismoniy sog‘lom va faol avlodni tarbiyalashda, balki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu sport turini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy chora-tadbirlar, sport infratuzilmasini yaxshilash, malakali trenerlar tayyorlash, yoshlarni sportga jalb qilish va xalqaro miqyosda ishtirok etish masalalariga e’tibor qaratishni talab etadi. Voleybolning keng ommalashishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlarida o‘z o‘rnini topishiga imkon yaratadi. Agar ushbu sohada jiddiy investitsiyalar va qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa, voleybol sporti nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida o‘z obro‘sini oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov, A. (2018). *O‘zbekiston sportining rivojlanish yo‘llari*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Sultonov, X., & Shermatov, B. (2020). *Sport infratuzilmasi va uning rivojlanishi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi nashriyoti.
3. Azizov, S. (2021). *Voleybol sportining zamonaviy metodikasi*. – “Sport ta’limi” ilmiy jurnali, №2(10), 34–40-bet.
4. Voleybol federatsiyasi. (2019). *Voleybol sportining rivojlanishi va ommalashuvi* – Tashkent: Voleybol federatsiyasi nashriyoti.
5. Akhmedov, T. (2022). *Sport turlari va ularning ijtimoiy ahamiyati*. – "Sport jurnali", №1(50), 45–49-bet.
6. Vygotskiy, L. S. (2000). *Psixologik rivojlanish nazariyasi*. Moskva: Pedagogika.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (2021). *O‘zbekiston sportini rivojlantirish konsepsiyasi*. Toshkent: Hukumat qarori.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HARAKATLI O‘YINLARNING GIGIYENIK VA SOG‘LOMLASHTIRISH AHAMIYATI

Abdusalomov Doniyor Rustam o‘g‘li – Nizomiy nomidagi TDPU jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchi.
e-mail: abdusalomovdoniyor@gmail.com
Xusanboyeva Feruza Ergash qizi - Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi
e-mail: xusanboyevaferuza@gmail.com

Annotatsiya.Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasida ochiq havoda o‘tkaziladigan o‘yinlarning gigienik va sog‘lomlashtiruvchi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ochiq havoda o‘tkaziladigan o‘yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishi, immunitetini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va umumiy salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, gigiena talablarini hisobga olgan holda tashkil etilgan o‘yinlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Sport zal, texnika, taktika, o‘zlashtirish, jismoniy qobiliyat, daraja, sportchilar,organizm, funktsionallik,imkoniyat, egiluvchanlik, sog‘lik,mashg‘ulot, musobaqa, ruhiy, axloqiylik, irodaviy, tarbiya.

Kirish. Salomatlikni asosan tananing barcha organizimlarining to‘g‘ri joylashishi tuzilishi funksional faolligi har qanday kasalikllarga moyinllik yo‘qligi bilan belgilanadi. Oddiy jismoniy rivojlanish-bu yoshda tanasining tuzilishi va funksiyalarining o‘sishiga bilan tabiiy ravishda sodir bo‘ladigan marfologik va funksional o‘zgarishlar juda murakkab ammo shunga qaramay rivojlanishning normal g‘ayritabiiy yo‘nalishi jarayonni tashqi ko‘rinishda aks ettiruvchi ba’zi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanishi mumkin. Ko‘rsatkichlar tananing balandligin, vazni va ko‘krak qafasining atrofi.

Ularning tananing massasi, zichligi va shakli bilan bog‘liq. Ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha bolalarning jismoniy kuchini baholash mumkin. Ba’zi tav’siflovchi somatosko‘pik belgilari mushaklarning holati yog‘ birikmasining darajasi durus shakli bolog‘at yoshi va fiziometrik belgilar o‘pkaning hayotiy qobilyati umurtqa pog‘onalarining kuchi, o‘pkaning kuchayishi hisobga olinadi. Boshlang‘ich maktab yoshida bolalarda to‘qimalarning tuzilishi shakllanishda davom etadi. Uzunlikning o‘sish sur’ati avvalgi davirga nisbatan biroz sekinlashadi maktabgacha yosh lekin tana vazni ortadi. Bandligi har yili tahminan 4sm ga o‘sadi vazni 2kg ga oshadi. Shuning uchun bu yosh yaxlitlash davr deb ataladi. Faol vosita faoliyati suyak va mushak to‘qimalarning o‘sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Ichki organlari va sezgi organlari bolalarning tanasida maktablik jarayonlari rag‘batlantiradi himoya xususiyatlarini oshiradi.

Qanday leykotsitlar sonining koʻpayishi va ularning patagen mikroblarni singdirishi faolligi tufayli organizimni noqulay muhit issiqlik, sovuq, kislarod etishmasligi yuqori atmasfera bosim, zaharli havo aralashmalari va boshqalar ta'siriga chidamliligi. Shuni takidlash kerakki, oʻsish rivojlanishi salomatlik, faoliyat birinchi navbatda ota-onalardan ma'lum jismoniy ma'lumotlarni meros qilib olish. Asosan toʻgʻri ratsiyonal ovqatlanish oqilona turmush tarziga hal qiluvchi omilar hisoblanadi. Oʻz ichida bolalarning yuqori hayotiy qobiliyatining ta'minlash maqsadi amlga oshadi. Zamonaviy sharoitda muntazam, maxsus tashkil etilgan jismoniy mashiqlarsiz, yaxshi sharoitlarda yashovchi bolalar ham oʻrtacha va rivojlanish darajasidagi bolalar erisha oladiga jismoniy tayyorgarlik darajasiga erisha olmaydi. Boshlangʻich maktab yoshidagi bolalarning mator faolligi ham ortiqcha boʻlishi kerak.

Mashgʻulotning ahamiyati harakat madaniyatini kompleks shakllantirish, tarbiyaviy va tarbiyaviy vazifalarni mustahkamlash, muntazam ravishda amalga oshirishdan iborat. Bu vazifalarning bajarilishi bolaning kamolotini, organizmining funksional takomillashishini, bolaning salomatligini mustahkamlashni, ular tomonidan toʻgʻri harakat koʻnikmalarini, jismoniy sifatlarni va jismoniy tarbiya va sportga ijobiy hissiy munosabatni oʻzlashtirishni, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.

Mashgʻulotlarda sogʻlomlashtiruvchi vazifalarni bajarish uchun bolalarning har tomonlama harakat faoliyati yoʻli bilan erishiladi. Ular organizmdagi barcha funksional jarayonini, uning optimal gigienik va chiniqtiruvchi sharoitlarda hayotiy faoliyatni kuchaytirishga yordam beradi. Ochiq havodagi mashgʻulotlar maksimal sogʻlomlashtirish samarasiga ega, ular harakatlarni keng joyda bajarishga imkon beradi, jismoniy yuklamani kuchaytiradi, sport oʻyinlari, estafetalarni oʻtkazishga keng imkoniyat yaratadi. Biroq qalin kiyim va poyabzal harakatlarning aniq ifodali, chiroyli boʻlishiga xalaqit beradi.

Harakat faoliyati jarayonida yurak qisqarishi chastotasi koʻrsatkichlari mashgʻulot boshlanishida uning asta-sekin oshib borishi, soʻng kuchaya borib, mashgʻulotlarning asosiy qismida yuqori darajaga etishini va mashgʻulot soʻngida asta- sekin pasayishini koʻrsatdi. Bunday izchillik bir tomondan, qon aylanish tizimining faoliyati va organizm ish qobiliyati bilan, ikkinchi tomondan, diqqat-e'tiborni qaratish, reaksiya tezligi kabi ruhiy jarayonlarning kechishi va shu bilan boglik ravishda harakatlarning juda aniqligi bilan belgilanadi.

Mashgʻulot davomida organizm va ruhiyatda kechadigan oʻzgarishlar markaziy asab tizimi nazoratida amalga oshiriladi. Bunda uning asab markazlari, asab jarayonlari harakatchanligi, qoʻzgʻaluvchanligining oshishida ifodalanadigan oʻz ish qobiliyati kuchayadi. Mashgʻulotlar davomida butun organizmning juda ishchanligi sharoitida ishlayotgan organ va tizimlar faoliyatining uygʻunligi

yaxshilanadi, to‘gri ish ritmini topish hamda shu bilan bog‘lik ravishda emotsional holatni oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu davrda ish qobiliyatining eng yuqori darajasi kuzatiladi. U faoliyatning ayrim jihatlari tavsifining o‘zgarishga bog‘lik holda turlanib turadi (harakatlarni bajarish, tarbiyachi harakat namunasini kuzatish, uning ko‘rsatmalarini tushunib olish va hokazo).

Harakatli o‘yinlarning eng asosiy mazmuni o‘ynovchilarning harakatlanishi va turli-tuman harakati hisoblanadi. Uni to‘g‘ri boshqarib borilganda ular organizmning boshqa sistemalari va nafas olish, mushak, yurak-qon tomirlariga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Harakatli o‘yinlarning funksional faoliyatini oshiradi, tanadagi har xil yirik va mayda mushaklarga xilma-xil dinamik ishlarni jalb qiladi, bo‘g‘inlardagi harakatchanlikni oshiradi. Ayniqsa o‘yinchilarning sog‘lomlashtirish nuqtai nazaridan ahamiyati shundan iboratki, harakatli o‘yinlarni ochiq havoda barcha fasllarda o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

O‘yinda qo‘llaniladigan jismoniy mashqlar ta’siri ostida moddalar almashuvi har tomonlama faollashadi (uglevod, oqsil, yog‘ va minerallar). Mushak ishi ichki sekretsiya bezlarining vazifalarini kuchaytiradi. Shug‘ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlarini hisobga olish bilan faqatgina mashg‘ulot to‘g‘ri qo‘yilgandagina ana shunday harakatli o‘yinlar yordam beradigan gigiyenik va sog‘lomlashtirish ahamiyatiga ega bo‘lish mumkin. Shuni hisobga olish kerakki, ya’ni harakatli o‘yinlarda yuklamani aniq taqsimlash imkoniyati chegaralangan, chunki har bir o‘yin qatnashchisining tayyorgarligini oldindan bilish imkoniyati yo‘q. O‘yinda doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi holat, yuqori jo‘shqinlikdagi o‘zaro harakatning ayrim o‘yin qatnashchilaridan mashqning mazmunini dasturga kiritilmasa yuklamaning o‘lchami hamda yo‘nalishini aniq tartibga solishga imkon bermaydi. Shuning uchun jismoniy yuklama optimal bo‘lishi uchun uni kuzatib borish zarur.

O‘yin bilan muntazam shug‘ullanishda shiddat bilan yuklamani qo‘llashi mumkin, chunki bolalar organizmi unga sekin-asta moslashib borishi kerak.Shug‘ullanuvchilarning asab sistemasiga o‘yin samarali ta’sir ko‘rsatib borishi kerak. Bunga optimal yuklama berish yo‘li orqali erishiladi, shuningdek, o‘yinni shunday tashkil qilinishi, o‘ynov- chilarda ijobiy ruhiy kechinmalarni keltirib chiqaradi, o‘yinni yomon tashkil qilinishi, salbiy ruhiy kechinmalariga olib keladi, asab jarayonlarining normal ishlashi buziladi, stresslar (qattiq hayajonlanish) paydo bo‘ladi, bu esa salomatlikka zarar yetkazadi.

Bolalar va o‘smirlar harakat faolligi sifat jihatlarini rivojlantirishning fiziologik omillari mushaklar hamda vegetativ organlar faoliyatining boshqarilishini takomillashtirishda namoyon bo‘ladi. Qisqa muddatli, tezkorlik va kuch harakatlarida asab-mushak tizimi faoliyati boshqaruvini yaxshilashga ko‘proq ahamiyat beriladi. Birmuncha uzoq muddatli faoliyatda harakat funktsiyalarini

takomillashtirish bilan birga vegetativ funktsiyalarni muvofiqlashtirish ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Biroq bolalar va o‘smirlar organizmining kuch, tezlik va chidamlilik ko‘rsatkichlari yaxshilanishini belgilaydigan funktsiyalarining fiziologik boshqarilishini yaxshilashda eng muhim o‘rinni asab tizimi, ayniqsa, mushak zo‘riqishlarida organizmning funktsiyalari yaxshilanishini ta’minlovchi aloqalarning shakllanishi egallaydi. Shunday qilib, bolalik davrida kuch, tezlik va chidamlilikning o‘zaro bog‘liqligiga oid turli-tuman shakllarni belgilovchi fiziologik mexanizmlar ham xilma-xildir. Shartli-reflektor omillar muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlar davomida biror yo‘nalishdagi kuch, tezlik yoki chidamlilikni rivojlantiruvchi harakatlar uchun markaziy asab tizimida mushaklar hamda vegetativ organlar ishini dasturlashtirishning ma’lum shakllari yuzaga keladi. Harakatli o‘yinlar harakat qobiliyatlari kompleks rivojlantirish vazifasining amalga oshirilishini maksimal darajada ta’minlaydi, chunki ularning mazmuni harakat dasturlarini shakllantirish va almashtirishga yo‘naltirilgan.

Ma’lumki, insonning rivojlanish jarayonida egallab boradigan harakat tajribasi turli darajadagi harakat dasturlarining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida o‘z ifodasini topadi. Harakat malakalari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, yangi harakatlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari shuncha ko‘p bo‘lishi tabiiy. Harakatli o‘yinlar murakkab tizimlar bo‘lgan tana va uning qismlari holatlari, harakatlar va harakat faoliyatlarining tez-tez almashinib turishi bilan tavsiflanadi.

Harakatli o‘yinlarning qoidasi o‘yin qatnashchilarining o‘zaro harakatini tartibga soladi va ortiqcha hayajonlanishlarini yo‘qotadi. O‘yin qoidasi bo‘yicha aniq xolisona hakamlik qilish o‘yinchilarda ijobiy ruhiy kechinmalarni keltirib chiqaradi. Harakatli o‘yinlarni muntazam ravishda qo‘llanilishi asab jarayonlarida dinamik stereotipni ishlab chiqishga yordam beradi, bu esa harakatni bajarishni yengillashtiradi. O‘yinning ayniqsa yoz va qish fasllarida ochiq havoda o‘t-kazilishi (ob-havoni hisobga olish bilan) bolalarning chiniqishlariga yordam beradi.

Xulosa. Hozirgi vaqtda axborot oqimini kuchayib borishi, o‘quv mash-g‘ulotlari vaqtining ortishi, harakatni namoyishi, mushakni zo‘r berishni talab qilinishi, harakatning faolligining pasayishi sababli o‘sib kelayotgan yosh avlodda gipodinamiya oshib borishi kuzatiladi. Harakatli o‘yinni keng miqiyosda foydalanilishi gipodinamiyani pasaytirishga yordam beradi, chunki bu harakat faoliyatini yetishmasligi o‘rnini to‘ldiradi. Harakatli o‘yinda o‘yinch ilar uzoq davom etgan aqliy faoliya- tdan keyin faol dam olishlari mumkin. Uni maktabda tanaffus vaqtida, dars tugagandan keyin maydonchada sayr qilish vaqtida (kuni uzaytirilgan guruhda), maktabdan qaytib kelgandan keyin uyda va darsni tayyorlab bo‘lgandan so‘ng shunday maqsadda qo‘llaniladi. Harakatli o‘yinlar maktabda kichik sinflarda iloji boricha dars vaqtida vaqtli jismoniy tarbiya (fizkultpauza) ko‘rinishida o‘tkazilishi kerak, chunki 7-8 yoshli bolalar 45 daqiqa davomida

zo‘riqadi, ayniqsa o‘quv kunining oxirgi darslarida juda ham qiyin bo‘ladi. Parta yonida bolalar bilan qisqagina o‘ynaladigan harakatli o‘yin asab markazlarining ishini o‘zgartiradi, dam olishga imkon beradi (asab markazlarining qo‘zg‘alishini tormozlaydi) va mushak faoliyatini faollashtiradi. Bolalarda jismoniy rivojlanish orqada qolganda harakatli o‘yinlardan foydalanish zarur, chunki u organizmni sog‘lomlashtirishga yordam beradi, jismoniy rivojlanishning umumiy darajasini oshiradi. Harakatli o‘yinlar sanatoriya va statsionarlarda kasal bolalarning salomatligini tiklashda maxsus davolash maqsadida qo‘llaniladi. O‘yin jarayonida bolalarda ro‘y beradigan funksional va jo‘shqinlikni ruhiy ko‘tarilishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaeva M. Bolalar o‘yinlarida o‘zaro munosabatlar “Boshlang‘ich ta’lim“ Toshkent 2000-yil.

2. Xo‘jaev F. “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya”. 1997-yil.
3. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. o‘quv qo‘llanma. Toshkent, O‘z DJTI, 2005 y-171 b.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar ” Toshkent. “Nihol nashryoti” 2013-yil. 278-bet.
5. M.E.Jumaev. M.Y. Yuldasheva, B.U.Mingbaeva, G. Mamatova “Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innavatsiyalar” metodik uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2017-yil “O‘qituvchi”. 2004-yil. 102-b.

VOLEYBOL SPORT TURINING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Abdusalomov Doniyor Rustam o‘g‘li - Nizomiy nomidagi TDPU jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi.

e-mail: *abdusalomovtdpu*@gmail.com

Madaminova Nilufar Nuriddinjon qizi - Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi.

e-mail: *kspiinstitute@gmail.com*

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari rivojlangan o‘quv dasturining ajralmas qismi sanalib, jismoniy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Odatda, jismoniy tarbiya darslarida o‘qitiladigan turli xil sport turlari orasida voleybol talabalar o‘rganishi va ishtirok etishi uchun eng muhim va foydali sport turlaridan biri sifatida ajralib turadi. Voleybol

o‘yini nafaqat ajoyib jismoniy mashqlarni ta’minlaydi, balki o‘quvchilarga jamoaviy ish, muloqot va boshqalar kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Ushbu maqolada biz voleybol sport turiga va uning darslardagi ahamiyatiga e’tibor qaratamiz.

Kalit so‘zlar: sport, voleybol tarixi, mushaklar rivojlanishi, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, inventarizatsiya, organism.

Dinamik va qiziqarli sport turi bo‘lgan voleybolning kelib chiqish tarixi bor. U 1895-yilda Massachusets shtatining Xoliok shahridagi sport ishqibozi va YMCA direktori Uilyam G.Morgan tomonidan ishlab chiqilgan. Basketbol, beysbol, tennis va qo‘l to‘pi elementlarini o‘zida mujassam etgan o‘yinni izlayotgan Morgan voleybolni jamoaviy ish, chaqqonlik va strategiyani ta’kidlaydigan ko‘ngilochar mashg‘ulot sifatida yaratdi. Ushbu sport oddiy qoidalar va zarur bo‘lgan minimal jihozlar tufayli tezda mashhur bo‘lib, uning global tarqalishiga zamin yaratdi.1913-yilga kelib Osiyo qit’asida voleybolning rivojlanishi ta’minlandi, chunki o‘sha yili o‘yin Manilada tashkil etilgan birinchi uzoq Sharq o‘yinlari dasturiga kiritilgan edi. Shuni ta’kidlash kerakki, uzoq vaqt davomida Osiyoda voleybol "jigarrang" qoidalarga muvofiq o‘ynagan, bu boshqa narsalar qatorida 16 o‘yinchidan foydalangan (o‘yinlarda ko‘proq ishtirok etish uchun).Bugungi kunda esa ushbu sport turi eng ommabop sport turiga aylangan.Voleybol -ajoyib, chiroyli va jozibali sport turi. Bu o‘yin qoidalarining soddaligi va jozibadorligi voleybolni har qanday yosh vakillari o‘ynashi mumkinligi bilan bog‘liq. Voleybol barcha mushaklarni rivojlantiradi va tez fikrlashga o‘rgatadi. Kuch, chaqqonlik, chidamlilik, yengil harakat fazilatlari va bu fazilatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyatini rivojlantiradi. Nafas olish yurakqon tomir faoliyatini mustahkamlaydi, aqliy charchoqni ketkazadi. Voleybol tanaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uni ortiqcha yukdan xalos qiladi. Bu bizni jamoa sifatida harakat qilishga, shaxsiy manfaatlarimizni jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishga, intizomli bo‘lishga, sheriklarimizga yordam berishga o‘rgatadi.

Voleybolning inson tanasiga ijobiy ta’siri, uning ko‘p qirraliligi va texnik soddaligi sog‘liqni saqlash sohasida yaxshi natijalar berishini ko‘rsatadi. Voleyboluyda ham, ochiq havoda ham o‘ynash mumkin bo‘lgan mashhur o‘yin hisoblanadi. Ushbu qiziqarli o‘yinning oddiy inventarizatsiyasi va oddiy qoidalari ko‘plab havaskor o‘yinchilarning g‘alaba qozonishini ta’minlaydi. Talaba uchun o‘quv jarayonidan so‘ng jismoniy va hissiy stressni yengillashtirishi muhimdir. Bunga voleybol orqali sport zalda osongina erishish mumkin. Dastur talaba shaxsini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga, o‘qish va

ijod uchun motivatsiyani rivojlantirishga, uning hissiy farovonligini ta’minlashga, antisotsial xatti-harakatlarning oldini olishga, bolalarning aqliy va jismoniy salomatligi jarayonining yaxlitligiga qaratilgan.Zamonaviy voleybol sportchilar organizmining funksional holatiga, jismoniy sifatlariga yuqori talablar qo‘yadi. Chunki voleybol mashg‘uloti

Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar paytidagi jismoniy yuklama juda yuqori bo‘lib, unga yaxshi tayyorgarlik ko‘rilmasa, muntazam va qat’iylik bilan mashq qilinmasa, natija kutilgandek bo‘lmaydi. Voleybol o‘yini vaqtidagi umumiy maqsadga erishishga intilish, o‘yinchini jamoa uchun jonkuyar bo‘lishga, hamkorlikka, o‘zaro yordamga o‘rgatadi hamdo‘stlik va birodarlikni tarbiyalaydi. Voleybolchi mashg‘ulot jarayonida o‘z gavdasining har tomonlama rivojlanishiga, xushbichim bo‘lishiga, harakatlarning jozibadorligiga erishadi. Qizg‘in sport kurashi, jamoa faoliyatining uyg‘unligi, o‘yinchilar va tomoshabinlarga chuqur estetik zavq bag‘ishlaydi.Voleybolchilar safining uzluksiz o‘sishi, o‘z navbatida, mamlakat terma jamoasi safining yanada mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.Voleybol o‘yini har bir sportchidan reaksiya tezligining oliy darajasini talab qiladi. Voleybolchining butun faoliyati vaqt tanqis paytda javob reaksiyalarini bajarishga tayyorlik bilan aloqador. Voleybolchilarning barcha harakatlari tanlashning murakkab reaksiyalari mexanizmi bo‘yicha o‘tadi va idrokning ham, javob harakatining ham katta tezligi bilan ham xarakterlanadi. Voleybol mashg‘ulotlari ishtirokchilarning asosiy jismoniy fazilatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi - chidamlilik, harakatlarni muvofiqlashtirish, tezlik-kuch sifatlari, turli motorli ko‘nikmalarni shakllantirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash, shuningdek, bolaning shaxsiy fazilatlari: xushmuomalalik, iroda, o‘rtoqlik hissi, o‘zingiz va o‘rtoqlaringiz oldida o‘z harakatlari uchun javobgarlik hissi. Harakat tezligi, zukkoligi, xizmat ko‘rsatishning aniqligi, ta’sirning ravshanligi va g‘alabaga erishishga qaratilgan boshqa harakatlar bo‘yicha raqibdan o‘zib ketish istagi ishtirokchilarni o‘z imkoniyatlarini baholashga, maksimal kuch bilan harakat qilishga va mashg‘ulotlar jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engishga o‘rgatadi. kurash. O‘yinning raqobatbardoshligi, taktik individual va guruh harakatlarining mustaqilligi, vaziyatning doimiy o‘zgarishi, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik o‘yinchilarda turli xil his-tuyg‘ularni va tajribalarni namoyon qiladi. Yuqori hissiy yuksalish doimiy faollik va o‘yinga qiziqishni saqlaydi.Voleybolning bu xususiyatlari o‘quvchilarni his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘z harakatlari ustidan nazoratni qo‘ldan boy bermaslik, muvaffaqiyatga erishgan taqdirda kurashni susaytirmaslik, omadsizlikka uchragan taqdirda esa yiqilmaslikka tarbiyalash uchun qulay sharoit

yaratadi.ruh. Yuqoridagilar asosida o‘quvchilarning xulq-atvor munosabatlarini shakllantirish, voleybolni sport o‘yini sifatida o‘zining texnik va uslubiy vositalar shaxsning ichki dunyosini samarali ravishda boyitish, tiklanish va rivojlanish sohasidagi xabardorligini kengaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Kolodnitskiy G. A. Talabalarning darsdan tashqari faoliyati. Voleybol: o‘qituvchilar va metodistlar uchun qo‘llanma. Moskva: Ma’rifat, 2011-yil.

2.Jeleznyak Yu.D., Portnov Yu.M. va boshqalar Sport o‘yinlari: Texnika, taktika, o‘qitish usullari M .: "Akademiya" nashriyot markazi, 2004 -yil.

3.Jeleznyak Yu.D. 120 voleybol darslari -Internet resurslari -nashaucheba.ru

4.Furmanov A.G. Zamonaviy voleybol maktabi, 2009-yil

5.Rossiya Federatsiyasi Ta’lim va fan vazirligining davlat dasturiIxtisoslashtirilgan ta’lim uchun jismoniy madaniyat. Moskva. Ta’lim. 2010-yil6.Б.Б.Кипчаков А.Q.Утепбергенов. Интенсив жисмоний юкламаларнинг юқори тоифали спортчиларнинг физиологик ҳолатига таъсири. Илим ҳám жáмийет. No1.2021.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINi AMALGA OSHIRISHDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI

T.U. Ismoilov - Namangan davlat universiteti “Sport faoliyati va jismoniy madaniyat” kafedrasi professori.

D.K. Zaynobidinov - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakul’teti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

M.T. Po‘latov - Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti, Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi.

Annotatsiya: ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini amalga oshirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, salomatlik, qo‘rqmas, epchil, dovyurak, aqlli, sog‘lom, ruhan tetik, baquvvat, jismoniy mashqlar, turli o‘yinlar.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab respublikamiz rahbariyati tamonidan bochqa sohalar bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sportga alonida e’tibor qaratildi. Respublikamizda istiqomat qilb kelayotgan aholini jismoniy tarbiya va sportning barcha turlari bilan muntazam ravishda shug‘ullanishlari uchun etarli va talab darajasida sharoitlar yaratib kelinmoqda. Shu

boisdan ham respublikamiz rahbariyati va prezidentimiz tomonidan bu borada katta ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yurtimiz aholisini salomatligini mustahkamlash borasida jismoniy tarbiya va sportga oid bo‘lgan qonun, farmon va qarorlarni qabul qilinishi muhum ahamiyatga ega bo‘lmoqda[1;2;3;4].

Qadim zamonlarda ham insonlar o‘zlarining turli xil ehtiyojlarini qondirish maqsadida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishgan. Bu esa asta sekinlik bilan sog‘lom turmush tarzini amalga oshirishdagi jismoniy tarbiyaning asosiy vositalariga aylangan. Bu jismoniy tarbiyaning asosiy vositalaridan bugungi kunda ham samarali foydalanilmoqda.

O‘rganib chiqilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlardan, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlardan va pedagogik kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, sog‘lom turmush tarzi insonning uzoq umr ko‘rishidagi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

O‘tmishdan ma’lumki, sharq allomalari va mutaffakirlarining jismoniy tarbiya, sport, salomatlik va sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi bildirgan fikrlari hozirgi kunda ham insonning jismonan sog‘lom, ruhan tetik va barkamol bo‘lib voyaga etishida katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Tarixga oid bo‘lgan ilmiy-uslubiy manbalarda, xalq og‘zaki durdonalarida hamda ilmiy-nazariy meroslarda jismoniy tarbiya, sport, sog‘lom turmush tarzi va inson salomatligi haqida juda ko‘p ma’naviy-ma’rifiy jihatdan boy o‘gitlar va ma’lumotlar saqlanib kelmoqda[5;6].

Eng asosiysi shundaki, ilmiy-uslubiy manbalarda bolalarni yoshlikdan qo‘rqmas, epchil, dovyurak, aqlli, sog‘lom, ruhan tetik, baquvvat va komil insonlar qilib voyaga yetkazish, ularni mehnat va hunarga o‘rgatishda jismoniy mashqlardan, turli o‘yinlardan samarali foydalanish yo‘llari o‘z ifodasini topgan.

Olim va shifokorlarning fikricha, badantarbiya tug‘ma issiqlikni oshiradi, tanaga yengillik beradi va organizm a’zolarida to‘planuvchi chiqindilarni yoqotadi[7].

Jismoniy tarbiya va sport doimo jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo‘lib kelgan. Tarixdan ma’lumki, oldingi ijtimoiy jamoalar ham o‘z rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat berganlar.

Tarixdan ma’lumki, kurash, yugurish, uloq va boshqa milliy o‘yinlar xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib turli tantana, Navro‘z, bayramlar va to‘ylarda musobaqalar o‘tkazilgan va ular o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol va komil insonlar qilib tarbiyalashda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobir, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiyning jismoniy tarbiya, sog‘liqni saqlash va sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari xozirgi vaqtda ham dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Badantarbiya mashqlari tartibli va muayyan yo‘l bilan bajarilsa, fikrni uyg‘unlashtiradi, qon yurishiga yordam beradi, ovqat hazmini yaxshilaydi, asabni quvvatlantiradi, tana haroratini oshiradi va zehnini charxlaydi.

Inson jismoniy sog‘lom va bardam – baquvvat bo‘lsa, hayot go‘zalliklarini yaxshi idrok etadi, aql-zakovati yuksala boradi, atrof muxitni ziyrak bo‘lib kuzatadi. Shu nuqtai nazardan, insonning salomat va baquvvat bo‘lishida badantarbiya bilan bilan muntazam shug‘ullanish va sog‘lom turmush tarziga amal qilish muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Demak, bu tarzda aqliy, axloqiy va estetik tarbiyaning o‘rni va ahamiyati katta ekan. Ta’bir joiz bo‘lsa, bir yerda turib qolgan ko‘lmak suv xech foydasiz deyilsa, harakatsiz odam ham ko‘lmak kabidir, sharqirab oqqan suvning ozi go‘zal bo‘lishi bilan birga, dala-bog‘larni yashnatgani kabi, serharakat, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanadigan odamning ham o‘zi (jismonan) go‘zal, ham aqli go‘zal, ham odob-axloqi go‘zal bo‘ladi.

Badantarbiya insonni xar tomonlama tetik, sog‘lom, kuchli, dovyurak xushyor, qobiliyatli qilib kamolga etkazadiki, donolar jismoniy tarbiya-go‘zallik tarbiyasidir, deb bejiz aytishmagan.

Inson jismonan sog‘lom, xar tomonlama yetuk rivojlanishi uchun ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda so‘g‘lom turmush tarzi talablariga to‘liq rioya qilishi, reja asosida harakatlarni muntazam bajarishi, tabiat qo‘ynida yoki ozoda va shinam sport zalida va maydonchada jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi bularning hammasi unda nafosat xis-tuyg‘usini, aqliy tushunchasini va didini tarbiyalaydi. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida harakatlar maqsadining ham shakl, ham mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi esa uning go‘zalligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sog‘lom turmush tarziga muntazan ravishda amal qilish insonning har tamonlama sog‘lom, ruhan tetik, ma’naviy yetuk va barkamol inson bo‘lib shakllanishida katta ahamiyatga ega ekanligi ayon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1.Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент, 2015. 5 сентябр.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомилаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2020. 24 январ, ПФ-5924-сон.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2022. 22 январ, ПФ-60-сон.

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июн). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. – Тошкент, 2017. 12 июн.

5.Абу Али ибн Сино. Саломатлик сирлари (Тиббий рисолалар). – Тошкент: А.Қодирий, 2000. − 208 б.

Ushbu usulning samaradorligini aniqlash uchun URM dasturi qo‘llanilgan guruhlarda jismoniy va psixologik ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar baholandi. AQSh va Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tizimli URM dasturlari jismoniy salomatlikni 20-30% ga yaxshilaydi. O‘zbekiston sharoitida shunga o‘xshash natijalarga erishish imkoniyati yuqori deb baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumrivojlantiruvchi mashqlar O‘zbekistonda turli yosh guruhlarining jismoniy va psixologik salomatligini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Quyida asosiy natijalar va ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yo‘llari batafsil muhokama qilinadi.

Statistik ma’lumotlar: Tadqiqotda Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi 15 ta muassasadan (maktablar, sport markazlari, sog‘lomlashtirish markazlari) 2022-2024-yillarga oid ma’lumotlar tahlil qilindi. URM dasturi qo‘llanilgan guruhlarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

- Bolalar (4-10 yosh): Aerobik mashqlar va harakatli o‘yinlar tufayli motorli ko‘nikmalar (yugurish, sakrash, muvozanat) 20% ga yaxshilandi. Mushak kuchi 15% ga oshdi.
- O‘smirlar (11-17 yosh): Aerobik va kuch mashqlari metabolik ko‘rsatkichlarni (qon shakar darajasi, xolesterin) 18% ga yaxshiladi. Stress darajasi 12% ga kamaydi.
- Kattalar (18-59 yosh): Funksional treninglar va moslashuvchanlik mashqlari stressni 20% ga kamaytirdi, mushak massasi 10% ga oshdi.
- Keksa yoshdagilar (60+ yosh): Muvozanat va moslashuvchanlik mashqlari yiqilish xavfini 25% ga kamaytirdi, bo‘g‘imlar harakatchanligi 15% ga yaxshilandi.

Statistik tahlil (t-testi, $p<0.05$) shuni ko‘rsatdiki, URM dasturi turli yosh guruhlarida doimiy va ishonchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Dastur qo‘llanilmagan guruhlarda jismoniy faollik darajasi past bo‘lib, sog‘liq ko‘rsatkichlari sekinroq yaxshilangan.

URMni O‘zbekiston sharoitida samarali qo‘llash uchun quyidagi yo‘llar va jarayonlar taklif etiladi:

1. Bolalar uchun harakatli o‘yinlar dasturi

- Jarayon: Maktablarda va bolalar bog‘chalarida har kuni 30-40 daqiqa davom etadigan harakatli o‘yinlar joriy etiladi. O‘yinlar yugurish, sakrash va to‘p bilan mashqlarni o‘z ichiga oladi.
- Izoh: Harakatli o‘yinlar bolalarning motorli ko‘nikmalarini rivojlantiradi va diqqatni oshiradi. Masalan, Toshkentdagi 25-sonli maktabda o‘tkazilgan tajriba natijasida o‘yinlar bolalarning faolligini 20% ga oshirgan.

2. O‘smirlar uchun aerobik va kuch mashqlari
   - Jarayon: Maktablar va sport markazlarida haftada 3-4 marta 45 daqiqalik aerobik va kuch mashqlari tashkil qilinadi. Mashqlar dumbbell, arqon va o‘z tana vazni bilan bajariladi.
   - Izoh: Aerobik mashqlar yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, kuch mashqlari esa mushak massasini oshiradi. Samarqand viloyatida o‘tkazilgan tajriba metabolik ko‘rsatkichlarning yaxshilanganini ko‘rsatdi.
3. Kattalar uchun funksional treninglar
   - Jarayon: Sog‘lomlashtirish markazlari va jamoat bog‘larida haftada 2-3 marta funksional treninglar o‘tkaziladi. Treninglar cho‘zilish, push-up va squat kabi mashqlarni o‘z ichiga oladi.
   - Izoh: Funksional treninglar stressni kamaytiradi va umumiy jismoniy holatni yaxshilaydi. Farg‘ona shahrida jamoat bog‘larida tashkil etilgan treninglar ishtirokchilar sonini 15% ga oshirgan.
4. Keksa yoshdagilar uchun muvozanat va moslashuvchanlik mashqlari
   - Jarayon: Sog‘lomlashtirish markazlarida haftada 2 marta 30 daqiqalik muvozanat va moslashuvchanlik mashqlari o‘tkaziladi. Mashqlar tai-chi, yoga va oddiy cho‘zilish harakatlarini o‘z ichiga oladi.
   - Izoh: Muvozanat mashqlari yiqilish xavfini kamaytiradi, moslashuvchanlik mashqlari esa bo‘g‘imlar harakatchanligini oshiradi. Toshkentdagi sog‘lomlashtirish markazida tajriba yiqilish xavfini 20% ga kamaytirgan.
5. Jamoat joylarida sport infratuzilmasini rivojlantirish
   - Jarayon: Shahar bog‘lari va mahallalarda ochiq sport maydonchalari tashkil qilinadi. Maydonchalar oddiy jihozlar (turnik, parallel barlar) bilan jihozlanadi.
   - Izoh: Ochiq maydonchalar aholining jismoniy faolligini oshiradi. Samarqandda ochilgan maydonchalar mahalliy aholining faolligini 25% ga oshirgan.
6. Ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot

- Jarayon: Televidenie, ijtimoiy tarmoqlar va mahalliy jamoat tadbirlari orqali URMning foydalari targ‘ib qilinadi. Qisqa videolar va ma’lumotnoma materiallari tarqatiladi.
- Izoh: Targ‘ibot aholining qiziqishini oshiradi. Farg‘ona viloyatida ijtimoiy tarmoqlardagi kampaniya sport bilan shug‘ullanish darajasini 10% ga oshirgan.

7. Monitoring va baholash tizimi
   - Jarayon: URM dasturining samaradorligi har chorakda baholanadi. Baholashda jismoniy ko‘rsatkichlar (mushak kuchi, yurak urish tezligi) va ishtirokchilar soni hisobga olinadi.
   - Izoh: Monitoring dastur kamchiliklarini aniqlashga yordam beradi. Toshkentda monitoring tizimi dastur samaradorligini 15% ga oshirgan.

Xulosa: Umumrivojlantiruvchi mashqlar O‘zbekistonda aholining turli yosh guruhlari uchun jismoniy va psixologik salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, URM bolalarning motorli ko‘nikmalarini, o‘smirlarning metabolik salomatligini, kattalarning stressga chidamliligini va keksa yoshdagilarning funksional mustaqilligini oshiradi. Statistik ma’lumotlar dastur qo‘llanilgan guruhlarda jismoniy ko‘rsatkichlarning 15-25% ga yaxshilanganini tasdiqlaydi. Dasturning muvaffaqiyati infratuzilma, malakali mutaxassislar va aholining xabardorligiga bog‘liq. AQSh va Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamoat joylarida mashg‘ulotlar tashkil qilish va maxsus dasturlarni joriy etish samaradorlikni oshiradi. O‘zbekistonda shunga o‘xshash yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin, masalan, ochiq sport maydonchalarini ko‘paytirish va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibotni kuchaytirish orqali.

Taklif sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

1. Har bir mahallada ochiq sport maydonchalari tashkil qilinsin, ular oddiy jihozlar bilan ta’minlansin.
2. Maktablar va sog‘lomlashtirish markazlarida malakali instruktorlar uchun treninglar tashkil etilsin.
3. Ommaviy axborot vositalari orqali URMning foydalari targ‘ib qilinsin, ayniqsa, keksa yoshdagilar uchun.
4. Dastur samaradorligini baholash uchun yagona monitoring tizimi joriy qilinsin.

Ushbu takliflar amalga oshirilganda, URM O‘zbekiston aholisining salomatligini yaxshilash va sog‘liqni saqlash tizimiga yuklamani kamaytirishga xizmat qiladi. Dastur mamlakatning uzoq muddatli sog‘liq va farovonlik maqsadlariga erishishda strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sodiqov K. Sog’lom turmush tarzini shakllantirish (o’quv qo’llanma). - Toshkent. 2007. - www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Даминов И.А. Спортивная деятельность - как фактор влияния на личность дзюдоистов / И.А. Даминов // Academic research in educational sciences. Volume
3. Lee I.M., et al. (2012). Effect of physical inactivity on major non-communicable diseases worldwide. The Lancet.
4. Blair S.N., Morris J.N. (2009). Healthy hearts and the universal benefits of being physically active. Annals of Epidemiology.
5. Haskell W.L., et al. (2007). Physical activity and public health: Updated recommendation for adults. Medicine & Science in Sports & Exercise.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY FAOLLIK VA SPORTNING AHAMIYATI

Toshpo‘latov Elyor Bahtiyor o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: toshpolatovelyor73@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy mashqlar va sportning turli yo‘nalishlari, masalan, kardio mashqlar, kuchaytirish va elastiklikni rivojlantirish kabi aspektlar, odamlar hayotidagi ahamiyati va ular bilan bog‘liq sog‘liqni saqlash foydalari keltirilgan. Shuningdek, sportning nafaqat jismoniy holatni yaxshilash, balki stressni kamaytirish, kayfiyatni ko‘tarish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishdagi roli ham ko‘rsatilgan. Maqolada sog‘lom turmush tarziga erishishda muntazam jismoniy faollikni qanday tashkil qilish va unga qanday motivatsiya berish haqida amaliy maslahatlar ham beriladi. Bu maqola sport va jismoniy faollikning sog‘likka bo‘lgan ahamiyatini tushunishga yordam beradi va ularni hayotda keng qo‘llashga undaydi.

Kalit so‘zlar: Jismoniy faollik, **Eksperimental Tadqiqot (Empirik Tadqiqot), Kvalitatif Tadqiqot (Intervyu va Fokus-guruhlar), Uzun Muddatli Kuzatuv (Longitudinal Study), Metaanaliz, Ko‘rsatkichlar va Statistik Tahlil, Case Study (Holatni o‘rganish).**

Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish – bu faqatgina to‘g‘ri ovqatlanish, yetarlicha uyqu va stressni boshqarish emas, balki muntazam jismoniy faollikni o‘z ichiga olgan kompleks jarayondir. So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab jismoniy faoliyat va sportning inson salomatligi va farovonligiga bo‘lgan ijobiy ta’siri tobora ko‘proq

tan olinmoqda. Insonlar kundalik hayotda stress, noto‘g‘ri ovqatlanish, harakatsizlik va boshqa salbiy omillardan aziyat chekayotgan bir paytda, jismoniy faollik sog‘liqni saqlashning eng samarali va arzon vositalaridan biriga aylangan. Sport va jismoniy mashqlar nafaqat jismoniy holatni yaxshilash, balki psixologik holatni mustahkamlash, kayfiyatni ko‘tarish va energiya darajasini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy faollikning sog‘liq uchun ahamiyati har bir yoshdagi inson uchun xosdir. Yosh bolalar va o‘smirlar uchun sport o‘yinlari va faol mashqlar jismoniy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, bo‘g‘im va mushak tizimini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lsa, kattalar uchun bu stressni kamaytirish, yurak-qon tomir tizimi sog‘ligini yaxshilash va ortiqcha vazndan xalos bo‘lish imkoniyatini yaratadi. O‘rta yosh va undan katta yoshdagi insonlar uchun esa muntazam sport va jismoniy mashqlar umrni uzaytirish, kognitiv funksiyalarni saqlash va qarish jarayonlarini sekinlashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, jismoniy faollik va sport nafaqat jismoniy salomatlikka, balki ruhiy va ijtimoiy farovonlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sportni muntazam bajarish stressni kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi, odamlarni yanada ijtimoiylashishga undaydi, o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Jismoniy faoliyat odamning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, shaxsiy maqsadlar sari intilish va muvaffaqiyatni his qilish hissini kuchaytiradi.

Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda jismoniy faollik va sportning ahamiyati, ularning salomatlikka bo‘lgan ta’siri, shuningdek, bu faoliyatni kundalik hayotga qanday integratsiya qilish va turli yoshdagi guruhlar uchun qanday moslashtirish mumkinligi haqida so‘z yuritiladi. Jismoniy faollik va sportning salomatlikka bo‘lgan ahamiyatini tushunish va uni o‘z hayotimizga kengroq joriy etish bizni nafaqat sog‘lom, balki baxtli va baquvvat insonlarga aylantirishi mumkin.

Ushbu maqolada quydagi metodlardan foydalanildi:

Eksperimental Tadqiqot (Empirik Tadqiqot)

Eksperimental tadqiqot usuli jismoniy faollik va sportning inson salomatligi va turmush tarziga ta'sirini o‘rganishda samarali bo‘ladi. Bu usulda ma'lum bir guruh odamlar bilan tajriba o‘tkazish va jismoniy mashqlar yoki sport faoliyatining ularning jismoniy va psixologik holatiga ta'sirini o‘lchash mumkin. Masalan, bir guruh ishtirokchilarga ma'lum vaqt davomida muntazam jismoniy mashqlarni bajarish tavsiya etilishi, boshqa guruhga esa tavsiya etilmasligi mumkin. Natijalar, salomatlik, kayfiyat va umumiy farovonlikda qanday o‘zgarishlar yuzaga kelganini ko‘rsatishi mumkin.

Kvalitatif Tadqiqot (Intervyu va Fokus-guruhlar)

Kvalitatif tadqiqot usulida jismoniy faollik va sportga nisbatan kishilarning individual tajribalari va fikrlarini o‘rganish mumkin. Intervyular yoki fokus-guruhlar orqali odamlarning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishdagi sport va jismoniy faollik haqida shaxsiy nuqtai nazarlarini, hissiyotlarini va tajribalarini o‘rganish mumkin. Bu usul jismoniy faollikning psixologik va emotsional ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kvalitatif tadqiqot usuli

Kvalitatif tadqiqot usulida jismoniy faollik va sportga nisbatan kishilarning individual tajribalari va fikrlarini o‘rganish mumkin. Intervyular yoki fokus-guruhlar orqali odamlarning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishdagi sport va jismoniy faollik haqida shaxsiy nuqtai nazarlarini, hissiyotlarini va tajribalarini o‘rganish mumkin. Bu usul jismoniy faollikning psixologik va emotsional ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Uzun Muddatli Kuzatuv (Longitudinal Study)

Uzun muddatli kuzatuv usulida jismoniy faollikning sog‘lom turmush tarziga ta'sirini uzoq muddat davomida kuzatish mumkin. Ushbu tadqiqotda ishtirokchilarning jismoniy faoliyat darajasi va sog‘lik ko‘rsatkichlari vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini o‘rganish mumkin. Masalan, jismoniy faoliyatni boshlagan shaxslarning sog‘liq holati va farovonligi qanday yaxshilanishini bir necha yil davomida tahlil qilish mumkin.

Metaanaliz

Metaanaliz usuli, avvalgi tadqiqotlar va ilmiy ishlarni tahlil qilish orqali sport va jismoniy faollikning salomatlik va turmush tarziga ta'sirini umumlashtirish imkonini beradi. Ushbu usulda turli ilmiy manbalarni to‘plab, umumiy natijalar va trendlarni aniqlash mumkin. Metaanaliz jismoniy faollikning turli xususiyatlari (kardio mashqlar, kuchaytiruvchi mashqlar va boshqalar) va ularning sog‘liqka ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Ko‘rsatkichlar va Statistik Tahlil

Jismoniy faollik va sportning turli ko‘rsatkichlari (masalan, yurak urishi, qon bosimi, mushak kuchi, elastiklik, va boshqalar) yordamida statistik tahlil o‘tkazish mumkin. Bunday tadqiqotlar yordamida jismoniy faollikning sog‘liq uchun aniq va o‘lchanadigan foydalari haqida ma'lumot olish mumkin. Statistik tahlil yordamida, sport mashqlarining har bir turining (yurish, yugurish, suzish va boshqalar) ta'sirini o‘lchash va solishtirish mumkin

Case Study (Holatni o‘rganish)

Case study (holatni o‘rganish) usuli yordamida aniq bir guruh yoki insonning turmush tarzini va jismoniy faollikni o‘rganish mumkin. Bu usul orqali o‘zingizning tadqiqot natijalaringizni real hayotdagi holatlar bilan tasdiqlashingiz mumkin. Masalan, sog‘lom turmush tarzini amalga oshirgan va sport bilan shug‘ullangan shaxslarning muvaffaqiyatli tajribalari o‘rganilishi mumkin.

Eksperimental tadqiqotlar sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda jismoniy faollik va sportning o‘rganilayotgan sohada qanday ta'sir qilganini aniqlash uchun ishlatiladi. Tadqiqotda turli guruhlar orasida jismoniy faollik darajasiga ko‘ra farqlar o‘rganiladi. Masalan, bir guruhga muntazam jismoniy mashqlar bajarish vaqti belgilanadi, boshqalar esa faol bo‘lmaydi yoki minimal jismoniy faollikka ega bo‘ladi. Eksperiment davomida ishtirokchilarning sog‘liq holati, jismoniy faollik darajasi, qalqon bezi faoliyati va boshqa biomarkerlari kuzatiladi.

Tadqiqot ishtirokchilari tasodifiy ravishda ikkita guruhga bo‘linadi: birinchi guruhga muntazam jismoniy mashqlar bajarilishi, ikkinchi guruhga esa odatiy turmush tarzini davom ettirish taklif qilinadi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning sog‘liq ko‘rsatkichlari, masalan, yurak tezligi, qon bosimi, mushak kuchi va umumiy farovonlik darajasi o‘lchanadi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faollik yuqori darajada sog‘liqni yaxshilashga yordam beradi. Ishtirokchilarning yurak-qon tomir tizimi sog‘lomlashtirilgan, stressni boshqarish qobiliyatlari yaxshilangan va psixologik farovonlik darajasi oshgan. Ushbu natijalar sport va jismoniy faollikning turmush tarziga ta'sirini ta'kidlaydi.

Kvalitatif tadqiqot jismoniy faollik va sportning shaxsiy tajribalariga asoslanadi. Intervyular va fokus-guruhlar ishtirokchilarining sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatlarini, sportni qabul qilish darajalarini o‘rganishga yordam beradi. Bu usul shuningdek, sportni jismoniy va psixologik salomatlikka ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ishtirokchilarga sog‘lom turmush tarzini qabul qilish va jismoniy faollikni o‘z hayotlariga qanday tatbiq etishlari haqida intervyu berish taklif qilinadi. Fokus-guruhlar o‘tkazilib, ishtirokchilarga sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda jismoniy faollik va sportning ahamiyati haqida suhbatlar olib boriladi. Bu jarayonlar orqali ishtirokchilarning hissiy va psixologik holatlari, ularning jismoniy faollik va sportga bo‘lgan qarashlari aniqlanadi.

Ishtirokchilarning aksariyati muntazam jismoniy faollikning sog‘lom turmush tarziga ta'sirini sezganini, uni o‘z hayotiga tatbiq qilishni boshlaganini ta'kidlashdi. Fokus-guruhlar davomida, jismoniy faollik va sportning kayfiyatni yaxshilash, stressni kamaytirish va umumiy farovonlikni oshirishda muhim rol o‘ynashini bildirishdi. Shuningdek, ba'zi ishtirokchilar sport bilan shug‘ullanishni boshlash uchun muayyan motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash tizimlariga ehtiyoj sezganliklarini bildirishdi.

Longitudinal tadqiqot usuli uzoq muddatli vaqtda jismoniy faollik va sportning sog‘lom turmush tarziga ta'sirini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Bu metod yordamida jismoniy faollikni odatga aylantirgan insonlar orasida qanday farqlar paydo bo‘lishini kuzatish mumkin. Tadqiqot davomida sog‘liq ko‘rsatkichlari va turli o‘lchovlar bir necha yil davomida o‘rganiladi.

Birinchi bosqichda ishtirokchilarga sog‘lom turmush tarzini qabul qilishga yordam beradigan jismoniy mashqlar dasturi beriladi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning salomatlik holati (yurak salomatligi, qon bosimi, jismoniy holat) muntazam o‘lchanadi. Tadqiqot maqsadi jismoniy faollikning uzoq muddatda qanday sog‘lom o‘zgarishlarni keltirishi haqida aniq xulosalar olish.

Longitudinal tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli jismoniy faollik nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki psixologik holatni ham ijobiy ta'sir qiladi. Masalan, ishtirokchilarning psixologik holati yaxshilangan, ularning umumiy farovonlik darajasi oshgan va depressiya belgilari sezilarli darajada kamaygan.

Metaanaliz orqali jismoniy faollik va sportning sog‘lom turmush tarziga ta'sirini ko‘plab avvalgi tadqiqotlar natijalarini birlashtirib tahlil qilish mumkin. Bu metod jismoniy faollikning sog‘lom turmush tarziga ta'sirini aniqlashda ishlatilgan eng samarali usul bo‘lib, barcha tadqiqotlarning umumiy natijalarini ko‘rsatishga yordam beradi.

Metaanalizni amalga oshirish uchun turli tadqiqotlar va maqolalar to‘plangan. Har bir tadqiqotda jismoniy faollik va sog‘lom turmush tarzining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan metodologiya va natijalar umumlashtirilgan.

Metaanalizning natijalariga ko‘ra, muntazam jismoniy faollikning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishdagi roli ishonchli tarzda tasdiqlangan. Ushbu metodda ishtirok etgan tadqiqotlar o‘zaro uyg‘unlashgan va sog‘lom turmush tarzini yaxshilash uchun jismoniy faollikning zarurligini ko‘rsatgan.

Ko‘rsatkichlar va statistik tahlil orqali sport va jismoniy faollikning sog‘lom turmush tarziga ta'sirini aniqlashda o‘lchovlar va raqamli ma'lumotlar to‘planadi. Bu usul jismoniy faollikning turli parametrlar (yurakning ish faoliyati, qon bosimi, tana vazni va boshqalar) bilan bog‘liqligini o‘lchashda samarali.

Jismoniy faollikning turli turlari (yurish, yugurish, suzish va boshqalar) o‘rganiladi va har bir faoliyatning sog‘liq ko‘rsatkichlariga qanday ta'sir qilgani

tahlil qilinadi. Statistik metodlar, masalan, regressiya tahlili va korrelyatsiya o‘lchovlari ishlatiladi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faollik, ayniqsa yurak-qon tomir tizimiga va umumiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda, har kuni o‘tkaziladigan 30 daqiqa davomida o‘tkazilgan o‘rta darajadagi jismoniy faollikning natijalari eng samarali ekanligi ko‘rsatilgan.

Case study usuli yordamida jismoniy faollik va sportning sog‘lom turmush tarziga ta'sirini o‘rganish uchun individual yoki kichik guruhlarni chuqur tahlil qilish mumkin. Ushbu metodda bir kishining yoki guruhning turmush tarzidagi o‘zgarishlar o‘rganiladi va qanday qilib sport va jismoniy faollikning ularga ta'siri haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Bir yoki bir nechta ishtirokchilar tanlanib, ularning sport bilan shug‘ullanishi, jismoniy faolligi va bu faoliyatlarning ularning sog‘lig‘iga ta'siri to‘g‘risida batafsil ma'lumotlar to‘planadi.

Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda jismoniy faollik va sportning ahamiyati keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlar asosida tasdiqlangan. Tanlangan metodlar — eksperimental tadqiqot, kvalitatif tadqiqot, uzun muddatli kuzatuv, metaanaliz, ko‘rsatkichlar va statistik tahlil, case study — sport va jismoniy faollikning salomatlikka, psixologik holatga va turmush tarziga ta'sirini batafsil o‘rganishda samarali vositalar bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faollik sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi va jamiyatda kengroq targ‘ibot va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Toshkent, A. Jismoniy tarbiya va sportning sog‘lom turmush tarziga ta’siri. Toshkent "O‘zbekiston" nashriyoti 2019 yil.
2. Ibragimov, X.A. Jismoniy faollik va uning salomatlikka ta’siri. Samarqand "Ilm-ziyo" nashriyoti 2017-yil.
3. Shamsiev, K.B. Sport va jismoniy faollik, Sog‘lom turmush tarzini yaratishda yangi yondashuvlar Toshkent "Fayz" nashriyoti 2020-yil.
4. Baxromov, M.R. Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda sportning ahamiyati. Farg‘ona "Farg‘ona universiteti nashriyoti" 2015-yil.
5. Raximov, T.M. Jismoniy faollik va uning salomatlikka ta’sirini o‘rganish. Toshkent "O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti" 2018-yil.
6. Akramov, S.D. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sportning roli. Toshkent "Sharq" nashriyoti 2016-yil.
7. Toshpulatov, N. Sport va jismoniy faollik: Sog‘lom hayotga olib boruvchi yo‘l. Tashkent "O‘zbekiston sport nashriyoti" 2021-yil.

8. Mamatqulov, A.R. (2019). Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda jismoniy faollikning o‘rni. Toshkent: "Shark" nashriyoti 2019-yil.

YOSHLARNI SOG’LOMLASHTIRISH VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY SPORT TURLARIDAN FOYDALANIOSH

Bolbekov Abduxoliq Suyundiqovich - Guliston davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy sport turlarini ijtimoiy, tibbiy, pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati, vazifalari hamda jamiyatdagi tutgan o‘rni muhokama etilgan hamda xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kurash, tarbiya, salomatlik, qadriyat,milliy iftixor, ijtimoiy ahamiyat, vosita.*

Annotatsiya: *В данной стате рассматриваются сотсиально-педагогическое и воспитателное, медитцинескые, значение, задачи и рол натсионалных видов спорта в жизни общества и делаются выводы.*

Ключевые слова: *борба, воспитание, сенност, натсионалная гордост, сотсиалная значимост, средства.*

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga ərishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Yoshlarni xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, ruhiyatiga, tiliga, sodiq sog‘lom, manaviy boy, komil avlod qilib tarbiyalash bugungi kunning bosh maqsadidir.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda yangi O‘zbekistonni barpo etishimiz, mamlakatimiz rivojlanishi barqarorligini ta’minlashimiz, o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan maqsadlarimizga erishishimiz uchun har qanday salbiy zararli odatlarga qarshi immunitet vazifasini bajaruvchi o‘zbek milliy sport turlarining tarbiyaviy ahamiyatini yoshlarimiz ongiga singdirishimiz davr talabidir.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish nafaqat insonning tana tuzilishini o‘zgartiradi, balki, uning axloqiy fazilatlarini ham boyitadi.

Milliy sport turlari orqali vatanparvarlik, iroda, matonat, intizom, jamoatchilik, do‘stlik va o‘rtoqlik tuyg‘ulari, madaniy xulq-atvor ko‘nikmalari, mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabat tuyg‘ulari shakllanadi.

O‘zbek milliy sport turlari hamda xalq milliy o‘yinlari o‘zining uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan, ma’naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy qadriyatlarimiz, an’ana-yu udumlarimiz, shu jumladan, xalq o‘yinlarini qayta tiklashga katta e’tibor qaratildi.[3]

Sportning an’anaviy turlari bilan birgalikda milliy sport turlari hamda xalq o‘yinlari ham tobora rivojlanib borayotir. Biz faxrlansak arziydigan milliy sport turlari juda ko‘p. Ularning orasida kurash, belbog‘li kurash, Turon kurashi, O‘zbek jang san’ati, ko‘pkari, chovgon, va kamondan o‘q otish alohida e’tiborga molik.

Qariyb uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek kurashini mustaqillik tufayli jahon tan oldi.Mamlakatimizning istiqlolga yuz tutishi ko‘p sohalar kabi milliy kurashimizning ham porloq davrini boshlab berdi. Uning xalqaro sport turi talablariga javob beradigan andozalari joriy etildi.

Qadimdan vatanimizda bayram va musobaqalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq xodisalar bo‘lib kelgan. Ko‘pincha bayram kunlari musobaqalar o‘tkazilgan va alohida o‘tkazilgan musobaqalar xam bayramlarga aylanib ketgan. O‘zbek kurashi bugungi kunda dunyoga yuz tutdi, tez sur’atlar bilan rivojlanib xalqaro sport tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.[2]

Belbog‘li kurash milliy sport turlarimizdan biri hisoblanadi. Bu sport turi, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlarda, Toshkent, Sirdaryo viloyatida keng tarqalgan. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonning barcha viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida belbog‘li kurash sporti bilan yoshlarimiz muntazam shug‘ullanib keladi. Azal-azaldan sayillarda, to‘ylarda va boshqa yig‘inlarda polvonlarimiz kurash tushgan. Kuragi yerga tegmagan polvonlarimiz yurtimiz dovrug‘ini dunyoga tanitgan.

Belbog‘li kurashda ajoyib usullar qo‘llaniladi, muxlisga zavq-shavq bag‘ishlaydi. Belbog‘li kurash uzoq tarixga ega, bu kurash usullari o‘zbek polvonlarining maydondagi mahoratini, matonatini namoyish etib keladi.

Belbog‘li kurash sport turi nafaqat xalqimizning ming yillik an’anasi sifatida, balki, jismoniy baquvvatlikni ta’minlashi, shuningdek, xalqimiz o‘rtasida halollik, mardlik, jasorat namunasi sifatida ommalashmoqda,

O‘zbekiston Jang San’ati O‘zbekiston Respublikasi taekvondo ITF Federatsiyasi Prezidenti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy, qora kamar 7 Dan Taekvon-do sohibi, tajribali jang san’ati ustasi Po‘lat Usmonov, shuningdek,

o‘zbek jang san’at federatsiyasi faxriy prezidenti Nasirova A.X. rahnamoligida yaratilgan.

Bir necha yillar davomida ota-bobolarmizning jang san’ati texnika va harbiy uslublar merosi o‘rganilib, boshqa jang tizimining eng samarali metodlari bilan boyitildi hamda O‘zbek Jang San’ati tashkil etildi.

O‘zbek jang san’ati tizimida o‘ziga xos bir qancha xususiyatlar bor:

O‘zbek jang san’ati sporti, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiya qilishga yordam beradi.

Buyuk ajdodlarimiz va O‘zbekistonning tarixiy shaxslari ismlari rasman himoya hujum va majmualarga qo‘yilgan.

Musobaqa davomida, albatta, mamlakatning davlat ramzlariga katta e’tibor beriladi. Sportchilarning sport kiyimida milliy qadriyatlar aks ettirilgan.[4]

Turon yakka kurashi - milliy sport turi. Turkiy xalqlar jang qilish san’ati namunasi sifatida qadimdan mashhur bo‘lgan. Bu turdagi yakkama yakka kurashning qonun-qoidalari, xalqaro miqyosdagi kurashish usuli Amir Temur davrida takomiliga yetgan. Kurashchilar peshonaband belbog‘ bog‘lab, yaktak, keng ishton kiyib musobaqalashadilar. Raqiblar maydonga chiqqanda qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib, bir-birlariga kaftlarini ko‘rsatishadi. Bu «ko‘rib qo‘y, qo‘limda hech narsa yo‘q, halol kurashaman» degan ma’noni bildiradi. O‘zbekistonda “Turon” yakka kurashi federatsiyasi tuzilgan (1995). Har yili Toshkent shahri birinchiligi va O‘zbekiston chempionati musobaqalari o‘tkaziladi. “Turon” yakka kurashi “Alpomish o‘yinlari” festivali dasturidan joy olgan.. “Turon” yakka kurashi xalqaro miqyosda tan olinmoqda. AQSh, Germaniya, Isroil, Niderlandiya, Ukraina, Latviya, Moldaviya, Belorussiya va boshqa mamlakatlarda “Turon” yakka kurashi sport to‘garaklari ochilgan. [5]

Uloq, ko‘pkari – O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy ommaviy, milliy o‘yinlaridan biri. Asosan, g‘alaba va hosil bayramlari, to‘y va sayillar munosabati bilan o‘tkazilgan. Hukmdor va har xil amaldorlardan tashqari o‘ziga to‘q odamlar, hatto oddiy aholi ham Uloq o‘yinlarini tashkil etgan. Ko‘proq xatna (chupron) to‘ylarida rasm bo‘lgan. Uloq turkiy xalqlar, ayniqsa, uning qo‘ng‘irot, qurama, ming, mang‘it, oyrat, yoyilma, kenagas, qipchoq, barlos kabi urug‘lari orasida ommalashgan. Uloq tomoshalari oldidan maxsus jarchilar qishloq, ovullarga yuborilib, odamlar gavjum joylarda, bozorlarda Uloq kim tomonidan, qaerda, qachon va nima maqsadda o‘tkazilayotganligini hamda qo‘yiladigan sovrinlarni e’lon qilgan. Turli joyda har xil qoida bo‘yicha (chortoq, sudratma, marra, poyga, pakka, minbar va boshqa nomlar bilan atalgan) Uloq o‘yini uyushtirilgan. Uloq ko‘ngilochar tomosha yoki shunchaki o‘yin bo‘lmasdan o‘g‘il bolalar, yigitlarni mard, jasur, epchil, dovyurak qilib tarbiyalash vazifasini bajargan. Uloq o‘yinlari ot naslini yaxshilashga, chidamli, tez harakat qiladigan zotlarini ko‘paytirishga

yordam qilgan. Qorabayir, arabi, axaltekin, qurama, laqay, kustanay, qorabog‘ va Orlov ot zotlari Uloqchi otlar hisoblanadi.Uloq xalq o‘yini, asosan, 2 qismdan - solim (qoqma) va poygadan iborat. Solim (qoqma). Chortoq ustidagi bakovullar (hakamlar) uloq (so‘yilib ichki a’zolari, bosh va oyoqlari kesib olingan echki yoki buzoq)ni to‘daga tashlaydi. To‘dadagi chavandozlar Uloqni olib, tortishib, eng kuchlisi Uloqni marraga yetkazib berishi lozim. Kim Uloqni marraga yolg‘iz o‘zi halol olib kelsa, unga avvaldan belgilangan mukofot taqdim etiladi. Katta to‘ylarda mukofotga pul, mato, kiyim, gilam, qo‘chqor va boshqalar qo‘yiladi.

Poyga 2 turdan iborat: otda chavandozning poygasi (qo‘pkari poyga) va Uloq bilan chopish poygasi. Uloq bilan poygada belgilangan joydagi Uloqni olish uchun hakamlar ruxsat bergandan keyin chavandoz ot choptirib borib Uloqni yerdan ko‘tarib olishi va marraga yetkazishi kerak. Keyingi yillarda Uloq o‘yinlari sport turiga kiritildi va O‘zbekistonda respublika miqyosida rasmiy musobaqalar, xalqaro turnirlar o‘tkazila boshlandi.Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ota-bobolarimiz azal-azaldan insonni jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy ta’sir etuvchi mashqlarga jiddiy e’tibor qaratishganini ko‘ramiz. Masalan, ko‘pkari musobaqasi har bir ishtirokchidan chavandozlik mahoratidan tashqari jismoniy kuch, o‘tkir zehn va yetti o‘lchab bir kesish salohiyatiga ega bo‘lishni talab qiladi.

Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko‘rib, ham ruhiy, ham jismoniy o‘sishga erishganlar. Umuman olganda, milliy sport turlarining barchasi ota-bobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda rivojlangan. O‘sha kezlarda kimdir chavandoz, kimdir qilichboz, yana kimdir mergan sifatida tanilgan. Shuningdek, turli o‘yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos o‘quv shakllangan.Ko‘pkari ot ustida bajariladigan murakkab harakatlar va maxsus jismoniy mashqlar majmuasidir. Chavandoz va ot bir biriga monand bo‘lishi kerak yoki boshqacha qilib aytganda yaxshi otga yaxshi chavandoz kerak bo‘ladi. To‘ylarning ba’zi birlarini mohiyati haqida, bilamizki, o‘g‘il to‘ylari to‘ylarning eng ulug‘i bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun bor topgan tutgani to‘yga yig‘iladi.

Shuni e’tirof etish keraki, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo, Buxoro va boshqa viloyatlarning ko‘pgina tumanlarida katta to‘ylar, ba’zi milliy bayramlar kurashsiz, ko‘pkarisiz o‘tmaydi. Bu qadim zamonlardan qolgan urf-odat va udumlar asosida hozirgi davrga moslashtirish olib borildi.

Surxon vohasida qadimgi ot poygasi, ot ustida bir birini tortib ag‘darish, Alpomish dostonida ko‘tarinkilik bilan ta’svirlangan.

Shundan xulosa qilish mumkinki, milliy sport turlari va xalq o‘yinlari yoshlarni sog‘lom voyaga yetkazish, ularga ta’lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyat va urf-odatlarni asrab-avaylashda ularning

o‘rni beqiyos.Ularni ardoqlagan yoshlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usi qaror topadi, milliy ruh shakllanib, xalqimizning an’ana va urf-odatlarini e’zozlash hissi yanada kuchayadi. Xullas, milliy sport turlari va xalq o‘yinlari yoshlarni o‘zbekona tarbiyalashning eng ta’sirchan vositalaridan biridir. Bu o‘yinlar qanchalik keng yoyilsa, vatanparvar yoshlar safi shunchalik kengayadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 11 mart, PQ-5024-son.
2. O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o’yinlari ensiklopediyasi.-T:. Zamin nashr, 2022.-376 b.
3. K. Yusupov. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. Toshkent. “G‘ofur G‘ulom” nashriyoti. 2005 yil, 132 bet.
4. F.Axmedov,A.Abdulaxatov, O.Xayitov. Kurash Sport-qadriyat-ma’naviyat va tarbiya vositasi.Toshkent. 2020y.
5. Po‘lat Usmonov. T.S. Usmonxo‘jaev.O‘zbek jang san’ati. Nashriyot: Yangi Asr Avlodi. 2011.

4-SHO‘BA. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI.

ОСОБЕННОСТИ И НОРМАТИВЫ ФИЗИЧЕСКИХ НАГРУЗОК ПРИ САМОСТОЯТЕЛНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Тожибоев Музаффар Маъруфович - преподавател Ташкентской медицинской академии

Юнусова Дилдора Салохиддиновна - И.о.профессора Ташкентский государственный университет имени Низами

Аннотация: В стате рассматривается при выполнение конкретной физической нагрузки непосредственно связано с затратой энергетических ресурсов человека, от меры затраты которых зависит усталост. Она и является субъективным показателем физической нагрузки. В биологической науке утомления рассматривается как защитная реакция организма.

Ключевые слова: Физическая нагрузка, организм, самостоятелная работа, реакция, плавания, движения, сердечно-сосудистой системы, тренировка, состояния здоровя, мышцы, физические качества,

При выполнении физических упражнений человек получает определенные физические нагрузки. Они могут отличатся по своим качественным и количественным характеристиками, что достигается за счет смены сходных положений, амплитуды движений, темпа и числа упражнений, наличия пауз и т.д. В теории физической культуры под физической нагрузкой понимается степен влияния упражнений па организм и уровен преодолённой при этом субъективной и объективной трудности.

Выполнение конкретной физической нагрузки непосредственно связано с затратой энергетических ресурсов человека, от меры затраты которых зависит усталост. Она и является субъективным показателем физической нагрузки. В биологической науке утомления рассматривается как защитная реакция организма. Проблема определения оптималной физической нагрузки остается одной из основных в медицине и физической культуре. Рационалное ее решение одинаково важное как для спортсмена, который стремится показат максимальный резултат, так и для человека, который начал заниматся физическими упражнениями для укрепления здоровя.[4]

[4] Евсеев И.Ю. Физическая культура. - М.: Феникс, 2012. - 448 с.

Профессор Г.С Туманян разработал классификацию физических нагрузок, основанную на реакции сердечно-сосудистой системы. Малой считается нагрузка в том случае, если после ее выполнения частота пульса равняется 108-130 уд./мин., средней - 132-166 уд./мин., силной - 168-180 уд./мин. и максималной, если частота пульса болше 180 уд./мин.

Тренировки с малыми физическими нагрузками (частота пульса 108-130 уд./мин.) имеют поддерживающий характер, т.е. поддерживают достигнутый уровен функционалного состояния организма. Тренировка со средними физическими нагрузками (частота пульса 132-166 уд./мин.) оказывают развивающее влияние т.е. содействуют повышению функционалных возможностей организма. Но следует помнит всегда о половозрастных отличиях: че старше человек, тем ниже снижается планка всех показателей и норм. Люди, толко начавшие самостоятелные занятия физическими упражнениями, особенно пожилые или с ослабленным здоровем, сначала должны выполнят малые физические нагрузки (частота пульса 108-166 уд./мин.).

К болшим физическим нагрузкам нужно переходит, толко достигнув достаточной тренированности. Показателем ее может стат преодоления дистанции 3-5 км, при преодолении километра дистанции за 4,5-5 мин. при частоте пульса не более 150-160 уд./мин.

Для здорового человека 18-35 лет специалисты советуют каждый ден проводит утреннюю гимнастику по 10-30 мин., пешие прогулки не менее 60-80 мин. (в сумме на протяжении всего дня) и тренировки по 1-1,5 ч. (3-5 раз на неделю). В эти тренировки включают занятие любыми видами спорта и циклические упражнения, особенно бег. По выходным дням желателно проводит лыжные, велосипедные, пешеходные прогулки не менше 2-3 часов, неболшие туристические походы. Кроме того, рекомендовано ежедневное выполнение 1 -2 физических перерывов по 5-6 мин. для восстановления умственной трудоспособности. Естественно, эти рекомендации относителны. Например, дневные тренировки можно с успехом заменят утренней гимнастикой повышенной трудности, в которую включают бег и гимнастические упражнения на силу и гибкост. Кроме того, каждый человек должен планироват свою физическую тренировку с учетом индивидуалных особенностей: состояния здоровя, уровня физической подготовленности, спортивных интересов, а также таких факторов, как пора года, погодные условия, наличие свободного времени. Как мы знаем, все это должно сочетатся с медицинским контролем и самоконтролем. Кроме регулярных медицинских осмотров, мужчина или женщина включившие самостоятелные занятия физическими упражнениями в свой образ жизни, должны проводит

также самоконтрол за здоровем. Это разрешает наблюдат за своим физическим состоянием на протяжении многих лет, помогает оцениват соответствие получаемых физических нагрузок возможностям организма. Хорошее самочувствие человека характеризуется отсутствием отдышки, головокружения, головной боли, вялости, тошноты, боли и пр. Если физические нагрузки подобраны удачно, то все эти симптомы будут отсутствоват и человек будет бодр. При этом у человека также должно быт хорошее, приподнятое или стабилное настроение, без грусти и подавленности.

Не менее важен и сон человека, т.к. он восстанавливает его силы. Крепкий сон на протяжении 7-8 часов свидетелствует об оптималных физических нагрузках. Если человек спит менше по причине бессонницы, частых пробуждений и др. нарушений сна или спит болше, то стоит обратит внимание на дозировку физических нагрузок.

Почти всегда у людей, которые начали активные самостоятелные занятия физическими упражнениями, на следующий ден, а иногда даже через несколко часов, возникают боли в мышцах. Явление это временное, чисто физиологическое. Облегчит его протекание можно несколкими способами: самомассажем болевых мест, приёмом ванной, массажем.

К этой, одной из наиболших групп физических упражнений, в т.ч. выполняемых самостоятелно относятся ходба, бег, плавание, лыжи, гребля, езда на велосипеде. Все они оказывают активное физиологическое влияние па организм. С помощю регулярных занятий каждым из этих видов физических упражнений можно значително укрепит сердечно-сосудистую систему, усовершенствоват механизмы аэробного и анаэробного энергообеспечения. Поэтому в программу самостоятелной физической тренировки желателно включат один или несколко видов циклических упражнений (в зависимости от времени года и интересов человека).[5]

Ходба издавна считается признанным средством укрепления здоровя и поддержки оптималного уровня умственной трудоспособности. Наблюдение учёных, свидетелствуют, что регулярные пешие прогулки помогают эффективно укреплят организм. Они благотворно влияют па нервную систему, тренируют сердечно-сосудистую и дыхателную системы, способствует активизации обмена веществ.

[5] Тожибоев, М., Юнусова, Д., & Хурсантова, М. (2023). Основные формы и организация самостоятельных занятий. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 37-37.

Самостоятелное занятие ходбой обеспечивают возможност болше бывать на свежем воздухе, па природе. Вед жизн современного человека проходит в условиях удаления от всего натуралного.[6]

Регулярные занятия плаванием заметно укрепляют легкие. Например, у женщин, которые занимаются плаванием, жизненная емкост легких 4-5 л, у мужчин - 5- 6 л. что значительно выше средних показателей. Но особенно заметно у пловцов усиливается способност потреблят кислород, что очен важно для организма.

Также регулярные занятия плаванием положително отражаются на состоянии нервной системы, оказывают содействие уравновешиванию процессов возбуждения и торможение. Особенно полезно плавание для людей с ослабленной сердечно-сосудистой системой. С помощю индивидуално дозированных плавателных нагрузок нормализуется артериалное давление, уменшаются явления сосудистой дистонии, при этом не наблюдаются патологические реакции сердечно-сосудистой системы возможные при беге или др. упражнениях.

Самостоятелные занятия плаванием помогают исправит дефекты телосложения (искривления позвоночника, плоскостопие) без медицинского вмешателства. С помощю плавания удается успешно лечит некоторые пояснично-крестцовые заболевания (радикулиты, спондилёзы). Благотворное влияние плавания объясняется симметричностю плавателных, движений, а также возможностю хорошо расслабит мышцы в воде благодаря значителному уменшению гравитационных сил.[7]

С помощю гимнастических упражнений можно эффективно и целенаправленно улучшат деятелност нервной, сердечнососудистой систем, ряда внутренних органов, желудочно-кишечного тракта.

Регулярно самостоятелно занимаяс гимнастикой, человек также может развит силу мышц, гибкост, улучшит подвижност в суставах, осанку, научится расслаблят мышцы.

Люди, которые самостоятелно занимаются физическими упражнениями, могут исползоват несколко видов гимнастики. Прежде всего, это утренняя гигиеничная гимнастика, о которой шла реч выше, которая помогает быстро

---

[6] . Кряж В. Самоконтроль в процессе физического воспитания // Физическая культура в школе. 2008. №8. С. 11-15.

[7] Mirakhmedov, F. T., Yunusova, D. S., & Tozhiboev, M. M. (2020). Methods of development of speed abilities of swimmers. *ISJ Theoretical & Applied Science, 11*(91), 51-54.

«настроит» организм на будущий рабочий ден, в т.ч. и на тренировки; физкультурные паузы для восстановления умственной трудоспособности и комплексы гимнастических упражнений во второй половине дня. С их помощью можно успешно расширит физические качества человека, укрепит здорове.

Список используемых источников

1. Барчуков И.С., Нестеров А.А. Физическая культура и спорт. Методология, теория и практика. - М.: Академия, 2009. - 528 с.
2. Баршай В.М., Курыс В.Н., Павлов И.Б. Гимнастика. - М.: Феникс, 2011. - 336 с.
3. Буланов Ю.Б. Спортивная медицина. - М.: Тверская областная типография, 207. - 320 с.
4. Горбунов Г.Д., Гигунов Е.Г. Психология физической культуры и спорта. - М.: Академия, 2009. - 256 с.
5. Еганян Р.А. Калинина А.М. Школа здоровя. Избыточная масса тела и ожирение. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. - 112 с.
6. Евсеев И.Ю. Физическая культура. - М.: Феникс, 2012. - 448 с.

YOSH O‘SMIRLARNING JISMONIY SIFATLARINI ANIQLASH

Spataev Bahtiyar Polatbekovich- Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi
bahtiyarspataev333999@gmail.com

Abstrakt: Yosh o‘smirlarning jismoniy sifatlarini aniqlash ularning umumiy jismoniy rivojlanishini baholash, sportga bo‘lgan moyilligini aniqlash va kelajakdagi mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada jismoniy sifatlarni baholash usullari, yosh o‘smirlarning rivojlanish xususiyatlari, zamonaviy baholash texnologiyalari va ilmiy metodlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda samarali baholash tizimi va kelajakda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yondashuvlar bo‘yicha takliflar beriladi..

Kalit so‘zlar: *Jismoniy sifatlar, yosh o‘smirlar, sport tibbiyoti, harakat faolligi, test sinovlari, baholash usullari.*

Kirish: Jismoniy tarbiya va sport inson salomatligini mustahkamlash, harakat faolligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Ayniqsa, o‘smirlik davrida organizmning rivojlanishi juda tez kechadi va bu jarayonda jismoniy sifatlarning aniqligi va ularning to‘g‘ri baholanishi muhim rol

o‘ynaydi. Yosh o‘smirlarning jismoniy qobiliyatlarini aniqlash, ularning jismoniy faollik darajasi va rivojlanish sur’atlarini kuzatish kelajakda sport sohasiga qadam qo‘yish yoki sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga zamin yaratadi.

Jismoniy sifatlar quyidagi asosiy komponentlardan iborat: kuch, chidamlilik, tezkorlik, muvozanat, koordinatsiya va egiluvchanlik. Bu sifatlar yosh o‘smirlarning harakat faoliyatini belgilab beradi va ularni o‘lchash orqali har bir o‘quvchining jismoniy holati haqida aniq ma’lumot olish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda yosh avlod orasida jismoniy faollikning pasayishi, ortiqcha vazn muammosi va sog‘liq bilan bog‘liq turli muammolar sezilarli darajada ko‘paymoqda. Shu sababli, yosh o‘smirlarning jismoniy sifatlarini aniqlash va ularni muntazam baholash dolzarb masala hisoblanadi. Bu nafaqat sport bilan shug‘ullanuvchilar, balki barcha bolalarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish imkonini beradi.

Ilmiy ahamiyati: Yosh o‘smirlarning jismoniy sifatlarini baholash orqali ularning sportga bo‘lgan moyilligini aniqlash, individual rivojlanish trayektoriyalarini belgilash va sog‘lom turmush tarziga rioya qilish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Zamonaviy baholash usullari va texnologiyalarning qo‘llanilishi ilmiy tadqiqotlarning aniq va ishonchli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Yosh o‘smirlarning jismoniy sifatlari va ularni aniqlash usullari

Yosh o‘smirlarning jismoniy sifatlarini baholashda turli xil test sinovlari va diagnostik metodlardan foydalaniladi. Quyida asosiy jismoniy sifatlar va ularni aniqlash usullari ko‘rib chiqiladi:

1. Kuch

Mushaklar kuchini aniqlash uchun dinamometr yordamida qo‘l kuchi o‘lchanadi.

Dast tortish, og‘irlik ko‘tarish, tirsak bukish kabi mashqlar orqali umumiy mushak kuchi aniqlanadi.

2. Chidamlilik

Jismoniy chidamlilikni aniqlashda Kuper testi (12 daqiqalik yugurish) yoki harakatli mashqlar bajarish vaqti tahlil qilinadi.

Puls va nafas olish tezligi o‘zgarishlari kuzatiladi.

3. Tezkorlik

30 yoki 60 metrga yugurish sinovi orqali tezkorlik baholanadi.

Tezkor reaksiyani aniqlash uchun maxsus refleks o‘lchov testlari qo‘llaniladi.

4. Muvozanat

Tekislikda bir oyog‘ida turish yoki harakatni muvozanat bilan bajarish sinovlari orqali baholanadi.

"Flamingo testi" muvozanatni aniqlash uchun ishlatiladi.

5. Koordinatsiya

To‘p bilan turli harakatlarni bajarish, qiyin motorik harakatlar ketma-ketligini bajarish orqali baholanadi.

“T-kross” sinovi orqali umumiy koordinatsiya tekshiriladi.

6. Egiluvchanlik

Oldinga egilish testi, maxsus cho‘zilish mashqlari orqali o‘lchanadi.

Goniometr yordamida bo‘g‘imlarning harakat diapazoni tekshiriladi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida jismoniy sifatlarni baholash

Hozirgi kunda jismoniy sifatlarni baholash uchun turli zamonaviy usullar qo‘llanilmoqda:

Harakat sensorlari – bolalarning yugurish, sakrash va boshqa jismoniy faolliklarini kuzatish imkonini beradi.

Smart soatlar va fitnes-trekerlar – yurak urish tezligi, qadamlar soni, jismoniy faollik darajasi haqida aniq ma’lumot beradi.

Virtual reallik va interfaol testlar – o‘quvchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini onlayn formatda kuzatish imkoniyatini yaratadi.

O‘smirlarning jismoniy sifatlarini shakllantirish va yaxshilash yo‘llari

Har bir o‘smir uchun individual jismoniy mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish.

Darslarga ko‘proq interfaol o‘yin va sport elementlarini kiritish.

Jismoniy mashg‘ulotlarni jamoaviy va shaxsiy tarzda olib borish.

Zamonaviy sport texnologiyalaridan foydalanish orqali natijalarni aniq baholash.

Yosh o‘smirlarning jismoniy sifatlarini aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy metod va yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular jismoniy faollik darajasini oshirish, aniqlikni ta’minlash va individual yondashuvni qo‘llashga yordam beradi. Hozirgi kunda jismoniy tayyorgarlikni baholash uchun ilg‘or texnologiyalar va interfaol usullar keng qo‘llanilmoqda.

Sensor texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy moslamalar bolalarning jismoniy ko‘rsatkichlarini avtomatik ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, aqlli bilaguzuklar va fitnes-trekerlar yurak urish tezligi, harakat faolligi va energiya sarfini aniq kuzatib borish imkonini yaratadi. Ushbu qurilmalar sport mashg‘ulotlari davomida real vaqtda o‘quvchilarning natijalarini baholashga yordam beradi. Shuningdek, mobil ilovalar orqali o‘quvchilar individual jismoniy mashg‘ulotlar rejalarini tuzishi va ularning samaradorligini kuzatishi mumkin.

Virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida jismoniy tayyorgarlikni baholash va rivojlantirish bo‘yicha yangi metodlar ishlab chiqilgan. VR texnologiyalari orqali o‘quvchilar turli sport mashg‘ulotlarini sinab ko‘rishlari va o‘zlarining harakatlari natijasini aniq tahlil qilishlari mumkin. Bu nafaqat sport

mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli qiladi, balki individual yondashuvni ham kuchaytiradi.

Boshlang‘ich kuch mashqi (Start kuchi): Musobaqa boshida tez harakat qilishni rivojlantirish uchun bajariladigan maxsus tortish mashqlari.
Bloklash mashqi: Raqibning hujumini qaytarish va qarshilikni ushlab turish uchun bajariladigan statik kuch mashqlari.
3. Chidamlilik va yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash mashqlari
Bu mashqlar umumiy chidamlilikni oshiradi va uzoq davom etadigan bahslarda yordam beradi:
Yugurish mashqi: Haftasiga 2-3 marta 20-30 daqiqa davomida o‘rtacha tezlikda yugurish tavsiya etiladi.
Velosiped haydash: Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash va chidamlilikni oshirish uchun foydali.
Sakrash mashqi: Arqon bilan sakrash yoki joyida sakrash, bu mushaklar chidamliligini kuchaytiradi.
4. Qo‘l siqish va ushlash kuchini oshirish mashqlari
Armrestlingda qo‘lning ushlab turish kuchi juda muhim:
Rezina halqani siqish: Barmoqlar va kaft kuchini rivojlantirish uchun oddiy va samarali mashq.
Qo‘l siqish trengeri bilan mashq qilish: Kaft va barmoqlarning kuchini oshirish uchun maxsus vositalardan foydalaniladi.
5. Muvozanatli ovqatlanish va dam olish
Oqsilga boy ovqatlar iste’mol qilish: Mushaklar o‘sishi va tiklanishi uchun go‘sht, tuxum, sut mahsulotlari va dukkakli ekinlar tavsiya etiladi.

Uyqu va dam olish: Kuchni tiklash va jarohatlarning oldini olish uchun to‘liq dam olish muhimdir.

4. Mental tayyorgarlik va kuchning bog‘liqligi

Mental tayyorgarlik ham kuchni to‘liq namoyon qilish uchun muhimdir. Sportchi jang paytida ruhiy jihatdan zo‘r bosqichga kirib qolsa, uning kuchi kamayib ketishi mumkin. Shuning uchun sportchilar psixologik tarbiya va mental tayyorgarlikni ham o‘z dasturlariga kiritishlari lozim.

Xulosa. Armrestling sportida kuch asosiy omillardan biri hisoblanadi. Statik, dinamik va chidamlilik kabi kuch turlari sportchining muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Ammo faqat kuchga tayanish yetarli emas; texnika, taktika va mental tayyorgarlik ham bir xilda muhim. Kuchni rivojlantirish uchun og‘irlik ko‘tarish, stol ustidagi mashqlar va kardio mashqlar kabi turli usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

Sportchilar kuchni to‘liq namoyon qilish uchun ruhiy jihatdan ham tayyor bo‘lishlari kerak. Natijada, armrestlingda kuchning ahamiyati inkor etib bo‘lmaydigan darajada katta, lekin u boshqa omillar bilan birgalikda ishlatilganda sportchiga eng yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Abdullaev, A. (2018). Armrestlingning asosiy printsiplari . Toshkent: Sport va madaniyat nashriyoti.

2.Boboev, M. (2019). Jismoniy tarbiya va sportda kuchni rivojlantirish . Samarqand: Universitet nashriyoti.

3.Davronov, R. (2020). Zamonaviy armrestling texnikasi . Toshkent: O‘zbekiston sport akademiyasi.

3.Ergashev, S. (2017). Sportda chidamlilik va kuchning ahamiyati . Namangan: Ilm-fan.

4.Ismoilov, F. (2021). Armrestlingda taktik va strategik yondashuvlar . Andijon: Milliy sport.

5.Narimov, D. (2016). Kuch mashqlari va ularning samaradorligi . Toshkent: O‘qituvchi.

6.Mirzaev, Z. (2019). Sportchilarning mental tayyorgarligi . Qarshi: Jadid nashr.

BADIIY GIMNASTIKA BILAN SHUGULLANUVCHI QIZLARNING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Kishbarova Gulmira Ziyodulla qizi - Guliston davlat pedagogika insituti,
Tabiiy fanlar fakulteti XQS yo‘nalishi 35-22 guruhi talabasi
kishbarovagulmira06@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy gimnastika bilan shug‘ullanuvchi 5-7 yoshli qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish usulini o‘rganish va tahlil qilish hamda badiiy gimnastikachi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish, mashqlar texnikasi, tayyorgarlik davri, jismoniy mashqlar, oyoq kuchi.

Dolzarbligi. Hozirgi kunda zamonaviy sportning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning sezilarli yosharishi va sport yutuqlarining barqaror o‘sishidir. Shu sababli yangi usullar, vositalar, ta‘lim texnologiyalarini yaratish zarurati paydo bo‘ldi. Biroq natijalarning uzluksiz o‘sishi yosh gimnastikachilar bilan ishlashning yangi shakllari, vositalari, usullarini izlashni talab qiladi. Bu omillardan biri koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish va minimal vaqt ichida eng yuqori natijaga erishish mumkin bo‘lgan samaraliroq usullar, vositalar, usullarni aniqlashdir. So‘nggi yillarda badiiy gimnastika bilan shug‘ullanish yoshi keskin kamayganligi munosabati bilan 5-7 yoshli yosh gimnastikachilar ko‘pkurashning uch-to‘rt turi bo‘yicha musobaqa dasturini yakunlashlari kerak. Bir yoki ikki yil ichida qizlarga bir vaqtning o‘zida ikkita qo‘lda turli xil narsalar bilan mashqlarni o‘rgatish kerak bo‘ladi, ular bir-biridan ko‘p xususiyatlari, egalik qilish texnikasi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega va o‘quv jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Badiiy gimnastika buyumlarida bajariladigan mashqlar majmuasini ishlab chiqish asosida 5-7 yoshli badiiy gimnastikachi qizlarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot usullari va tashkil etilishi. Tadqiqotni olib borish uchun adabiyot ma‘lumotlarini nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, so‘rovnoma, pedagogik kuzatishlar, nazorat sinovlari hamda ma‘lumotlarni matematik - statistik qayta ishlash usullari qo‘llanildi. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha tadqiqotda to‘plangan tajribani o‘rganish maqsadida adabiyot ma‘lumotlarini nazariy tahlil qilish va umumlashtirish amalga oshirildi.

Badiiy gimnastika buyumlari yordamida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashqlardan foydalanish amaliyotini o‘rganish uchun keng qamrovli so‘rovnoma ishlab chiqilgan bo‘lib, unda: birinchidan,

koordinatsionqobiliyatining paydo bo‘lish yoshi va rivojlanish davri ko‘rsatilgan, ikkinchidan, mutaxassislar koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashqlar paytida buyumlardan foydalanadimi, uchinchidan, badiiy gimnastikaning qaysi buyumlaridan foydalaniladi.

So‘rovnomada ko‘p yillik ish tajribasiga ega badiiy gimnastika murabbiylari istirok etdi. Kuzatishlar 5-7 yoshli sportchilar mashqlar texnikasini takomillashtirish uchun eng mos elementlar kombinasiyasini aniqlash maqsadida o‘tkazildi. Tadqiqotni tashkil etish Tajribada 5-7 yoshli badiiy gimnastika bilan shug‘ullanadigan qizlar ishtirok etdi. Ikkita guruh tuzildi: Tajriba va nazorat guruhi - har bir guruhda 15 nafardan sportchilar ishtirok etishdi. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan majmualarda bir yoki bir vaqtning o‘zida 2 ta buyumda turli qo‘llarda ishlatildi. Birinchi majmuada tayyorgarlik davrida buyumsiz koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashqlarni o‘z ichiga oladi. Majmua mashg‘ulotning tayyorgarlik qismiga kiritildi. Ishning asosiy shakllari guruh mashg‘ulotlari bo‘lib, badiiy gimnastika dasturining bajarilishini sarhisob qilish musobaqa mashg‘ulotlari va nazorat me‘yorlarini topshirish orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari koordinatsiyani rivojlantirish mashqlari, boshqa sport turlarining elementlari (tez yugurish, uzunlikka sakrash, raqs mashqlari), badiiy gimnastikaga xos bo‘lgan jismoniy mashqlar ham qo‘llaniladi. Bular orqa va qorin mushaklari uchun mashqlar, oyoq kuchi, tezlik-kuch mashqlari, skameykada turli xil sakrashlardir.

30 m yugurish nazorat testida umumiy jismoniy tayyorgarligini o‘rganish maqsadida nazorat va tajriba guruh qizlarining tezligi aniqlandi. Qizlarning nazorat guruhi natijalari 6,7 ± 0,3 sek, tajriba guruhi 6,2 ± 0,2 sek, tajriba guruh qizlari pedagogik tajriba oxirida yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Shuningdek, qizlarning tajriba guruhida

arqon bilan sakrash‖ testida natija 10 soniyada 8,5 ± 0,5 marta, nazorat guruhida esa 4,5 ± 0,5 marta. Yosh gimnastikachilarning moslashuvchanligini aniqlash uchun

Ko‘prik nazorat sinovi tik turgan holatdan o‘tkazildi, qo‘llar va oyoqlar orasidagi masofa sm bilan o‘lchandi. Eksperimental guruh qizlari 15,7 ± 0,5 sm, nazorat guruhi 24,2 ± 0,2 sm natijani ko‘rsatdilar.

Badiiy gimnastikachi qizlarni pedagogik tajriba davomida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlanganlik darajalarini tekshirish natijalari Pedagogik tadqiqotlar yakunida biz yosh badiiy gimnastikachi qizlarning koordinatsion qobiyatlarini rivojlanganligini aniqlash maqsadida nazorat va tajriba guruhidagi qizlardan ikki oyoqda arqondan sakrash, arqonni otib ilib olish, halqani bir qo‘lda otib ilib olish bo‘yicha natijalarni oldik.

Tadqiqot natijasida olingan ma‘lumotlar asosida tajriba guruh gimnastikachilari asosan texnikaning asosiy elementini buzmaydigan kichik xatolarga yo‘l qo‘yishdi. Buyumlar bilan barcha nazorat mashqlarida tajriba guruh qizlari nazorat guruhidagi qizlarga qaraganda yuqori natijalarni ko‘rsatdilar. Pedagogik tajribamiz davomida ishlab chiqilgan metodika 5-7 yoshli qizlarning harakatlarini koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishni takomillashtirdi va buyumlar bilan mashqlarni samarali o‘rganishga yordam berdi.

Anketa so‘roviga ko‘ra, barcha mutaxassislar u yoki bu darajada koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun badiiy gimnastika buyumlaridan foydalanishni muhim deb bilishlari, lekin koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishda bir nechta buyumlardan foydalanishni samarali deb bilishlari aniqlandi. Pedagogik kuzatish jarayonida yosh gimnastikachilarning jismoniy holati tahlili darsda to‘g‘ri yuklamani tanlash maqsadida o‘tkazildi. Buyumlar bilan barcha nazorat mashqlarida tajriba guruhi qizlari nazorat guruhidagi qizlarga qaraganda yuqori natijalarni ko‘rsatdilar. Pedagogik tajriba jarayonida ishlab chiqilgan metodika 5-7 yoshli qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishni takomillashtirdi va yosh badiiy gimnastikachilarni buyumlar bilan mashqlarni samarali tayyorlashga yordam berdi. Malakaning o‘sishi bilan yosh badiiy gimnastikachilar tomonidan bajariladigan elementlar murakkab va xilma-xil bo‘lib boradi va ularni bajarish texnikasi buyumlarda ishlashga xalaqit bermasligi kerak. Badiiy gimnastika bo‘yicha musobaqa qoidalariga ko‘ra, mos keladigan qiyinchilik darajasi ma‘lum bir qiyinchilik darajasiga ega bo‘lishi kerak. Zamonaviy badiiy gimnastikaning xalqaro musobaqalar qoidalarining doimiy o‘zgarishi bilan bog‘liq xususiyatlarga yo‘naltirilganligi nuqtai nazaridan, mashqlarni bajarishning murakkabligi va sifatiga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda, koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy gimnastikachilarning mashg‘ulotlar jarayonida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy gimnastikachilarning yoshini hisobga olib mashg‘ulotlar jarayonida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida etibor berish lozim. Badiiy gimnastikachilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar jarayonida turli uslublarda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Badiiy gimnastikchilarning koordinatsion qobiliyatlarnini rivojlantirish uchun pedagogik tajriba mashg‘ulotlarida umumjismoniy va maxsus jismoniy mashqlarni qo‘shib olib borish yaxshi samara beradi. Shug‘ullanuvchilarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni har bir mashg‘ulot jarayonida bartaraf etib borish lozim. Badiiy gimnastikachilarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarga koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni

muntazam bajarish badiiy gimnastikachilarda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o‘rganib chiqib, biz quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin, koordinatsion qobiliyatlari - bu turli xil koordinatsion murakkabligidagi vosita muammolarini hal qilish jarayonida o‘zini namoyon qiladigan va vosita harakatlarini boshqarish va ularni tartibga solishning muvaffaqiyatini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Lyax V. I. Maktab o‘quvchilarining koordinatsion qobiliyati. M.: Polimya, 1999 yil.159 p.

2. Lyax V. I. Koordinatsion qobiliyati va vosita ko‘nikmalari o‘rtasidagi munosabatlar: Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. 1991. № 3, s. 31-33.

3. Xasanova N.R. Xayitmetov I.S. Fetxulova N.X.Badiiy Gimnastika. Sport pedagogik mahoratini oshirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma –T.: Fan va texnologiya T:-2018. 67-81 betlar

4. Xaytmetov I.S Gimnastikaning sport turlarida xoreografik mashqlarini o‘tkazish uslubiyoti. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.: Fan va texnologiya, 2016-y 130 bet.

SPORTCHI QIZLARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jumabekova Omina Zokirjonovna - Guliston davlat pedagogika insituti, Tabiiy fanlar fakulteti Jismoniy madaniyat XQS ta’lim yo‘nalishi
nnodina173@gmail.com

Annotatsiya. Sportchi qizlarning musobaqa oldi tayyorgarligini rivojlantirish jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik va ruhiy tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Jismoniy tarbiya portlovchi kuch, tezlik, chaqqonlik va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ushbu maqolada sportchi qizlarning musobaqa oldi tayyorgarligini rivojlantirish haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sport, jismoniy tarbiya, ruhiy madaniyat, mashqlar, ayollar sporti.

Аннотация. Разработка предсоревновательной подготовки спортсменок требует многогранного подхода, включающего физическую подготовку, техническую подготовку, тактическую подготовку и психологическую подготовку. Физкультура должна быт направлена на развитие взрывной силы, скорости, ловкости и выносливости. В этой стате представлена информация о развитии предсоревновательной подготовки девушек- борбе стиля.
Ключевые слова: Спорт, физкультура, духовная культура, упражнения, женский спорт.
Annotation: Developing the pre-competition preparation of female athletes requires a multi-faceted approach that includes physical preparation, technical preparation, tactical preparation, and mental preparation. Physical education should be aimed at developing explosive strength, speed, agility, and endurance. This article provides information on developing pre-competition preparation for female wrestlers.
Keywords: Sports, physical education, spiritual culture, exercises, women's sports.

Dolzarbligi: Bu insonni jismoniy va ruhiy chegaralaridan tashqariga chiqishga undaydigan intizomdir. Sportchilar tez, kuchli va moslashuvchan bo‘lishi kerak. Sportchi qizlarning musobaqalariga jismonan va ruhan tayyor bo‘lishini ta‘minlash zarur. Ushbu maqolada biz sportchi qizlarning eng yaxshi natija ko‘rsatishiga yordam beradigan musobaqa oldi tayyorgarlikning asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Musobaqadan oldingi davr sportchilar uchun hal qiluvchi davr bo‘lib, to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rishda muvaffaqiyat qozonishda katta yordam beradi. Musobaqadan oldingi davr sportchining jismoniy va ruhiy holatini har tomonlama baholashdan boshlanadi. Ushbu davrda sportchi turli xil mashg‘ulotlardan o‘tadi, jumladan, kuch-quvvat, yurak-qon tomir mashqlari va aqliy tayyorgarlik. Maxsus mashg‘ulot tartiblari sportchining kuchli va zaif tomonlariga bog‘liq bo‘ladi.

Kuchni mustahkamlash sportchining mushaklarini rivojlantirish, suyak zichligini oshirish va jarohatlar xavfini kamaytirish uchun zarurdir. Kuchli mashqlar og‘irlikni ko‘tarish, o‘liklarni ko‘tarish va cho‘zish kabi mashqlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mashqlar asosiy kuchni, oyoq kuchini va umumiy yuqori tananing kuchini oshirishga yordam beradi. Sportchi qizlar o‘zlarining ushlash kuchini yaxshilaydigan mashqlarga e'tibor qaratishlari kerak, bu esa o‘yinlarda raqiblarini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Yurak-qon tomir mashqlari sportchi qizlarning chidamliligi va chidamliligini rivojlantirish uchun yurak-qon tomir mashqlari juda muhimdir. Yurak-qon tomir mashqlari yugurish, o‘tish va yuqori intensiv intervalli mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, musobaqadan oldingi tayyorgarlik paytida yurak-qon tomir mashqlari yanada qizg‘in bo‘ladi va sportchi mavsumdan tashqari vaqtga qaraganda o‘zini ko‘proq

surishi kerak bo‘ladi. Ruhiy trening sportchilarning jismoniy bo‘lgani kabi ruhiy xususiyatga ega bo‘lib, sportchi qizlarning ruhiy holatini tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Aqliy tarbiya vizualizatsiya, dam olish va maqsadni belgilashni o‘z ichiga oladi. Vizualizatsiya sport turlarining muvaffaqiyatli harakatlari va g‘alaba qozonish uchun samarali strategiyalarni tasavvur qilishni o‘z ichiga oladi. Ehtiyotkorlik, nafas olish mashqlari va yoga kabi dam olish usullari stress darajasini pasaytirishga yordam beradi, bu esa o‘yinlar paytida aqliy diqqatni yaxshilaydi. Nihoyat, maqsad qo‘yish sportchiga erishmoqchi bo‘lgan maqsadlarni belgilashga yordam beradi, bu esa ularni rag‘batlantirishga va ishonchini oshirishga yordam beradi. Oziqlanish va hidratsiya to‘g‘ri ovqatlanish va hidratsiya sportchilar uchun juda muhim va sportchi qizlar bundan mustasno emas. Sportchi qizlarga uglevodlar, oqsillar va yog‘larni o‘z ichiga olgan muvozanatli ovqatlanish kerak. Uglevodlar mashg‘ulotlar va musobaqalar uchun zarur energiyani ta'minlaydi, oqsillar esa mushaklarning tiklanishi va o‘sishiga yordam beradi. Boshqa tomondan, yog‘lar organizmdagi gormonlar darajasini tartibga solishga yordam beradi va ular umumiy salomatlik uchun muhimdir. Bundan tashqari, sportchi qizlar musobaqadan oldin, musobaqa davomida va undan keyin namlikni saqlab turishlari va mushaklarining optimal ishlashini ta'minlashlari kerak.

Texnik tayyorgarlik sportchi qizlarning yuqori saviyada ishtirok etishi uchun texnik tayyorgarlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Texnik tayyorgarlik barcha sport turlaridagi harakatlari, strategiya mashg‘ulotlari va nazorat bellashuvlarni o‘z ichiga oladi. Sportchi qizlar o‘z harakatlarini, ayniqsa, o‘z vazn toifasida muhim bo‘lgan harakatlarini o‘zlashtirish ustida ishlashi kerak. Strategiya mashg‘ulotlarida murabbiylar sportchi qizlarning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda bellashuv rejalarini ko‘rib chiqishi va qayta ko‘rib chiqishi kerak.

Nazorat bellashuvlari sportchi qizlarga haqiqiy musobaqalarda nimani kutishlari mumkinligini tushunishga yordam beradi. Taktik tayyorgarlik juda muhim va raqobatni o‘rganish va turli raqiblar uchun maxsus strategiyalarni tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Murabbiylar raqibning kuchli va zaif tomonlarini baholab, raqibning zaif tomonlaridan foydalanadigan o‘yin rejasini ishlab chiqishlari kerak. Bundan tashqari, taktik tayyorgarlik sportchining oldingi o‘yinlardagi faoliyatini tahlil qilish, yaxshilanish yo‘nalishlarini aniqlash va ushbu zaif tomonlarni bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Va nihoyat, sportchi qizlarning muvaffaqiyatini muntazam kuzatib borish zarur. Taraqqiyotni monitoring qilish murabbiylarga yaxshilanishi kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi va ular mashg‘ulotlar tartibini mos ravishda o‘zgartirishlari mumkin. Bundan tashqari, murabbiylar muntazam ravishda

sportchilar bilan muloqot qilishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari va yordam berishlari kerak.

Sportchi qizlarning musobaqa oldi tayyorgarligini rivojlantirish jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik va ruhiy tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuvnitalab qiladi. Jismoniy tarbiya portlovchi kuch, tezlik, chaqqonlik va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Texnik tayyorgarlik kurashning asosiy usullarini o‘zlashtirishga va raqiblarni zulm qilish uchun ilg‘or usullarni ishlab chiqishga qaratilishi kerak. Taktik mashg‘ulotlarda asosiy e‘tibor raqiblarning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishga, ularning zaif tomonlaridan foydalanish uchun samarali o‘yin rejasini ishlab chiqishga qaratilishi kerak. Aqliy tayyorgarlik o‘ziga ishonchni oshirishga, aqliy qattiqlikni rivojlantirishga, musobaqalar paytida stress va tashvishlarni boshqarishga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, to‘g‘ri ovqatlanish, hidratsiya va tiklanish strategiyalari ham optimal ishlash uchun juda muhimdir. Sportchi qizlarning kuchi, kuchi, tezligi va chidamliligi ularning gilam ustida ishlashining muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, bularning barchasi musobaqadan oldingi tayyorgarlik bosqichida maqsadli bo‘lishi va rivojlanishi kerak. Musobaqadan oldingi bosqichda boshqa muhim psixologik va texnik jihatlar ham mavjud. Sport turlari bo‘yicha musobaqa oldi tayyorgarlik odatda qisqa muddat bo‘lib, bir haftadan o‘n kungacha davom etadi va sportchini ruhiy, jismoniy va texnik jihatdan tayyorlashga qaratilgan. Musobaqa oldidan tayyorgarlikning ham ruhiy, ham jismoniy jihatlari bor – professional sportchining ruhiy holati uning musobaqadagi muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega.

Musobaqadan oldingi bosqichning jismoniy jihatidan boshlab, mashg‘ulotlarni qisqartirish va portlash va tezlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, sportchi sakrash yoki o‘pka kabi portlovchi harakatlarda yordam beradigan maxsus mushak guruhlariga qaratilgan mashqlarga duchor bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, ushbu bosqichda qadamlarni uzaytirish va tez yugurish kabi yugurish usullarini o‘rgatish kerak, bu esa yurak-qon tomir chidamliligini oshiradi. Shuningdek, sportchining ovqatlanishi va ovqatlanishi tana vazniga va ular ishtirok etadigan musobaqa toifasiga qarab o‘zgartirilishi kerak. Oziqlanish bo‘yicha ko‘rsatmalar aniq va sog‘lom mushaklarning shakllanishi uchun kreatin va oqsil kabi qo‘shimchalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Sportchiga musobaqa davomida jarohatlarsiz qolishga yordam berish uchun moslashuvchanlik mashqlari va yoga bilan shug‘ullanish ham muhimdir. Mashg‘ulot mashg‘ulotlarida texnik tayyorgarlik talab etiladi, bunda taktika va strategiyaning o‘ziga xosligi aniq o‘yinda qo‘llanilishi kerak. Murabbiylar bellashuvlar davomida sportchining qulaylik darajasiga mos keladigan usullarni ishlab chiqishlari kerak. Bundan tashqari, o‘yindan oldin vaznni kamaytirishning to‘g‘ri usullarini qo‘llash kerak. Musobaqa oldidan tayyorgarlikning ruhiy jihati sportchilarda diqqatni jamlash va

ishonchni mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu bosqichda sportchilarni tashqi omillarga ta'sir qilishdan voz kechish va ularning strategiyasi va mashg‘ulotlariga ishonishni rag‘batlantirish kerak. Murabbiylar va yordamchi xodimlar mashg‘ulotlar paytida sportchilarga har qanday kutilmagan raqib va vaziyatlarga moslashishga yordam beradigan taktikani improvizatsiya qilishga ruxsat berishlari kerak. Xulosa qilib aytganda, sportchi qizlarni musobaqa oldidan tayyorlash mashg‘ulotlarga yaxlit yondashuvni o‘z ichiga oladi. Murabbiylar asosiy e’tiborni sportchining jismoniy va ruhiy kuchini rivojlantirishga, to‘g‘ri ovqatlanishi va namlanishini ta‘minlashga, texnik va taktik tayyorgarligiga, muvaffaqiyatini muntazam nazorat qilishga qaratishlari kerak.

Xulosa: Bu yerda tilga olingan yondashuvlar sportchi qizlarning o‘z vazn toifalarida yuqori natijalarga erishishlari uchun mustahkam zamin yaratadi. Sportchilar o‘zlarini jismonan va ruhiy jihatdan tayyor ekanliklarini his qilsalar, ular eng yaxshi natijani ko‘rsatishi mumkin, bu esa kelajakdagi o‘yinlarda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini oshiradi. Sportchi qizlarning musobaqa oldidan tayyorgarligi ularning musobaqadagi muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil bo‘lmoqda. Bu mashg‘ulotning jismoniy, texnik va psixologik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Murabbiylar, ota-onalar va yordamchi xodimlar sportchining kuchli va zaif tomonlariga qaratilgan musobaqa oldidan optimal jadvalga rioya qilishlari kerak. Bundan tashqari, asosiy e'tibor ovqatlanish, moslashuvchanlikni mashq qilish va muvaffaqiyatga ishonchini oshirishga qaratilishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Jumanazarovich, T. A. (2022). YOSH SPORTCHILARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGI DINAMIKASI.
2. Eshnazarov, J. (2008). Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish.
3. Normurodov, A. (2011). Jismoniy tarbiya. O‘quv qo‘llanma. Tafakkur Bo‘stoni. (2022)
4. Mavlon O‘g‘li, Q. X., Risbekovich, A. T., & Baxriddinovich, A. A. November). ERKIN SPORTCHI QIZLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 1, No. 2, pp. 223-229).
5. Primbetov, A. (2023). THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S WRESTLING. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(1), 196-201.

KURASH TURLARIDA SHUG‘ULLANUVCHI SPORTCHILARNI KUCH TURLARI VA CHIDAMKORLIGINI O‘ZIGA XOS O‘RNI VA AHAMIYATI

Rajabboyev To‘lqinbek Ulug‘bek o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika insituti, Tabiiy fanlar fakulteti Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 33-22 guruhi talabasi
to‘lqinbekrajabboyev @gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kurashchilarga xos kuch sifatlari turlarining semantik mohiyati va mazmuni ochib berilgan. Ushbu kuch sifatlarini maqsadli rivojlantirish uchun tabaqalashtirilgan va ixtisoslashtirilgan mashqlarning tasniflash sxemalaridan foydalanilgan va kuch chidamkorligini ustuvorligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kurash, statik kuch, dinamik kuch, mutlaq kuch nisbiy kuch, reaktiv kuch, portlovchi kuch, inersion kuch, turnik, brus’ya va maneken.

Аннотация. В стате раскрывается смысловая сущност и содержание типов силовых качеств, характерных для борбы. Для селенаправленного развития этих силовых качеств дифференцируют и исползованы классификатсионные схемы спесиализированных упражнений и обоснован приоритет силовой выносливости.

Ключевые слова: борба, статическая сила, динамическая сила, абсолютная сила, относителная сила, реактивная сила, взрывная сила, инерсионная сила, турникет, дрел и манекен.

Annotation. The article reveals the semantic essence and content of the types of power qualities characteristic of wrestlers. For the purposeful development of these qualities of strength, it is differentiated and classification schemes of specialized exercises are used and the priority of strength endurance is based.

Key words: wrestling, static strength, dynamic strength, absolute strength, relative strength, reactive strength, explosive strength, inertial strength, turnstile, drill and mannequin.

Dolzarbligi. Uzoq o‘tmishidan boshlab noyob bo‘lib kelinayotgan va so‘nggi yillarda yakkakurash sport turi sifatida borgan sari ommalashib borayotgan kurash turlarini o‘ziga xos texnik – taktik harakatlari bilan o‘zga sport turlaridan tubdan farq qiladi. Jumladan, kurash turlarida raqiblar barcha harakat va usullarni qo‘llari bilan bir – birining ushlagan holda ijro etadilar. Bu kurash turida raqibni oyoq bilan chalib yiqitish‖ нщki tepib yiqitish‖ usullarini qo‘llash taqiqlanadi. Bunday kurash turlari deyarli barcha halq – elatlar hayoti, turmush tarzi va madaniyatida ham keng ommalashgan bo‘lib, ular turli nomlar bilan yuritilsada (ruslarda – borba, qozoqlarda – kures, tatarlarda – kuresh, yevropa va boshqa mamlakatda – wrestling), lekin ular ham barcha kurash turlari bir-biridan farqlari bilan ajralib

turadi. Bugungi kunda kurash turlari bo‘yicha milliy, Jahon va Osiyo chempionatlari, turli nufuzli halqaro musobaqalar muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu sport turiga xos jismoniy sifatlar va jismoniy tayyorgarlik, texnik – taktik mahoratni shakllantirish nazariyasi va metodikasi ma’lum darajada ilmiy asoslangan. Ko‘p yillik sport trenirovkasi sikllarida kurash sirlariga o‘rgatish, turli yosh va sport malakasiga mansub kurashchilarda tayyorgarlik turlarini shaklantirish uchun ajratilgan mashg‘ulotlar hajmi va shiddatini belgilovchi soatlar miqdori, me’yoriy talablar va baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Bu borada darslik, o‘quv qo‘llanmalar, dasturlar, ilmiy – metodik manbalar yaratilgan, dissertatsion tadqiqotlar o‘tkazilgan va amaliyotga joriy etilgan. [V.T.Davletshin, 2005, 40 s.; R.F.Gaynanov, 2008, 112 s.; S.V.Ulyankin, 2010, 36 s.; Sh.S.Mirzanov, 2021, 132 b.; N.N.Chelshev, 2013, s. 13-26.; M.A.Pravdov, 2013, s. 37-49; Z.S.Artiqov, 2018, 60-62 s.]. Tadqiqotning maqsadi. Kurash turlarida shug‘ullanuvchi sportchilarda kuch turlari va kuch chidamkorligini o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati ularni texnik usullar samaradorligiga ta’sir etishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning ob’ekti, metodlari va uni tashkil qilish. Tadqiqot ob’ekti sifatida Guliston davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat yo‘nalishlarida taxsil olayotga talabalarni jismoniy sifatlarni yo‘nalishlarida ta’lim oluvchi talabalar olingan. Kurash amaliyotida zarur bo‘lgan kuch sifati va uning barcha turlari o‘ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Kurash bo‘yicha chop etilgan ilmiy-uslubiy va o‘quv adabiyotlarida shu sport turida muhim rol o‘ynaydigan kuch turlarining tasnifiy mohiyati hamda ularni rivojlantiruvchi maxsus vaziyatli va modellashtirilgan mashqlarga nihoyatda kam e’tibor qaratilgan. Kurash bo‘yicha yuqori malakali sportchilar, mamlakat va jahon birinchiligi musobaqalari chempionlarini tayyorlash, shu jumladan mashg‘ulotlarda jismoniy, texnik hamda taktik mashqlarni qo‘llash tajribasiga asoslangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, ushbu sport turida, kurashchilarning vazn toifasidan qat’iy nazar, kuch sifatlari, ayniqsa, portlovchi (tezkor) hamda inersion kuch ustuvor ahamiyat kasb etadi, ammo bunday fikr kuch sifatining boshqa turlari (mutlaq, nisbiy, statik va reaktiv kuch turlari) xal qiluvchi ahamiyatga ega emas, degan ma’noni anglatmaydi. Aksincha, bunday kuch turlari ham deyarli barcha olishuv usullarini ijro etishda kurash kinematikasi, texnikasi va taktikasini boyitadi, binobarin kurashchining har tomonlama (universal) mahorat doirasini kengaytiradi. Shunday ekan, kurash bo‘yicha yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda barcha turdagi kuch sifatlarini rivojlantiruvchi ixtisoslashtirilgan vaziyatli va modellashtirilgan mashqlarni qo‘llash foydali natijaga olib keladi, deb fikr yuritish mumkin. Kurashchilarda o‘ng qo‘l bilak – panja kuchi tajribadan avval 55,63±4,77 kg.ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkich 58,08±4,74 kg. bilan ifodalandi ($R<0,05$) yoki uning absalyut o‘sish sur’ati 2,45 kg.ga teng bo‘lganligi aniqlandi (4,40%).

Tajriba davomida eksperimental yondashuv asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda shug‘ullanib kelgan TGda esa bu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda: 54,73±5,38 – tajriba boshida; 60,56±5,47 – tajriba yakunida – 5,83 kg; (R<0,001) 10,65%. Chap qo‘l bilak – panja kuchi ikki guruhda ham o‘ng qo‘l bilak – panja kuchiga nisbatan sustroq darajada namoyish etilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasida ma’lum asimmetrik farq mavjudligini ko‘rsatdi. Masalan, tajriba boshida chap qo‘l bilak – panja kuchi NG da 53,34±4,06 kg.ni, tajriba yakunida 55,43±3,93 kg.ni tashkil etgan (R<0,05) yoki uni o‘sish darajasi 2,09 kg. bilan ifodalangan (3,92%). TGda tajribadan avval chap qo‘l bilak – panja kuchi 53,98±4,84 kg.ga, tajribadan keyin bu ko‘rsatkich 59,14±4,78 kg.gacha ortgan (R<0,001) yoki uning o‘sish sur’ati 5,16 kg bilan ifodalangan (9,56%). Ushbu ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlilidan ko‘rinib turibdiki, tajriba boshlanishidan avval NGda chap qo‘l bilak – panja kuchi o‘ng qo‘l bilak – panja kuchiga nisbatan 2,29 kg.ga kam bo‘lgan. TG da chap va o‘ng qo‘l bilak – panja kuchi o‘rtasidagi farq 0,75 kg.ga – o‘ng qo‘l bilak – panja kuchi‖ foydasiga namoyish etilgan. Biroq, tajriba yakuniga kelib NGda o‘ng va chap qo‘l bilak – panja kuchi o‘rtasida dastlab yuz bergan asimmetrik farq (2.29kg) 2,65 kg.ga ortgan. TGda esa ushbu asimetrik farq 1,42 kg.ni tashkil etgan. O‘ng va chap qo‘l bilak – panja kuchi NGda tajriba yakuniga kelib muvofiq ravishda 4,40% va 3,92% ga o‘sgan holos. TGda esa bu ko‘rsatkichlar 10,65% va 9,56% ga teng bo‘lganligi kuzatilgan. Ma’lumki, barcha kurash turlari ham qo‘l – gavda – qorin mushaklari kuchi ahamiyatga egadir. Biroq tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, ushbu mushaklar kuchi tajribadan avval ikki guruhda ham talab darajasida qayd etilmagan va muvofiq ravishda: NGda – 198,24±11,24 kg.; TG da 197,34±13,74 kg.ni tashkil etgan. Ammo tajriba yakuniga kelib tajriba davomida an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanishni davom ettirgan NG da mazkur mushaklar kuchi 202,05±10,54 kg.gacha ortgan (R<0,05) yoki 2,38% ga o‘sgan.

Eksperimental mashqlarni bajarib borgan TG da esa bu ko‘rsatkich 208,72±13,06 kg.gacha ortgan (R<0,05) yoki uning absalyut uzayish farqi 1,56 s.ni tashkil etgan – 4,95%. TGda esa bu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda: 30,88±3,38 – 34,66±3,52 s.; (R<0,001) 3,78 s.; 12,24% bilan ifodalangan.

Turnikda osilib, oyoqlarni 90o ko‘targan holatida max vaqt saqlash muddati NGda 29,53±2,57 s. dan 30,85±2,93 s.gacha uzaygan (R<0,05) yoki uzayish farqi absalyut ko‘rsatkich bo‘yicha 1,32 s.ni tashkil etgan (4,47%). TGda bu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda 28,74±3,14 s.dan 32,23±3,26 s.gacha uzaygan (R<0,001) yoki absalyut uzayish vaqti 3,09 s. bilan ifodalangan (12,14%).

Brus’yada tayanib, qo‘llarni 50% bukilgan holatida vaqti NGda 32,68±2,85 s.dan 34,13±2,82 s. gacha uzaygan (R<0,05) yoki uzayish vaqti absalyut darajada 1,45 s.ni tashkil etgan – 4,44%. TG da muvofiq ravishda 33,39±3,33 s.dan

37,06±3,43 s.gacha uzaygan (R<0,001) yoki uning absalyut uzayish vaqti 3,67 s. bilan ifodalangan – 10,99%.

Brus'yada tayanib, oyoqlarni 90º bukilgan holatida max saqlash vaqti NGda 26,92±2,04 s.dan 27,79±1,98 s.gacha uzaygan (R<0,05) Ushbu tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga asosan e'tirof etish mumkinki, tana segmentlarining turli holatlarida mushaklarning izometrik rejimda statik kuchlanish chidamkorligi tajriba boshida ikki guruhda ham malakali kurashchilar uchun belgilangan talablar darajasida qayd etilmagan. Masalan, turnikda osilib, oyoqlarni 90º bukilgan holatida saqlash malakali kurashchilarda 59,67±1,44 – 60,83±1,03 s. gacha davom etishi lozim ekan [V.A.Abramenko, 2013, s. 13-19]. Shuni ham e'tirof etish lozimki, kurash bo'yicha yuqori malakali sportchilar bilan o'quv mashg'ulotlarni olib boruvchi har bir murabbiy barcha turdagi kuch sifatlarining neyrofiziologik mohiyatini batafsil o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Ana shundagina murabbiy o'z shogirdini raqibning taktik rejasiga qarab muayyan olishuv vaziyatida qanday kuch sifatini yoki uning bir necha turlarini birlashtirgan holda qo'llash imkoniyatini samarali shakllantira olishi mumkin. Murabbiyning kasbiy-pedagogik faoliyatida muhim rol o'ynovchi bunday bilimlarga ega bo'lishi qayd etilgan kuch turlarini rivojlantiruvchi mashqlarni to'g'ri tanlash va ularni kurashchining yoshi hamda jismoniy imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirilgan holda qo'llash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Biz o'z tajribamiz va ilmiy izlanishlarimizga asoslangan holda kuch turlarini rivojlantirishda foydalaniladigan mashqlarning tasnifiy andozalarini ishlab chiqdik va ular kurash murabbiylarining kasbiy pedagogik faoliyatiga joriy etilishi mumkin.

Xulosa. Kuch turlari va kuch chidamkorligini rivojlantirish lozimligi shu bilan asoslanadiki, kurash turlarida raqibni ko'tarish yoki kuch ishlatib ko'tara olmaslik (mushaklar qisqarsada, ish bajarilmaydi) yoki raqibni ko'tarib, bir holatda saqlab turish musobaqa olishuvlarida tez-tez uchrab turadi. Yuqorida qayd etilgan muhokama natijalaridan shunday fikrni ilgari surish mumkinki, kuch turlari va kuch chidamkorligini ayniqsa, kurashga xos kuch sifatlarini rivojlantirishda turli yo'nalishli kuch mashqlarini ixtisoslashtirilgan va tabaqalashtirilgan tartibda muntazam qo'llab borish nafaqat jismoniy, balki, texnik-taktik imkoniyatlarni ham maqsadli shakllantirishga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1) Davletshin V.T. Uprajneniya s kushakom kak sredstvo sportivnoy podgovki borsa: metod posobis. Kazan: KGGU, 2005, - 40 s.

2) Mirzanov Sh.S. Belbog'li kurashchilarda kuch qobiliyatini izokinetik mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi va uni baholash metodikasi. Monografiya. - T., 2021, – 164 s.

3) Ariqov Z.S.Yuqori malakali belbog‘li kurashchilarda statik va dinamik harakatlar ta’sirida muvozanat saqlash imkoniyati // Fan sportga №3.2018, - 60-62 s.

4) Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent, 2017. 195 b.

5) Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -Toshkent: O‘zDJTI, 2005.-100-b

6) Bakiyev Z.A. Erkin kurash nazariyasi va uslubiyoti. –Toshkent: Lider Press, 2011.- 144 b.

7) Taymuratov O.R., Atajanov S.F., Karimov U.R. Sport pedagogic maxoratini oshirish (Kurash bo‘yicha). - T., 2018. 95-104-b.

SPORTCHI TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA KOORDINATSION QOBILIYATLARI AHAMIYATINI O‘RGANISH

Irohimov Kamoliddin Raxim o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika insituti, Tabiiy fanlar fakulteti, Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 31-22 guruhi talabasi
ibrohimovkamoliddin60@gmail.com

Annotatsiya: Aholining yetarlicha darajada ijtimoiy himoyalanmagan qatlami bo‘lib hisoblangan talaba yoshlarning salomatligi holati jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa kurash singari murakkab sport turida, amalga oshiriladigan o‘quv jarayonining alohida xususiyatlari va yosh organizmning o‘sib-rivojlanib borishi murakkabligi munosabati bilan ham dolzarb masala hisoblanishini to‘liq ishonch bilan ta’kidlash mumkin.

Kalit so‘zlar: talaba-yoshlar, jismoniy sifat, salomatlik, jismoniy rivojlanish, koordinatsion qobiliyat.

Tadqiqotning dolzarbligi. Ma’lumki, jamiyatning eng asosiy, muhim va katta boyligi - bu aholining salomatligi darajasi va aholi barcha qatlamlarining sog‘lom turmush tarzi (STT) bo‘yicha nazariy bilimlarni egallaganligi va uning qoidalariga qanchalik rioya qilishi darajasiga bog‘liqdir. Buni inobatga olgan holda, aholining yetarlicha darajada ijtimoiy himoyalanmagan qatlami bo‘lib hisoblangan talaba yoshlarning salomatligi holati jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa kurash singari murakkab sport turida, amalga oshiriladigan o‘quv jarayonining alohida xususiyatlari va yosh organizmning o‘sib-rivojlanib borishi murakkabligi munosabati bilan ham dolzarb masala hisoblanishini to‘liq ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Soha olimlari va tadqiqotchilari tomonidan aholining turli qatlami vakillarini STT qadriyatlariga munosabatlarining turli aspektlari turli darajada o‘rganilgan. Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy shart sharoitlarida aholi salomatligi holatining pasayishi kuzatilmoqda. Turli ilmiy tadqiqotlar

ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlarning, asosiy ko‘pchiligi inson salomatligi va salomatlik bilan bog‘liq deyarli barcha ko‘rsatkichlarning juda muhimligini bilishlariga qaramay, faqatgina taxminan 10 % i jismoniy holat va salomatlikning normal darajasiga ega [4].

Maqsadi: Tabiiy fanlar fakulteti sportchi talabalarining STT qadriyatlariga munosabatlarini o‘rganish

Tadqiqot vazifalari sifatida kurashchi va dzyudochi-talabalarining STT qadriyatlariga munosabatlarini hamda shu masala yuzasidan soha mutaxassislarning fikrlarini o‘rganish olindi.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy va davriy adabiyotlar materiallarini o‘rganish va tahlil qilish, anketa savollari (jami 24 ta) ishlab chiqish va anketa o‘tkazish.

Natijalar: qo‘yilgan vazifa, ilmiy-uslubiy va davriy adabiyot manbalaridagi materiallar asosida ishlab chiqilgan anketa asosida tashkil etildi, unga kiritilgan savollar va ularga respondentlar (sohaning yetuk mutaxassislari - olimlar, tajribali murabbiylar va yuqori mahoratli kurashchilar jami 27 kishi)ning javoblari tahliliga ko‘ra, kurashchi tezkor kuch va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda, birinchi o‘rinda, tayyorgarlikning barcha vosita va usullarning o‘zaro nisbatini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqib, undan keyin qo‘llash (rangi 178 ga teng), ikkinchi o‘rinda - zamonaviy kompyuter, informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish (181), keyingi o‘rinlarda - maxsus tayyorgarlik (182), tezkorlik chidamlilik tayyorgarligi (185), umumiy chidamlilik tayyorgarligi (189), texnik tayyorgarlik (193), fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish tezkorligi (194), taktik tayyorgarlik (197) singari ko‘rsatkichlar eng samarali ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblaydilar. Kurashchining o‘rganilayotgan parametrlarga eng kam ta’sir ko‘rsatuvchilar sifatida ob-havo sharoitlari (512), trenirovka o‘tkazish joyining qulayligi (508), aniq sport turiga bog‘liqligi (503), tomoshabinlar etikasi (498) va aniq sport turiga bog‘liqligi (492) kabilarni ta’kidlaganlar. Shuningdek, egiluvchanlik, chaqqonlik, nazariy va psixologik tayyorgarlik , murabbiyning shaxsiy namunasi, yuqori motivatsiya, jismoniy sifat shaklining ta’siri yuksak darajada rivojlangan masofa sezgirligining ta’siri o‘rtacha sifatida baholangan.

Xulosa. Sportchi-talabalarning tezkor-kuch va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishiga ta’sir ko‘rsatishida turli sifatlarning ahamiyatli darajasi kamayib borishi tartibida (eng yuqorisiga 1-o‘rin, keyingisiga ikkinchi o‘rin va hokazo o‘ringa) joylashtirishda sohaning yetakchi mutaxassislari orasida eng muhimlari sifatida tayyorgarlikning barcha vosita va usullarning o‘zaro nisbatini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqib, undan keyin qo‘llash va zamonaviy kompyuter, informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni ta’kidlaganlari alohida e’tiborga loyiq va buni tayyorgarlik amaliyotida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1) Давлетшин В.Т. Упражнения с кушаком как средство спортивной подговки борса: метод пособис. Казан: КГГУ, 2005, - 40 с.

2) Mirzanov Sh.S. Belbog‘li kurashchilarda kuch qobiliyatini izokinetik mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi va uni baholash metodikasi. Monografiya. - T., 2021, – 164 s.

3) Ariqov Z.S.Yuqori malakali belbog‘li kurashchilarda statik va dinamik harakatlar ta’sirida muvozanat saqlash imkoniyati // Fan sportga №3.2018, -60-62 s.

4) Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent, 2017. 195 b.

5) Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. – Toshkent: O‘zDJTI, 2005.-100-b

O‘QUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA JISMONIY TARBIYA FAOLIYATINI YAXSHILASH

Turobov Abdulaziz Shovqi o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘quv jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali jismoniy tarbiya faoliyatini yaxshilash masalalariga bag‘ishlangan. Jismoniy tarbiya o‘qitish jarayonida raqamli vositalar, jumladan, mobil ilovalar, onlayn platformalar, sensorli qurilmalar va virtual realitet texnologiyalari o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ularning individual ehtiyojlariga moslashish va o‘quv samaradorligini yaxshilashda qanday yordam berishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalar yordamida jismoniy mashqlarni monitoring qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni vizual tarzda taqdim etishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Bu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarni motivatsiyalash, shuningdek, ularning o‘zlashtirish darajasini yuqorilash uchun qanday imkoniyatlar yaratish mumkinligi xususida fikrlar bildiriladi. Maqola, raqamli texnologiyalar va jismoniy tarbiya o‘rtasidagi integratsiyaning ahamiyatini yoritib, ularni o‘qitish jarayonida qo‘llashning kelajakdagi istiqbollarini ham ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, jismoniy tarbiya, innovatsion yondashuvlar, mobil ilovalar, virtual realitet, sensorli qurilmalar, sport ta'limi, texnologiyalarni integratsiya qilish, pedagogik yondashuvlar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ularning ta'siri nafaqat kundalik ishlarimizni osonlashtirish, balki ta'lim jarayonlarini ham yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etish, ularning jismoniy faolligini oshirish, shuningdek, o‘quv jarayonining sifatini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Jismoniy tarbiya darslarida an'anaviy usullar bilan birga raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mashg‘ulotlar samaradorligini ta'minlaydi va o‘quvchilarni o‘ziga xos tarzda monitoring qilish imkoniyatini beradi. Mobil ilovalar, sensorli qurilmalar, onlayn platformalar va virtual realitet texnologiyalari kabi innovatsion vositalar jismoniy tarbiya darslarining mazmunini yanada boyitishga va ularni qiziqarli, interaktiv qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada, raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya faoliyatiga ta'siri, ularning o‘quv jarayonida qanday qo‘llanilishi va ularni samarali tarzda amalga oshirishning imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi. Maqola, raqamli

vositalar yordamida o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida jismoniy faollikni qanday oshirish, ularning yutuqlarini qanday aniqlash va kuzatish mumkinligini tahlil qiladi. Bunda texnologiyalarni o‘qituvchilarga o‘quvchilarni yaxshiroq tushunish, ularga individual yondashuvni amalga oshirish va umumiy dars sifatini yaxshilashda qanday yordam berishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada quydagi metodlardan foydalanildi:

1-jadval

Adabiyotlarni tahlil qilish
Tadqiqotning dastlabki bosqichida, raqamli texnologiyalar va jismoniy tarbiya sohasida mavjud bo‘lgan adabiyotlarni tahlil qilish zarur. Bu jarayonda turli ilmiy maqolalar, kitoblar, konferensiya materiallari va tadqiqotlar o‘rganiladi. Raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya darslarida qanday qo‘llanilayotgani va ularning samaradorligi haqida mavjud bo‘lgan nazariy ma'lumotlar va amaliy tajribalar tahlil qilinadi.
Eksperimental tadqiqot
Tadqiqot davomida eksperimental metodlardan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarning bir guruhiga an'anaviy jismoniy tarbiya darslari, ikkinchi guruhiga esa raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar taklif etiladi. Har bir guruhning jismoniy faolligi, o‘qish motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasi o‘lchanadi. Bu usul raqamli texnologiyalarning darslarga qanday ta'sir qilayotganini, ularning samaradorligini aniq o‘lchash imkonini beradi.
So‘rovnoma va intervyu
O‘quvchilar va o‘qituvchilar orasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazish orqali raqamli texnologiyalarni jismoniy tarbiya darslarida qanday qabul qilishlarini, ular uchun qanday qulayliklar va qiyinchiliklar yuzaga kelayotganini aniqlash mumkin. So‘rovnomalar va intervyular yordamida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar haqida fikrlarini, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini baholash mumkin.
Monitoring va tahlil
Tadqiqot davomida o‘quvchilarning jismoniy faolligini va yutuqlarini real vaqt rejimida monitoring qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Misol uchun, mobil ilovalar yordamida jismoniy mashqlarni bajarish jarayoni va natijalari doimiy ravishda kuzatib boriladi. Tahlil qilish uchun sensorli qurilmalar yoki fitness-trackerlar yordamida o‘quvchilarning yurak urishi, energiya sarfi va boshqa jismoniy ko‘rsatkichlar to‘planadi va tahlil qilinadi.
Fokus-guruhlar

Tadqiqotning bir qismi sifatida fokus-guruhlar tashkil etish mumkin. Bu guruhlar o‘quvchilardan iborat bo‘lib, ularga raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga oid savollar beriladi. Fokus-guruhlar jismoniy tarbiya darslarining yangi shakllari haqida fikr almashish, turli texnologiyalarni baholash va ularning samaradorligi haqida chuqur tahlil qilish imkonini beradi.
Ma'lumotlar analizi
Tadqiqot davomida to‘plangan ma'lumotlar statistik usullar bilan tahlil qilinadi. Masalan, o‘quvchilarning jismoniy faolligi va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik, raqamli texnologiyalarning samaradorligi va motivatsiyani oshirishdagi roli kabi ko‘rsatkichlar o‘lchanadi. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya darslaridagi o‘qitish samaradorligini qanday yaxshilashini ko‘rsatib beradi.
Foydalaniladigan texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish
Tadqiqotda raqamli texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilarga turli mobil ilovalar, sport dasturlari, virtual realitet va sensorli qurilmalar taqdim etilib, ularning ta'limdagi ahamiyati va o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi o‘rganiladi. Sinovlardan olingan natijalar texnologiyalarning samaradorligini baholashda yordam beradi.
Jamiyatning ta'siri
Tadqiqotda, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning jamiyatga ta'siri ham o‘rganiladi. Masalan, jismoniy tarbiya sohasidagi innovatsiyalar orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarni sportga jalb etish va ular orasida jismoniy faollikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish bosqichida, jismoniy tarbiya darslarida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi va ularning samaradorligi haqidagi mavjud adabiyotlar ko‘rib chiqiladi. Bu bosqichda 100% to‘liq o‘rganilgan ma'lumotlar to‘plamining quyidagi ko‘rsatkichlari tasdiqlanadi.

2-jadval

Tahlil qilingan adabiyotlar	**Foiz ko‘rsatkichi (%)**
Raqamli texnologiyalarning samaradorligi	**30%**
Raqamli texnologiyalar yordamida jismoniy tarbiya faoliyatini yaxshilash	**40%**
Raqamli texnologiyalarning o‘quvchilarga ta'siri	**30%**

Eksperimental tadqiqot metodidan foydalanilib, ikki guruh o‘rtasidagi farqni o‘lchash amalga oshiriladi:

- ✓ Birinchi guruh: An'anaviy jismoniy tarbiya darslari.
- ✓ Ikkinchi guruh: Raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan jismoniy tarbiya darslari.

3-jadval

Guruhlar	Jismoniy faollik o‘zgarishi (%)	O‘quvchilarning motivatsiyasi (%)	Jismoniy mashqlarni o‘zlashtirish (%)
An'anaviy guruh	**60%**	**55%**	**65%**
Raqamli texnologiyalar guruh	**85%**	**80%**	**90%**

So‘rovnoma va intervyular orqali o‘quvchilardan va o‘qituvchilardan olingan fikrlar tahlil qilinadi. O‘quvchilarning 100% dan 60% i raqamli texnologiyalarning samarali qo‘llanishini ta'kidlagan, qolgan 40% esa bunday texnologiyalarni qo‘llashda qiyinchiliklarni sezgan.

4-jadval

O‘quvchilarning fikri	Foiz (%)
Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash	**60%**
Qiyinchiliklar yuzaga keladi	**40%**

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar yordamida monitoring qilinadigan o‘quvchilarning jismoniy faolligi tahlil qilinadi. Har bir o‘quvchidan olingan ma'lumotlar (sensorli qurilmalar yordamida) quyidagi ko‘rsatkichlarda ifodalanadi:

5-jadval

Jismoniy faollik ko‘rsatkichlari	O‘quvchilar (%)
Yurak urishi (tezligi)	**75%**
